

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

***B.M. UMAROV***

# **PSIXOLOGIYA**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
tomonidan nopedagogik oliy ta‘lim yo‘nalishi magistratura bosqichi  
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

«Voris-nashriyot»  
Toshkent – 2012

УДК 159.9(075)  
КБК 88ya73 722  
U-47

Taqrizchilar:

Psixologiya fanlari doktori, professor *Z.Nishonova*

Pedagogika fanlari doktori, professor *O.Musurmonova*

Ushbu darslikda inson hayoti va faoliyatida psixologik bilimlarning o‘rni, pedagogik faoliyat psixologiyasi, pedagog shaxsi psixologiyasi, interfaol ta’lim metodlarining psixologik asoslari, oliy ta’lim psixologiyasi, pedagogik baholash psixologiyasi, pedagogik jamoalarni boshqarish psixologiyasi, mehnat psixologiyasi, ta’limning psixodiagnostik asosi, ijtimoiy jarayonlar: oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi kabi dolzarb mavzular o‘rin olgan.

Shuningdek darslikda shaxs fenomeni psixologiya fani qamrab olgan asosiy maummolar va mavzularning markaziy figurasi hamda „Shaxs-jamiyat“ tizimida o‘zaro munosabatlarning obykti va subyekti sifatida e’tirof etilgan. Shaxs taraqqiyoti va kamoli uchun muhim bo‘lgan ijtimoiylashuv omillari va boshqalar mantiqan o‘zaro bog‘liq psixologik hodisalar sifatida talqin etilgan.

## KIRISH SO‘ZI O‘RNIDA

O‘zbekiston Respublikasining kadrlari oldiga qo‘yilayotgan eng muhim vazifalardan biri — malakali mutaxassislar sifatida o‘zligini, o‘z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan holda atrofidadagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko‘rsatishdir.

Bu o‘rinda inson ruhiyati qonuniyatlarini o‘rganuvchi psixologiya fanining o‘rni va roli benihoya kattadir. Yosh avlodni yangicha ta‘lim standartlari asosida, jahon talablariga javob beruvchi mutaxassislar qilib tarbiyalash ishi oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun yangi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, risolalar tayyorlashning yangicha uslublarini talab etmoqda.

Mazkur kursning maqsadi — talabalarga ta‘lim va tarbiyaning mazmuni, undagi psixologik qonuniyatlar, psixologik bilimlarning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati, pedagogik psixologiyaning metodlari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Psixologiya fanining asosiy vazifalariga magistrnlarni ijtimoiy faoliyatning pedagogik faoliyat, ta‘lim va tarbiya, mehnat, pedagogik baholash psixologiyasi, pedagogik faoliyatni boshqarish kabi yo‘nalishlarda o‘qituvchi mehnatini tashkil etish, pedagogik jamoalarda ishni tashkil etish omillari, mexanizmlari va shart-sharoitlari bilan tanishtirish, ta‘lim faoliyati motivlarini mukammal o‘zlashtirish, talabalarning ta‘limdagi qobiliyat va iqtidorini o‘stirish yo‘llari, hamda ularni rivojlantirish masalalariga o‘rgatish, bu borada ijtimoiy-psixologik hodisalar tabiati va mohiyatini tushunishga ko‘maklashishdan iboratdir.

Ma‘lumki, har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta‘limiy va tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazish insonda o‘z-o‘zini anglashni vujudga keltiradi. Shaxsda o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi qancha erta uyg‘onsa, shaxsiy nuqtai nazar, o‘z xulqini his qilish, o‘zining amaliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo‘ladi. Xuddi shu asnoda injiqlik, o‘jarlik va qaysarlik kabi illatlarning tarkib topishiga ruhiy to‘siq vujudga keladi.

Manbalarda ta‘kidlanishicha, shaxslararo munosabatlardagi qarama-qarshilik, inqiroz rivojlanish qonunlariga loqayd qarashning oqibatidir. Inson psixikasidagi umidsizlik, ijtimoiy adolat uchun kurashish ruhining o‘zgarishi — nazariya bilan turmush nomutanosibligining mahsulidir. Odamlarda e‘tiqod, dunyoqarash, muomala, muloqot, mustaqil xulq-atvorni shakllantirish ko‘proq yuqoridagi

omillarga bog‘liqdir. Kishilardagi tashabbuskorlik hamda to‘siqlarni yengishga intilishning shakllanishida psixologik bilimlarning o‘rni kattadir.

Umuman ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida — jumladan, oila, tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish korxonasi va jamoat tashkilotlarida psixologik ilmlardan foydalanish ta‘lim va tarbiyada shaxslararo ijobiy munosabatlar o‘rnatishning, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning garovidir.

Ta‘limdagi yangilanish, asosan, „Davlat ta‘lim standartlari“ni ishlab chiqishnigina amalga oshirmay, balki ta‘lim jarayoni orqali o‘quvchining o‘z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o‘z taqdiri va o‘z shaxsiga ongli munosabatda bo‘lib, turli faoliyatlarda o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan erkin, faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Mazkur darslikning ahamiyati yana shundaki, u mustaqil yurtimiz fuqarolari psixologiyasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, ularning hayotga, umuminsoniy qadriyatlarga, kasb-kori, oilasi, o‘z salomatligi va yaqinlariga bo‘lgan munosabatlarida milliy mafkuramizning asosiy mazmun va mohiyatlari namoyon bo‘layotganligi bilan uyg‘un tarzda bayon etilganligidir. Zero, mustaqillik psixologiyasini ongi va shuurida aks ettirgan hamyurtlarimiz, birinchi navbatda, yosh avlod kundalik muomalasi va turmush tarzida o‘sha millat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi solih amallarga intilaveradi va sog‘lom g‘oyalarsiz yashay olmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan barcha o‘zgarishlarning ijtimoiy psixologik mohiyatini bo‘lg‘usi mutaxassislar tomonidan o‘zlashtirilishiga ko‘mak beruvchi ilmiy manbalarning ahamiyatini yana bir marotaba ta‘kidlashni istardik. Zero, mamlakatimizda o‘zining sifat bosqichi doirasida muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi barcha ishlarimizning amaldagi g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi.

Darslik oliy o‘quv yurtlarining „Pedagogika“ va „Psixologiya“ yo‘nalishlariga ixtisoslashmagan mutaxassisliklar bo‘yicha tahsil olayotgan magistratura bosqichi talabalari uchun mo‘ljallangandir. Unda O‘zbekiston Respublikasining „Ta‘lim to‘g‘risida“gi Qonuni g‘oyalardan kelib chiqqan holda har tomonlama mukammal, malakali mutaxassislar tayyorlash vazifasi ko‘zda tutilgan.

Zotan, mustaqil respublikamizning kelgusidagi rivoji, ravnaqi har tomonlama barkamol, o‘ziga, boshqalarga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga to‘g‘ri munosabatini bildiradi oladigan, mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, ijodkor va tadbirkor shaxsga bog‘liqdir. Talabada ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so‘zsiz o‘qituvchiga, uning o‘quv-tarbiya jarayonini to‘g‘ri boshqara olishiga bog‘liq. Bugungi kunda har

bir fan o'qituvchisi o'quvchilarga „Davlat ta'lim standartlari“da belgilangan bilimlar me'yorini o'rgatish, demakki, „yaxshi filolog“, „yaxshi fizik“, „yaxshi adabiyotchi“, „yaxshi tarixchi“, „yaxshi iqtisodchi“, „yaxshi muhandis“ bo'lish emas, balki o'z sohasiga doir fanlarni o'qitish orqali talaba shaxsining yuqorida ko'rsatib o'tilgan jihatlarini tarbiyalay oladigan yaxshi o'qituvchi bo'lishi lozim. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun esa o'quv jarayonini yaxshi, to'g'ri, odilona va oqilona boshqara olishi juda muhimdir.

Ushbu darslik yoshlarga aynan psixologik bilim asoslarini bersa-da, umid qilamizki, ularni o'z atrofida ro'y berayotgan islohotlarga xolis baho berish, o'zi va o'zgalari ruhiyati sir-asrorlariga befarq bo'lmaslik, o'z layoqatlarini o'stirishning elementar vositalaridan boxabar bo'lishga yordam beradi. Chunki shaxs o'z qobiliyati, iqtidori, layoqati, tafakkuri, diqqati, xarakteri xususiyatlarini bilib, uni to'g'ri yo'naltira olsa, bu nafaqat shaxsning o'ziga, balki jamiyat uchun ham katta naf keltiradi.

O'quvchilar hukmiga havola etilayotgan ushbu darslik ham mustaqillikning bizga yaratgan cheksiz imkoniyatlari, ijodiy va mustaqil tafakkur qilishning mevalaridandir. Chunki zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri — malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan holda atrofidagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Bu o'rinda inson ruhiyati qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya fanining o'rni va roli benihoya kattadir. Yosh avlodni yangicha ta'lim standartlari asosida, jahon talablariga javob beruvchi mutaxassislar qilib tarbiyalash ishi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, risolalar tayyorlashning ham yangicha uslublarini talab etmoqda.

Darslik psixologiya asoslari bo'yicha muxtasar bilimlarni bergani bilan, uning har bobi yakunida tavsiya etilgan topshiriqlar, mashqlar, testlar va mustaqil bajarish uchun berilgan mavzular talabalarni o'z ustida ishlashga o'rgatadi va psixologiyaning boshqa masalalarini ham mustaqil o'rganish va ruhiy hodisalarni tahlil qilishga yordam beradi.

Muallif har bir o'quvchi kitobni mutoala qilish jarayonida unda ko'tarilgan muammolarga befarq qolmaydi, jahonda va mustaqil yurtimizda ro'y berayotgan olamshumul voqealar mohiyatini anglashda va ularga nisbatan faol hayotiy mavqening shakllanishida ko'makdosh bo'ladi, deb umid qiladi.

*Muallif*

## INSON HAYOTIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O'RNII

### *Bobning qisqacha mazmuni*

*Psixologik bilimlarning insoniyat hayotidagi o'rni.* Psixologiya sohasida XX asrda erishilgan yutuqlar. Fanda yuzaga kelgan yangi yo'nalishlar va yangicha yondashuvlar, psixologiya fanining dolzarbligi, globalizasiya sharoitida psixologiya o'rganadigan muammolarning dolzarbligi.

*Insonni o'rganishning ahamiyati.* Bo'lajak pedagog xodimlarni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar psixikasidagi yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish.

*Psixologiyaning armoqlari.* Pedagogik faoliyatda ishlatilish zaruriyati bo'lgan psixologik-pedagogik bilimlar, ularning ta'lim jarayonini optimallashtirish va samaradorlik darajasini oshirishdagi o'rni.

*Psixologiya va texnik taraqqiyot.* Ilg'or fan-texnika taraqqiyotining inson psixologiyasiga ta'siri va kishilarning moslashishi.

*Psixologiyaning asosiy ilmiy tadqiqot metodlari.* Pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishga yordam beradigan psixodiagnostik metod va metodikalar va ularning ilmiy asoslanganligi.

### **1.1. Psixologik bilimlarning insoniyat hayotida tutgan o'rni**

XX asrda insoniyat texnika, elektronika va boshqa shunga o'xshash murakkab texnologiyalarni yaratgani bilan xarakterlansa-da, vaqti kelganda, shunday holatga duch kelamizki, murakkab elektron texnikani yaratgan o'ta aqlli inson o'zi va o'z atrofidagilarning ruhiy kechinmalarini to'g'ri baholay olmasligi sababli, o'zini nochor va kuchsiz sezishi mumkinligini hayot isbotlamoqda.

XXI asrda juda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi **inson omilini** har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamoliligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizasiya bilan uzviy bog'ladi. Bundan inson va uning

mukammalligi, o‘z ustida ishlashi, o‘z mukammalligi xususida qayg‘urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Shuning uchun ham nafaqat psixologiyadan mutaxassislar tayyorlaydigan bilim dargohlari, balki barcha bilim dargohlarida, hattoki yangi tipdagi maktab, lisey va kollejlarda ham psixologiyadan saboq berish rejalashtirilganligi sababli nopedagogik oliy ta‘lim muassasalari magistratura bosqichi talabalariga psixologiya fani kiritilgan. Mazkur kursning asosiy maqsadi magistrlar uchun zaruriy tavsiyalar — o‘zlari o‘qitadigan fanlardan ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya mashg‘ulotlari tashkil etish metodikasi — ya‘ni, ularni yangi pedagogik texnologiya asosida qanday tashkil etish, qaysi ilg‘or usul va vositalardan foydalanilsa, samaradorlikka erishish mumkinligi talabalar bilan birgalikda o‘rganiladi hamda talabalar bilimini baholash, pedagogik amaliyot davomida olib boriladigan ishlar, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish haqida ma‘lumotlar beriladi. Bularning barchasi bo‘lajak magistrlar uchun o‘z ish faoliyatlarini tashkil etishga katta yordam beradi, ta‘lim jarayoni, darsdan tashqari talabalar faoliyatini to‘la va oqilona boshqara olishlariga ko‘maklashadi. Bu vazifalarni mukammal egallash, ayniqsa bo‘lg‘usi pedagoglar uchun zarurdir. Chunki o‘qituvchilik kasbi barcha kasblarning onasidir — ya‘ni, o‘qituvchi barcha kasb egalarini tarbiyalaydi. O‘qituvchi maktabdagi ta‘lim-tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisidir. Ta‘lim-tarbiya davriy hodisa emas, u muttasil davom etadigan uzluksiz jarayondir.

Inson psixologiyasi, o‘z taraqqiyoti va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta‘minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro‘y berayotgan jarayonlarni ob‘ektiv va to‘g‘ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o‘z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o‘z davrida „O‘z-o‘zingni bil!“ degan shiorni o‘rtaga tashlagan bo‘lsa, yangi davr „O‘z yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil“, degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo‘ydi. Ayni shu muammoni echishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

An‘anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o‘rganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug‘ullanadigan kimsalar o‘rganib kelishgan, zero psixologik hodisalar

bilan har qanday inson ham tanish bo'lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o'zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

Keyingi yillarda butun jahon miqyosida, shu jumladan Respublikamizda qaysi soha mutaxassislari bo'lishidan qat'iy nazar, ularni psixologik bilimlar bilan qurollantirish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda kelajak avlodni etuk, barkamol inson qilib tarbiyalashda o'qituvchilarning o'rni benihoyat oshgan. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchidan oliy o'quv yurtida o'z mutaxassisliklarini chuqur egallashdan tashqari talabalar psixikasidagi yosh va individual xususiyatlarni farqlay olishga, shaxs taraqqiyoti jarayonini kuzatishdan to'g'ri psixologik-pedagogik xulosalar chiqara bilishga o'rganish talab etilmoqda. Chunki bu — ta'lim va tarbiya sirlarini mukammal egallaydigan o'qituvchilar tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Psixologiyaning nazariy muammolarini chuqur o'rganmay turib, mazkur fandan hech bo'lmaganda sodda va bajarilishi oson bo'lgan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish ko'nikma va malakalarini egallamay turib, talabalarining psixik xususiyatlarini bilishga erishib bo'lmaydi, albatta.

Ko'hna va hamisha navqiron mamlakatimiz uchun ijtimoiy taraqqiyot psixologik nuqtai nazardan idrok qilinsa, mantiqiy tahlil etilsa, xalqimizning etnopsixologik bilimlardan ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanganligi, harbiy yurishlarda jangchilarga psixologik ta'sir o'tkazganligi, ularda ishonch va e'tiqod hissi uyg'otganligi, muomalaning verbal va noverbal ko'rinishlarini amaliyotda qo'llanganligi, o'rta asrlarning Forobiy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino singari zabardast olimlarining ijodiy mahsullaridan tortib, to XX asrning 30-yillari oralig'ida ilmiy tadqiqotlar qilinganligi bu isbot talab qilinmaydigan haqiqatdir.

O'zbekiston oliy maktablarida psixologiya o'quv fani sifatida 1928 yildan o'qitib kelinmoqda. (Xuddi shu davrda L.S.Vigotskiy O'rta Osiyoda, O'zbekistonda ommaviy ma'ruzalar o'qiganligi mazkur jarayonni tezlashtirgan asosiy omil bo'lganligiga hech shak-shubha yo'q).

Psixologiya fanining ijtimoiy hayotda nufuzi har soniya sayin ortib bormoqda. Shu tufayli pedagogik va nopedagogik ta'lim muassasalarida uni o'qitish yo'lga qo'yila boshlandi. Mazkur soha bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida O'rta Osiyo Davlat Universitetida 1938 yilda (Hozir Milliy Universitet) logika va psixologiya bo'limi ochildi. 50-yillarning 2-yarmidan boshlab pedagogika ins-



titutlarida va bilim yurtlarida psixologiya bo'limlari ochildi. Ayniqsa qisqa muddatli 15 va 9 oylik ommaviy psixologlar tayyorlash kurslarining ommaviylashuvi psixolog-mutaxassislarga nisbatan bo'lgan ehtiyojning kuchayganligini bildiradi.

Hozirgi davrda respublikamizning barcha oliy ta'lim muassasalari va o'quv yurtlarida, hattoki maktablarida psixologik bilimlar alohida e'tibor bilan o'qitilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim ko'p bosqichli tizimga (bakalavriyat, magistratura, kichik ilmiy tadqiqotchi, katta ilmiy tadqiqotchi) o'tish munosabati bilan psixologiya fanini o'qitish o'ziga xos tashkil etishni taqozo etmoqda. Demak, talabalarga bu soha bo'yicha bilim berish ularda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni takomillashtirish uchun quyidagi yirik yo'nalishlarda ijodiy psixologik-pedagogik izlanishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

## **1.2. Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari**

### *Sanoat va ishlab chiqarish sohasi*

Sanoat va mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida tadbqiqiy ishlar birinchi navbatda konkret tashkilotda kadrlar zahirasini to'g'ri va oqilona tashkillashtirishdan tortib, xodimlar ish sharoitlari va mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleksini ilmiy ravishda o'rganib, hayotda natija olishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida ushbu yo'nalishdagi tadbqiqiy ishlarning ikki sohasini ajratish mumkin:

- marketing xizmatlari
- xodimlar (personal) bilan ishlash.

Birinchisi eng zamonaviy va muhim ish bo'lib, bu yerda psixologning vazifasi „Nimani?“ va „Kim?“ xarid qilib olishga ehtiyoji borligini o'rganishga ko'maklashishdir. Chunki talab bilan ehtiyoj bevosita shaxsga va uning psixologik munosabatlari tizimiga aloqador kategoriyalar bo'lib, bozor va raqobat sharoitida korxonalar yoki tashkilotlarning samarali ishlab ketishi, eng avvalo, xaridorgir tovar mahsulotlarni ajratib, ularning odamlar talab-ehtiyojiga qanchalik mosligini aniq tahlil qilishdan boshlanadi.

Marketing munosabatlari aslida odamlar o'rtasidagi sof psixologik munosabatlar bo'lib, uning negizida odamlar o'rtasidagi jonli muloqot, ta'bir va did tarbiyasi yotadi. Shuning uchun biz bugun odamlarda to'g'ri marketing tafakkurini shakllantirish vositalarini qidirishimiz va

talab-taklif munosabatlarini real ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishda inson psixologiyasi xususiyatlarini inobatga olib ishlashga o'rganishimiz kerak. Masalan, shunday „Case Study“ni olaylik: Psixologiyani qanday qilib sotish mumkin (ya'ni, Psixologik ma'lumotlar va bilimlarni)? Biz aniq va to'g'ri javoblar olishimiz kerak bo'lgan savollar quyidagilar bo'ladi:

*Nima sotiladi?* — test natijalari.

*Nima uchun?* — nima qilib bo'lsa ham, pul ishlash, o'z imkoniyatlarini tekshirish, shaxsiy ish ochish.

*Kim?* — firma yoki konkret kishilar.

*Nima?* — xilma-xil testlar batareyasi.

*Kimga?* — turli kasb egalari, o'quvchilarga, xodimlarga.

*Qayerda? Qachon?* — zarurat bo'lgan har qanday joyda.

*Qanday qilib?* — minimal vaqt sarflab, tez va soz.

*Qancha?* — test o'tkazuvchilarning soni va imkoniyatiga qarab.

*Kim bilan?* — shu firma xodimlari bilan.

Demak, marketing xizmatida javob berilishi zarur bo'lgan savollardan ko'rinib turibdiki, har bir savolga beriladigan javobning orqasida konkret odamlar, ularning qobiliyatlari, manfaatlari va ish unumi yotadi. Shuning uchun bu sohada psixologik xizmat zarur.

Ikkinchi soha — kadrlar va ular bilan bevosita ishlash sohasi. Bu - kadrlarni ishga jalb etishda bilish zarur bo'lgan qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlaridan tortib, ularni to'g'ri yunaltirish, o'z joyiga qo'yish, tashkilot doirasida guruhlarini shakllantirish, xodimlarga ma'lumotlarni o'z vaqtida etkazish bilan bog'liq kadrlar siyosatini olib borishga aloqador xizmatdir. Psixolog bu o'rinda asosan maslahatchi - konsultant va ekspert sifatida rol o'ynaydi.

### *Siyosat sohasidagi psixologiya*

Har bir davr o'z kishilari ongida beixtiyor siyosiy ongni shakllantiradi va odamlar uning tamoyillariga bo'ysunadilar. Siyosat borasidagi psixologik masalalarga psixolog aralashuvining zarurati har doim bo'lmasa-da, ayrim paytlarda — yirik islohotlar boshlanishi arafasida, saylov oldi kompaniyalarda, yangi siyosiy liderlarning xalq tomonidan qabul qilinishi jarayonlari, ko'pchilik auditoriyaga zarur ma'lumotlarni yetkazish, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish, siyosiy arboblarning imidjini omma ongiga singdirish paytlarida psixologik ta'sir vositalaridan o'rinni foydalanish, maslahatlar berish va ayrim guruhlar e'tiqodiga ta'sir etish zarur bo'lganda kerak bo'ladi.

Siyosiy sohada ishlayotgan psixolog ishining o'ziga xos jihatlari bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

a) siyosatda psixolog aralashuvi ko'pchilik ommaga bevosita aloqador bo'lmaydi;

b) zarurat tug'ilganda, psixolog shunday tez va ishonchli o'lichaydigan metodikalarni ishlatadiki, ularning natijalari sir saqlanib, o'sha buyurtmachi-siyosatchining talabiga ko'ra izlanishlar olib boriladi;

c) psixolog har bir siyosatchi uchun shunday ishonchli shaxs bo'lishi lozimki, undan odamlarning kayfiyatlari, reaksiyalari, his - kechinmalari xususida aniq ma'lumotlar so'raladi;

d) o'ziga xos qiyinchilik shundan iboratki, jamoatchilik psixolog qiyofasida ko'pincha liderning bevosita „odamini“ ko'rishga moyil bo'lib, liderning o'zi ham ba'zan o'ta professional psixologdan hadiksirab qolishi mumkin. Shuning uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, zarur paytlarda siyosiy arboblar psixolog xizmatiga murojaat qilishlari va undan asosan biror jiddiy ijtimoiy projeklarni qabul qilish jarayonida yordam berishini so'rashlari mumkin. Buning uchun psixologdan jamoatchilik fikrini psixologik tahlil qilib berish, va shu asosda fuqarolarning ustanovkalari va kayfiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni birgalikda ajratish vazifasini hal qilishlari mumkin.

Saylov oldi kompaniyalarida esa, psixologning asosiy vazifasi odamlar kayfiyatini o'rgangan holda da'vogar imidjini shakllantirish, odamlarning yoqtirishiga sabab bo'ladigan shaxsiy fazilatlar algoritmini tuzish, omma oldiga chiqishga psixologik tayyorlashga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, raqiblarning bahslashish madaniyati va etikasi borasida psixologik yo'l-yo'riq va usullar borasida ma'lumotlar almashinishi kerak bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida siyosiy psixologiyaning juda sust rivojlangan tarmoq bo'lgani sababli ham, uni rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda rivojlantirish muhimdir.

### *Oila va nikoh borasidagi tadbiqiy ishlar*

O'zbekistonda endi shakllanayotgan, lekin nazariy nuqtai nazardan ma'lum an'analarga ega bo'lgan sohadir. 1998 yilning Prezidentimiz tomonidan „Oila yili“ deb e'lon qilinishi joylarda psixologik xizmat o'choqlarining paydo bo'lishiga va bu joylarda psixologik xizmatdan foydalanishni anglashga turtki bo'ldi. Shuning uchun Respublikamizda oila muammolarini maxsus tadqiq etadigan ilmiy-amaliy „Oila“ markazi ham tashkil etilganki, bu markazda turli sohaga aloqador

mutaxassislar oilani shaxs ijtimoiylashuvining asosiy maskanlaridan biri sifatida o'rganib kelmoqdalar. Mazkur sohada ishlayotgan psixolog joylarda yoshlardagi oila va nikoh borasidagi tasavvurlarning to'g'ri shakllanishidan tortib, toki muammoli, hattoki, ajrim bo'lgan oila a'zolariga psixologik maslahatlar berish, „ishonch telefonlari“ orqali maslahatlar uyushtirishni o'z zimmasiga oladi.

### *Maorif sohasidagi amaliy ishlar*

Boshqa sohalarga nisbatan anchagina yaxshi tajriba to'plangan soha bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi qabul qilingandan so'ng tashkil qilingan yangi tipdagi ta'lim muassasalari — akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari bir nech-tadan psixologlar shtati kiritilgan va ular aynan tadbiiy muammolar — bolaning o'quv jarayoniga psixologik jihatdan tayyorligini diagnostika qilishdan tortib, professional va kasb mahoratini rivojlantirishgacha bo'lgan barcha muammolarni hal qilishga „aralashadi“.

### *Huquqbuzarlikning oldini olish*

Bu soha va unga aloqador muammolar har doim ham psixolog aralashuvini talab qilib kelgan. Chunki jinoyatchi yoki huquqbuzar shaxsi o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, uni shakllantiruvchi omillar, motivlar va bolani qayta tarbiyalash va reabilitasiya masalalari ijtimoiy psixologik jarayonlar mohiyatini bilish va ularga faol ta'sir ko'rsatishni talab qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar o'rtasida huquqiy-ma'rifat va huquqiy madaniyatni shakllantirishga juda katta e'tibor qaratilgan va bu ishda amaliyotchi xodim-psixologning o'rni va roli katta bo'ladi.

Mazkur yo'nalishning dolzarbligidan kelib chiqib, bugungi kunda Respublikamizda huquqbuzarlikning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etish va uning oldini olish borasida psixologiya fanlari doktori B. Umarov, psixologiya fanlari nomzodi E. Agzamova, psixologiya fanlari nomzodi G'. Normurodov, psixologiya fanlari nomzodi M. Axmedova, psixologiya fanlari nomzodi B.Sirliyev kabi ko'plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarni olib bormoqdalar.

### **1.3. Psixologiyaning tarmoqlari**

Psixologiyaning alohida *tarmoqlarini* differensiasiya qilish eng avvalo ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib, psixologiyani

inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsining esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin.

Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sosiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson faoliyat ko'rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko'ra ish olib borish muhimdir. Shuning uchun hozirgi davr mutaxassislari psixologik bilimlardan boxabar bo'lishlari talab etiladi.

Keyingi yillarda psixologiyaning 300 dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda uning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, psixologiyani inson faoliyatining konkret turiga qarab klassifikasiya qiladigan bo'lsak, uning bir qancha tarmoqlari borligini ko'ramiz. (1-jadval).

*1-jadval*

### **AQSh va RFdagi ayrim psixologik tarmoqlar klassifikasiyasi**

<b>Muhandis-psixolog.</b> <i>Odam-texnika tizimidagi o'zaro munosabatlar xususida bilimlarga ega bo'lib, texnik moslamalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi</i>	<b>Muhandis-psixolog.</b> <i>Odam va texnika o'zaro munosabatlariga oid psixologik muammolar bilan shug'ullanadi</i>
<b>Maslahatchi-psixolog.</b> <i>Shaxsiy muammolarni hal qilish yuzasidan tavsiyalar berib, testlar o'tkazadi</i>	<b>Siyosiy-psixolog.</b> <i>Siyosiy tuzilmalar a'zolariga psixologik maslahatlar berish, siyosiy dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi</i>
<b>Madaniyat masalalari bo'yicha psixolog.</b> <i>Turli madaniy muhit sharoitidagi odamlar ijtimoiy xulqini solishtirish tahlili bilan shug'ullanadi</i>	<b>Tibbiyotchi psixolog.</b> <i>Tibbiy maskanlarda psixologik profi-laktika va psixogigiyena masalalari bilan shug'ullanib, bemorlarning psixologik xususiyatlarini o'rganadi</i>
<b>Klinik psixolog.</b> <i>Terapiya va bemorlarning hissiy emosional kechinmalari masalalarini o'rganadi</i>	<b>Psixologiya o'qituvchisi.</b> <i>Psixologiyaning turli aspektlariga oid ma'ruzalar o'qiydi</i>

<p><b>Ishlab chiqarish va sanoat psixologi.</b> Ishlab chiqarish sharoitlarini takomillashtirish hamda xodimlarni tanlash masalalarini o'rganadi</p>	<p><b>Trener-psixolog.</b> Muloqot malakalarini oshirish, shaxsning o'z imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha treninglar o'tkazadi</p>
<p><b>Salomatlik psixologiyasi bo'yicha mutaxassis.</b> Odamlarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish va turli kasalliklarni oldini olishga o'rgatadi</p>	<p><b>Maktab psixologi.</b> Maktabdagi o'quv jarayoniga oid muammolar bilan shug'ullanib, o'quv-chilar, ota-onalar va o'qituvchilarga psixologik maslahatlar beradi</p>
<p><b>Iste'molchilar psixologiyasi bo'yicha mutaxassis.</b> Tovarlarning emosional jihatdan iste'molbopligini baholaydi, marketing, reklama va mollarning tovar qi-yofasiga oid muammolarni o'rganadi</p>	<p><b>Menejment sohasidagi psixolog.</b> Maxsus maslahatlar, menejerlarni o'qitish va tayyorlash bo'yicha trening-seminarlar tashkil etish, tashkilotlarda axborotlar almashinuvining psixologik tomonlarini o'rganadi</p>
<p><b>Taraqqiyot psixologiya bo'yicha mutaxassis.</b> Inson tug'ilishidan to qarigunicha bo'lgan taraqqiyot davrining psixologiyasini o'rganadi</p>	<p><b>Reklama sohasidagi psixolog.</b> Reklama mahsulotlari tayyorlovchilariga maslahatlar beradi</p>
<p><b>Psixometriya bo'yicha mutaxassis.</b> Testlar, so'rovnomalar va boshqa psixologik tekshiruv vositalarini standartlashtirish, ishlab chiqish, ma'lumotlarni statistik tahlil qilish hamda test natijalarini qayta ishlash bilan shug'ullnadi</p>	<p><b>Bolalar psixologi.</b> Bola taraqqiyoti masalalari bilan shug'ullanib, ota-onalarga maslahatlar beradi va bolalarni maktabga tayyorlaydi</p>
<p><b>Ijtimoiy psixolog.</b> Shaxsning ustanovkalari, dunyoqarashi va qadriyatlarini, ijtimoiy guruhlararo munosabatlarni, liderlik masalalarini o'rganadi</p>	<p><b>Huquqshunos psixolog.</b> Sud-psixologik ekspertizalar jarayonida qatnashadi, huquqshunoslikka oid jarayonlarning psixologik ta'minoti bilan shug'ullanadi</p>
<p><b>Qiyosiy psixologiya.</b> Turli toifadagi hayvonlar xulqini qiyosiy tarzda laboratoriya sharoitida o'rganadi, odam va hayvon xulqiga oid umumiyliklarni asoslaydi</p>	<p><b>Psixofiziolog.</b> Insondagi psixologik va fiziologik jarayonlarning xususiyatlarini o'rganadi</p>
<p><b>Psixofiziolog.</b> Inson xulqining biologik asoslarini o'rganadi</p>	<p><b>Ijtimoiy psixolog.</b> Kichik guruhlar va jamoalar rivojlantirish va psixologiyasini o'rganadi</p>

<b>Maktab psixologi.</b> <i>Muvaffiqiyatli o'qishga xalaqit beruvchi omillarni diagnostika qiladi</i>	<b>Zoopsixolog.</b> <i>Hayvonlar xulq-atvorini o'rganadi</i>
<b>Eko-psixolog.</b> <i>Inson ehtiyojlariga mos tarzda turarjoylar va binolarni loyihalashtirishga yordam beradi</i>	<b>Salomatlik psixologiyasi bo'yicha mutaxassis.</b> <i>Psixogigiyena va psixoprofilaktika, turmush darajasining infratuzilmasini oshirish masalalari bilan shug'ullanadi</i>

Quyida psixologiya fani uchun nazariy asos rolini o'ynovchi umumiy psixologiya o'rganuvchi sohalar haqida to'xtalib o'tamiz.

**Umumiy psixologiya** — psixologiyaning barcha masalalarining o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi.

**I. Mehnat psixologiyasi.** Bu inson mehnat faoliyatining psixologik asoslarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning psixologik tomonlarini o'rganadi.

Mehnat psixologiyasi ma'lum darajada mustaqil bo'lgan, lekin bir-biri bilan chambarchas bog'langan turlarga bo'linadi:

- 1) Injenerlar psixologiyasi.
- 2) Aviasiya psixologiyasi.
- 3) Kosmik psixologiya.

**II. Pedagogik psixologiya** Bu ham o'z navbatida bir qancha turlarga bo'linadi:

- 1) Ta'lim psixologiyasi (didaktika va xususiy metodikalarning psixologik asoslari, programmalashtirilgan ta'lim va aqliy faoliyatlarning shakllanishi va boshqalar).
- 2) Tarbiya psixologiyasi. (tarbiya metodikasining psixologik asoslari, o'quvchilar jamoasi psixologiyasi, mehnat — axloq tuzatish pedagogikasining psixologik asoslari).
- 3) O'qituvchi psixologiyasi.
- 4) Aqli zaif bolalar tarbiyasi psixologiyasi.

**III. Medicina psixologiyasi.** Bu shifokor faoliyatining psixologik tomonlarini va kasal xulqini o'rganadigan fandır. Bu fan ham o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- 1) Neyropsixologiya — bu bosh miya nervlari faoliyati asosida vujudga keladigan psixologik holatlarni o'rganadi.
- 2) Psixofarmakologiya — bu turli dorilarning inson psixik faoliyatiga ta'sirini o'rganadi.
- 3) Psixoterapiya — bu kasallarni davolashda psixologik ta'sir qilishdan foydalanish yo'llarini o'rganadi.

- 4) Psixoprofilaktika va psixogigiyena — bu kishilarni psixik tomondan sogʻlom boʻlishini taʼminlashga oid tadbirlar ishlab chiqish bilan shugʻullanadi.

*IV. Yuridik psixologiya.* Bu oʻz navbatida quyidagilarga boʻlinadi:

- 1) Sud psixologiyasi.
- 2) Kriminal psixologiya.
- 3) Mehnat tuzatish psixologiyasi.

*V. Harbiy psixologiya.*

*VI. Sport psixologiyasi.*

*VII. Savdo psixologiyasi.*

Bordi-yu, psixologiya sohalarini klassifikasiya qilishda psixikaning rivojlanishini asos qilib oladigan boʻlsak, unda psixologiyaning yana quyidagi sohalari mavjudligini koʻramiz:

1. *Yosh psixologiyasi.* Bu oʻz navbatida quyidagilarga boʻlinadi:

- a) bolalar psixologiyasi;
- b) oʻsmirlar psixologiyasi;
- c) yoshlar psixologiyasi;
- d) katta kishilar psixologiyasi;
- e) gerantopsixologiya. (qariyalar psixologiyasi).

2. *Maxsus psixologiya.*

a) patopsixologiya — miyaning oʻsish davrida kasallanishi tufayli psixikada yuz beradigan oʻzgarishlarni oʻrganadi;

b) olegofrenopsixologiya — bu miyasida tugʻma kamchiligi bor bolalar psixikasining oʻsish masalalari bilan shugʻullanadi;

c) surdopsixologiya — karlarning psixik taraqqiyotini oʻrganadi;

d) tiflopsixologiya — koʻrlar va koʻrish qobiliyati pastlarning psixologik taraqqiyotini oʻrganadi.

3. *Solishtirma psixologiya* — bu hayvonlar psixikasi bilan inson psixikasini taqqoslab oʻrganadigan fan. Uning tarmogʻi zoopsixologiyadir.

4. *Ijtimoiy psixologiya.* Bu kishilarning jamoadagi oʻzaro munosabati jarayonida vujudga keladigan psixologik holatlarni oʻrganadi. Moda va eskilik qoldiqlarining taʼsiri, turli mish-mishlar taʼsirida hosil boʻladigan jamoatchilik kayfiyatini oʻrganish ham ijtimoiy psixologiya vazifasiga kiradi.

5. *Din psixologiyasi* ham bugungi kunda psixologiyaning muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Ana shundan kelib chiqib, ayni paytda Toshkent islom universitetida dinshunos sosiol va psixolog yoʻnalishi boʻyicha mutaxassislar tayyorlash yoʻlga qoʻyildi.




1. *Shaxs psixologiyasi*. Buning vazifasi shaxsning individual psixologik xususiyatlari: xarakteri, oliy nerv faoliyati tipi va temperamenti, qobiliyatlari, xulqining bosh motivlari, kasbga qobiliyati va ko'nikmalari kabilarni o'rganishdir. Uning bo'limlariga:

a) Xarakterologiya.

b) Individual psixologik farqlar tipologiyasi.

c) Professiografiya (kasbga bo'lgan qobiliyati va ma'lum bir kasbga yaroqli ekanligini o'rganadigan fandır).

Quyidagi 1-rasmda psixologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasining zamonaviy ketma-ketligi tartib bilan yoritilgan.



**O'QUV ZALI**

1- rasim. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi

## 1.4. Psixologiya va texnik taraqqiyot

XX asr ishlab chiqarish, texnikaning yangi-yangi turlari, aloqa vositalarining juda tez o'rganilishi bilan, elektronika, avtomatikadan foydalanila boshlanganligi, transportning yangi, tovushdan tez turlarini o'zlashtirilganligi bilan xarakterlanadi. Bularning hammasi inson psixikasiga juda katta talablar qo'yimoqda. Hozirgi zamon sanoati, transportida va harbiy ishlarda psixologik faktorlarni, ya'ni kishining imkoniyatlari, bilish jarayonlari — idroki, xotirasi, tafakkurini, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari — xarakteri, temperamenti, reaksiyalarining tezligi va boshqalarni hisobga olishga to'g'ri keladi. Tovushdan tez hozirgi zamon samolyotlarida, ulkan elektrosistemalarning operativ — dispetcherlik uchastkalarida ishlovchi kishilar juda kichik vaqt ichida tez qarorga kelishiga to'g'ri keladi, aks holda avariyalarga sabab bo'lishi mumkin. Ana shunday murakkab sharoitda ishlay olish uchun kishilarda imkoniyat bor-yo'qligini, ularning shu ishga yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini aniqlashda psixologiya fani oldiga muhim talablar qo'yiladi.

Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo'lsa, texnika taraqqiyotga intilayotgan bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan „muloqot“ qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo'lgan masaladir. Ayniqsa, mustaqil O'zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir-asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzarb bo'lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fuqaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va „odam-mashina“ dialogining eng samarali yo'llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol „tillashadigan“ malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari, pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

Injenerlik psixologiyasi kishi bilan texnika o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi fan bo'lib, u texnikaning ko'pgina sohalari, bionika, kibernetika bilan uzviy bog'langandir. Ta'kidlash joizki, Respublikamizda bu sohaga ham keyingi yillarda qiziqish ancha ortdi. Shu boisdan bir qator yosh, iqtidorli mutaxassislar injenerlik psixologiyasi yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.


## 1.5. Psixologiyaning asosiy metodlari va pedagogik faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan psixologik metodikalar

Aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan har qanday fan o'sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus usullar, vositalardan foydalanadi va ular fanning *metodlari* deb yuritiladi. Fanning salohiyati va obro'si ham birinchi navbatda o'sha metodlar yordamida to'plangan ma'lumotlarning *ishonchliligi va validliligiga bog'liq* bo'ladi. Bu fikrlar bevosita psixologiyaga ham aloqador bo'lib, metodlar masalasiga bu fanda juda katta ahamiyatga molik masala sifatida qaraladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, psixik hodisalarni bevosita qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ilg'ab, quloq bilan sezish qiyin. Lekin juda ko'plab fanlar bilan faol hamkorlik shunga olib kelganki, psixologiyaning har bir tarmog'i o'z vazifalarini echish va ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ko'plab metodlarni sinovlardan o'tkazib, eng ishonchli va mukammallarini saqlab qolgan.

Matematik statistika va ehtimollar nazariyasining psixologiya sohasida qo'llanilishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlar avvalo har bir metodning ishonchlilik darajasini aniqlash, qolaversa, to'plangan ma'lumotlarning qay darajada asosli va valid ekanligini isbotlashga yordam beradi.

Biz mazkur mavzuimizda har bir insonning o'zini va atrofidagilarni bilib olishiga imkon beradigan, murakkab bo'lmagan, qo'llash shartlari sharoitga mos bo'lgan va umum qabul qilingan metodlarni keltirdik.

2-rasmda keltirilgan metodlar yordamida tadqiqotchi yoki qiziqqan shaxs u yoki bu psixik jarayon, holat yoki shaxs xususiyatlari to'g'risida



2-rasm. Pedagogik psixologiyaning asosiy metodlari

birlamchi ma'lumotlar to'playdi, to'plangan ma'lumot yana tahlil qilinadi va maxsus tarzda ishlatilishi mumkin.

Quyida psixologiya, jumladan, pedagogik psixologiya fanida eng samarali, ishlatilishi qulay va olingan natijalar ishonchligi yuqori bo'lgan kuzatish metodiga to'xtalib o'tamiz.

### *Kuzatish metodi tavsifi*

Kuzatish metodi qadimgi empirik metodlar guruhiga mansub bo'lib, unda hozirgi kunda sifat jihatidan katta o'zgarishlar yuz berdi. Uning ob'ekti, ko'lami kengaydi, murakkab jarayonlarni o'rganish imkoniyati tug'ildi. Kuzatishning texnologiyasi takomillashdi, shakli va vositalari ko'paydi, ob'ektivlik darajasi ortdi. Kuzatish psixologiya fanining barcha sohalarini universal tadqiq qilish metodiga aylanib qoldi. Shu boisdan bugungi kunda uning ahamiyati yangi bir yuksak darajaga ko'tarildi. Tatbiqiylik ko'lami yanada kengaydi, statistik metodlarga moslashuvchanligi bilan boshqa tadqiqot metodlaridan ajralib turadi.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslangan holda uning ayrim manbalarda yoritilmay qolgan jihatlari to'g'risida mulohaza yuritamiz.

### *Kuzatish texnikasi*

1. Voqelikni kuzatish oqimini muayyan qismlarga ajratish (klassifikatsiyalash).
2. Kuzatishning ko'lami va xarakterini aniqlash.
3. Kuzatishni qayd qilish (fiksatsiyalash).
4. Olingan natijalarni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish.

### *Kuzatish ob'ekti va predmeti*

1. Kuzatishning ob'ekti — inson, guruhiy va jamoaviy munosabatlar, ob'ektiv va sub'ektiv kechinmalar, hayvonot olami, shaxs faoliyati kabilarni o'rganishdan iboratdir.

2. Kuzatishning predmeti — insonning holati, uning harakat tezligi, harakatning kuchi, hamkorlik harakati, odamning ongsiz, ongosti va onglilik holatlari (faoliyat, muloqot) ni eksteriorizatsiyalashdan iboratdir. Bunda quyidagilar inobatga olinishi zarur:

- a) amaliy va gnostik harakat;
- b) nutq aktlari, ma'nosi, mazmuni, mohiyati, yo'nalishi, chashtotasi, ritmi, davomiyligi, intensivligi, ekspressivligi, uning leksikasi, grammatikasi va fonetik qurilishi;

- c) mimika, imo-ishora, pantamimika, vokal mimikasi;
- d) vegetativ reaksiyalarning ayrim ko‘rinishlari (qizarish, terlash, oqarish, nafas olishning tezlashuvi va qiyinlashuvi).

### *Kuzatish iyerarxiyasi*

1. Kuzatishning maqsadi
2. Kuzatishning vazifalari
3. Kuzatishning programmasi
4. Kuzatish fiksatsiyasi.

Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

- a) umumiy talablarga rioya qilish;
- b) yaxlit qayd qilib borish;
- c) kundalik;
- d) texnik vositalardan foydalanish.

### *Kuzatishning ifodalanishi*

1. Olingan ma’lumotlarning alomat va belgilar orqali ifodalanishi (piktogramma, grafik sxema).
2. Standart protokollarning aks ettirilishi.

### *Kuzatish turlari*

1. Sistematik
2. Epizodik
3. Dala sharoitida
4. Laboratoriya sharoiti
5. Tabiiy sharoitda
6. Xronologik
7. Davriy
8. Bir martalik

### *Mehnat faoliyatini kuzatish*

1. F. Gilbertning ish kuni fotografiyasi metodikasi (harakatni tahlil qilish)
2. A.F. Gostevning xronokartasi (2 yoki 3 marta 30 minutdan smenadan keyin talabalarda dars boshida, o‘rtasida, darsdan keyin).

### *Kuzatish formalari*

1. Aralashib yashirin kuzatish
2. Psixologik portret

3. Ochiq aralashib kuzatish (o'smirlarda)
4. Xulq portreti

#### *Kuzatishni qayd qilish turlari*

1. Kundalik
2. Ta'kidlovchi
3. Umumlashtiruvchi
4. Faktik (foto video magnit lentasi)

#### *Kuzatish natijalarini qayta ishlash*

1. Sifat tahlili
2. Miqdoriy tahlil

#### *Kuzatish hisobotini jihozlash*

1. Kirish (muqaddima)
2. Metodika tavsifi
3. Natijalarni tartibga keltirish
4. Natijalarning muhokamasi va tahlili
5. Xulosalar
6. Tavsiyalar
7. Adabiyotlar ro'yxati
8. Ilovalar

#### *Konflikt holatini aniqlash*

1. Nizo (konflikt) mohiyatiga kirish
2. Nizoning kuchayishi
3. Nizoning echilishi
4. Nizodan keyingi psixologik holat

#### *Kuzatish yakuni*

1. Umumpsixologik xulosalar chiqarish
2. Milliy etnopsixologik va regional xususiyatlarni sharhlash

### **Asosiy tushuncha va atamalar**

Yangi davr va psixologiya, psixologiya fanining dolzarbligi, psixikaning zamonaviy va klassik ta'riflari, psixik jarayonlar, psixologiya tarmoqlari, psixologik tarmoqlar klassifikatsiyasi, psixologiya fanining metodlari, kuzatish metodi, so'rov metodi, psixologik testlar, psixologik eksperiment, modellashtirish.

## Rezyume

Yangi davr har bir insondan psixologik bilimlarni egallashni talab etadi. Buning uchun shaxs psixikasining namoyon bo'lish shakllari: psixik jarayonlar, psixologik holatlar, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini bilish zarur bo'ladi. Hozirgi kunda psixologiya fanining 300 dan ortiq sohasi alohida ravishda shakllangan. Fan sifatida psixologiya avvalo, „ijtimoiy gumanitar“, so'ngra „tabiiy, aniq va texnika“ va eng oxirida „iqtisodiyot“ blokidan o'rin olgan bir qator fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu tom ma'noda uning jamiyatda amaliy ahamiyati ortib borayotganligidan darak beradi.



### *Bob yuzasidan savol va topshiriqlar*

1. Psixologik bilimlarning insoniyat hayotida tutgan o'rni haqida nima deya olasiz?
2. Psixologiyaning amaliy sohalari to'g'risida gapirib bering?
3. Psixologik bilimlarning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati nimada deb bilasiz?
4. Psixologiya tarmoqlarini sanab bering?
5. Mehnat psixologiyasi o'rganuvchi muammolariga nimalar kiradi?
6. Psixologiyaning asosiy metodlari haqida to'xtaling?
7. Psixologiya va texnik taraqqiyot deganda nimani tushunasiz?
8. Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasini inson belgilaydi degan tushunchaga qanday qaraysiz?

## Rezyume

Yangi davr har bir insondan psixologik bilimlarni egallashni talab etadi. Buning uchun shaxs psixikasining namoyon bo'lish shakllari: psixik jarayonlar, psixologik holatlar, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini bilish zarur bo'ladi. Hozirgi kunda psixologiya fanining 300 dan ortiq sohasi alohida ravishda shakllangan. Fan sifatida psixologiya avvalo, „ijtimoiy gumanitar“, so'ngra „tabiiy, aniq va texnika“ va eng oxirida „iqtisodiyot“ blokidan o'rin olgan bir qator fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu tom ma'noda uning jamiyatda amaliy ahamiyati ortib borayotganligidan darak beradi.



### *Bob yuzasidan savol va topshiriqlar*

1. Psixologik bilimlarning insoniyat hayotida tutgan o'rni haqida nima deya olasiz?
2. Psixologiyaning amaliy sohalari to'g'risida gapirib bering?
3. Psixologik bilimlarning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati nimada deb bilasiz?
4. Psixologiya tarmoqlarini sanab bering?
5. Mehnat psixologiyasi o'rganuvchi muammolariga nimalar kiradi?
6. Psixologiyaning asosiy metodlari haqida to'xtaling?
7. Psixologiya va texnik taraqqiyot deganda nimani tushunasiz?
8. Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasini inson belgilaydi degan tushunchaga qanday qaraysiz?



---

## PEDAGOGIK FAOLIYAT VA TA'LIM-TARBIYA PSIXOLOGIYASI

### *Bobning qisqacha mazmuni*

**O'quv faoliyatining psixologik mohiyati.** *Pedagogik jamoalardagi psixologik muhitning asosiy xususiyatlari, pedagoglar jamoasidagi o'zaro munosabatlar psixologiyasi, pedagogik jarayondagi nizolar va ularning oldini olish yo'l-yo'riqlari.*

**Ta'lim va tarbiya psixologiyasi.** *Tarbiyaning maqsadi, vazifalari va usullari, bilimlarni o'zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari, ta'lim olayotgan shaxsga psixologik-pedagogik ta'sir etish.*

**Ta'lim-tarbiya va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabat muammosi.** *„Tarbiyasi qiyin“ bolalar psixologiyasi, mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari.*

### **2.1. O'quv faoliyatining psixologik mohiyati**

1997 yilda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonun va „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida“ shaxs kamoloti asosiy masala sifatida e'tirof etilgan.

O'quv maskani jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, jamiyatning buguni emas, balki kelajakka yo'naltirilgan rivojini belgilaydi. O'quv maskanining maqsadi — ta'lim va tarbiyadir.

O'quv faoliyati — shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi.

O'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo'luvchi uzluksiz jarayondir.

Rus psixologi A.N. Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini hamda bola ongi aynan o'quv faoliyatida o'sishini ta'kidlaydi.

D.B. Elkonin esa o'quv faoliyatining xususiyatlarini ko'rsatib, uni mohiyati, mazmuni va o'zining namoyon bo'lish shakliga ko'ra ijtimoiyligini ta'kidlaydi.

O'quv faoliyati natijasida avvalo o'quvchida o'zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida qurilgan bo'lishi darkor. Bu

motivlar bevosita o'quvchi shaxsining o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'quv faoliyati ta'lim, o'qish va o'rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim — o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi o'quv faoliyati, o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga o'rgatish jarayonidir.

Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvorning shakllarini o'zlashtirishga qaratilgandir. O'qish va o'rgatish tushunchalari o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, o'rgatishga xizmat qiladi.

*O'quv faoliyatining besh elementi mavjud:*

1. O'quv motivlari.
2. O'quv topshiriqlari.
3. O'quv harakatlari.
4. O'qituvchining nazorati.
5. O'qituvchining baholashi.

D.B. Elkoninning ta'kidlashicha, o'quv faoliyatining shakllantirilishi ayrim kishilar bajarilishini asta-sekinlik bilan o'quvchining o'ziga o'qituvchining ishtirokisiz mustaqil bajarish uchun o'tkazilishidir.

Ta'lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo'lib, u o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. *Ta'lim jarayoni besh elementdan iborat:*

1. Ta'limning maqsadi — nima uchun o'qitish kerak?
2. Ta'limning mazmuni — nimaga o'qitish kerak?
3. Ta'limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo'llari.
4. Ta'lim beruvchi.
5. O'quvchi.

Ta'lim jarayonini tashkil etish — ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o'zlashtirilishidir, ya'ni:

— faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining o'zlashtirilishiga;

— maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to'g'ri tanlash va foydalanishga bog'liq.

*Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati:*

1. Motivasiya.
2. Ma'lumot usullari.
3. Ma'lumotning tushunarlilikligi.

4. Xotira.

5. Ma'lumotni qo'llash.

Ta'lim va ta'lim jarayonida bolaning rivojlanish muammosi psixologik markaziy masalalardan biridir. Ta'lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri:

1. Aqliy xatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.Ya. Galperin).

P.Ya. Galperin nazariyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

1. Motivasiya.

2. Tushuntirish.

3. Moddiy formadagi xatti-harakatlarni bajarish.

4. Baland ovozda xatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.

5. Bajariladigan xatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.

6. Faoliyatni fikran bajarishga kirishish.

Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy turlari ajratiladi:

— birinchi turda — xatti-harakatlarni o'zlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material etarli darajada anglanilmaydi, ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib etmaydi;

— ikkinchi turda — materialni nisbatan dadil va to'la tushunilishi va material bilan bog'liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi;

— uchinchi tur — tez, samarador va bexato xatti-harakatlarni o'zlashtirilishini ta'minlab beradi.

V.V. Davidov nazariyasi. Ushbu nazariya kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ilmiy tushunchalarni o'zlashtirilishini targ'ib qiladi. Bunda o'quvchilar tomonidan ta'lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini o'zlashtirilishi lozim bo'lib, bu o'z o'rnida xususiydan umumiy bilimlarga o'tilishni ta'minlaydi.

Qator nazariyalar muammoli ta'lim bilan bog'liq bo'lib, L.V. Zankov va A.M. Matyushkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta'limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgandir.

Ta'limning psixologik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. Avvalo o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga to'xtaylik. Bu munosabat diqqatda, his-tuyg'ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayoni, avvalo, o'quvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, texnik va EHM

vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Chunki dars jarayonida o'quvchilarning diqqati o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish hamda ularni takrorlash kerak.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

O'qitishning emosionalligi ta'limning muvaffaqiyatlilikini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emosional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o'quvchilarning psixik holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilar emosional ruhdagi materialni durustroq o'zlashtirib oladilar.

O'tkazilgan tajribalar o'quvchilar hech qanday his-tuyg'u uyg'otmaydigan materialga qaraganda, emosional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko'rsatadi. O'qituvchi o'quv jarayonining emosional tomoni haqida g'amxo'rlik qilishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta'limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa g'oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirishi lozim. Ijobiy tuyg'ular o'quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan beg'araz munozara paydo bo'ladi, bahslashiladi, befarq qaragan salbiy munosabatda bo'lingan ishga esa hech qanday hafsala bo'lmaydi.

Jamiyatimizdagi mehnat — ijod, quvonch manbai. O'quv maskani o'quvchilarida o'quv mehnatiga ijodiy munosabat uyg'otib,

mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko‘maklashishi kerak.

Qadimda greklar juda ajoyib iborani qo‘llaydilar: „Talaba — to‘ldirilib turilishi kerak bo‘lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo‘lgan mash‘aldir“ Bu fikrning tagida chuqur ma‘no bor. Zero, o‘qituvchi biz yuqorida ta‘kidlab o‘tgan ta‘lim metodlari muam-moli ta‘lim, qisman izlanish metodi va tadqiqot metodlaridan keng qo‘llanishi kerak. Ta‘lim jarayonini bugungi kundagi asosiy talabla-ridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish bo‘lib, yuqorida aytib o‘tilgan metodlardan foydalanish uchqunlardan katta mash‘allar paydo bo‘lishini ta‘minlab beradi.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning bilishga qiziqishlari g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Qiziqish — o‘quvchilarning emosional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo‘nalishidir.

Ma‘lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o‘quvchilarning ta‘lim jarayonida aniqlanadi. *Birinchisi*, bevosita qiziqish, *ikkinchisi* bilvosita qiziqish. Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida o‘z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o‘quvchilarda ta‘limga aktiv munosabat namoyon bo‘ladi. Psixologiyada qiziqish - bu shaxsning o‘zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo‘lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Qiziqishlar o‘quvchilar hayotida katta rol o‘ynaydi. Ular o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar — motivlaridir. Qiziqishlar ta‘lim maskanlari o‘quvchisiga fan asoslarini durustroq o‘zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o‘sishiga, bilim doirasining kenga-yishiga imkon beradi. O‘qituvchilarning vazifasi o‘quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o‘zi bilan shug‘ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta‘sirchan qilish, qiziqishlarning markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug‘ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir.

O‘quvchilarning muayyan maqsadni ko‘zlab ish tutishida, qiyin-chiliklarni eng olishida, ishdan chalg‘itadigan narsalar bilan shug‘ullanishdan o‘zini tiya olishida, unda o‘qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo‘ladigan iroda ta‘lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Umumiy psixologiya kursidan ma‘lumki, iroda bu shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yo‘lida ma‘lum bir qarorga kelish tezligi va uni o‘z vaqtida

ijro etishi bilan belgilanadigan sifatdir. Ta'lim jarayonida o'quv materialiga bo'lgan diqqatning barqaror bo'lishida irodaviy zo'r berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ta'limda iroda o'quvchida o'quv maskani va uyda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga tayyor turishda namoyon bo'ladi. O'quv materialini o'rganish — eslab qolish va o'quvchining irodaviy zo'r berishiga bog'liq. Iroda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarida — masalani echishga, qo'yilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishida namoyon bo'ladi. Ular o'quvchilarda ko'nikma va malakalarni hosil qilishda ham tarkib topadi.

Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o'quvchilar tomonidan berilgan materialning o'zlashtirilishi ko'p jihatdan irodaning tarbiyalanganligiga bog'liqdir. Irodaviy aktivlik ta'limning zarur shartidir. Ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonining o'zi o'quvchilardan irodaviy o'stirish omillaridan biridir. Bunda, o'quvchilarning kundalik rejimi, o'qish va oqilona dam olishni bir-biri bilan to'g'ri almashtirib turish katta rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida bilish jarayonlarini shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim. Zero bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo'lib, unda jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, abstrakt tafakkurdan amaliyotga o'tiladi, ana shundan so'ng ob'ektiv haqiqat bilib olinadi. Binobarin, biz birinchi navbatda ko'rib chiqishimiz lozim bo'lgan narsa o'quv materialini idrok qilish jarayonidir. Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta'sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo'lishi bo'lib, idrok etish jarayoni ta'limda turli formalarda o'qituvchining og'zaki hikoya qilishida, suhbat o'tkazishda, leksiya o'qishida, ko'rgazmali qurollar ko'rsatish, ekskursiyalar o'tkazish, axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchining o'ziga darsliklar hamda boshqa qo'llanmalarni o'qitish tarzida o'tishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Chunki fazoni, vaqtni va harakatlarni idrok etishda ham yosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo'ladi.

Ta'lim olish jarayoni insondagi motivlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning mohiyati — inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchada ifodalanadi.

Motivasiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik tashkilotchilik,

qo'llab-quvvatlash kiradi. Ta'lim jarayonida o'qish motivlari „nima uchun?“, „nimaga?“, „qanday maqsad bilan?“ kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan, o'quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. O'quv faoliyatida o'quv motivlar o'quvchilar tomonidan tanlanib, ular o'quvchining maqsadi, qiziqishi, kelajak rejalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv motivlari turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi.

O'quv faoliyati *motivasiyasining manbalari* mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Ichki manbalar. Ular insoniy tug'ma yoki orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi tug'ma informatsiyaga bo'lgan ehtiyojdir. Orttirilgan ehtiyojlar esa gnostik va ijtimoiy ijobiy ehtiyojlar hisoblanadi.

2. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari bilan belgilanadi.

Talabalarda ularning birinchisi bo'lib, jamiyatning shaxsdan talab qiladigan doimiy xulq-atvorini bildiradi. Bog'cha, o'quv maskani, oila boladan juda ko'p ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Ijtimoiy kutish har birimizdan ma'lum bilimlar, ko'nikmalar darajasining bo'lishi, zarurligini jamiyat kutishini bildiradi. Masalan, bir yoshli bola yurishi, 7 yoshdan u o'qishi, 15 yoshdan esa kasb tanlashi kerak deb hisoblaymiz. Imkoniyatlar — shaxs faoliyatini belgilovchi ob'ektiv shart-sharoitlardir. Masalan, bolaning boy kutubxonaga ega bo'lishi uni kitob o'qishga undaydi.

3. Shaxsiy manbalar: bu shaxsning qadriyatlarini sistemasi, ustanovkalari va g'oyalari. Bu manbalar har bir shaxs faoliyatida u yoki bu darajada mavjud. Ularning barchasi faoliyatning kechishiga ta'sir etib ta'lim jarayonining motivasiyasini tashkil etadi. V.A. Kruteskiy o'spirinlarda uchraydigan *motivlarning* quyidagilarini alohida ifodalaydi:

- a) biror o'quv faniga qiziqish;
- b) vatanga foyda keltirish istagi;
- c) shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish;
- d) oilaviy an'analarga rioya qilish;
- e) do'st-birodarlarga ergashish;
- f) moddiy ta'minlash va hokazolar.

## **2.2. Pedagogik jamoadagi psixologik muhitning asosiy xususiyatlari**

Psixologlar pedagogik jamoa ruhiy muhitining asosiy xususiyatlari sifatida quyidagi *ko'rsatkichlarni* ajratib ko'rsatadilar:

- jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlaridan, mehnat jaryonidan, rahbarlikdan qanoatlanganligi;
- qanday kayfiyatning ustunligi;
- rahbar va ular qo'l ostidagilarning bir-birini o'zaro tushunishi;
- jamoani boshqarish va o'zini o'zi boshqarishda jamoa a'zolarining ishtirok etish darajasi;
- uyushqoqlik, ongli intizom, ishning unumdorligi. Bu har qanday jamoaga, shu jumladan pedagogik jamoaga ham taalluqlidir. To'g'ri, bolalar jamoalarining ruhiy muhiti o'ziga xos xususiyatlarga ega.

*Pedagogik jamoaning asosiy belgilari:*

- Ichki, ishonchli xotirjamlikning nomoyon bo'lishi, doimiy tetiklik, harakat qilishga tayyorlik. Jamoa har bir a'zosida o'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usining mavjudligi, o'z jamoasi bilan faxrlanish.
- Jamoaning birligi, uning a'zolarining do'stona birlashishi. Ichki munosabatlarda ayrim tarbiyalanuvchilarni tanqid qilish va jazolash mumkin, lekin bunday ta'sir ko'rsatishning maxsus shakllaridan tashqarida har bir tarbiyalanuvchiga tegishli baho berish, uni begonalar oldida himoya qilish, unga hech qanday ozor etkazmaslik.
- Jamoa barcha a'zolarining himoyalanganligi. Har bir tarbiyalanuvchi, u qanchalik zaif, kuchsiz bo'lmasin, o'zining yakkaligi yoki himoyasizligini his etmasligi kerak.
- Jamoa barcha a'zolarining oqilona va foydali faolligi.
- Harakatlarda va so'zlarda o'zini tuta bilish.

## **2.3. Pedagogik jamoadagi o'zaro munosabatlar psixologiyasi**

Pedagogik jamoaning shaxsga ta'siri samaradorligi shaxsning jamoadagi kayfiyati bilan belgilanadi. Bunga quyidagilar kiradi: shaxsning faoliyat, o'zaro munosabatlar, rahbarlikdan qoniqish, shaxsning mazkur jamoadagi himoyalanganligi, uning ichki xotirjamligi. Bularning hammasi hissiy behbudlik atamasi bilan ta'riflanadi va u bola shaxsi rivojlanishining uni hayotidagi ilk bosqichlaridanoq majburiy sharti hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, ruhiy muhitning mohiyati shundan iboratki, jamoada tarkib topgan o'zaro munosabatlar jamoa



a'zolarining qadriyatleri, axloq normalari va manfaatleri bilan belgilanadigan alohida hissiy-ruhiy tusga ega bo'ladi. Har bir shaxs faolligi darajasi jamoaning shaxsiga ta'siri singari shaxs ushbu jamoada hissiy behbudlikni qanchalik boshidan kechirishi bilan belagilanadi.

Demak, har bir shaxs kamolotining va butun jamoaning yuqori ishchanlik qobiliyatini rag'batlantiruvchi ruhiy muhitni tashkil etayotganda, guruh a'zolari orasidagi o'zaro munosabatlarni va unda hukmron bo'lgan qadriyatlarni tartibga solishdan boshlash kerak.

Pedagogik jamoada o'zaro manosabatlarning rasmiy va norasmiy tuzilishlari ajratilib ko'rsatiladi. Bu erda har ikki tuzilish shaxs jamoada egallashi mumkin bo'lgan nuqtai nazardangina qarab chiqiladi.

Munosabatlarning rasmiy tuzilmasi — bu tashqaridan, jamiyat tomonidan berilgan va ushbu jamoa faoliyat ko'rsatishi zarur bo'lgan holatlar (pozisiya) sistemasidir.

Norasmiy shaxslararo munosabatlar sistemasida holatlar har bir o'quvchining o'ziga xosligi va ushbu sinfnng xususiyatlari bilan belgilanadi.

Boshlang'ich o'quv maskanidayoq bolalarning sinf jamoasida muayyan, ularni jalb etuvchi holat (pozisiya)ni, ya'ni etakchi, eng yaxshi o'quvchi, eng yaxshi sportchi va hokazo holatlarni egallashga intilish kuzatiladi.

Ijtimoiy holat ikki o'lchov: shaxsning ijtimoiy xulq-atvori va atrofdagilarning ijtimoiy umidi bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy xulq-atvor — bu real xatti-harakatlar bo'lib, ular tufayli odam o'zini istalgan rolda qaror toptiradi.

Ijtimoiy umidlar — bu atrofdagilarning ushbu odam holatiga munosabatidir. Agar kimdir o'zini mazkur holatda qaror toptirgan bo'lsa, atrofdagilar uni bu holatga „bog'lab qo'ygandek“ bo'ladilar. O'quvchilar yuqori sinfga o'tgani sayin o'z ijtimoiy holatlarini odatda bilibgina qolmasdan, shu bilan birga ko'pincha ularni o'zgartirishga ham intiladilar. To'g'ri, tarkib topgan ijtimoiy umidlar bunga xalaqit beradi.

Ijtimoiy umidlar barqaror bo'lganligi uchun o'smir vaqtini o'tkazib yuborgan holatni o'quvchining o'zi o'zgartirishi qiyin bo'ladi, bu erda pedagogning yordami kerak.

Pedagogik jamoa ichki holatlari orasida peshqadam, etakchining holati alohida o'rin turadi. Bu guruh oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi bilan bog'liqdir. Aynan peshqadamlar

jamoaning normalari va qadriyatlarini belgilaydi. Peshqadam o'z holatining obro'ligi bilan o'z fikrini o'tkazish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bolalar peshqadam o'quvchilarga ishonganlari uchun ham ularga taqlid qiladilar. Jamoadagi psixologik muhit ko'p jihatdan kim peshqadamligiga bog'liq bo'ladi.

#### **2.4. Pedagogik jarayondagi nizolar va uni oldini olishning psixologik masalalari**

Hozirgi kunda nizolarni samarali bartaraf etish pedagogik jamoadagi psixologik muhitni emosional yaxshilashga qaratilganligi, hamkorlikda ishlash samaradorligini oshirishni ta'minlash garovi ekanligi hech kimga sir emas. Shu boisdan pedagogik faoliyatdagi, va umuman, nizolar haqida zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lish foydadan holi bo'lmaydi.

Nizolarni buzg'unchilik oqibatlarini muvaffaqiyatli hal etish ularni atroflicha o'rganishni talab etadi. Bunga esa jamoani yuqori darajada rivojlanganligi va iliq ijtimoiy psixologik muhitga ega bo'lishi orqali erishiladi.

Dastlabki nizo haqidagi konsepsiyalar XIX-XX asrlarda vujudga kelib, asosiy nizo va uning echimlarini topish yo'llari bo'yicha qo'yilgan qadamlar o'tgan asrning oxirlarida salmoqli o'rin tutadi.

Bugungi kunda psixologiya va ijtimoiy psixologiyada V.O. Ageev (1990), A.A. Bodalev (1983), V.I. Juravlev (1983), N.N. Obozov (1979), I.A. Kon (1997), Ya.A. Ansupov, A.I. Shipilov (2000), F.M. Borodkin (1989), A.K. Zaysev (1992, 1993), A.G. Zdravomislov (1995) va shu kabi boshqalarning tadqiqotlarida nizoning nazariy asoslari yoritiladi.

Nizo (lotincha so'zdan olingan bo'lib, „to'qnashish“) — maqsad, qiziqish, pozisiyalar, fikrlar, qarashlar, kishilarning o'zaro ta'sirlashuvdagi qarama-qarshi yo'nalishlar bo'yicha to'qnashishlardan iborat.

Jamoadagi nizoning tabiatini yoritishdan oldin uning ikkita xarakterli jihatini inobatga olishimizga to'g'ri keladi. Birinchisi — nizo va ikkinchisi nizoli vaziyatdir. Ko'pgina adabiyotlar tahlili asosida nizo bilan nizoli vaziyat ajratib turuvchi quyidagi formulani e'tiborga olish muhim deb hisoblaymiz:

***Nizo + Muammo + Nizoli vaziyat + Nizo ishtirokchilari + Insident.***

Bundan ko‘rinayaptiki, nizo — nizoli vaziyat va u bilan bog‘liq boshqa bir qator ahamiyatga ega elementlarni birlashtirishining guvohi bo‘lish mumkin.

Pedagogik jamoadagi nizolarni tahlil etish va ularni hal etish zarurati tug‘ilganda nizo tarkibidagi har bir elementni o‘mini aniq baholashga to‘g‘ri keladi. Nizolarni vujudga kelishi va uni oldini olishda yuqorida taqdim qilingan formulaga alohida e‘tibor qaratish ma‘qul.

Psixologik muhit guruhiy manfaatlarni qondirish, shaxslararo va guruhiy nizolarni hal etishdagi amalga oshirilayotgan muloqotda vujudga keladi va namoyon bo‘ladi.

Shu bois ushbu munosabatlar tafovutli xarakterga egaki, ular ba‘zan do‘stona, hamkorlik, musobaqa yoki raqobat, hamjihatli yoki uyaltirib qo‘yish, qo‘pollik yoki ongli tartib-intizom tarzida gavdalanadi.

Psixologik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib aytilish mumkinki, ta‘lim oluvchilarning o‘zaro ta‘sirlashuvi ko‘pchilik holatlarda to‘rtta asosiy ta‘sir ko‘rsatish usuli orqali amalga oshiriladi: e‘tiqod, taqlid, ta‘sir, majburlash.

Ta‘kidlab o‘tilgan usullardan ham ma‘lumki, pedagogik jamoadagi o‘qituvchi va ta‘lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirlashuv formalarida ham ular o‘z aksini topishi tabiiy. Chunki, ba‘zi holatlarda, o‘qituvchi tomonidan berilayotgan topshiriq va vazifalarning berilishi ta‘lim oluvchilarning dunyoqarashiga mos kelish va kelmasligiga qarab nizoli holatlarni vujudga kelishi tabiiydir. Agar o‘qituvchi shaxsi pedagogik jamaoda etarlicha mavqeiga ega bo‘lgan sharoitda beriladigan vazifa va topshiriqlarning bajarilish tartibi ta‘sir ko‘rsatishning e‘tiqod darajasini namoyon qilishi mumkin. Ishonch va nufuzning yo‘qolishi, etkazilayotgan ma‘lumotlarning to‘laqonligi va aniqligi, muloqot jarayonlarida shubhaning paydo bo‘lishi va boshqalar ham aynan nizoli vaziyatlarni jamoada kechishiga zamin hozirlaydi.

Nizo to‘g‘risidagi odatiy tasavvurlar ma‘lum maxsus tadqiqotlar tomonidan salbiy ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi. M.Doychning ishlarida nizolar nazariy jihatdan tahlil qilinib, ular ikkita turga ajratiladi: **destruktiv va produktiv**.

**Destruktiv** nizoni aniqlash kundalik tasavvurlar bilan mos keladi. Aynan bu tipdagi nizo o‘zaro ta‘sirlashuvda xilma-xillikni va fikrlarning toptalishiga olib keladi. Destruktiv nizo ko‘pincha sababga bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsning stressga tushishiga olib keladi. Uning uchun o‘ziga xos belgilar nizo sodir bo‘lishiga qiziquvchilar sonining ortishi,

ularning nizoli harakatlari, bir-birlariga nisbatan salbiy ustanovkaga egaliklari va bildirilayotgan fikrlarning keskinligi belgilaydi. Boshqa bir belgisi sifatida nizoda opponenning sifat va xislatlarini, o'zaro ta'sirlashuv vaziyatlarini noto'g'ri idrok etishi va sheriklarga ishonchni o'ta ortib ketishi nazarda tutiladi. Bu tipdagi nizolarni hal etish ancha murakkab bo'lib, yagona yo'li ancha qiyinchilik bilan erishiladigan murosa (kompromiss) hisoblanadi.


**Produktiv** nizoni muammo va uning echish yuzasidan nuqtai nazarlardagi tafovutlar va shaxslar o'rtasidagi hamjihatlikning yo'qligi keltirib chiqaradi. Bunday holda nizo muammoni atroflicha tushunishni, sheriklar motivatsiyasini, boshqa nuqtai nazarlarni himoyalashlarini taqozo etadi.

Biz nizolarni psixologik tahlili asosida quyidagi tarkibiy ko'rinishga egaligini keltirib o'tamiz.

Yuqorida keltirilgan rasmdan foydalanib, quyida nizoning funksiyalari xususida to'xtalib o'tamiz.

Nizo o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Nizo bu keng ma'noda va tor ma'noda tushuniladi. **Keng ma'noda nizo** — bu jamiyatdagi yangi va eski qarashlar o'rtasidagi kurash deb qaraladi. **Tor ma'nodagi nizo** — bu bir muammoni echishdagi har bir shaxsning o'z fikrini qattiq turib himoya qilishida yuzaga keladi.

Nizo ijtimoiy psixologiyada qanday tushuniladi? Muomalaning buzilishi yoki psixologik jihatdan ichki ruxiy kelishmovchilikdir. Buni olimlar har sohada har xil tushunishadi. Masalan: G. Kovalev nizoga shunday ta'rif beradi: „Nizo insonlar o'rtasida ijtimoiy va shaxsiy masalalarni echishda vujudga keladigan holat, lekin har qanday qar-



3-rasm. Nizolarning umumiy sxematik ko'rinishi

shilik bu nizo bo‘lavermaydi. Odamlar bir-birining fikri bilan kelishmasligi va o‘zaro bahslashishi mumkin, har biri o‘z fikrida qoladi, lekin baribir kelishib ishlashga ko‘p hollarda majbur bo‘ladi, qarama-qarshilik, ba‘zan yoqtirmaslik, emosiya, tushunmaslik, ko‘rabilmaslik va boshqa sabablar nizoning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Nizo nafaqat qarama-qarshilik, shuningdek, o‘ziga xos kurashish hamdir. Har ikkala tomon ham bunday holatda o‘zlarini haq deb bilishadi va o‘zaro kurashadi. Nizo bu qarama-qarshi dunyoqarashlar negizida yuzaga keladi. Nizoni albatta echish kerak, chunki busiz hayot me‘yorida davom etmaydi. Yuqorida aytib o‘tganimizni tahlil qilib, psixologik nuqtai nazardan biz shunday ta‘rif beramiz: „Nizo — bu shaxslardagi qarashlar, qiziqishlar o‘rtasida qarama-qarshilik natijasida yuzaga kelgan psixologik holat bo‘lib, bu faqat shaxslarning bir-biri bilan hamkorlik jarayonida yuzaga keladi“

## **2.5. Ta‘lim-tarbiya psixologiyasi. Tarbiyaning maqsadi, vazifalari va usullari**

O‘zlashtirish, ta‘lim, keng ma‘noda olganda, o‘quvchining uyushgan bilish faoliyatidir, bu faoliyat idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi qator bilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ijodiy o‘zlashtirish sifatida o‘qish, bilim egallash uch omilga — nimani o‘qitishga, kim va qanday o‘qitishga, kimni o‘qitishga bog‘liqdir. *Birinchidan*, o‘qishning xarakteri o‘zlashtirilayotgan materialga, uning mazmuniga va qanday sistemada etkazib berilayotganligiga bog‘liqdir. *Ikkinchidan*, u o‘qituvchining metodik mahoratiga va tajribasiga, uning shaxsiy xususiyatlariga, har bir ayrim holda qo‘llaniladigan konkret o‘qitish metodikasiga bog‘liqdir. Nihoyat, o‘qish jarayoni o‘qituvchining o‘ziga xos xususiyatlariga ham — uning psixik rivojlanishining (aqliy, emosional, irodaviy jihatdan) individual xarakteristikasiga, unda o‘qishga nisbatan qaror topgan munosabatlarga, uning qiziqish-havaslariga bog‘liqdir. Boshqacha qilib aytganda, ta‘lim jarayoni o‘quvchiga nimani va qanday qilib o‘rgatishning oddiy va bir xil natijasi emas, balki sirdan ta‘sir qildiriladigan shart-sharoitlarning oqibati hamda o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlariga bog‘liq ravishda amalga oshiriladi.

N.D. Levitov fanga o‘zlashtirishning psixologik komponentlari degan tushunchani kiritadi. U ana shu komponentlar deganda o‘quvchi psixikasining bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan ko‘p qirrali tomonlarini tushunadi. Uning fikricha, ana shu komponentlarni aktivlashtirmasdan

va tegishli tarzda yo'naltirmasdan turib, ta'limda maqsadga erishib bo'lmaydi. Bunday komponentlarga quyidagilar kiradi.

1. O'quvchilarning o'qishga ijobiy munosabatda bo'lishi. O'qishga ijobiy munosabatda bo'lish o'quv materialini to'la-to'kis o'zlashtirishning mutlaqo zarur shartidir. O'quvchining o'qishga munosabati uning o'qishga diqqat qilishida, qiziqishida, qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun iroda kuchini sarflashga tayyor ekanligida ifodalanadi.

2. Material bilan bevosita hissiy tanishish jarayonlari. O'quv materialini o'zlashtirishda his etiladigan, ko'rgazmali materialning, „jonli mushohada“ning roli kattadir. Psixologik nuqtai nazardan predmetli, tasviriy va so'z ko'rgazmaliliklari farq qilinadi.

3. Olingan materialni aktiv ravishda qayta ishlash jarayoni bo'lgan fikrlash jarayoni. O'quv materialni anglash, tushunish, uni muayyan sistemaga kiritish, muayyan sohalarga oid aloqalarni, fanlar ichidagi va fanlararo aloqalarni topa olish va ularni o'zaro bog'lay olish (Yu.A. Samarini fikri bo'yicha) — o'zlashtirishning navbatdagi eng muhim komponentidir.

Tushunish hamisha yangi materialni tarkib topib bo'lgan assosiasiyalar sistemasiga kiritishni, notanish materialni tanish material bilan bog'lashni anglatadi. Sabab-oqibat bog'lanishlari munosabatlarini o'rganish o'quvchilar uchun birmuncha qiyinchilik tug'diradi, bunga sabab, bir tomondan shuki, hatto bir xildagi oddiy munosabatlar ham ko'pincha bir tomonlama emas (birdan-bir sabab - bitta oqibat), balki ko'p tomonlama bo'ladi. Bitta sabab ko'p oqibatlarga ega bo'ladi yoki bitta oqibatni ko'pgina sabablar vujudga keltirishi mumkin. Ikkinchi tomondan, bu qiyinchiliklar shu narsa bilan bog'liqki, sabab-oqibat bog'lanishlari ko'pincha oddiy kuzatish yo'li bilan idrok qilinmaydi, balki tafakkur yordamida aniqlanadi.

4. Qabul qilingan hamda ishlab chiqilgan axborotni esda olib qolish va esda saqlash jarayoni. O'quvchining tafakkuri bilan qabul qilingan va qayta ishlangan axborot xotirada saqlanishi lozim. Bu esa istalgan bir paytda xotiradagi zahiralaridan zarur ma'lumotlar olish va ularni qo'llash imkoniyatini beradi.

Ko'pgina psixologlar ta'lim jarayonini tahlil qilar ekanlar, uni etarli darajada boshqarib bo'lmaydigan jarayon deb ta'kidlaydilar. Lekin uni butunlay boshqarib bo'lmaydigan, stixiyali ravishda tarkib topadigan jarayon deb atash noto'g'ri, aks holda bu hol aniq maqsadni ko'zlab ta'lim berish g'oyasining o'ziga zid bo'lar edi.

Hozirgi zamon pedagogik psixologiya fanida ta'limni oqilona intensivlashtirishni, ya'ni o'quvchilarning yoshlariga xos intellektual imkoniyatlari haqidagi an'anaviy tasavvurlarni o'zgartirish, ta'lim oluvchilarning aqliy taraqqiyot rezervlarini qidirib topish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, psixologlar ta'lim prosessida o'quvchilarda aktiv, mustaqil, ijodiy tafakkurni, mustaqil bilish faoliyatiga, mustaqil bilim egallashga, yoki ba'zi hollarda o'z-o'zicha ta'lim olishga oid qobiliyatni o'stirish choralari ko'rmoqdalar. Shuningdek, ta'limni individuallashtirish va differensiyalashning psixologik negizlari ishlab chiqilmoqda. L.V. Zankov ancha mashhur yangi didaktik ta'lim sistemasini (kichik yoshdagi o'quvchilar bilan) ishlab chiqdi. Bu sistemaga quyidagi prinsiplar asos qilib olinadi:

1) Ta'limni yuqori darajadagi qiyinchiliklar asosida (qiyinchilik mezoniga qat'iy rioya qilgan holda) qurish. Faqat ana shunday ta'lim, deb ko'rsatadi L.V. Zankov, jiddiy aqliy ish olib borish uchun oziq berishi hamda o'quvchilarning tez va intensiv ravishda rivojlanishiga ko'maklashishi mumkin.

2) Materialni tez sur'at bilan o'tish (yana aqlga to'g'ri keladigan chegarada); ta'limning bilishga taalluqli tomonining, nazariy bilimlarning salmog'ini keskin tarzda oshirish. Materialni egallashga olib boradigan yo'l — olingan ma'lumotlarni uzviy o'zaro bog'liq holda, o'quvchining savollariga mustaqil ravishda javob izlash, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tekshirish yordamida chuqur anglab olishdir.

Ko'rsatib o'tilgan prinsiplarga muvofiq ravishda tashkil etilgan eksperimental ta'lim shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar ancha chuqur va mazmunli bilim olibgina qolmay, balki ularning aqliy faolligi ortadi, ularning yuqori darajadagi intellektual rivojlanishi ta'minlanadi, o'qishga ijobiy munosabat tarbiyalanadi.

Ta'limning asosi - o'qituvchining o'quvchilarga etkazadigan mo'l-ko'l axborotni esda olib qolishi emas (garchi bu muhim vazifa bo'lsa-da), balki bu axborotni olish jarayonida o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etishi, ularning mustaqil fikr yuritishini, mustaqil bilim olish, o'z-o'zicha ma'lumotini oshirish qobiliyatini asta-sekin shakllantirib borishdan iborat bo'lmog'i kerak. Ko'pgina psixologlar L.S. Vigotskiy tomonidan aniqlangan qoida, ya'ni ta'lim berish o'quvchi qo'lga kiritib bo'lgan rivojlanish darajasini ko'zlamasdan, birmuncha olg'a ketishi, o'quvchining tafakkuriga uning mavjud imkoniyatlarini birmuncha oshiradigan talablar qo'yishi, u erishgan va yaxshi

o'zlashtirib olgan analitik-sintetik faoliyat darajasini talab qilishi kerak degan qoidaga asoslanadilar. L.S.Vigotskiy ta'limning aqliy rivojlanishidagi etakchi rolini ta'kidlar ekan, ta'lim o'quvchining rivojlanishidagi kechagi kunga emas, balki ertangi kunga tayanmog'i lozim, deb hisoblagan edi. Ta'lim rivojlanishning faqat tugallangan darajasi asosida ko'rilmadan, avvalo, hali unchalik tarkib topmagan (va shunday ta'lim ta'siri ostida tarkib topayotgan) narsalarga tayanmog'i lozim.

L.S. Vigotskiy boladagi aqliy rivojlanishning 2 darajasi haqidagi qoidani ifodalab beradi. Birinchi daraja, L.S. Vigotskiy aytganidek, aktual rivojlanish darajasi — o'quvchi tayyorgarligining mavjud darajasi bo'lib, u o'quvchining qanday topshiriqlarni to'la mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi. Ancha yuqori bo'lgan ikkinchi daraja (uni Vigotskiy eng yaqin rivojlanish zonasi deb atagan) bolaning nimani mustaqil bajara olmasligini, lekin ozroq yordam bilan (yo'l-yo'riq beruvchi savollar, aytib berishlar, ishora qilishlar, umumiy ko'rsatmalar berish va hokazo) nimaning uddasidan chiqa olishini ko'rsatadi. L.S.Vigotskiy, bola bugun kattalar, o'qituvchi yordamida bajarayotgan narsani ertaga mustaqil ravishda o'zi bajaradi, eng yaqin rivojlanish zonasiga kirgan narsalar, ta'lim prosessida aktual rivojlanish darajasiga o'tadi deb ta'kidlagan edi.

„Faol tafakkur“, „mustaqil tafakkur“ va „ijodiy tafakkur“ tushunchalari o'rtasidagi munosabatni konsentrik doiralarda shakllida belgilash mumkin. Bu tushunchalar tafakkurning turli darajalari bo'lib, ularning har biri o'zidan oldingi boshlang'ich tafakkurga nisbatan bir ko'rinish hisoblanadi. Ijodiy tafakkur mustaqil va aktiv bo'ladi, lekin har qanday aktiv tafakkur ham mustaqil tafakkur bo'lavermaydi va har qanday mustaqil tafakkur ham ijodiy tafakkur bo'lavermaydi. Buni misol tariqasida tushuntirib beraylik. O'quvchi teoremani isbot qilishni tushuntirib berayotgan o'qituvchining so'zlariga diqqat bilan quloq soladi, materialni tushunib olishga harakat qiladi — bu erda gap aktiv tafakkur haqida borishi mumkin. Agar o'qituvchi tushuntirish o'rniga o'quvchilarga teoremani darslik teksti asosida mustaqil tahlil qilishni, tegishli bo'limni mustaqil ishlab chiqishni taklif etsa, u holda mustaqil (va, albatta, aktiv) tafakkur haqida gapirish mumkin. Isbot qilib berilmagan narsani o'quvchining o'zi kashf etib, o'zi topgan taqdirda ijodiy tafakkur haqida gapirsa bo'ladi.

O'quvchilarning biror bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim metodi — problemali-evristik yoki



tadqiqotchilik metodi deb ataladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu o'rinda faqat natijaning topilishi, haqiqatning sub'ektiv „kashf etilishi“ fakti emas, uni izlash jarayonining o'zi ham, o'quvchilarni ijodiy fikr „laboratoriyasi“ning o'ziga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Problemani ta'lim shu jihatdan bir *qancha afzalliklarga* ega bo'ladi:

1) U o'quvchilarni mantiqiy, ilmiy, dialektik, ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

2) U o'quv materialini ancha ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e'tiqodga aylanishiga ko'maklashadi.

3) U odatda, ancha ta'sirchan bo'lib, chuqur intellektual his-tuyg'ular, shu jumladan, shodiyona qoniqish tuyg'usini, o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonish tuyg'usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni qiziqtiradi, o'quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi.

4) Haqiqatning, qonuniyatning mustaqil „kashf etilishi“ osonlikcha unutilmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham, ularni tezroq qayta tiklash mumkin.

Ta'limni individuallashtirish har bir o'quvchi individual (alohida), boshqalarga bog'liq bo'lmagan holda ta'lim oladi degan ma'noni bildirmaydi (garchi prinsip jihatidan shunday ta'lim bo'lishi mumkin bo'lsa ham). Xususan, programmashtirilgan ta'lim (epizod sifatida emas, balki ta'lim sistemasi sifatida) o'z tabiatiga ko'ra individuallashtirilgan ta'limdir. Ta'limni individuallashtirish — o'quvchining individual-psixologik xususiyatlariga tayanadi, ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda quriladi.

Ta'limni individuallashtirish prinsipi o'qitishda o'quvchilarning real tiplariga tayanish zarurligiga asoslanadi. Bu prinsipni, biz ko'rib o'tganimizdek, programmashtirilgan ta'lim juda yaxshi amalga oshiradi. Lekin odamdagi ta'lim sharoitida ham bu prinsip tadbiiq etilishi mumkin va lozim. O'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari ta'limning ayrim metodlari va usullarini tanlash hamda qo'llash vaqtida, sinf va nazorat ishlarning variantlarini (ularning qiyinlik darajasiga qarab) aniqlashda hisobga olinadi.

Ta'limning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan motivasion-qiziqarli tomonlariga ko'proq e'tibor berilishi lozim. Ana shu o'quvchilar bilan olib boriladigan ishning xarakterli xususiyati — ular psixikasining ojiz tomonlariga passivlik bilan moslanish emas,

balki bu o'quvchilar maksimal darajada voyaga etishi uchun ularning aqliy rivojlanishiga aktiv ta'sir ko'rsatish prinsipi bo'lmog'i kerak. Tarbiyachi va o'qituvchi ayrim bolalarda o'zining o'rtacha ekanligi, qobiliyatsizligi va hatto mukammal emasligi haqida paydo bo'lgan tasavvurga aktivlik bilan qarshilik ko'rsatishlari lozim. Ta'lim bunday o'quvchilarning individual xususiyatlariga muvofiqlashmaydi, balki o'quvchining o'zi tobora tezlashib va murakkablashib borayotgan ta'lim prosesiga ko'proq moslashadi.

Pedagog va psixologlarning asosiy vazifasi — barcha bolalarning qobiliyati maksimal darajada va har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni aniqlashdan iborat. Shu bilan bir qatorda, muayyan sohalarida chuqur qiziqishini, moyilligi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni ham aniqlash va ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish zarur. Bu vazifani differensiyalashgan (keng ma'noda olganda) ta'limning turli shakllari bajarishi mumkin. Bu erda maxsus maktablar va sinflarning har xil tiplari (matematik, fizik, ximik, biologik va hokazo tiplari), fakultativ kurslar, maktab ilmiy jamiyatlari, bilim beradigan to'garaklar va hokazolar ko'zda tutiladi.

Differensiyalashgan ta'limning barcha sanab o'tilgan formalari asosida quyidagi fikr, ya'ni hamma o'quvchilar hamma fanlar bo'yicha bilimlarning muayyan minimumini to'la-to'kis o'zlashtirishlari (bu minimum davlat o'quv programmalarida belgilab berilgan), bundan tashqari esa, ayrim fanlarni asosliroq va chuqurroq o'rganishlari yoki o'quv rejasiga kirmaydigan fanlarni o'rganishlari mumkin, degan fikr yotadi.

Tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir.

Tarbiya — bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

*Tarbiya bu bir maqsadga qaratilgan ijtimoiy jarayon bo'lib, u to'rtga bo'linadi.*

1. Tarbiyalash o'qitish jarayonida olib boriladi va uning barcha shakl va usullari tarbiyaning mazmunini yoritishga harakat qiladi, bunga S.L. Rubinshteyning „O'qitish orqali biz tarbiyalaymiz, tarbiyalash orqali o'qitamiz fikrlarini misol qilishimiz mumkin“ degan. Ushbuni

mazmunini tahlil qiladigan bo‘lsak tarbiya o‘qitishning mazmuniga kiradi.

2. Tarbiya ma’lum bir muassasa tashkilotlarida olib boriladi, masalan har-xil to‘garaklarda, jamoat ishlarida, turli yo‘nalishlarda mehnat qilish oqibatida. Bu joyda tarbiyaning mazmun — mohiyatini ochib berishga barcha shakl va usullar xizmat qiladi.

3. Tarbiya ta’lim jarayonidan tashqarida amalga oshiriladi, oilada, mehnat jamoasida, guruhda, jamoat muassasalarida, bu joylarda ta’lim olib borilishi mumkin, lekin reja asosida emas.

4. Tarbiya boshqa muassasalarda olib boriladi, masalan: klublar, madaniyat uylarida, har xil to‘garaklarda, bu erda ta’lim epizodik xarakterga ega bo‘ladi.

Tasavvur qiling: ilmi, katta ixtirolarga qurbi etadigan, qonunlarni yaxshi o‘zlashtirgan mutaxassis ma’naviyatsiz, tarbiyasiz, ahloqsiz bo‘lsa nima bo‘lishi mumkin? U o‘z manfaatini o‘ylaydi, Vatan uchun biror narsa qurbon qila olmaydi, chunki u xudbin. Unda mehr-oqibat, fidoyilik, vatanparvarlik, milliy g‘urur yo‘q. U muhtojlarga yordam bermaydi, chunki unda tarbiya shakllanmagan.

Xulq-atvor va odatni shakllantirish, ma’lumki, odam ongining yuksak belgilaridan biri — uning o‘zini anglashidir. Odamning o‘zini anglashi, o‘z navbatida, shaxsning muhim belgisi hisoblanadi. Odam o‘z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va shu olamga ta’sir etuvchi sub’ektdir. Odamning idrok etadigan, tasavvur qiladigan narsalari uning uchun ob’ektdir. Ana shu nuqtai-nazardan olganda, odamning o‘zini anglashi sub’ektiv ravishda o‘zini „men“ deb his qilishida ifodalanadi.

Odam ijtimoiy zot bo‘lganligidan unga o‘zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o‘zga kishilar bilan qiladigan har turli munosabatlarda odamning o‘zini anglashi, o‘zini „men“ deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi. Odam o‘zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o‘zining o‘tmishi va kelajagini, o‘z huquq va burchini va nihoyat o‘zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi o‘zini anglashiga kiradi.

Inson tabiatini o‘zgartiradigan, uning shaxsining tarkib topishiga ta’sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacha qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o‘sishi va o‘zgarishidir. Bundan tashqari, yana inson shaxsining tarkib topishiga ta’sir qiluvchi kuchli omil — inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Shunday qi-

lib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta'sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi, odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi, odamga uzoq muddat davomida sistemali beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nihoyat, uchinchi, odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir.

Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog'liqdir. Bu faktor nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siridir. Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlar beriladi. Masalan: tanasining tuzilishi, sochi va ko'zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma ravishda berilishi mumkin. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan berilmaydi. Nihoyat, nodir hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematika qobiliyatlar nasliy yo'l bilan berilishi mumkin. Bunday imkoniyatlarning amalga oshirilishi, ya'ni ro'yobga chiqishi uchun albatta, ma'lum sharoit bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda xalqimiz orasidan etishib chiqqan iste'dodli olimlar, muhandis-ixtirochilar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblari, iste'dodli artistlar, rassomlar va boshqa kishilarimizga nasliy yo'l bilan berilgan barcha imkoniyatlarning ro'yobga chiqishi uchun har qanday sharoit maydonga kelganligini dalili bo'la oladi.

Shuning uchun ham, xalq pedagogikasida tarbiyaning maydachuydasi, ya'ni birlamchi-ikkilamchi sohasi bo'lmaydi: hamma narsa hisobga olinishi kerak, ayni chog'da tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari e'tiborga olingan holda, etti o'lchab bir kesishga amal qilinadi. Xarakterli tomoni xalq pedagogikasining, bugun va ertani o'ylab ish tutiladi, bundan tashqari tarbiyaning o'tmishini ham unutmaslik, bugunning qadriga etishlik, kelajakka umid asnosida olib boradi.

Xalq pedagogikasining yana bir ibratli jihati bor, bu hayot, tabiat va jamiyatdagi har bir voqea — hodisa, predmet, ko'rinish, qisqasi, jonli-jonsiz neki bor, undan unumli foydalanishdir.

O'rninga kelganda xalq pedagogikasida ishontirish, isbotlash, ta'sir, ibrat namunasi, tajriba natijalari, tasdiqlash ham alohida o'rin tutishini aytib o'tish zarur.

Xalq bisotidagi eng yaqin tabarruk so'zlar — duo, olqishlar xalq tarbiyasiga qaratiladi. Xalq pedagogikasida yaxshi so'z, duo, olqishning ta'sir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati, inson ma'naviy ustuvorligi, iymon-e'tiqod butunligiga alohida ahamiyat beriladi.

Xalq pedagogikasi iqtidorli shaxslar yoki jamoa tomonidan yaratilmagan, balki o'sha iqtidorli savodli shaxslar tomonidan qog'ozga tushirilib saqlanib qolingan, masalan Al-Buxoriyning hadislarini olib ko'raylik.

Endi savol tug'ilishi mumkin, xalq pedagogikasining bunchalik ta'sir kuchi, ahamiyati nimada? Yashovchanligi, „umri“ ning bunchalik uzoq muddatlar bilan o'lchanishi, uni hech qanday kuch-qudrat bilan tenglashtirib bo'lmasligining boisi qayerda?

Birinchidan, uning hayotligi, ta'sirchanligi, serqirra, serma'noligida bo'lsa, ikkinchidan, uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'alarida yaratilishi, yashashi, hayot, inson muammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalarini echilishi hal qilishga qaratilgani, uchinchidan, umuminsoniy yo'nalishga, umumbashariy g'oya maqsadlariga qaratilgan bo'lganligidir. Shuning uchun ham, xalq pedagogikasini turli to'fon bo'ronlardan, ur-yiqitlardan eson-omon qolganlari bugungi kungacha etib kelgan.

Har qanday boylikning nihoyasi bo'ladi, oltin, zar, zarga o'ralishning umri qisqa, binolar qulashi, nurashi, sulolalar kelib-ketishi, avlodlar ketidan yangilari kelishi tabiiy, ammo, xalq pedagogikasi hayqirib oquvchi daryodek uyg'oq, quyosh taftidek issiq, oy nuriday nurafshon.

Xalq pedagogikasidan foydalanishda *quyidagi vazifalarni nazarda tutish* lozim:

— Ta'lim muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga xos ravishda milliy istiqlol mafkurasini singdirishning differensial pedagogik-psixologik dasturini yaratish;

— Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi-talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish:<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. T., O'zbekiston, 2000. 62- bet.

Pedagogik faoliyat bu bir kunlik, bir soatlik yoki bir oylik faoliyat emas balki pedagogik mahorat, o'ziga xos ko'p vaqt talab qiladigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Uzlüksiz ta'lim, bu hozirgi kun talabidan kelib chiqib, hozirgi kun uchun dolzarb muammo hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxs odam ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar sistemasining ta'siri ostida va unda o'zi bajaradigan faoliyat ta'siri ostida tarkib topadi. Ijtimoiy muhitning, kollektivning shaxsga ta'siri to'g'risida gapirilar ekan, ijtimoiy psixologiya ishlab chiqayotgan referent guruh tushunchasiga asoslanish zarur. Gap shundaki, hamma odamlar ham, hatto eng yaqin tevarak-atrofdagi odamlar ham maktab o'quvchisining shaxsiga ta'sir qilavermaydi, ko'pchilikning fikrlariga u befarq qaraydi. Har bir odam uchun bo'lganidek, har bir maktab o'quvchisi uchun ham ayrim guruhlar (ba'zan bunday guruh bir kishidan tarkib topgan bo'lishi mumkin) mavjud bo'ladi, u shaxs sifatida bu guruhlarining fikrlari, o'zi uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan mulohazalari bilan hisoblashadi. Oila, sinf, sinfdagi ayrim o'quvchilar, ba'zi o'qituvchilar, hovlidagi ulfatlar, yaqin do'st va hokazolar muayyan maktab o'quvchisi uchun ana shunday referent guruhlar bo'lishi mumkin. Maktab o'quvchisining tez-tez uchrab turadigan tarbiyaviy ta'sirlariga befarq yoki hatto salbiy munosabatda bo'lish hollariga ko'pincha o'quvchining tarbiyachiga ma'lum bo'lmagan referent guruh pozitsiyasida turishi sabab bo'ladi. A.V.Petrovskiyning oqilona fikriga ko'ra, agar tarbiyachi, maktab o'quvchisi hech narsa va hech kim ta'sir qila olmaydi, deb da'vo qiladigan bo'lsa, bu narsa odatda tarbiyachining maktab o'quvchisi axloqiy pozitsiyasini belgilab beradigan ta'sirli referent guruhlardan mutlaqo xabarsiz ekanligini bildiradi.

Bolalik va maktab yoshida shaxs tarbiyaning hal qiluvchi ta'siri ostida tarkib topadi. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida muayyan dasturning, anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan, ta'sir ko'rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asoslab berilgan vositalari, formalari hamda metodlarining qo'llanilishi bilan tasodifiy va stixiyali ta'sirlardan ajralib turadi. A.S. Makarenko alohida ta'kidlab bunday degan edi, „sog'lom tarbiyaviy vaziyatsiz mukammal shaxs vujudga kelgan yoki aksincha, to'g'ri tarbiyaviy ish olib borilgan paytda buzilgan shaxs tarkib topgan birorta holni bilmayman“.

Maktab o'quvchisining muayyan qoidalar va normalarni bilishi ma'naviy xulq-atvorning zarur shartidir. Biroq axloq normalarini shu

tariqa bilish o'z-o'zidan axloqiy xulq-atvorni tegishli darajaga erishtirmaydi. Buning ustiga, bilimlarni ma'naviy xulq-atvor praktikasisiz o'zlashtirib olish — ma'naviy bilimlar bilan ma'naviy xulq-atvor o'rtasidagi ajralishda ifodalanadigan „axloqiy formalizm“ deb ataluvchi formalizmning yuzaga kelishiga olib boradi. Shuning uchun maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyalanuvchisi, maktab o'quvchisining hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ijodiy axloqiy, sosial ijtimoiy xulq-atvor tajribasi uning shaxsini tarkib toptirishda asosiy narsa bo'lishi kerak. O'quvchida bu narsa tarbiyachi rahbarligida hosil bo'ladi. Bu narsa o'quvchilarda bilimlar sistemasini — tabiiy, axloqiy va g'oyaviy-siyosiy bilimlar sistemasini, (bu bilimlar muayyan darajada etakchi rol o'ynagan paytda) tarkib toptirish bilan yuz berishi kerak.

Psixologlar (avvalo L.I. Bojovich va uning shogirdlari) bola va maktab o'quvchisining shaxsini tarkib toptirishda uning faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, uning to'g'ri xulq-atvor tajribasini orttirishigina emas, balki xulq-atvorining (ma'lum harakatga undovchi fikrlari, his-tuyg'ulari, maqsadlari sistemasini) to'g'ri motivlarini tarbiyalash ham hal qiluvchi narsa ekanligini ko'rsatib beradilar.

Psixologlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, birgina faoliyatning o'zida (bu faoliyatning bola uchun nima sababdan yuz berishiga ham qarab) shaxsning har xil (va hatto bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan) sifatlari tarkib topishi mumkin. Masalan, biz tarbiyalanuvchilarni boshqalarni ochiqdan-ochiq va dadil tanqid qilishga o'rgatamiz. Ana shunday qilish bilan bolada prinsipiiallik, jasurlik, sof dillik, tanqidiy ko'z bilan qarash fazilatlarini tarkib topadi deb hisoblaydilar. Ammo biz aytilganlarni hisobga olmasak, hamisha ham o'zimiz ko'zlagan maqsadga erishavermaymiz. Chunki xulq-atvorning ana shu to'g'ri formasi negizida maktab o'quvchisi amal qiladigan motivlar yotadi. Bu xulq-atvor shaxsan o'quvchining o'zi uchun qanday ma'noga ega bo'lishiga qarab, unda har xil sifatlari tarkib topishi mumkin. Agar o'quvchi o'z o'rtog'ini prinsipiial motivlar asosida tanqid qiladigan bo'lsa, bu tanqid uning o'rtog'ida xarakterning prinsipiiallik, qat'iylik, halollik singari sifatlari tarkib toptirishga yordam beradi; bordi-yu, o'z aybini o'rtog'ining bo'yniga qo'yish istagi bilan tanqid qiladigan bo'lsa, bu xudbinlik, individualizmning tarkib topishiga yordam beradi. Agar shaxsiy g'araz bilan tanqid qilinadigan bo'lsa, unda shu asosda qasoskorlik, makkorlik, insofsizlik xislatlari tarkib topadi. Agar bunday tanqid qilishga, nihoyat, o'qituvchidan qo'rkish va unga yoqish istagi

yoki mag'rurlik istagi, prinsipiiallik sabab bo'lsa, unda laganbardorlik, ikki yuzlamachilik singari xislatlar tarkib topishi mumkin. Binobarin, to'g'ri xulq-atvor tajribasi bu xatti-harakat muayyan motivlar asosida amalga oshirilgan vaqtdagina ko'zlangan maqsadga olib keladi. Shuning uchun xulq-atvorning to'g'ri motivlarini tajribada tarbiyalash va mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab o'quvchilarida muayyan vaziyatlarda tarbiyaviy ta'sirlar vositasida yuzaga keladigan ijobiy motivlar ularning tajribasida mustahkamlanishi va barcha boshlang'ich vaziyatlarga tarqalishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, shaxsning har bir sifat strukturasi, binoabarin, maktab o'quvchisining tegishli xatti-harakatiga ijobiy munosabatda bo'lishiga imkon beradigan motiv, ikkinchidan, xatti-harakatlarning mustahkamlangan usuli kiradi. Shunday qilib, shaxsning sifati L.J. Bojovichning iborasi bilan aytganda, xatti-harakat motivlari va bu motivlar tegishli formalarining o'ziga xos birikmasidir. Xatti-harakat barqaror, hukmron (asosiy) motivlarning sistemasini ba'zi psixologlar (L.I. Bojovich, M.S.Neymark) shaxsning yo'nalishi deb ta'riflaydilar. M.S. Neymark maktab o'quvchilarining yo'nalishini tadqiq qildi va bu yo'nalishning uchta asosiy turini — kollektiv, shaxsiy va ishchanlik yo'nalishlarini (ishga, faoliyat jarayoniga bo'lgan yo'nalishni, ijodiy faoliyatga qiziqishni) alohida ajratib ko'rsatdi. Yo'nalishning kollektiv, shaxsiy turlari bir xil, to'g'ri xarakteristikasiga ega bo'lmasligi kerak. Haqiqiy kollektiv yo'nalishidan tashqari „xudbinlik guruhi“ deb atalgan yo'nalish — boshqa kollektivlarning qiziqishlarini mutlaqo mensimagan holda faqat bitta kollektivning, (guruh, sinf) qiziqishlarinigina e'tirof etadigan yo'nalish ham bor. Shaxsiy yo'nalish shaxsiy yutuqlarga erishishga qaratilgan yo'nalish sifatida hamma vaqt ham kollektiv yo'nalishiga qarama-qarshi bo'lavermaydi.

Psixologlar tarbiyaviy ish metodlarining psixologik asoslarini ishlab chiqayotganlarida, tarbiyaning har qanday metodiga abstrakt tarzda qarab va uni baholab bo'lmaydi, degan fikrga asoslanadilar. Bu metodlar qo'llanilayotganda, birinchidan, tarbiyalanayotgan o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini, ikkinchidan, shu o'quvchi a'zo bo'lgan bolalar kollektivining xususiyatlarini, nihoyat, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan muayyan konkret sharoitlarni hisobga olish zarur. Shaxsning ijobiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun, maktab o'quvchisining barcha vaziyat va holatlarida to'g'ri yo'l tutishi uchun uning nima qilishni bilishi, o'zi hurmat qiladigan kishilarning nima



qilayotganlarini ko'rish va o'zi ham to'g'ri xulq-atvorli bo'lishni mashq qilish (bu — eng muhim) zarur.

Bilimlar — axloqiy tasavvurlar va tushunchalarning muayyan sistemasini egallamasdan turib haqiqiy e'tiqodlarni tarkib toptirib bo'lmaydi. O'z-o'zidan bu bilimlar axloqiy xulq-atvorni belgilamasdan turib, unga muhim ta'sir ko'rsata olmaydi. Psixologik tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni juda murakkab jarayon bo'lib, unga maxsus rahbarlik qilishni talab etadi. O'quvchilarning tasodifiy hollar, ko'chadagilarning bema'ni ta'siri, kattalarning yaramas xatti-harakatlari ta'sirida tarkib topadigan axloqiy tushunchalari tarbiyachilar va jamoa tomonidan to'g'ri g'oyaviy rahbarlik qilinmasa, hatto, noto'g'ri, buzuq tushunchalarga aylanib qolishi mumkin. Ba'zan o'quvchi turmushdagi biror fakt yoki voqeani, adabiy asarlardagi mazmunni, kinokartinalarni o'zi mustaqil tushuna olmay, noto'g'ri xulosalarga kelib qoladi. Juda og'ir sharoitlarda o'quvchida xato fikrlargina emas, balki ma'naviy tamoyillar va ustanovkalar ruhiga ko'ra, bizga yot bo'lgan xatolar ham yuzaga kelishi mumkin.

Axloqiy ongni tarkib toptirishning eng muhim yo'li o'quvchilarning o'zlarida to'g'ri xulq-atvorni yuzaga keltirish bilan axloqiy tajribani boyitish va umumlashtirish yo'lidir, albatta. O'quvchilardagi axloqiy bilimning turli-tuman shakllari, ularning ongi va his-tuyg'ulariga jonli, yorqin otashin so'zning (jamoalarda uyushtiriladigan etik suhbatlar, ma'ruzalar, munozaralar) ta'siri bu ishni ancha to'ldirishi mumkin.

Aktiv ta'sir ko'rsatishning ajoyib ustasi bo'lgan A.S.Makarenko ham axloqiy (etik) suhbatlarning chinakam tarafdori edi. Uning o'zi nazariy axloqiy turdagi suhbatlarning konspektini yozar, ularda eng yaxshi bunday axloqiy nazariyaning katta samaralarini ko'rar edi.

Bu borada muayyan tamoyillar ishlab chiqilgan bo'lib, axloqqa doir suhbatlar o'sha tamoyillar asosida tuzilishi kerak. Bu tamoyillar quyidagilar:

1. Axloqqa doir suhbatlar mazmuni jihatidan tegishli yoshdagilarga tushunarli bo'lishi lozim. Mavhum va abstrakt tushunchalar, murakkab mulohazalar bilan toliqtirib qo'yishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

2. Odatda, suhbat o'tkaziladigan kollektivni, uning yo'nalishini, kollektiv a'zolarining o'zaro munosabatlarini, o'qituvchiga, o'qish va boshqalarga munosabatini yaxshi bilish zarur.

3. Bunday suhbatlarni nihoyatda tez-tez o'tkazib turmaslik darkor. Agar suhbatlar konkret sabablar bilan, mamlakat yoki kollektiv hayotidagi biror voqeaga to'g'irlab o'tkazilsa, juda yaxshi natija beradi.

4. Suhbatni yorqin, yaxshilab tanlab olingan konkret misollarni, hayotiy voqealar yoki adabiy asarlardagi faktlarni hamda kuzatishlarni tahlil qilishdan boshlab, umumlashtirish va xulosalar chiqarish asosida o'tish tavsiya etiladi.

5. Emosional tarzda keltirilgan, yorqin va ta'sirchan obrazga oqilona tayanish (nafis san'atdan, adabiyot asarlaridan foydalanish. Kinofilmlar yoki teatr asarlariga jamoa bo'lib borish yohud ularni jamoa bo'lib eslash) zarur.

6. O'quvchilarning ongiga singdiriladigan qoidalarning yaxshilab asoslab berilishi, isbotlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu hamma narsani tushunib olishga va buning oqibatida dalil qabul qilishga, uning asoslanganligiga ishonch hosil qilishga, oqilona isbotlarga rozi bo'lishga qodir bo'lgan o'smirlar va katta yoshdagi o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish paytida juda muhimdir. Boshqa tomondan, bu yoshda so'z ta'sirining samaradorligi pasayib ketishi mumkin, chunki o'quvchida rivojlanib boradigan tanqidiy tendensiyalar ko'pincha uni kattalarning dalillariga ehtiyotkorlik bilan, ishonmasdan va noto'g'ri tushunib qabul etishga, ularning dalillarini rad qilishga, biror qoida bilan kelish-maslikka, kattalarning iltimoslari va talablariga qarshi chiqishga majbur etishi mumkin. Boshqa narsani ham nazarda tutish kerak: o'quvchi ko'pincha kattalarning o'ziga aqlli kishi deb murojaat qilishlaridan, uning ko'p narsani tushunishiga ishonishlaridan mag'rurlanib yuradi. Unda bu ishonchni oqlash, ana shunday munosabatga munosib kishi bo'lish istagi yuzaga keladi.

7. O'quvchilarda maksimal faollik, jonli ravishda fikr almashish istagini uyg'otish, ularning fikrini avj oldirish va o'zlarini axloq masalalari ustida o'ylab ko'rishga majbur qilish zarur. O'quvchilarga tayyor haqiqatni zo'rlab qabul qildirish yaramaydi, axloq normalari haqidagi xulosalarni ularning faol ishtirokida (ammo o'qituvchining rahbarligida) chiqarish kerak. Buning uchun suhbat jarayonida muhokamaga qo'yilishi kerak bo'lgan masalalarni oldindan tayyorlab qo'yish tavsiya etiladi.

8. O'quvchilarda chuqur va ta'sirchan emosiyalarni uyg'otishga intilish lozim. Bunda o'qituvchi suhbatni befarq va shavq-zavqsiz emas, balki emosional tarzda jonli qilib o'tkazganidagina erishish mumkin. O'qituvchi o'zining ehtirosli e'tiqodi o'smirlarga yuqishini unutmastligi darkor. O'smirlarning o'zlari his etadigan tuyg'ularni taxminan quyidagi formada anglab olishlariga erishish juda muhimdir: „Nima uchun bu

hodisa menda shunchalik g‘azab va nafrat uyg‘otadi?“, „Nima uchun men bu xatti-harakatlardan shunchalik hayratlandim?“

Tarbiyachilarning shaxsiy namunasi o‘quvchi shaxsini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchi ko‘pincha o‘qituvchiga taqlid qilib, unga o‘xshashga harakat qiladi, lekin birinchidan, buni ko‘pincha tushunib etmasdan qiladi, ikkinchidan o‘qituvchining tashqi ko‘rinishi va qiliqlariga taqlid qiladi, chunki u hali shaxsning namoyon bo‘lishini tahlil qilishga va shaxsning barqaror xislatlarini anglab etishga qodir emas. O‘smir va katta maktab yoshidagi o‘quvchi ko‘pchilik hollarda namunaga ongli ravishda taqlid qiladilar. O‘smir o‘zini katta deb hisoblay boshlagandan e‘tiboran kattalarning xatti-harakatlari va ishlariga taqlid qilishga intiladi. Shuning uchun unda tevarak-atrofdagi kishilarning, ayniqsa, o‘ziga eng yaqin va o‘zi uchun eng obro‘li kishilarning xatti-harakatiga qiziqish hamda e‘tibor berish yuzaga keladi. O‘qituvchi qanchalik obro‘li bo‘lsa, uning e‘tiqodi, bilimlari, fikrlari, didi o‘quvchilarga shunchalik ko‘p ta‘sir qiladigan bo‘ladi. O‘smir kattalarning biror xislatlariga taqlid qilayotib, ko‘pincha bu xislatlarni shunchalik ilib olish bilan birga, ularning salbiy xislatlari va xatti-harakatlarini ham o‘ziga singdirib oladi. Agar o‘qituvchi muayyan maqsadni ko‘zlaydigan va prinsipial matonatli, o‘z burchini qat‘iyat bilan bajaradigan bo‘lsa, xuddi shu narsalarni o‘z tarbiyalanuvchilaridan ham talab qilish unga oson bo‘ladi. Aksincha, o‘qituvchining tajangligi, qo‘polligi, o‘zini qo‘lga ola olmasligi, manmanligi o‘quvchilarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘quvchilar va ota-onalar ba‘zan tarbiyaviy ishlarda o‘zlarining shaxsan namuna ko‘rsatishlarining ta‘siriga etarlicha baho bermaydilar. Xolbuki, ularning qilayotgan ishlari, o‘zlarining qanday tutishlari ularning aytgan gaplariga, o‘rgatgan narsalariga qaraganda kamroq emas, balki ko‘prok ahamiyatga ega bo‘ladi.

To‘g‘ri xatti-harakatlarda amaliy tajribani uyushtirish, yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, shaxsni tarbiyalashda muhim, asosiy omildir. Tarbiyachi o‘quvchilarda xatti-harakatlarning shunday forma va usullarini tarkib toptirmog‘i kerakki, bu forma va usullarda tarbiyaning hal qiluvchi ta‘siri ostida yuzaga keladigan o‘quvchi e‘tiqodlari amalga oshsin. Xatti-harakatlarning aytib o‘tilgan formalari motivlarni, o‘quvchining ehtiyoj va munosabatlarini „moddiylashtirish“ ifodasi, vositasi, formasiga aylanib qolgandagina barqaror omilga aylanib mustahkamlanadi. A.S. Makarenko xuddi ana shu ma‘noda „xulq-atvor gimnastikasi“ to‘g‘ri

xatti-harakatlarni mashq qilishni uyushtirish zarurligi to'g'risida gapirgan edi.

O'smirlik yoshidan boshlab, tarbiyaning yangi omili — o'z-o'zini tarbiyalash vujudga keladi. O'quvchilar o'zlaridan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs xislatlarini tarkib toptirish sohasida xulq-atvordagi kamchiliklarga salbiy xislat va sifatlarga barham berish sohasida ongli ravishda muntazam ishlay boshlaydilar. Odam yuksak darajada o'z-o'zini idora qiluvchi, o'z-o'zini kamol toptiruvchi birdan-bir sistemadir, — degan edi I.P. Pavlov.

O'qituvchi, tarbiyachi o'quvchilarning o'z-o'zidan tarbiyalashiga rahbarlik qilishda 4 ta vazifani ko'zda tutishi kerak: *Birinchi vazifa* — o'quvchining o'zida shaxsning ijobiy xislatlarini taraqqiy ettirishga va o'z xulq-atvoridagi yomon tomonlardan xalos bo'lishga intilish istagini uyg'otish. *Ikkinchi vazifa* — o'quvchiga o'z shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishda, o'z xulq-atvoridagi xususiyatlarni diqqat bilan va odilona tushunib olishida, o'z kamchiliklarini yaqqol ko'rishda, o'z nuqsonlarini fahmlab olishda yordamlashish vazifasi kelib chiqadi. *Uchinchi vazifa* — o'qituvchi tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalash programmasini tuzishda, shaxs xulq-atvori xislatlarining qaysi xususiyatlarini (masalan, o'zini ushlay bilish, qat'iylik va shuning singarilarni) taraqqiy ettirish, qaysilarga (masalan, o'jarlik, yalqovlik, qo'pollikka) barham berish kerakligini belgilab, hamda hal qilib olishda o'quvchiga yordam beradilar. Xuddi shu erda shaxs sifatlarini to'g'ri va ob'ektiv baholashda, ularni kelib chiqish sabablari hamda mazmuni jihatidan baholashda ham o'quvchilarga ko'maklashish muhimdir.

Nihoyat, *to'rtinchi vazifa* — o'qituvchi, tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashning oqilona yo'llarini ko'rsatib beradilar, o'quvchi shaxsning ijobiy xislatlarini tarkib toptirish va kamchiliklarga barham berishga oid eng maqsadga muvofiq va samarali yo'llarini ko'rsatadilar.

## **2.6. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari**

Ta'lim jarayonining natijasi o'zlashtirish, ichki va tashqi faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirishdir. Ta'lim, bir odamning boshqasiga bilim va ko'nikmalar berishdir. Bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonining natijasidir. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni muammosi P.Ya.Galperin va N.F. Talizina tomonidan o'rganilgan. Ular aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini

ishlab chiqqanlar. Mualliflar aqliy xatti-harakatlarni moddiy holda tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda, fikrda namoyon bo'lishini izohlab berdilar. Aqliy xatti-harakatlarning birinchi bosqichi rasm, sxema, diagramma va shartli belgilar tarzida o'z ifodasini topadi. Aqliy xatti-harakatlarning ikkinchi bosqichi ko'rgazmalardan olgan tasavvurlari to'g'risida o'quvchilarning ovoz chiqarib, fikr yuritishidan iboratdir. Uchinchi bosqich esa, sub'ekt ongida tasavvur, tushuncha, qonuniyat, xossa, xususiyat, operasiya, usul tariqasida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, o'quvchilarga taklif etiladigan axborotlar aql bovar qilmaydigan darajada tezlik bilan ko'payib bormoqda. Shuningdek, ularning juda tez eskitirib qolib, yangilashni taqozo etishi ham o'z-o'zidan ma'lum bo'lmoqda.

To'rtinchi bosqichda bajarilgan xatti-harakatlar ichki rejada ovoz chiqarilmay bajariladi.

Beshinchi bosqichda esa faoliyatni fikran bajarishga o'tiladi.

Bundan ravshan ko'rinib turibdiki, materialni asosan yodlab olish va xotirada saqlab qolishga asoslanadigan ta'lim hozirgi talablarga qisman javob bermoqda. O'quvchilarga hamisha yangilanib turadigan axborotni mustaqil ravishda o'zlashtirib borishga va o'qishni bitirib ketganidan keyin, kishiga jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan fan-texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketmaslik imkoniyatini beradigan qobiliyatlar taraqqiyotini beruvchi tafakkur sifatlarini tarkib toptirishi muammosi birinchi o'ringa chiqib bormoqda. Ta'lim jarayonida *o'zlashtirishning muvaffaqiyati* quyidagilarga bog'liq:

1. Ta'lim mazmuniga.
2. O'quv rejaları, dasturlari, dasrliklar va o'quv qo'llanmalarining mavjudligiga;
3. Ta'lim metodikalarini takomillashganligi;
4. O'qituvchi mahoratiga;
5. O'quvchining individual psixologik xususiyatlari.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega o'quvchilar uchun ta'limning yagona qulay, optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o'zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli, noan'anaviy ta'lim usullarini qo'llash muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim oluvchilarning ta'lim faoliyatiga ko'ra, ta'limning *quyidagicha metodlari* ajratiladi:

1. Tushuntiruv-ko'rsatmalilik metodi — bu metod reproduktiv metod bo'lib, unda faoliyat o'qituvchi tomonidan olib boriladi. O'quvchilar ta'lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar. Bu metod juda keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, uni takomillashtirilgan usullari mavjud, bu programmashtirilgan ta'limdir.

2. Reprodukativ metoddagi o'quvchi faoliyat ko'rsatib, unda o'quvchiga berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi.

3. Muammoli ta'lim metodi — o'qituvchi tomonidan tashkil etilib, u produktiv xarakterga egadir. Ushbu metod orqali o'quvchi bilim va malakalarini shakllantiradi. Ushbu metodning takomillashtirish yo'llaridan biri ishchan o'yinlarni tashkil etishdan iboratdir.

4. Qisman izlanish metodi. O'qituvchi nazorati ostida tashkil etiladigan metod bo'lib, u produktiv xarakterga ega, bunda o'quvchi ijod qiladi.

5. Tadqiqot metodi. O'qituvchi ilm yordamisiz tashkil etiladigan ta'lim metodi bo'lib, u o'quvchining mustaqil izlanishi, fikrlashi va bilimlar transformasiyasini talab etadi.

Ta'lim jarayoni tashkil etishning o'ziga xos metodlaridan biri ishchan o'yinlardir. Ishchan o'yinlar munosabatlar sistemasini modellashtirish, faoliyat xarakteristikasini tashkil etishga yordam beradi.

„Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish ta'kidlanadi. Pedagogik texnologiya — bu ta'lim jarayoniga sistemali yondashuv bo'lib, unda ta'lim jarayonining tashkil etishda texnika va inson imkoniyatlari hisobga olinadi va ularning o'zaro munosabati ta'limning optimal formalari yaratilishiga zamin bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalarni quyidagi tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin;

— Ta'lim-tarbiya ishtirokchilari shaxsiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar;

— Hamkorlik faoliyati a'zolarining kasbiy tayyorgarligi;

— Ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, mohiyati, amalga oshirish vositalari;

— Ta'lim jarayonini differensiasiyalashtirish;

— Ijodiylik.

O'quvchini mustaqil ta'lim olishga o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlash bugungi kun o'quv maskanlarining asosiy vazifasidir.

Mustaqil ta'lim masalaning qo'yilishi, echish, o'z-o'zini nazorat va baholashning yo'llarini o'quvchi tomonidan tanlanishi va bajarilishi bilan xarakterlanadi.

O'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur. Fikrlash operasialari asosida dars jarayoni faollashtiriladi. Bu o'qituvchining: „Nima uchun?“, „Qanday maqsadda?“, „Sabablari qanday?“, „Natija nima uchun shunday bo'ldi?“ singari savollarning muhokamasi orqali amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchilarni evristik, muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, gumon holatlarini muhokama qilish, ulardagi muammolarni mustaqil holda topish va ularni echish uchun o'z loyihalarini tuzish va himoya qilish o'quvchilar tafakkurining ma'nodor va unumdor bo'lishiga xizmat qiladi.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo, bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik.

Hozirgi zamon o'quv muassasalarining vazifasi yosh avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Albatta, fikrlashda ham individual farqlar mavjud. Fikrlashni bilish — bu insonning aqlidir.

Aqlning quyidagi sifatlarini ajratish mumkin:

Mazmundorlik (boyliqi, chuqurligi, hukmga boyliqi).

Fikrlashning kengligi (keng va tor) va chuqurligi, nazariya va amaliyotning uzviyligiga bog'liqdir. Amaliyot, hukmning to'g'riligi mezonidir.

Fikrlashning mustaqilligi - umumiy tajribani qo'llay olish, shaxsiy fikrga ega bo'lishi, tajribaga munosabat bildirish.

4. Aqlning tashabbuskorligi.

5. Aqlning egiluvchanligi, vazifani standart echishdan qochish.

6. Aqlning tanqidiyligi, o'z ishini aniq baholay olish, uni o'lchash.

7. Aqlning mahsuldorligi.

8. Fikrning ketma-ketligi.

9. Tafakkurning tezligi.

Aql haqida ayrim olimlar va arboblarning fikrlari keltirilgan. „Ulug' aql egalari o'z oldilariga maqsad qo'yadilar, qolgan odamlar o'z istaklari ortidan ergashadilar“ (Vashington Irving).

„Aql — bu yaxshi tashkil etilgan bilimlar tizimidir“ (K.D. Ushinskiy).

Yuqorida aytib o‘tilgan barcha sifatlar yosh o‘zgargan sari o‘zgarib boradi. Ijodiy ishda fikrlashning mustaqilligi va tanqidiyligi zarur bo‘lib, u aqliy faoliyatning produktivligini ta‘minlaydi.

## **2.7. Ta‘lim olayotgan shaxsga psixologik-pedagogik ta‘sir etish**

Pedagogik faoliyatda pedagoglarning psixologik-pedagogik bilimlari deyilganda, asosan, o‘quv jarayonida hamda xizmat faoliyatida o‘zining maxsus sohasiga xos bo‘lgan psixologik va pedagogik bilimlarni egallashi ko‘zda tutiladi. Shu bilan birgalikda pedagog shaxs va jamoa psixologiyasiga oid bilimlarni qay darajada egallaganligi, shuningdek, shaxs psixologiyasini o‘rganishning metodlarini mukammal bilishlari zarur.

Muomala madaniyati pedagogni talabalar bilan muloqot o‘rnatishida etnik qoidalarga rioya qilishini talab etadi va pedagogik aloqa o‘rnatish uchun imkoniyat yaratib beradi.

Pedagogik aloqa esa o‘z navbatida pedagogning talabalar bilan bevosita *aloqa o‘rnatishi quyidagi sifatlarda* namoyon bo‘ladi;

- talabalar fikrini eshita bilish;
- talabalar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida o‘zida kamtarlik hissini namoyon qilish;
- muloqot jarayonida muomala madaniyatiga qat‘iyan rioya qilish;
- muloqot jarayoni davomida suhbatdosh shaxsiyatiga tegmaslik;
- talabalarga samimiy tarzda maslahatlar berish.

Shu nuqtai nazardan pedagogik faoliyatda muloqot madaniyati bir maqsadga qaratilgan o‘zaro ta‘sir qilish xususiyati bo‘lib, uning mazmunida o‘zaro fikr almashish, kerakli bo‘lgan axborotlarni olish va jamlangan axborotlarni etkazib berish xolati o‘z aksini topgan. Shu bilan birga shaxslarga psixologik-pedagogik ta‘sir qilish uchun kommunikativ vositalar yordamida o‘zaro munosabatda bo‘lish hamda profilaktik va pedagogik aloqani rivojlantirish uchun qulaylik yaratishga imkon beradi.

Muloqot jarayonida ular muayyan qiyinchiliklarga duch kelishlari ham mumkin. Shu ma‘noda yuzaga keladigan bu qiyinchiliklarni pedagogik muomala madaniyatisiz hal qilib bo‘lmaydi. Pedagoglarning muloqot jarayonida odob-axloq normalariga qat‘iyan rioya qilishlari, shuningdek ular shaxs psixologiyasini, uning psixologik xususiyatlarini va psixik holatlarini yaxshi bilishlari zarur.



Ta'lim sohasida mutaxassisning pedagogik faoliyatida pedagogik *muloqot texnikasi* quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Psixotexnika (shaxsning o'z xatti-harakatlari, xulqi va psixologiyasiga o'zgartirish kirita olishi) — psixik holatlarning o'zgarishi nazarda tutiladi.

2. Kasb, san'at va ijodiyot uyg'unligi (turli vaziyatlardan ustalik bilan chiqa olish);

3. Muloqotda shaxs xususiyatlarini inobatga olish.

Pedagogning pedagogik faoliyatida pedagogik muloqot asosan uch bosqichdan iborat bo'lib, bular:

- kommunikativ tayyorgarlik;
- pedagogik aloqa o'rnatish;
- pedagogik muloqotni boshqarishdir.

Ayrim mutaxassislar to'rtinchi bosqichni — bo'lib o'tgan muloqot tahlili va bo'lg'usi muloqotni modellashtirish (rejalashtirish) bosqichini ham ajratadilar. Pedagogning pedagogik muloqot madaniyati quyidagi jarayonlar orqali amalga oshiriladi;

- muloqot madaniyatini bilish;
- muloqot madaniyatini xizmat faoliyati davomida o'rganish;
- boshqa xodimlar muomalasida muloqot madaniyatini kuzatish;
- kommunikativ ta'sir etishi jarayoni va boshqalar.

Pedagogik muloqot madaniyatini bilish va uni faoliyat davomida o'rganish pedagogik aloqa bilan bog'liq holda bo'lib, tarbiyaviy-profilaktik vazifalarni hal qilishda eng qulay va eng optimal variant hisoblanadi.

Pedagogik aloqa o'rnatishda esa, pedagog bilan ta'lim olayotgan shaxs o'rtasida o'zaro tushunish, bir-biri bilan ijobiy emosional munosabatda bo'lish xususiyatlarining namoyon bo'lishi hamda o'zaro ishonch munosabatlarining o'rnatilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik *aloqa o'rnatishning asosiy usullariga* esa quyidagilarni kiritish mumkin:

- pedagogning namuna ko'rsatishi;
- pedagogning pedagogik muloqotga jalb qila bilishi;
- auditoriyani qiziqitira olishi;
- tinglovchilarda ijobiy emosional holatni hosil qila bilishi.

### *Kommunikativ ta'sir etish texnikasi*

Kommunikativ ta'sir etish texnikasi pedagogik muloqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. U pedagogik aloqa o'rnatish bosqichida va ma'ruza jarayonida muloqotning amalga oshishi vaqtida

yuzaga keladi. Bizga ma'lumki, muomalaning nutqli va nutqsiz vositalari mavjud bo'lib, bular shaxslararo bo'ladigan munosabatlarda muhim ahamiyatga ega.

### *Nutqli ta'sir etish texnikasi*

Nutqli ta'sir etish texnikasi deyilganda, ichki ishlar organ xodimlarining fuqarolarga so'z vositasida ta'sir etishi tushuniladi. Bunda xodimning nutqi o'ziga xosligi, aniqligi, to'g'riligi, ravonligi, mantiqiyli va ta'sirchanligi bilan tavsiflanadi.

#### *Nutqli ta'sir etish texnikasining elementlari:*

Nutqli ta'sir etish texnikasining elementlariga quyidagilar kiradi:

- ovoz vositalariga ega bo'lish, ya'ni talaffuz va pauza saqlash hamda nutqning mazmuniga e'tibor berish;
- ichki yashirin dialogik nutq usuli orqali fikr yuritish;
- nutqni mantiqiy tuzish usuli;
- nutqning mantiqiy mazmuniga diqqatni qaratish usuli;
- nutqning obrazlilik;
- nutqning ifodali ravishda aks ettirilishi;
- savollar qo'yish, ishontirish, asoslash texnikasi;
- o'rinli hazil-mutoyiba ishlatish.

### *Nutqsiz ta'sir etish texnikasi*

- qarash;
- mimika;
- imo-ishoralar;
- shaxslarning tana harakatlari;
- kommunikativ fazoni dars jarayonida idrok qilish usuli;
- pedagogik muomala tarzini o'zgartirish usuli:

Pedagogning pedagogik madaniyati bilan bir qatorda, uning intellektual potentsiallari (imkoniyatlari) ham muhim rol o'ynaydi. Chunki, pedagogik faoliyati jarayonida kompleks ishlarni amalga oshirishda pedagogning aqliy qobiliyati vazifaning qay darajada bajarilishini belgilab beradi.

## **2.8. Ta'lim-tarbiya va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabat muammosi**

Psixologiya fanida zamonaviy ta'limotga asoslangan holda inson shaxsi-ning tarkib topishida ta'lim va tarbiya bilan rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabat muammosi keng doirada muhokama mavzusiga aylanmoqda.

Rivojlanish deganda, odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir: 1) miyaning biologik, organik etilishi, uning anatomik-fiziologik tuzilishi jihatidan etilishi; 2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatidagi, o'ziga xos aqliy etilish sifatidagi psixik rivojlanishi.

O'z-o'zidan ma'lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik echimi bilan bog'liqdir va bu xususiyat ta'lim-tarbiya ishlarida albatta hisobga olinishi lozim, chunki ta'lim miyaning organik jihatdan etilishini inkor eta olmaydi. Biroq, miya tuzilishining organik jihatdan etilishini muhitga, ta'lim-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qat'iy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb bo'lmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan etilishiga yordam beradi.

Bu jarayonda ta'lim qanday mavqega ega? Ta'lim rivojlanishga nisbatan etakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qilinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi.

Bu borada nemis psixologi V. Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning etakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va rivojlanishni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab beradi.

Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan etilish jarayoniga aralashmaslik, unga xalaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat etilguncha chidam bilan kutib turish kerak.

Shveysariyalik psixolog J. Piajening nazariyasi ham ayni shu g'oyalardan bilan yo'g'rilgandir.

J. Piajening fikricha, bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim — bu aqliy etilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan etilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur etilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga

o'rgatish foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlari pishib etiladigan muayyan yoshidan qat'iy nazar, bog'liqligi ana shundan kelib chiqadi.

Ta'kidlash joizki, ta'lim etakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir. Ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug'ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin, ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtda o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsa-da, biroq cheksiz emas.

Yirik rus psixologi L.S. Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U olg'a surgan psixik funksiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning „tabiiy“ shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, „madaniy“ shaklini egallash tushuniladi.

Shu munosabat bilan L.S. Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan „psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi“ tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyati kattalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. L.S. Vigotskiy tomonidan kiritilgan „psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi“ tushunchasi „ta'lim taraqqiyotdan oldinda boradi“ degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunish uchun imkoniyat yaratadi.

E. Torndayk va J. Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S. Vigotskiy: „Bola taraqqiyotini hech mahal o'quv maskani ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas“ - deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lmagan jarayonlardir- degan yo'nalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi.

P.P. Blonskiy ta'limning bola taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun u o'quvchilarning aqliy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri o'quv maskani dasturi mazmuniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Uning fikricha, ta'lim jarayonida bolalar ma'lum qoida asosida faoliyat qilishga odatlanadilar. Ta'lim ta'siri natijasida o'quvchilarda o'z-o'zini va o'zining aqliy faoliyatini nazorat qilish yuzaga keladi. Shuningdek, psixolog-olimlardan V.V. Davidov, P.Ya. Galperin, D.B. Elkonin, N.A. Menchinskaya, A.A. Lyublinskaya, E.G. G'oziyevlar o'z tadqiqotlarida ta'limning taraqqiyotdagi etakchi rolini ta'kidlashadi.

Psixik taraqqiyotning omillari va sharoitlari aniqlab olingan taqdirda ham, psixikada yuzaga keladigan o'zgarishlarning manbalari, psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat, degan savolning tug'ilishi, tabiiydir.

Bolaning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar murakkab va turli-tumandir. Rivojlanishning mohiyati qarama-qarshiliklar kurashidan, ichki ziddiyatlar, bolaning psixik rivojlanishini bevosita harakatga keltiruvchi kuchlar, ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan hamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga faoliyat tomonidan yuzaga keladigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o'sib borayotgan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari bilan eski, tarkib topgan o'zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o'rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundan-kunga ortib borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o'rtasidagi ziddiyatlar kiradi. Masalan, kichik o'quv maskani yoshidagi o'quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo'lgan tayyorlik bilan xatti-harakatlarning mavjud vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog'liqligi o'rtasida ziddiyat mavjuddir. O'smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomondan, uning o'ziga o'zi baho berishi va o'z talablari darajasi va ikkinchi tomondan, atrofdagilarning unga nisbatan bo'lgan munosabatlari haqidagi ichki kechinmasi o'rtasida, shuningdek, o'zining jamoadagi real mavqei to'g'risidagi ichki kechinmasi o'rtasida; katta odamlar hayotida to'la huquqli a'zo sifatida qatnashishi ehtiyoji bilan bunga o'z imkoniyatlarining mos kelmasligi o'rtasida paydo bo'ladi.

Ko'rsatilgan barcha ziddiyatlar birmuncha yuqori darajadagi psixik faoliyatlarni tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Natijada bola psixik rivojlanishning yanada yuksakroq bosqichiga ko'tariladi. Ehtiyoj qondiriladi — ziddiyat yo'qoladi. Biroq, qondirilgan ehtiyoj yangi ehtiyojni tug'diradi. Bu ziddiyat boshqa bir ziddiyat bilan almashinadi, taraqqiyot davom etadi.

Rivojlanish faqat sof miqdor o'zgarishlari jarayonidan, ya'ni qandaydir psixik hodisalarning, xususiyat va sifatning ko'payishi yoki kamayishidan iborat bo'lib qolmay, balki sifat jihatdan yangi xususiyatlarning, ya'ni yangidan hosil qilingan sifatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari borligini qayd etib ko'rsatmoqdalar. Biroq muhit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatga va tarbiyaga bog'liqdir. Mana shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatda psixik rivojlanishning notekisligi kiradi. Buning mohiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta'lim va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funksiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to'xtab turmaydi. Bolaning ayrim yosh davrlarida psixikaning u yoki bu yo'nalishlarida rivojlanish uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo'ladi va bu sharoitlarning ba'zilar vaqtinchalik, o'tkinchi xarakterda bo'ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo'lgan ana shunday yosh davrlari *senzitiv davrlar* deb ataladi. (L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev). Bunday senzitivlik davrining mavjudligiga miyaning organik jihatdan etilish qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlar ham, hayotiy tajriba ham sabab bo'ladi.

## 2.9. „Tarbiyasi qiyin“ bolalar psixologiyasi

„Tarbiyasi qiyin“ bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir.

L.S. Vigotskiy fikricha, „qiyin“ o'smir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir.

Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir.

Ularning ma'lum bir qismi intizomsiz, qo'pol bolalardir. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi huquqlarni berish yo'li bilan ularga ta'sir o'tkazish mumkin. Psixologiyada „Tarbiyasi qiyin“ bolalarning bir qancha klassifikatsiyalari mavjud.

Birinchi guruh — ijtimoiy salbiy mustahkam qarashlari ega bolalar.

Ikkinchi guruh — qonunbuzarlarga taqlid qiluvchilar.

Uchinchi guruh — ijobiy va salbiy xulq-atvor stereotiplari o'rtasida ikkilanuvchi, o'z xatolarini tushunuvchi bolalardir.

To'rtinchi guruh — irodali bolalarga bo'ysunuvchilar.

Beshinchi guruh — qonunbuzarlik yo'lga tasodifan kirib qolganlar.

Shuni aytish lozimki, tarbiyasi og'ir bolalar uchun ular yashayotgan muhit, oila, ular o'qiyotgan jamoa, sinfnng roli juda kattadir.

Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o'rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi: bola o'zini egosentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag'batlantirilishi kerak? Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishdir. Agar ta'lim shaxsning ongini shakllantirish bo'lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta'sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga g'amxo'rlik qiladigan ota-onasiga bog'lanib qoladilar. Ota-onaning oldida bo'lish, ular bilan muloqotda bo'lish bolalarga juda yoqadi, ularning yo'qligi bolaga yoqmaydi. Ota-onaning g'amxo'rligini bildiradigan so'zlar, xatti-harakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo'ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o'rganish jarayoni orqali sodir bo'lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g'amxo'rlik va e'tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo'llab-quvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish va yomon xulq-atvor uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir.

Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an'ana va urf-odatlarining roli kattadir.

Xalq urf-odatlari, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlik, birodarlik his-tuyg'ularini rivojlantiradi. Bular o'z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini o'taydi.

Mustaqil jamiyatning baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish, jamiyat boyligini saqlash va ko'paytirish yo'lida har bir kishining tinmay g'amxo'rlik qilishi, ijtimoiy burchni yaxshi anglash, jamiyat hayotida va shaxsiy hayotda halollik va rostgo'ylik, axloqiy sofdillik, odamiylik va kamtarlik, milliy va irqiy adovatlariga aslo yo'l qo'ymaslik va shu kabilar tarbiya jarayonining muhim xislatlaridir.

Tarbiya jarayonida g'amxo'rlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g'amxo'r ota-onaga ko'proq taqlid qiladilar. G'amxo'r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qo'llab-quvvatlamaganda bola o'z xatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi.

Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda g'amxo'rlik bilan bir qatorda yaxshi ko'rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola

bilan doimiy muloqotni — tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og‘zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonining *texnologiyasini* quyidagicha sharhlash mumkin:

1. Tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim. Uning ehtiyojlari strukturasi aniqlash kerak.

2. Ijobiy emosiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak. Ong ham, iroda ham motivlar iyerarxiyasini shakllantira olmaydi. Zotan, bir ehtiyojning o‘rnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin.

3. Shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi. Arastu aytganidek: „Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dodga, ilmga, mashqqa“.

## **2.10. Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari**

Konfusiy: „Eskini o‘zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo‘la oladi“ degan edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta‘lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o‘rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida ham qator o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, ma’rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An’anaviy sharqona qarashga ko‘ra, ma’rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma’naviyat va go‘zal axloq degani hamdir.

Bir ijtimoiy jamiyatning ikkinchisiga almashishi, shuningdek milliy mustaqillik va uning ne‘matlari respublikamiz fuqarolarida tub o‘zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Milliy tuyg‘u, qiyofa, xarakter, ta‘b, kuy, raqs, ma’naviyat, qadriyat hamda ruhiyat ta’siri ostida o‘zining tub mohiyatini aks ettira boshladi. O‘tmishning boy merosi, uning an‘analari milliy istiqbol tufayli o‘z egalariga qaytarib berildi. Fuqarolarning ijtimoiy ongi asta-sekin o‘zgarib borishi natijasida etnopsixologik xususiyatlar tiklana boshladi, milliy, umumbashariylik xislatlari o‘rtasida adolatlilik, teng huquqlilik aloqalari o‘rnatilmokda.

O‘zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik va istiqbol rejasi, bolalarga ta’sir o‘tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega, chunki uning asosida xalq an‘analari yotadi.



O‘zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o‘ynaydi. Abdulla Avloniy aytganidek: „Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo halokat; yo saodat-yo falokat masalasidir“

Yosh avlod tarbiyasida milliy ruhiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analari etakchi o‘rin tutmog‘i lozim (tarbiya etnopsixologik va etnopedagogik munosabat). Bular orqali yoshlarda quyidagi fazilatlarini tarbiyalash lozim:

- a) yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirish;
- b) xayrixohlik, odamlarga hurmat, mehr-shafqat;
- c) kattalarni hurmat qilish, e‘zozlash;
- d) ishbilarmonlik, mohirlik, ishchanlik, iqtisodiy tafakkur;
- e) jismoniy baquvvatlik;
- f) axloq-odoblilik;
- j) oilaparvarlik;
- l) ayollarga hurmat;
- m) o‘zaro hamkorlikka intiluvchanlik.

Ma‘lumki, yoshlarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta‘lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug‘ullanadilar. Tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarining bahamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o‘zining ijobiy natijalarini berishi mumkin.

### **Asosiy tushuncha va atamalar**

O‘quv faoliyati psixologiyasi, ta‘lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni, o‘quv faoliyatining psixologik komponentlari, ta‘lim va tarbiyaning maqsadlari, tarbiyasi qiyin bolalar psixologiyasi, pedagogik faoliyatda shaxsning yosh va individual tipologik xususiyatlari, ehtiyojlar, motivlar, psixologik komponentlar, tafakkur, bilim, ko‘nikma, malakalar.

### **Rezyume**

Shunday qilib, pedagogik faoliyat murakkab, o‘ziga xos psixologik qonuniyatlarga ega bo‘lib, ushbu qonuniyatlarga rioya etish, ularni amaliyotda qo‘llash pedagogik faoliyatning, ta‘lim-tarbiyaning mahsuldorligini belgilaydi.

Ta'lim — tarbiyaning psixologik — pedagogik komponentlari haqidagi bilimlardan pedagogik faoliyatda foydalanish o'zlashtirish darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Shaxsning tarbiyalanganlik darajasi yuqoriligi unda ijobiy insoniy fazilatlarining shakllanishiga va ilmi, ma'rifatli, madaniyatli inson sifatida mavqiyega ega bo'lishiga olib keladi.



### ***Bob yuzasidan savol va topshiriqlar***

1. O'quv faoliyatining psixologik komponentlari haqida nimalar deya olasiz?
2. O'qish motivlari va motivasiyaga izoh bering.
3. Pedagogik jamoaning psixologik muhiti haqida fikringiz?
4. Pedagogik jamodagi o'zaro shaxslararo munosabatlar psixologiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogik jamoadagi o'zaro shaxslararo munosabatlarni sog'lomlashtirish yuzasidan sizning fikr va tavsiyalaringsiz.
6. Ta'lim psixologiyasi nima?
7. Tarbiya psixologiyasi deganda nimani tushunasiz?
8. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlash usullari.
9. Ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari haqidagi fikrlaringiz.
10. Bilimlarni o'zlashtirishning psixologik-pedagogik komponentlari nimalar?
11. Ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish nimaga bog'liq?
12. Ta'lim olayotgan shaxsga psixologik-pedagogik ta'sir o'tkazish deganda nimani tushunasiz?

## PEDAGOG SHAXSI PSIXOLOGIYASI

### *Bobning qisqacha mazmuni*

***Pedagog shaxsi haqida.*** *Pedagog shaxsi haqidagi Sharq mutafakkirlari qarashlari, pedagog shaxsiga qo'yiladigan psixologik-pedagogik talablar va unga oid zarur xislatlar.*

***Pedagogik mahorat psixologiyasi.*** *Pedagogik mahoratning psixologik asoslari, pedagogik faoliyat samaradorligiga o'qituvchi mahoratining ta'siri.*

***Pedagogik professiogramma.*** *Pedagogik qobiliyatla, pedagogik takt psixologiyasi, pedagogning psixologik jihatdan o'z malakasini oshirishini tashkil etish*

### **3. 1. Pedagog shaxsi haqidagi Sharq mutafakkirlarining qarashlari**

O'qituvchilik — inson jamiyati tarixi boshlanganidan to hozirgi kungacha jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq, e'zozlab kelingan kasbidir.

Al-Forobiy o'qituvchi haqida shunday fikr bildiradi, — deydi „O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroylik nutqga ega bo'lishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarni to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi“.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha: „O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim“.

Nasridin Tusiy o'zining „O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida“ degan asarida shunday deydi: „O'qituvchi munozaralarni olib borishni rad etib bo'lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining

to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim. O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchi o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin...“

Mahmud Qoshg'ariy — „...Men a'zolar kasalligini davolashdan oldin odamlarning ruhiyatini davolashni zarur deb topdim. Bunga men o'qituvchilik yo'li bilan erishaman, bunga mening ishonchim komil. Chunki, a'zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo'lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o'n ming va yuz minglarcha odamlar halok bo'ladilar...“

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy ham o'qituvchi mehnatini xolisona baholab: „Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallim) qulluq qilsa arziydi“, „Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila, aylamoq oson emas haqqin ado ming ganj ila“ kabi satrlar bitganlar.

Hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyotini buyuk allomalar yaratgan ko'plab qimmatli asarlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu nodir asarlar bir necha asrlar ilgari yaratilgan bo'lsada, o'z qimmatini yo'qotgan emas.

O'qituvchi o'quvchilar uchun hamma joyda ibrat bo'lishi zarur. U o'z fanini yaxshi bilishi bilan birgalikda o'quvchilarning psixologiyasi va yosh xususiyatlarini, individual xususiyatlarini yaxshi bilishi, tarbiyaning qulay va samarali usullarini qo'llashda psixologik bilimlarga tayanishi zarur. Bola ruhiyatini bilmasdan turib ularning qalbiga yo'l topa olmaydi. Bolalar bilan muloqotda bo'lish malakasini egallash, ularni faol va mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, qobiliyatlarini shakllantirish uchun psixologiyani bilish talab qilinadi va bo'lajak pedagoglar bu o'rinda psixologiyadan olgan bilimlar tizimiga suyanadilar. Ota-onalar bilan ishlashda ham psixologik bilimlar yordam beradi. Nafaqat ota-onalar, balki atrofdagi boshqa kishilarga ham psixologik bilimlarni targ'ib etish zarur. Chunki kishilar o'z hayot va faoliyatlarini o'zaro muloqotsiz tashkil etaolmaydilar. Muloqotlar davomida ham har bir shaxs o'z sherigining (o'qituvchi — o'quvchining, rahbar-xodimning, mutaxassis — o'z hamkasblarining, er-xotinning, xotin-erning, aka-ukaning va h.k.) psixologik holatini, qiziqish va ehtiyojlarini, qobiliyat va imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi, uning o'rniga o'zini qo'ya bilishi, „sherigi“ning yosh xususiyatlarini ham hisobga olishini bilishiga psixologiyadan berilgan bilimlar yordam beradi.

### 3.2. Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan psixologik pedagogik talablar va unga oid zarur xislatlar

O‘qituvchining o‘rni va uning vazifalari, o‘ziga kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e‘tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi aniqlanadi. Mamlakatimizda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ni hayotga tatbiq etish jarayonida o‘qituvchining yosh avlodga ta‘lim va tarbiya berishida jamiyat oldida javobgarligi yanada ortib boraveradi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning o‘quv maskani oldiga qo‘yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to‘g‘ri hal qilish vazifasi o‘qituvchiga bog‘liqdir.

Zamonaviy o‘quv maskani o‘qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O‘qituvchi — sinfdagi o‘quv jarayoni tashkilotchisidir. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun dars paytida, qo‘shimcha darslarda ana bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko‘pchilik o‘qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo‘lib hisoblanadilar.

Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmazligi mumkin emas. Shuning uchun ham o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

O‘qituvchi o‘quv maskanining pedagog jamoa a‘zosi sifatida o‘quv maskani hayoti faoliyatini uyushtirishda bevosita ishtirok etib, turli fan o‘qituvchilari va sinf rahbarlarining metodik birlashmalarida ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi. Har bir o‘qituvchi o‘quvchilarning ota-onalari va jamoatchilik oldida ma‘ruzalar o‘qib, suhbatlar olib borar ekan, demak, u pedagogik bilimlar targ‘ibotchisi hamdir. Vazifalarning shu qadar ko‘pligi uchun ham jamiyatning o‘qituvchilar oldiga qo‘yadigan talablari tushunarlidir.

Ma‘lumki, pedagogik faoliyat — kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

Jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablardan eng muhimi o‘qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog‘liq xislatlariga qaratilgan.

O‘qituvchining *eng muhim xislatlari* quyidagilardan iborat:

— o‘qituvchining o‘z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o‘z yurti, ona tili, o‘z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g‘oyasida yashashidan iboratdir;

- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;
- olijanobligi, aqli, farosati, ma'naviy pokligi, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;
- o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatligidir.

Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan *asosiy talablari quyidagilardir*:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

- yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda o'quv maskani gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

- o'z ishiga ijodiy yondashishi;

- bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;

- pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi aynan shu talablarga to'la javob bera oladigan bo'lishiga intilishi shart.

O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida tevarak-atrofidagi kishilar, o'quv maskani ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim.

O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligining o'ziyoq muhim ahamiyatga egadir. Aynan shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga bog'liq bo'lsada, bundan tashqari yana o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, xalq ta'limi bo'limlari va o'quv maskani direktorlari o'qituvchining ayrim hislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan, birinchi navbatda,

o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishini talab qilsalar, o'quv maskani direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, o'quv maskanlar jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lishini bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar. O'quv maskani rahbarlari esa bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar.

Ota-onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. O'quvchilar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar. Jumladan, *birinchidan*, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatliligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari; *ikkinchidan*, o'qituvchining sezgirligi, talabchanligi bilan bog'liq tashqi xislatlari va xulq-atvoriga qarab; *uchinchidan*, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira bilishi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liq xislatlariga qarab xarakterlab beradilar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormokda.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga O'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan N.V. Kuzmina, V. Slastenin, F.N. Gonobolin, O'zbekistonlik psixologlardan R.Z. Gaynutdinov, M.G. Davletshin, S. Jalilova, A. Jabborov, M. Qoplonova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar o'qituvchilik kasbining o'ziga xos xususiyatlarini ancha batafsil ko'rsatib berish imkoniyatini yaratdi. Bunda gap o'qituvchilik kasbining professiogramma (ma'lum tizimga keltirilgan, mehnat psixologik tomonidan o'rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan hujjatga *professiogramma* deyiladi). Professiogramma psixologik nuqtai nazardan ishlab chiqarish faoliyati xarakteristikasi (aniq birorta kasb bo'yicha kelgusi amaliy ishlar uchun zarur bo'lgan mazmundagi barcha tomonlarini o'z ichiga olishi kerak) ustida boradi.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi professiogrammasi ishlab chiqilishi zarurdir.

Psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M. Abdullajonova, E. Gladkova, A. Mashkurov, T. Hamroqulov, E. Xidirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari o'zbek tili va adabiyoti, o'zbek maktablarida rus tili va adabiyoti, matematika, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari kabi qator mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining taxminiy modelini (namunasini) aniqlab olish imkoniyatini beradi.

### **3.3. Pedagogik professiogramma**

Har bir mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi. Jumladan, o'quv maskanining o'qituvchi-murabbiyi professiogrammasini misol qilib keltiramiz.

Professiogrammada muhim xislatlarning borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining quyidagi xislatlari ko'rsatib berilishi lozim.

*1) O'qituvchining shaxsiy xislatlari:*

- bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish;
- amaliy-psixologik aql-farosatlilik;
- mehnatsevarlik;
- jamoat ishlarida faollik;
- mehribonlik;
- kamtarlik;
- odamiylik, dilkashlik;
- uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish;
- o'z bilimini oshirishga intilish.

*2) Kasbiga xos bilimi:*

- ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;
- psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi;
- etnopsixologik bilimlarni egallashi;
- hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi;



— hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egalanganligi;

— o'quv maskani yoshida bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi;

— o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi;

— o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi;

— ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

### 3) *O'z kasbiga xos xislatlari:*

— milliy qayta qurish mafkurasi bilan mustaqil davlat mafkurasini tushunishi;

— zamonaviy o'quv maskanida olib boriladigan o'quv-tarbiya jarayonida umuminsoniy boylıklar, milliy an'analar va urf-odatlarining ahamiyatini tushunishi;

— o'qituvchining kuzatuvchanligi;

— o'z diqqat-e'tiborini taqsimlay olishi;

— pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi;

— o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi;

— o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini tuta olishi;

— pedagogik takt;

— nutqning emosional ifodalanishi.

### 4) *Shaxsiy — pedagogik uddaburonligi:*

— dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;

— o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi;

— ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi;

— pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;

— bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi;

— o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi;

— o'zining ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

### 5) *Tashkilotchilik malakalari:*

— bolalar jamoasini uyushtira bilishi;

— turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi;

— bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;

— amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo'llay olishi.

6) *Kommunikativ malakalari:*

- bolalarni o‘ziga jalb etishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi;
- bolalarning jamoalararo va jamoa ichida o‘zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog‘lashni bilishi.

7) *Gnostik malakalari:*

- bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi;
- o‘zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- boshqa o‘qituvchilarning tajribalarini o‘rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to‘g‘ri xulosa chiqara olishi;
- psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi;
- o‘quvchilarni to‘g‘ri tushunib, ularning xulq-atvor sabablarini tushuntirishni bilishi.

8) *Ijodiy xislatlari:*

- pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi;
- o‘quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;
- o‘zini o‘quvchi o‘rniga qo‘yib, bo‘lib o‘tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi;
- avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati;
- o‘zining o‘quvchiga pedagogik ta’siri natijalarini oldindan ko‘ra bilishga intilishi.

Shunday qilib, ko‘rsatib o‘tilgan modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi;

- shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo‘nalishi;
- pedagogik mahorat va qobiliyati;
- xarakterining psixologik xususiyatlari;
- bilish faoliyati;
- o‘qituvchi shaxsining bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasi-dagi umumiy taraqqiyoti.

Professiogramma yoshlarga o‘zlarining kelgusida o‘qituvchilik kasbini to‘g‘ri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi.

Professiogrammani kasbga xos ravishda o‘qitishni tashkil qilishda ta’limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko‘-

nikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyat va shaxsiy xislatlariga bog‘liq ekanligini albatta ko‘rsatish zarurdir.

Mana shu professiogramмага asosan bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchilarning sifat jihatidan o‘z kasbiga naqadar tayyorligi haqida bir fikrga kelishimiz mumkin.

### 3.4. Pedagogik qobiliyatlar

Qobiliyat — bu kishining biror faoliyatga yaroqliligi va shu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishidir.

Pedagogik qobiliyat — bu qobiliyat turlaridan biri bo‘lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogik qobiliyatning tuzilishi qanday? Quyida bu masalani ko‘rib chiqamiz.

Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar, pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko‘p qirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko‘rsatib berdi. Ana shu tadqiqot ma‘lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida muhim o‘rin egallaydigan qator komponentlarni (tarkibiy qismlar) ajratib ko‘rsatish mumkin:

**1. Didaktik qobiliyatlar** — bu o‘quvchilarga o‘quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib etkazib berish, o‘quvchilarda fanga qiziqish uyg‘otib, ularda mustaqil, faol fikrlashni uyg‘ota oladigan qobiliyatlardir.

Didaktik qobiliyatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi zarurat tug‘ilganda qiyin o‘quv materialini osonroq, murakkabrog‘ini soddaroq, tushunishi qiyin bo‘lganini tushunarliroq qilib o‘quvchilarga moslashtirib bera oladi. O‘qituvchining mana shu xislatlarini bilib olgan o‘quvchilar odatda: „O‘qituvchining eng muhim tomoni ham uning hamma narsani aniq, ravshan va tushunarli qilib berishida. Bunday o‘qituvchining qo‘lida mazza qilib o‘qiging keladi“; „Unisi esa hech narsaga yaramaydigan o‘qituvchi, hech ham aniq tushuntirib bera olmas edi“; „O‘quv materialini oldida tirik odamlar emas, balki qandaydir mexanizmlar bordek, zerikarli va noaniq — mujmal qilib tushuntiradi. Biz bunday o‘qituvchilarni yoqtirmaymiz“ — deyilar.

Hozirgi tushunchamizdagi kasbiy mahorat, shunchaki bilimlarni osonroq, hammabop va tushunarli qilib o‘quvchilar ongiga etkazib berish qobiliyatinigina emas, balki, shu bilan birga o‘quvchilarning mustaqil ishlarini, ularning bilish faolligini oqilona va mohirlik bilan boshqarib, ularni kerakli tomonga yo‘naltirib turishdan iborat qobiliyatni ham o‘z ichiga oladi.

Mana shu qobiliyatlar asosida o'quvchilar psixologiyasiga xos doimiy ustanovka (yo'naltirish) yotadi. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning tayyorlik darajasini, ularning taraqqiyot darajasini hisobga olgan holda bolalarning nimani bilishi va nimani bilmasligini, nimalarni allaqachon esdan chiqarganliklarini tasavvur qila oladi.

Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniqsa, xafsalasiz o'qituvchilarga, o'quv materialini oddiygina va hech qanday alohida tushuntirish hamda izoh berishni talab qilmaydigandek tuyuladi.

Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni emas, balki birinchi galda o'zlarini nazarda tutib ish olib boradilar. Shuning uchun ham o'quv materialini o'ziga qarab tanlaydilar. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchilar esa o'zlarini o'quvchi o'rniga qo'yib, kattalar uchun aniq, ravshan va tushunarli bo'lgan material o'quvchilar uchun noaniq va tushunarsiz bo'lishi mumkin degan nuqtai nazarda bo'ladilar. Shuning uchun ham bunday o'qituvchilar materialning xarakteri va uni bayon etish usullarini alohida o'ylab ko'rib rejalashtiradilar. Materialni bayon etish jarayonida qobiliyatli o'qituvchi uchun o'quvchilarning qanday tushunayotganliklari va zarur bo'lganda dars bayonotiga alohida e'tibor berishga intilayotganliklari kabi qator belgilariga qarab to'g'ri tasavvur qilib, xulosa chiqara oladi.

Ana shunday pedagogik qobiliyatni aniqlash uchun psixolog N. Gonobolin juda qulay test tavsiya etadi. Bu testga ko'ra bilish xarakteridagi matnda o'qituvchining fikri ayrim sinf o'quvchilari uchun qiyin deb hisoblangan qismlarni alohida ko'rsatib, nima uchun bu qismlarning qiyinligini tushuntirib berish, shundan so'ng esa matnni o'quvchilarga engil va ularning o'zlashtirishlari uchun qulay qilib tuzish tavsiya etiladi.

Qobiliyatli o'qituvchi, shu bilan bir qatorda, materialni o'zlashtirish, o'quvchilarga bir oz nafas olib, o'zlariga kelib olishlari va o'z diqqat-e'tiborlarini bir joyga qo'yib, ayrim qo'zg'alishlarni „so'ndirib“, boshqalarni esa jadallashtirib, ularning bo'shashganligini, sustligini va loqaydligini engishlari uchun zamin tayyorlash zarurligini ham nazarda tutadi. Bunday o'qituvchi zarur sharoit yaratilmaguncha darsni boshlamaydi. Haddan tashqari shiddat bilan boshlangan dars o'quvchilarda himoya qiluvchi tormozlanishni vujudga keltiradi, miya faoliyati tormozlanadi va o'qituvchining so'zlari etarlicha idrok qilinmaydi.

**2. Akademik qobiliyatlar** — matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga xos qobiliyatlardir.

Qobiliyatli o'qituvchi o'z fani hajmidagina emas, balki atroflicha, keng, chuqur bilib, bu sohada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, o'quv materialini mutlaqo erkin egallab, unga katta qiziqish bilan qaraydi hamda ozgina bo'lsada tadqiqot ishlarini olib boradi.

Ko'pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha, o'qituvchi o'z fani bo'yicha bunday yuksak bilim saviyasiga erishish, boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirish, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olish uchun u yuksak madaniyatli, har tomonlama mazmunli, keng erudisiyasi (bilimdon) odam bo'lmog'i lozim.

**3. Perseptiv qobiliyatlar** — bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir.

Qobiliyatli o'qituvchi bolalarning har qanday mayda-chuyda xatti-harakatlarida, yorqin ifodalanadigan ayrim tashqi holatlarida hamda ularning ichki dunyosida yuzaga keladigan o'zgarishlarni sezdirmasdan bilib oladi. Ana shunday hollarda o'quvchilar: „Muhabbat opa kimningdir kayfiyatida o'zgarishlar bo'lsa yoki kimdir darsga tayyorlanmasdan kelgan bo'lsa, ko'ziga qaraboq bilib oladi“, „Bizning o'qituvchimiz hech qayoqqa qaramasa ham, hamma narsani ko'rib turadi“ deyдилar.

**4. Nutq qobiliyati** — kishining o'z tuyg'u-hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o'qituvchidan o'quvchilarga uzatiladigan axborot, asosan, ikkinchi signal tizimi — nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatidan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi. („Biz uchun adabiyot o'qituvchimiz — Nazira opaning darsini eshitishdan katta lazzat yo'q. Nazira opamlar shu qadar yaxshi va chiroyli qilib gapiradilarki, hatto tanaffusga chalinadigan ko'ng'iroq ham halaqit beradi“).

Darsda qobiliyatli o'qituvchining nutqi hamma vaqt o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntiradimi, o'quvchilar javobini sharhlab beradimi, ularning xatti-harakatlari yoki xulq-atvorini ma'qullaydimi yoki tanbeh beradimi, xullas nima qilishidan qat'iy nazar, nutqi hamma vaqt o'zining ishonchliligi, jozibadorligi kabi ichki quvvat bilan alohida ajralib turishi lozim. O'qituvchi nutqi, uning talaffuzi aniq, ravshan, oddiy va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Beriladigan axborotlar shunday

tuzilishi kerakki, bunda o'quvchilarning fikru-zikri va diqqat-e'tiborini yuqori darajada faollashtiradigan bo'lsin. Buning uchun esa o'qituvchi o'rtaga savol tashlab, asta sekinlik bilan o'quvchilarni to'g'ri javobga olib keladi, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini faollashtiruvchi („Bunda ayniqsa ziyrak bo'ling!“, „O'ylab, yana o'ylab ko'ring!“) so'z va iboralarni o'z me'yorida ishlatadi.

O'qituvchi uzun jummalarni, murakkab og'zaki izohlarni, qiyin atamalarni va zarurati bo'lmasa, turli ta'riflarni ishlatmasligi lozim. Shu bilan birga o'qituvchi shuni ham hisobga olishi kerakki, o'qituvchining lo'nda-lo'nda bo'lib chiqqan qisqa nutqi ko'p hollarda o'quvchilarga tushunarsiz bo'lib qolar ekan. O'qituvchining o'z o'mida ishlatiladigan hazil aralash va xayrixohlik bildiruvchi arzimagan kinoyali nutqi o'quvchilarni juda jonlantirib, o'quvchilar tomonidan o'ta yaxshi qabul qilinadi ekan.

Qobiliyatli o'qituvchining nutqi jonli, obrazli, aniq-ravshan, intonasiyali va ifodali, emosiyaga boy, dona-dona bo'lib, bunda stilistik va grammatik xatolar mutlaqo bo'lmasligi lozim. Bir xil ohangdagi ezma nutq o'quvchilarni juda tez toliqtirib, ularni zeriktiradi va behafsala qilib qo'yadi. Bu bilan birga bunday nutq I.P. Pavlovning fiziologik ta'limotiga ko'ra, doimiy ta'sir etuvchan qo'zg'ovchiga aylanib, bosh miya katta yarim sharlari po'stida tormozlanish jarayonini yuzaga keltirib, o'quvchini ezma va uyquchan qilib qo'yadi. Nutq tezligi ko'p jihatdan o'qituvchining individual psixologik xususiyatiga bog'liq. Ayrim o'qituvchilar tez gapirsalar, boshqalari sekin gapiradilar. Ammo o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini egallab olishlari uchun eng qulay tezlikdagi nutq — o'rtacha jonli nutq ekanligini esdan chiqar-masligi lozim.

Shoshqaloq nutq bilim o'zlashtirishga halaqit berib, bolalarni tez toliqtiradi va muhofaza qiluvchi tormozlanishni yuzaga keltiradi. O'ta sekin nutq lanjlik va zerikishga olib keladi. Nutqning balandligi - qattiq gapirish ham xuddi shu singari hollarga olib keladi. Haddan tashqari qattiq, keskin, baqirib gapirish o'quvchilarning asabiga tegib, ularni tez toliqtirib, muhofaza qiluvchi tormozlanishini yuzaga keltiradi. Mana shu erda sharq mutafakkirlaridan Nasriddin Tusiyning „... o'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin ...“ degan nasihatini keltirishimiz juda o'rinli bo'lardi. O'qituvchining bo'sh, past ovozi yomon eshitiladi. Nutqi, imo-ishoralar, turli keskin harakatlar o'quvchilarni jonlantiradi.

Bu tariqa imo-ishoralar va harakatlar tajribali o'qituvchilarda o'z me'yorida ishlatiladi. Lekin bir xildagi tinimsiz harakatlarning haddan tashqari ko'p bo'lishi kishining asabiga tegadi.

**5. Tashkilotchilik qobiliyati** — bu birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunda jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o'zining shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila olish qobiliyatidir. O'quvchilar o'z o'qituvchilari haqida turlicha fikrda bo'ladilar. Jumladan, ayrim o'quvchilar: „...Biz Azim akani juda yaxshi ko'ramiz. Ular sinfimizda bir vaqtning ichida, juda tezlik bilan ishchanlik kayfiyatini uyushtirib, barchamizni o'zining puxtaligi, ozodaligi, epchilligi va tadbirkorligi bilan xayratda qoldiradilar“ desalar, ayrim o'quvchilar: „Sobir akamlar bizning ixlosimizni qaytarib, xafsalamizni bir pul qiladilar. Ular ko'p ishga urinadilar-u, ammo birortasini ham oxiriga etkazmaydi...“ deydilar. Ba'zan ayrim o'quvchilarning o'z o'qituvchisi haqida: „...Nodira opamlar biz bilan xuddi ona tovuqdek ovora bo'ladilar. Agar biz sho'xlik qila boshlasak, ular o'zlarini ko'rmaslikka, payqamaslikka solardilar. Ajoyib ayol edi-yu, ammo uning darsida hech kim hech narsa qilmas edi-da...“ degan fikrlarni ham eshitish mumkin.

O'qituvchining o'z ishini tashkil qila bilishi deganda, uning o'z ishini to'g'ri rejalashtirib, uni nazorat qila olishi nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtga nisbatan o'ziga xos sezuvchanlik - ishni vaqt bo'yicha to'g'ri taqsimlab, mo'ljallangan vaqtdan to'g'ri foydalana olish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Dars davomida, albatta, ko'p hollarda vaqtni behuda yo'qotish ham mumkin. Lekin bu yo'qolgan dars rejasini tuzatish zaruriyati tuzilgan hollarda bo'lishi mumkin. Tajribali o'qituvchilar vaqtni seza bilishni o'rganish uchun dars rejasini yoki matnda vaqtni nazorat qilish uchun belgilar olib borishni tavsiya etadilar. Jumladan: darsning 10, 20, 30 va boshqa daqiqalari davomida, mabodo ko'zda tutilmagan vaqt ortib qolgan taqdirda, foydalanish uchun qanday qo'shimcha materiallar tayyorlash yoki vaqt etmay qolgan taqdirda qanday materialni keyingi darsga qoldirish mumkinligi haqida maslahat beradilar.

**6. Avtoritar qobiliyati** — bu o'quvchilarga bevosita emosional-irodaviy ta'sir etib, ularda obro' orttira bilishdan iborat qobiliyatdir. (Garchand o'qituvchining o'z fanini mukammal bilishi, sezgirli va xushmuomalaligi asosida qozoniladi).

Avtoritar qobiliyat o'qituvchining rostgo'yligi, irodaviy udda-buronligi, o'zini tuta bilishi, farosatligi, talabchanligi kabi irodaviy

xislatlari hamda qator shaxsiy xislatlarga, shu bilan birga o'quvchilarni ta'lim-tarbiyasida javobgarlikni his etish, uning e'tiqodi, o'quvchilarga ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodni singdira olganligiga ishonchi kabi xislatlarga ham bog'liqdir.

O'quvchilar (ayniqsa, o'g'il bolalar, o'spirinlar — buni alohida ta'kidlab o'tishi kerak) talab qilishni biladigan, o'quvchilarni majbur qilmagan va do'q-po'pisa qilmagan, shu bilan birga behuda rasmiyatchilikka yo'l qo'ymagan holda o'z aytganini qildiradi oladigan o'qituvchilarni juda hurmat qiladilar. Shu munosabat bilan o'quvchilarning o'qituvchilar haqida ayrim fikrlarini misol qilib keltiramiz:

„Uning ajoyib xislati bor — u hech qanday zarfa va baqiriq, chaqiriqsiz ishlay oladi“; „Biz uni jiddiyligi, vazminligi va talabchanligi uchun juda yaxshi ko'ramiz. U hamma vaqt shunchaki muloyimgina, sipogina talab qiladi, ammo uning talabi shu qadar ta'sirchanki, unga quloq solmaslik mumkin emas“; „Bizning matematika o'qituvchimiz hamma vaqt yuvosh, osoyishta, o'zini tutgan va shu bilan bir qatorda butun sinfga ajoyib ta'sir eta oladi“; „Kimyo o'qituvchimizning obro'siga e'tibor etmay ko'ringchi, u har qanday sharoitda ham o'z aytganiga erishadi“; „Nig'mat aka bizga ustalik bilan ta'sir etadi. U hadeb talab qilavermaydi, agar talab qiladigan bo'lsalar, unda bo'yin tovlab bo'lmaydi“, yoki o'quvchilarning o'z o'qituvchilari haqidagi mana bunday fikrlari: „Polvon aka o'quv maskanimizdan ketganiga biz xursand bo'ldik. U bizni do'q-po'pisa, baqiriq-qichqiriq, buyruqbozlik bilan qo'lga olaman deb o'ylardi-yu, ammo bizni bardosh berishgagina majbur etardi, xolos“.

Shu bilan bir qatorda o'quvchilar o'qituvchining bo'shligi, landavurligi, laqmaligi, soddalarcha ishonuvchanligi, sustkashligi, ortiqcha riyogarchiligi, irodasizligi kabi xislatlarni baralla qoralaydilar: „yaxshi odamu, lekin o'ta bo'sh: uni aldab ketish hech gap emas“; „Tushunib bo'lmaydi: birda juda qattiqqo'l, talabchan, ba'zan hech qanday talab degan narsa yo'q“; „Juda bo'shang, lanj, uni ko'rishing bilan uyqing keladi“

**7. Kommunikativ qobiliyati** — bu bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

**8. Pedagogik xayol** — bu kishining o'quvchilar shaxsini tarbiyaviy tomondan loyihalashtirishda o'z ish-harakatlarining natijasini oldindan



ko'ra bilishda namoyon bo'ladigan qobiliyatdir. Bu qobiliyat o'qituvchi ma'lum o'quvchidan kelgusida kim chiqishini ko'z oldiga keltirishida, tarbiyalanuvchilarda u yoki bu xildagi xislatlarni o'sib rivojlanishini oldindan ko'ra bilishida namoyon bo'ladi. Bu qobiliyat pedagogik optimizm, tarbiyaning kuchiga, o'quvchilarga bo'lgan ishonch bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham o'quvchilar ayrim o'qituvchilar to'g'risida: „Ahmad akamlar, chamasi ichimizdagi eng yaramaslarga ham ishonchlarini yo'qotmasdilar, shuning uchun ham biz ularni hurmat qilardik“, degan fikrlarni izhor qiladilar.

**9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati** — bu qobiliyat bir vaqtning o'zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olishda namoyon bo'lib, o'qituvchi ishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zining diqqat-e'tiborini o'quv materialini qanday bayon etilishiga, uning mazmuniga, o'z fikrlarini atroflicha qilib qanday ochib berishga yoki o'quvchi fikriga baralla qaratadi va shu bilan birga bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni kuzatib, ularni toliqqan-toliqmaganligiga, e'tiborli yoki e'tiborsizligiga, darsni tushunish-tushunmasligiga ahamiyat berib, o'quvchilarning intizomini kuzatadi hamda natijada o'zining shaxsiy xulq-atvoriga (yurish-turishiga, o'zini tutishiga, mimika va pantomimikaga) e'tibor beradi. Tajribasiz o'qituvchi, ko'pincha o'quv materialini bayon etishga berilib ketib, o'quvchilarning nima qilayotganliklarini sezmay qoladi va nazoratdan chiqarib qo'yadi, agar, bordiyu, o'quvchilarni diqqat-e'tibor bilan kuzatishga harakat qilsa, bunday hollarda o'z bayonotining izchilligini yo'qotib qo'yadi.

### **3.5. Pedagogik takt psixologiyasi**

Pedagogik takt psixologiyasini o'rganishda psixolog I.V. Straxov benihoyat katta hissa qo'shgan. Uning fikricha, bunda muhimi o'quvchilarga ta'sir etishning eng qulay usullarini topa bilish, tarbiyaviy ta'sirni qo'llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olish, o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur pedagogik holatlarini hisobga olish zarurdir.

Pedagogik taktning yaqqol ifodalardan biri — har qanday pedagogik ta'sirga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlarni (rag'batlantirish, jazolash, pand-nasihat) his eta bilishdan iboratdir. Farosatli

o'qituvchi bolalarga e'tibor berib, ziyraklik bilan qaraydi, ularning individual psixologik xususiyatlari bilan hisoblashadi. „U biz bilan hayron qolarli darajada, ajoyib, yaqin do'stlarcha yaqin munosabatda bo'ladi“; „Bizning tarix o'qituvchimizning kuchli tomoni — har kimga qanday yondashishni bilar edi“; „Eng yomoni — o'qituvchining o'quvchilar oldida xushomadgo'ylik qilishidir. Bizning zoologiya o'qituvchimiz Farida opamlar shundaylardan edi: ular nimaiki qilib bo'lsa-da, bolalarni o'ziga qaratish uchun xushomadgo'ylik qilardi! Nega ular o'zlarini shunchalik kamsitib erga uradi? deb o'ylar edim. Axir ular o'z fanini yaxshi bilardiku“; „Ibrohim aka esa, qarabsanki, hech narsadan hech narsa yo'q, kishi diliga ozor berar, tushirib qolar yoki behudaga o'rishib, koyib berar edi“.

Pedagogik taktning yo'qligi ko'pincha og'ir oqibatlarga olib keladi. Toshkent o'quv maskanlaridan birida ona tili va adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarga juda ko'p talablarni qo'yganu, ammo hech qanday izchillik bilmagan: bir vazifa berib turib, shu zahotiy oq boshqa talablarni qo'ya boshlagan. Arzimagan xatolar, tartib buzishlar ro'y bersa, shu zahotiy oq mazmunan va shakl jihatidan o'ta qo'pol va alam qiladigan keskin gaplarni qilib, „2“ qo'yardi. Masalan, daftarning chetida qoldirilgan joyning xatoligi yoki intizom buzganlik kabi va arzimagan narsalar uchun yopishgani-yopishgan edi. O'qituvchining bu xatti-harakatlari uchun o'quvchilarda dard, alam to'lib toshgandi. Ko'p o'tmay o'quvchilarning noroziligi va qat'iy e'tirozi ochiqdan-ochiq namoyishkorona bildirilib, o'qituvchiga quloq solmaydigan, ataylab intizom buzadigan va o'qituvchini keskin tanqid qiladigan bo'lib qoldilar. Bunday achinarli ahvol faqat ana o'sha o'qituvchi o'quv maskanidan ketgandan keyingina tuzatildi.

O'qituvchining pedagogik takti masalasi munosabati bilan shuni ham aytish joyizki, qachon o'quvchilar o'qituvchining ijobiy xislatlari to'g'risida gapirar ekanlar, ular hamisha o'qituvchining adolatliligi kabi xislatlarini birinchi o'ringa qo'yadilar.

„Ko'p hollarda nohaq ish qiladilar — biror masalani yaxshilab tekshirib ko'rmasdan ish tutadilar“. O'qituvchining bunday xislatiga o'quvchilar nechukdir achinishli talabchanlik munosabatida bo'ladilar. O'qituvchining adolatsizligi yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu to'g'rida har qaysimiz o'quv maskani amaliyotidan qandaydir tasavvurga egamiz.

### **3.6. Pedagogning psixologik jihatdan o‘z malakasini oshirishni tashkil etishi**

Muhim davlat vazifasini — „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“ni amalga oshirayotgan zamonaviy o‘quv maskani o‘qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyati XXI asrda shakllanib, asosan amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o‘z rivojlana boradi.

Hozirgi jamiyatimizda o‘qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o‘z malakasini oshirib borishi — bir tomondan o‘qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi — chunki, bu kechiktirib bo‘lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi.

Psixologik nuqtai nazardan o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z bilimlarini oshirish bilan shug‘ullanishi zarurdir. Chunki o‘qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog hamma vaqt odamlar orasida bo‘larkan, u birinchidan, odamlarni ko‘pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o‘z qarashlari bo‘yicha to‘g‘ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, o‘qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko‘p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, o‘qituvchining o‘zi axborotlar olish uchun o‘quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o‘ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lib, ko‘pincha o‘z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi.

O‘qituvchining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o‘z bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan to‘ldirib, o‘zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi.

Odatda, aksariyat o‘qituvchilar mustaqil bilim egallash zarurligini tushungan holda, undan muvaffaqiyatli foydalanadilar.

Buning motivlari, odatda, pedagogik faoliyat jarayonida o‘qituvchi oldida yuzaga keladigan muammolarni anglab olish natijasida shakllanadi. Ko‘p hollarda bunday motivlar o‘qituvchilarni qanday o‘qitib va qanday tarbiyalash kerak, degan xohish-istaklar tariqasida, faning oxirgi yutuqlari, o‘zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tug‘ilishi munosabati bilan shakllana boradi.

Shu bilan birga yaqqol ko‘zga tashlanib turgan ayrim hollardan ko‘z yuma olmaymiz. Masalan o‘qituvchilar ommasining ma’lum qismi mustaqil izlanishda bo‘lib, o‘z bilim saviyasini oshirish bilan faol

shug'ullanmaydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba'zilar muayyan bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmoqdalar. Bunday o'qituvchilar o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya taraqqiyotiga jiddiy zarar keltiradilar.

Bu muammoni hal etishda asosiy vazifa malaka oshirish tizimi zimmasiga tushadi. Respublikamizda Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlari va ularning tarmoqlari joriy etilgan. Bular viloyatlardagi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlari, Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish instituti va Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish Markaziy institutidir.

Xalq ta'limidagi bu tizimning asosiy vazifasi doimiy ravishda o'qituvchi kadrlarning malakasini oshirish, o'qituvchi kadrlarni o'zlarining kasbiga xos bilim saviyasini, ko'nikma, malakalarini, ma'naviyat va ma'rifatini, shu bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik va huquqiy ma'lumotni oshirishga da'vat etuvchi ijtimoiy psixologik sohalarni rivojlantirib borishdan iboratdir.

Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina - o'qituvchi bo'la oladi, agar u o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb juda haqqoniy aytganlar.

### **Asosiy tushuncha va atamalar**

Pedagog psixologiyasi, pedagog shaxsi, pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar, pedagog shaxsi haqida Sharq mutafakkirlarining fikrlari, pedagogik professiogramma, pedagogik qobiliyat, pedagogning akademik, perspektiv, nutqiy, tashkilotchilik, avtoritar, diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari, pedagogik xayol, pedagogik takt, pedagogning o'z malakasini oshirishi va uning psixologik masalalari.

### **Rezyume**

Xulosa qilib, shuni aytish joizki, o'qituvchining barcha ijobiy, umuminsoniy axloq me'yorlariga mos keluvchi xislatlari katta ahamiyatga ega. Agar biz yuqorida qayd etilgan xislatlarni olib qaraydigan bo'lsak, bularning barchasi ham o'ta muhim omillardir. Hatto, o'qituvchining tashqi qiyofasi ham uning obro'sini shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ozodaligi, ixchamligi, uning pokizaligi, sarishta-saranjonligi, sipogarchiligi, uning qiliqlari, o'zini chiroyli tutishi, qaddi-qomati va yurish-turishlari o'quvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi.

Shuning uchun o'qituvchi jamiyatdagi kishilar bilan doimo muloqotda bo'lar ekan, unga barkamol insonlarni etishtirib berishdek muhim vazifa yuklatilgan ekan, u o'z kasbiga xos ko'nikma va malakalarni, tashkilotchilik, gnostik malakalarni, ijodiy xislatlarni, uddaburonlik sifatlarini yanada shakllantirish borasida doimo o'z bilimlarini rivojlantirib borishi muhimdir.



### ***Bob yuzasidan savol va topshiriqlar***

1. Sharq mutafakkirlarining o'qituvchi haqidagi fikrlari.
2. Hozirgi zamon o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Pedagogik professiogramma deganda nimani tushunasiz?
4. O'qituvchining shaxsiy xislatlari qanday bo'lishi to'g'risida sizning shaxsiy fikringiz.
5. Pedagogik takt deganda nimani tushunasiz?
6. Kasbiy xislatlar to'g'risida gapirib bering?
7. O'qituvchi qanday qobiliyatlarga ega bo'lmog'i lozim?
8. Pedagogik mahorat psixologiyasi haqida gapiring?
9. O'qituvchining perseptiv qobiliyati nima?
10. O'qituvchining o'z malakasini oshirishining psixologik masalalari deganda nimani tushunasiz?
11. Sizni fanlardan o'qitayotgan ustozlaringizning shaxsiy, pedagogik xislat va qobiliyatlarini ushbu mavzuda o'rgangan ma'lumotlaringiz bilan taqqoslang va zaruriy xulosalar chiqaring. (Zarur sharoitlarda psixologiya yoki pedagogika fani o'qituvchisi bilan maslahatlashing.)
12. Abu Nasr Forobiyning „Baxt-saodatga erishuv“ asarini mutoala qiling va allomaning quyidagi qarashlarini yozma bayon eting:
  - a) insoniy kamolotga erishuvda aqliy bilishning ahamiyati.
  - b) irodaviy fazilatlarini shakllantirish va odatga aylantirishda inson qudrati, ta'lim va tarbiyaning kuchi haqida.
  - c) yoshlarning kasb-hunar va ish-tajribani egallashi to'g'risida.

## PEDAGOGIK BAHOLASH PSIXOLOGIYASI

### *Bobning qisqacha mazmuni*

***Pedagogik baho va uning psixologik jihatlari.*** O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda rag'batlantirishning psixologik asoslari.

***Pedagogik faoliyatda rag'batlantirish va jazolash elementlari.*** O'quvchining o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik baholash, pedagogik bahoning effektivligi, pedagogik baholashning ijtimoiy xarakteri.

### **4.1. O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda rag'batlantirishning psixologik asoslari**

Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishdagi muvaffaqiyatlar motivasiyaga asoslanadi, ya'ni bilimlarni o'zlashtirishda, bilim va ko'nikmalarning shakllanishida hamda shaxsning ayrim sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatli bo'lgan va harakatga keltiruvchi stimullarga bog'liq bo'ladi. Bolalarda qobiliyatlar mavjudligining o'zi muvaffaqiyat garovi bo'lolmaydi, chunki zarur motivasiyaning bo'lmasligi oqibatida shaxsiy tashabbusiz na o'quv faoliyatiga, na muloqot jarayoniga kirisha oladi. Natijada psixologik rivojlanishni o'zida aks ettiradigan ijtimoiy faollikning turlarida kam ishtirok eta boshlaydi. Motivasiyaning kamchilligi holatida mavjud layoqatlar ham qobiliyatga aylanmaydi, intellektual va shaxsiy taraqqiyot esa sekinlashib boradi.

Bolalarga ta'lim va tarbiya berishda ahamiyatli rezervlar mavjud bo'lsada, amaliyotda ular motivasiyaning etishmasligi tufayli to'lagigicha qo'llanilmaydi. Ushbu holatning sabablari bir nechta. *Birinchi*dan, turli yoshdagi bolalarning turli individual xususiyatlari bilan ta'lim, muloqotga kirishishlariga turtki bo'luvchi barcha motivlar oxirigacha o'rganilgan emas. *Ikkinchi*dan, katta bo'lishgach pedagogik faoliyat bilan shug'ullangandan so'nggina kishi ilk bor bolalarning ta'lim olish motivlari borasida fikrlashga harakat qiladi va kishining o'quv maskanigacha yoshdan o'tgandan keyingina bolalarning xulq-atvoridagi haqiqiy motivlari haqida bashorat qila olish mumkin. Ammo, kishining oldindan ko'ra olishi qanchalik to'g'ri ekanligi va voqelikka mos kelishdek bashorat qilishga kafolat yo'qdir. Balki, kishi bolalarda haqiqatdan ham bo'lmagan narsalarni mavjud qilib ko'rsatishga va

ularning ta'lim, tarbiyasini haqiqiy motivlashtiruvchi ahamiyatli bo'lgan narsa haqida bilmasligi ham mumkin. *Uchinchidan*, bolalarda individual farqlanish mavjud bo'lib, bir bola uchun muhim bo'lgani boshqalar uchun qiziqish uyg'otmasligi mumkin. *To'rtinchidan*, faol harakatlanuvchi motivlar yig'indisi sifatida qaraladigan motivasiyaning o'zi vaziyatga nisbatan o'zgaruvchan hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiyaviy qiziqishlarni stimullashtirish ayrim vaziyatlarga mos kelsada, ba'zida esa noadekvat bo'lishi mumkin.

Bolalarga ta'lim va tarbiya berishda eng muhim vazifalardan biri shundan iboratki, yuqoridagi qayd etilgan motivasiyaning o'zgarish sabablarini inobatga olgan holda, amaliy jihatdan unga ta'sir qila bilish va motivasiyani kamaytiruvchi minimum omillarga olib kela bilish kerak. Ta'lim va tarbiyalash jarayonida namoyon bo'ladigan har qanday motiv va qiziqishlarni qanchalik ko'rib chiqmaylik, binobarin natijada ular rag'batlantirish va jazolash uslubiga borib to'xtaladi.

#### **4.2. Pedagogik faoliyatda rag'batlantirish va jazolash usullari**

Rag'batlantirish psixikaning ijobiy sifatlari va xususiyatlarini shakllanishini stimullashtiradi, jazolash usuli esa salbiylarining yuzaga kelishini oldini oladi. Agar amaliyotda faqatgina rag'batlantirish qo'llanilib, jazolash inkor etilsa bolalar shaxsida ijobiy sifatlar bilan birgalikda salbiy xususiyatlar ham yuzaga kelishi va shakllanishi mumkin. Agarda ta'lim-tarbiyaviy jarayon jazolashga asoslangan holda olib borilsa, unda bolada ayrim salbiy xususiyatlarning yuzaga kelishini oldini olishga olib keladi, ammo, shu bilan birga muhim ijobiy sifatlarning etarli ravishda shakllanmasligiga sabab bo'ladi. Rag'batlantirish va jazolash usullarining anglangan tarzda birgalikda qo'llanilishi optimal motivasiyani ta'minlagan holda bir tomondan ijobiy xususiyatlarning rivojlanishi uchun imkon yaratib beradi, ikkinchi tomondan salbiylarining yuzaga kelishiga to'sqinlik qiladi.

Bolaning psixologik rivojlanishi uchun rag'batlanishi va jazolanishi bir xil me'yorda stimol sifatida muhimdir: rag'batlantirish ijobiy sifatlarning rivojlanishiga xizmat qilsa, jazolanish salbiy xususiyatlarni korreksiyasiga yoki tuzatishga qaratiladi. Amaliyotda mos holatda har ikkalovining qo'llanilishi ta'lim va tarbiya vazifalaridan kelib chiqqan tarzda o'zgarishi lozim.

Agar o'quv-tarbiyaviy ishlarda shaxsning ijobiy sifatlarni shakllantirishga, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga

qaratilgan kuch-quvvatni safarbar etish zarurati bo'lsa, unda rag'batlantirish usulini qo'llash kerak bo'ladi. Agar vazifa mavjud kamchiliklarni tuzatish bilan bog'liq bo'lsa, ayniqsa, bola o'z xulq-atvorini tuzatishga intilmasa yoki anglamasa, umuman bunga qarshilik ko'rsatsa, jazolash usullarining bunday holda qo'llanilishi o'rinli bo'ladi.

Ammo bolada o'ziga bo'lgan ishonchsizlik tuyg'usi bo'lsa, o'z-o'zini past baholashda hamda muvaffaqiyatga ishonchsizlikda rag'batlantirish ustunlik qilishi kerak. O'z-o'zini baholash holati yuqori bo'lganda, juda o'ziga ishongan taqdirda aksincha, jazolash usuli qo'llaniladi.

Ular o'rtasidagi moslik darajasi yosh bilan, bolani mustaqillikka intilishidagi e'tirozga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Qanchalik e'tirozlar ko'p bo'lsa, bolaning o'z xohish irodasi va istagida yo'l qo'yilgan kamchiliklariga shunchalik qat'iy jazo qo'llanilishi lozim. Vaholanki, bolalardagi mustaqillikka intilishdagi e'tirozlar o'smirlik davrida keskin namoyon bo'la boshlar ekan, bu yoshda ularga bo'lgan munosabat qattiqqo'llik bilan ifodalanishi kuzatiladi. Bolalarni tarbiyalash jarayonida rag'batlantirish va jazolash usullarining xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi baholash pedagogik stimullar bo'lib xizmat qiladi: yaxshi baho rag'batlantirishni bildiradi, yomon baho esa jazolashni o'taydi. Shuni inobatga olish kerakki, baholashning yuqori va past ko'rsatkichlari har doim ham o'rta ko'rsatkichlar singari stimullashtiruvchi kuchga ega bo'lavermaydi. Masalan, muvaffaqiyatga erishuvchi stimullar sifatida 5, 3 yoki 2, 1 baholar emas, balki ko'pincha 4 baho bo'ladi. Shuning uchun bola besh baho olgandan so'ng, qisman o'z o'qishini davom ettirish mohiyatini yo'qotadi, chunki besh balli baholash tizimida beshdan yuqorisi bo'lmaydi. Agar o'quvchi 4 baho olgan bo'lsa, unda yanada yuqori baho, mazkur holda 5 bahoni olishga imkon va sharoit topadi. Juda ham past, 1 baho bolaning o'z natijalarini yaxshilashga intilishini yo'qotadi, sababi, bunday bahoni ijobiy tomonga o'zgartirish murakkab bo'ladi. Odatda, o'qituvchilar yuqori baholarni „qoniqarsiz“ga o'qigan o'quvchilarga qo'ymaydilar. Uch baho sub'ektiv baho tarzida qabul qilinib, harakat qilingan taqdirda uni o'zgartirish mumkin bo'ladi. Optimal holat bo'lib, besh balli tizim sharoitida mazkur predmet bo'yicha bolaning olgan bahosi bir ballga kam yoki yuqori ekanligi bo'la oladi. Agarda u, asosan, uch yoki to'rt baho olayotgan bo'lsa, unda uning uchun stimullashtiruvchi kuch sifatida 4 va 5 baholar bo'ladi, eng salbiy kuch bo'lib esa, xavotir va his-hayajonni keltirib chiqaradigan hamda yuzaga kelgan



vaziyatni to'g'rilash maqsadidagi 2 va 3 baholar hisoblanadi. Bolalarni stimullashtirish tizimida reaksiyalarning susayishi holati kuzatiladi, zero uning mohiyati hamisha ijobiy va salbiy stimullarni qo'llanilishi bilan ularning motivlashtiruvchi rolini yo'qotishida izohlanadi. Masalan, bolalarni yuqori baholar shaklida doimiy rag'batlantirish vaqt o'tishi bilan ta'sirchanlik xususiyati oldingidek ta'sir etmay qoladi. Ikkinchi tomondan, doimo past baholarni olish natijasida unga nisbatan kishida kam emosional xavotirlanish hissini oldingiga nisbatan yuzaga keltiradi va o'zining motivlashtiruvchi ta'sirini yo'qotadi.

Vaqt-vaqti bilan ijobiy va salbiy stimullar xarakterini o'zgartirib turish hamda ularga nisbatan to'g'ri ta'sir kuchini saqlay bilish kerak. Bolalarning o'quv va tarbiyaviy faoliyatini stimullashtirish kompleks xarakterga ega bo'lishi kerak bo'lib, mazkur vaqt davomida qanday qiziqish va ehtiyojlarning muhimligiga qarab ba'zan yoki qisman qo'llaniladigan turli xil kuzgatuvchilar sistemasini o'z ichiga olish lozim.

Stimullashtirishning kompleksliligi bir vaqtning o'zida turli xil: organik, moddiy, axloqiy, individual va ijtimoiy-psixologik stimullarni qo'llashni anglatadi. Organik stimullar bolalarning organik ehtiyojlarini qondirish bilan ifodalanadi.

Moddiy stimullar bolalarga qiziqarli tuyulgan va o'ziga jalb etuvchi narsalarni o'zi uchun qo'lga kiritishda ifodalanadi. Axloqiy stimullar bolaning his-tuyg'ulari hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirish bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ular qatoriga topshirilgan mas'uliyatni bajarganligidan, boshqa kishilarga ko'maklashganligidan, axloqiy maqsad va qadriyatlarga mos tarzda amalga oshirgan xulq-atvoridan qoniqish hissini kiritish mumkin.

Ijtimoiy-psixologik stimullarda shunday motivlar borki, ular bevosita insoniy munosabatlar tizimi bilan bog'liq bo'ladi. Ularga, insonga nisbatan e'tiborning kuchliligiga, hurmat-izzatga yo'naltirilgan, motivlar misol bo'la oladi. Individual stimullar shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini anglatadigan, uning uchun ahamiyat kasb etadigan, shaxsiy manfaatni o'z ichiga olgan motivlar tashkil etadi.

Turli xil stimullar ta'siri kishining xulq-atvoriga, vaziyatga asoslangan holda yuz beradi. Vaziyatga bog'liq holdagi ta'sir deganda, kishi tomonidan u yoki bu stimullarni qanday sharoitda sodir bo'layotganligiga qarab, idrok etish va baholash tushuniladi. Bir stimulning o'zi, masalan, yuqori yoki past baho muvaffaqiyatga erishish yo'lida kishi uchun ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligiga qarab, turlicha ta'sir ko'rsatadi. Agar inson hayotidagi biror-bir muhim voqealar yuqori baho olish bilan asoslansa demak, bunday baho

muvaffaqiyatga undovchi kuchli stimol bo'lib qoladi. Agar bolaning hayoti va faoliyati unga bog'liq bo'lmasa, baho uning uchun faoliyatga undaydigan kuch sifatida bo'la olmaydi.

### **4.3. O'quvchining o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik baholash**

Pedagogik baho ta'lim va tarbiya faoliyatida muvaffaqiyatni belgilovchi maxsus stimol sifatida ifodalanadi. Bunday baho faoliyat turlaridagi quyidagi to'rtta sharoitni inobatga olgan holda bolaning maksimum motivlashganligini ta'minlashi lozim: bolaning tarbiyalanishdagi muvaffaqiyatga ta'sir etuvchi turli xil zarur, etarli stimullarni bilish; har xil yoshdagi bolalarning faoliyat turlarida ishtirok etishining asosiy motivlarni bilish; ta'lim va tarbiya motivasiyasidagi individual farqlanishlarni bilish; bolalardagi ayrim shaxsiy sifatlar va malakalarning shakllanishiga ma'lumotlarni idrok qilish motivasiyasiga ta'sir etuvchi situasion-vaziyatli faktorlarni bilish kerak bo'ladi. Rag'batlantirish va jazolash sifatida talqin qilinadigan pedagogik baholash muvozanatlashgan bo'lishi kerak. Bir tomondan, ular boladagi ijobiy sifat va xususiyatlarini shakllanishini faollashtiruvchi stimullar tizimini o'z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, ushbu bolalarning shaxsida kuzatiladigan salbiy sifatlarni hamda noo'rin xulq-atvorning yuzaga kelishiga to'sqinlik qiluvchi harakatdagi stimullar yig'indisidan tashkil topgan bo'lishi lozim. Bolaning individual xususiyatlariga, yoshiga, vaziyatga bog'liq ravishda — rag'batlantirish, jazolash tarzida qo'llaniladigan pedagogik baholashning xarakteri va mosligi o'zgarib turishi ham kerak.

Ta'lim va tarbiyada boladagi muvaffaqiyat va omadsizlikni baholashda mavjud stimullar ta'siriga ko'nikish, o'rganish holatini yuzaga kelmasligini nazorat qilish kerak.

Pedagogik baholash jarayonlari faoliyatning yakuniy natijalariga emas, balki jarayonning o'ziga dahldordir. Bu jarayonda olingan natija qanday qilib qo'lgan kiritilganligi, uning asosida qanday motiv yotganligi ahamiyatlidir. Miqdoriy pedagogik baholash bajarilgan ish hajmi bilan, masalan, echilgan vazifalar, topshiriqlar, mashqlar soni orqali izohlanadi. Sifatli baholash esa bajarilgan ish sifati, aniqligi, tozaligi kabi mukammalligini anglatadigan ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradi. Pedagogik baholash turlari bilan bir qatorda bolalarning ta'lim va tarbiyaviy muvaffaqiyatlarini stimullashtiruvchi usullari ajratilib ko'rsatiladi.

Ulardan eng muhimi — kishining diqqat-e'tibori, ma'qullash, baholash, sovrin, yordam, ijtimoiy obro' va mavqeidir. Agar har bir stimullashtiruvchi usullarni alohida ko'rib chiqadigan bo'lsak, kishiga nisbatan diqqat-e'tiborlilik rag'batlantirish usullarining doimo eng maqbul ko'rinishlaridan biri hisoblangan. Atrof-muhitdagilarning qiziqishi va e'tiborini o'ziga tortish kishi uchun yoqimlidir, ayniqsa, unga ahamiyatli bo'lgan inson unga diqqat e'tiborini qaratsa. Bunday e'tibor, atrof-dagi kishilardan tanlab olgan holda qadrlashlarini anglatadi. Va aksincha, agar kishiga e'tibor qilinmasa, ahamiyat berilmas ekan, insonda noxush his-tuyg'u vujudga keladi. O'quvchiga nisbatan mehr tuyg'usi, samimiylik ila qiziqish bilan pedagog e'tibor berishi zarur hamda atrof-muhitdagi kishilar e'tiborini ham jalb qilishi orqali uni rag'batlantirib borishi kerak. Bolalar ham kattalar tomonidan bo'ladigan diqqat-e'tiborni juda qadrlaydilar, ayniqsa, o'qituvchi yoki tarbiyachining diqqat-e'tiborini qozonish uchun turli xil usullar bilan e'tibor ob'ekti bo'lishga intiladilar. Ba'zan shu maqsad bilan diqqat va e'tiborni o'ziga qaratish uchun anglangan holda kutilmagan xulq-atvorni namoyon qiladilar.

Diqqat-pedagogik stimullashtirishning imkon qadar oddiy usullardan biri bo'lib, u boshqa usullar bilan birga qo'llaniladi. Jumladan, diqqat-e'tibor ma'qullash bilan birga amalga oshirilishi orqali uning stimullashtirish xususiyatini yanada kuchaytiradi. Ma'qullash-bolaning biror nimani qilishga yoki qilmoqchi ekanligining pozitiv baholashi sifatida namoyon bo'ladi. Ma'qullash haqida gap ketganda, kishi xatti-harakatlarining verbal yoki noverbal tarz-dagi pozitiv baholanishi nazarda tutiladi. Verbal baho-ma'lum baholashli xulosalarni o'z ichiga olgan so'zli iboralarni, noverbal esa — baholovchi rolni bajaradigan mimikalar, pantomimikalar, imo-ishoralarda ifodalanadi. Ko'p hollarda ma'qullashning verbal va noverbal usullari bir-birlari bilan uyg'unlashib boradilar.

Insonni tan olishlik, iqrorlik, baholanuvchi kishidagi biror yutuqlarini ajratib ko'rsatish va ularni yuqori baholashi sifatida aks etadi. Diqqat-e'tibordan farqliroq baholash predmetini nima asosda baholanishi anglanilmaganligi holda emas, balki baholanuvchi kishining nima uchun qadrlanayotganligi ongli tarzda amalga oshadi. Iqrorlik, shu bilan birga baholanuvchi kishining o'zgalardan farqlanib turuvchi xususiyatlarini ajratgan holda baholash sifatida namoyon bo'ladi.

Baholash baholanuvchi kishining qator xususiyatlarini shakllanganlik darajasining hamda xatti-harakatlari yoki faoliyatining miqdoriy

va sifatiy baholar kvalifikatsiyasini o'z ichiga oladi. Bunga misol qilib, o'quv maskani baholarini olishimiz mumkin. Ular o'quvchining absolyut va nisbiy muvaffaqiyatlarini ballarda xarakterlaydi, ya'ni, absolyutligi shundaki, bahoning o'zi o'quvchining xulq-atvori yoki bilimlarining sifati haqida guvohlik qilsa, nisbiyligi baholardan foydalanib, turli bolalarda ularni taqqoslab ko'rish imkoniyatini beradi.

Madad bolani axloqiy mustahkamlovchi hamdardlik yoki birgalikdagi harakatlar shaklida bo'lishi mumkin. Ya'ni, kattalar tomonidan shunday amaliy harakatlarni bajarilishi bola faoliyatining aktivlashishini ta'minlaydi. Odatda madad stimullashtiruvchi bo'lib, bola atrof-muhitdagi kishilarga muhtoj bo'lganda namoyon bo'ladi.

Mukofot — bolaning harakatlarini baholashda yoki moddiy madad usuli sifatida idrok etiladi va tushuniladi. Mukofot faoliyat stimuli sifatida qachonki, keltiriladigan harakat-intilishlarga mos kelsa, va u loyiq bo'lsagina yuzaga chiqadi. Mukofot xarakterida u yoki bu vaziyatlar e'tiborga olinmasa, unda uning stimullashtiruvchi ahamiyati kamayadi.

Rag'batlantirishning keyingi usullaridan biri ijtimoiy rol, mavqe va obro'ning kuchaytirilganligi — o'quvchi va tarbiyalanuvchilar harakatining stimullashtirishni ijtimoiy-psixologik usullari hisoblanadi. Ular bolaning atrof-muhitdagi ahamiyatli bo'lgan kishilar ko'z o'ngida obro'-e'tiborini, avtoritetini oshishi bilan bog'liqdir. Bolalar o'z hayotida o'ynaydigan rollari ular uchun qadr-qimmatga va jozibali ahamiyatga egadir. Masalan, lider roli bolalar o'rtasida nihoyatda qadrlansa, hech kim tomonidan yoqtirmaydigan, hurmat qilinmaydigan, lapashang roli ular uchun ahamiyatsiz hisoblanadi.

O'z tengdoshlari va kattalar orasida bola ahamiyatli rolga ega ekanligi, ayniqsa, kattalikka, mustaqillikka, erkinlikka ehtiyoj sezganda (o'spirinlik davri) harakatlantiruvchi stimullashtirish usullari sifatida xizmat qiladi.

Obro' deganda bola uchun ahamiyatli bo'lgan atrof-dagi kishilarning hurmat darajasiga, iqrorligiga ega bo'lish tushuniladi. Bir qator psixologo-pedagogik usullar yordamida bolaning obro'sini sun'iy tarzda oshirish yoki kamaytirish bilan rag'batlantiriladi yoki jazolanadi.

Mavqe esa, bolaning shaxslararo munosabatlaridagi (masalan, sosiometrik mavqe) holati tushuniladi. U yuqorida qayd qilingan usullar yordamida o'zgartirilishi ham mumkin. Stimullashtirishning qolgan barcha usullari bolalarning xulq-atvoriga, harakatlariga, faoliyat natijalariga nisbatan qo'yiladigan baholar shaklida ifodalanadi.

An'anaviy o'quv maskanidagi baholar ushbu usullardan biri sifatida namoyon bo'ladi, ammo bolalarning tarbiyalanishi va ta'lim olishining har tomonlama to'liq motivasiyasini ta'minlay olmaydi. Shunday qilib aytish mumkinki, „Pedagogik baho“ tushunchasi o'z mohiyati va hajmi jihatidan oddiy „baho“ ga nisbatan kengroqdir.

#### **4.4. Baholashda ma'naviy - psixologik qo'llab-quvvatlash**

O'quvchilar faoliyatini baholash va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlash hamda o'z kuchiga ishonchni mustahkamlash - ko'proq, tortinchoq, uyatchang, odamovi o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda va ikki tomonlama munosabatda bo'lishda zaruriy usullardan hisoblanadi. Tortinchoqlik va o'z kuchiga ishonmaslik o'quvchilarning ishchanligini pasaytiradi, faolligiga ko'pincha salbiy ta'sir qiladi. Ushbu usulni qo'llay turib, „tarbiyachi o'quvchilarga xayrixoh va chidamli munosabatda bo'ladi, ularning ijodiy kuchlarini faollashtiradi. Ushbu usuldan foydalanib, o'qituvchi o'quvchida o'zini har tomonlama ko'rsata olishga o'rgatadigan psixologik-pedagogik holatni yaratadi.

Ushbu usuldan foydalanish uchun pedagog har bir o'quvchida qiziq va bebaho xislat borligiga, uni yon-atrofdagilar va o'quvchilar o'zlarini namoyon qilish uchun kerakliligiga ishonirishlari zarur bo'ladi.

Ishonchdan pedagogik ta'sir usuli sifatida ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish mumkin. Uning mohiyati o'quvchilarga javobgarligi mavjud bo'lgan aniq ishni topshirishdir. Ishonch o'quvchilarni quvontiradi, ilhomlantiradi va burch hissini uyg'otadi, shuningdek, ularda tartib-intizomni, tashkilotchilikni, tashabbuskorlikni va faollikni mustahkamlaydi, ya'ni butun kuchini o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarishga sarflash hissini shakllantiradi. Agar tarbiyachilar o'quvchi hurmatiga sazovor bo'lgan bo'lsalar, ishonch o'quvchining xulqiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Qiziqarli faoliyatga tortish. Tarbiyachi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni qiziqarli faoliyatga tortishlari lozim. Bunday jarayonda o'quvchilarning qobiliyati rivojlanadi, ularda turli yaxshi intilishlar tug'iladi.

Faoliyatga qiziqishni yo'qotmaslik uchun uni har doim murakablashtirib borish, o'quvchilarda yanada ko'proq iroda, bilim va malakalarni, javobgarlik hissini oshirishga qaratilgan ishlarni olib borishni faollashtirish lozim. Pedagog o'quvchilarning xulqini kuzata

turib, faoliyatning o'quvchi uchun qiziqarli yoki qiziqarli emasligini aniqlashi va zarur hollarda uni sekingina boshqa turiga o'zgartirishlari mumkin. Mazkur usulni keng qo'llash uchun o'qituvchilar o'quvchilarni ta'lim muassasalarida doimiy tashkil etiladigan to'garaklar, sport seksiyalariga a'zo bo'lishlariga, turli bayramlar, tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda ularni ishtirok etishlariga undashlari kerak.

Engil koyish. Agar o'quvchining harakati tasodifiy bo'lsa va qasddan bo'lmasa u holda, o'qituvchining u bilan o'tkazadigan suhbat do'stona ruhda o'tadi. Odatda, bunday suhbat vaqtida shaxsning ijobiy qirralari ham ta'kidlanib o'tiladi. Tarbiyada engil koyish usulining qo'llanilishi qattiq jazo kutayotgan o'quvchining ko'nglini ko'taradi va o'rtadagi tanglikni yumshatadi. Bunday holat o'quvchini ishonuvchan, tarbiyachining so'zlariga yanada e'tiborli bo'lishga, keyingi koyishlarni kuchliroq qabul qila olishga undaydi. Shu sababdan pedagogik amaliyotda engil koyishdan juda ko'p hollarda foydalaniladi. Agar o'quvchi ruhan yarador, ko'ngli yarim yoki tortinchoq bo'lsa, tarbiyachining qo'pol muomalasi o'qituvchidan yanada uzoqlashishga, shaxsiy kechinmalariga o'ralib, yakkalanib qolishiga olib keladi. Mayin koyishning yumshoq ta'siriga qaysar va ta'bi nozik o'quvchilar ham bo'ysunadilar.

Jazo o'quvchilarda qilgan ishlariga o'kinish va boshqa qaytarmaslik xohishini uyg'otishi kerak. Jazo o'quvchining chidamliligini tarbiyalashda va uning axloqidagi salbiy xususiyatlarni yo'qotishga yordam beradi. O'quvchini jazolash jarayonida tarbiyachi, ularda uyat, hijolat, o'zgarish xohishi kabi aniq kechinmalar bo'lishini nazarda tutishi lozim.

Jazoning quyidagi turlari mavjud:

Jazo-mashq. Bunday jazo tarbiyani to'g'ri tashkil qilishga yordam beradi. Masalan, guruhda o'quvchilarning talab darajasida bajarilmagan iavbatchiligi uchun ular qaytadan, ya'ni boshqatdan navbatchilik qildirish bilan jazolanadi. Aybdor o'quvchi o'z burchini albatta bajarishi shartligini, shuning uchun, uni o'z vaqtida va xaqqoniy o'tashi kerakligini tushunadi.

Jazo-chegaralash. O'quvchi qandaydir xursandchilikdan mahrum qilinadi, masalan: o'quvchi qiziqarli tadbirda qatnashishdan ozod etiladi.

Jazo-tanbeh. Ta'lim muassasasi rahbariyati, tarbiyachilari, jamoa tomonidan berilgan tanbehni o'quvchilar jazo sifatida qabul qiladilar. O'quvchilar tanbeh eshitib qolish mumkinligidan o'z burchlarini bajarishga, sho'xliklardan o'zlarini tiyishga tayyor bo'ladilar.

Jazo-shartlilik. Bu jazo aybdorda noxush kechinmalar uyg'otadi, chunki u jazolangan hisoblanadi va jamoada uning obro'sini tushirishga olib keladi. Agar o'quvchi umuman tartibli bo'lsa va jamoaning sha'nini hurmat qilsa, bunday turdagi jazo unga ijobiy ta'sir etadi. Tarbiyachilar hamda kattalarning o'quvchi qilmishini baholashda g'azabli, sovuq karashlari, sovuq ohangdagi munosabatda bo'lishlari va so'zlarining o'zi ko'p o'quvchilar uchun jazo hisoblanadi.

Pedagogik ta'sirning eng o'tkir quroli sifatida tarbiyachilar jazoni har tomonlama chuqur va har tomonlama o'ylashlari, so'ngra uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashlari lozim.

Ogohlantirish. Ogohlantirishda o'qituvchilar o'quvchi xulqini o'zgartirmasa, uning oqibatlarini ochib beradilar. Bu ta'sirning mazmuni shundaki, tarbiyachilar o'quvchida xavotir va uning negizida noxush oqibatlarni yo'qotish xohishini uyg'otadi va buning oqibatida o'quvchining xulqida javobgarlik hissi uyg'onadi. Ogohlantirish jarayonida o'quvchiga aytilgan so'z mazmunidan tashqari, tarbiyachining jiddiy, ta'sirchan, ba'zan aytilayotgan so'zning qattiq ohangi ham muhimdir.

Yuqorida biz pedagogik ta'sirning ba'zi usullari haqidagina to'xtaldik. Tarbiya amaliyotida yuqorida kayd etilgan pedagogik ta'sirning boshqa usullaridan xam foydalanish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, mavjud psdagogik ta'sir usullaridan tashqari, har bir tarbiyachining pedagogik tajribasiga asoslangan shaxsiy pedagogik ta'sir usullari ham bo'lishi mumkin.

Turli tarbiyaviy tadbirlarni, ishlarni tayyorlashda va o'tkazishda hamda o'quvchining xatti-harakatini baholashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, shaxsiy fazilatlarini, xohishlari, qiziqishlari, imkoniyat va sharoitlari, qobiliyatlarini hisobga olish bilan bir qatorda, ularning temperamentlari ham hisobga olinishi o'quvchilar bilan samimiy munosabat o'rnatishda, ularni tushuna bilishda katta yordam berishi hamda tarbiyaviy jarayonni, tarbiyaviy ishlarni samarali va natijali bo'lishiga imkoniyat yaratishi mumkin.

Buning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning temperamentlari haqida tushuncha va bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Quyida mavjud to'rtta temperamentlar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz:

Sangviniklar sezilarli ruhiy faollikka ega bo'lgan, atrofda bo'layotgan voqealarga tez munosabatini bildiruvchi, taassurotlarini hadeb o'zgarishiga intiluvchi, muvaffaqiyatsizliklar va ko'ngilsizliklarni nisbatan engil o'tkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan, ifodali

mimikasi va harakatlarga ega bo'lgan kishi sangvinik deb ataladi. Ular yangi kishilar bilan tez til topishadigan, bir ish turidan ikkinchi ish turiga tezda ko'nikadigan, bir turda bajariladigan ishlarni yoqtirmaydigan, yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadigan, xushchaqchak, harakatlari shiddatli, nutqi tez, kelajakka ishonch bilan qaraydigan, so'zini aniq va ma'noli qilib, imo-ishoralar bilan gapiradigan kishilardir. Sangviniklar yuqori lavozimga intiladigan kishilar bo'ladilar.

Flegmatiklar. Bundaylar yuragi keng, barqaror intilishlarga va kayfiyatlarga, doimiy va chuqur his-tuyg'ularga ega, harakatlari va nutqi bir xil maromda bo'lgan, ruhiy holati tashqi tomonda ifoda etiladigan kishilar hisoblanadi. Flegmatiklar ta'sirlanuvchanligi, sustligi bilan ajralib turadilar, bir turdagi ishdan ikkinchi turdagi ishga sekinlik bilan ko'chadilar, faolliklari kam, yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadilar. Flegmatiklar chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilishi bilan ajralib turadilar. Harakatlari va nutqlari sust, ko'ngilsiz hodisa yuz berganda, osoyishtaliklarini buzmaydilar. Ular sabr-toqatli, chidamli bo'lib, so'zlaganda xotirjam, o'zga shaxslar bilan hayajonlanmay gapiradilar.

Xoleriklar juda g'ayratli, ishga juda ehtiros bilan kirishadigan, hissiy „portlash“ va kayfiyatning keskin o'zgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan kishilardir. Xoleriklar - ko'tarinki ruhda ishlay oladigan, qarshiliklarni enga oladigan kishilar bo'lib, ular ishlash zavqi, kayfiyatning buzilishi bilanoq, tez o'zgarishi mumkin. Xoleriklar serjahl, o'zini yaxshi ko'radigan, tez gapiradigan odamlar bo'lib, ular boshqalardan gapining ohangi o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadilar. Xoleriklarning vazminlik darajasi xuddi sangviniklarnikidek bo'ladi.

Melanxoliklar ta'sirchan, chuqur kechinmali, gap ko'tara olmaydigan, ammo atrofdagi voqealarga unchalik e'tibor bermaydigan, o'zini to'xtata oladigan harakatlar qiladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilardir. Melanxoliklar tez toliqadigan va o'ziga ishonmaydigan, tashvishsiz, lekin juda sezuvchan, ehtiyotkor va hushyor, nihoyatda arazchan, juda oz kuladigan, faoliyati sust, tortinchoq, kam g'ayrat, arzimas sabablarga ko'ra ko'zlaridan yosh oqib ketadigan, yangi kishilar bilan qiyinchilikda til topishadigan kishilardir. Ular qulay sharoitda oldiga qo'yilgan masalalarni muvaffaqiyatli bajaradi. Agar ishda sharoit, ya'ni vaziyat o'zgarsa, qiyinchilik tug'ilsa, ular o'zlarini panaga olib turishadi. Tarbiyachi melanxolik o'quvchining faoliyatidagi kamchiliklari uchun unga nisbatan yomon munosabatda bo'lsa, urishsa, uning ruhini



tushirib yuboradi va oqibatda, bunday shaxs o‘z kuchiga shubha bilan qaray boshlaydi.

Yuqorida keltirilgan temperamentlar haqidagi ma’lumotlar umumiy holda berilgan bo‘lsada, tarbiyachilar o‘quvchilarga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lishlarida qo‘l kelishi mumkin. Lekin, ruxshunoslarning ta’kidlashicha, har bir kishida temperament yakka tartibda uchramaydi, ular albatta biri ikkinchisi bilan uyg‘unlikda uchrashligini ham unutmashlik lozim.

#### **4.5. Pedagogik bahoning effektivligi va ijtimoiy xarakteri**

Pedagogik bahoning effektivligi deganda, bolalarning ta’lim olishi va tarbiyalanishi jarayonidagi uning stimullashtiruvchi roli tushuniladi. Pedagogik jihatdan effektivlik esa bolada muvaffaqiyatga intiluvchanlikni, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni, o‘zida shaxsga oid ijobiy xislatlarni yuzaga keltiradigan baho hisoblanadi. Boladagi intellektual va shaxsiy xulq-atvor rivojlanishining motivasiyasi tashqi va ichki bo‘lishi mumkin. Ta’lim-tarbiyaviy faoliyatga nisbatan tashqi motivasiyaga uning faolligini tashqaridan yo‘naltiruvchi, ta’minlovchi, harakatlantiruvchi stimullar misoldir, ya’ni ular shunday stimullarki, bolani o‘rab turgan muhitdan kelib chiqadi va ma’lum tarzda harakat qilishni majbur qiladi. Bunday stimullar harakati agar tuxtatilsa, ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarga asoslanadigan bolalarning muloqoti va bilim olish aktivligi keskin kamayib ketadi yoki yo‘qolib ketishi mumkin.

Ichki stimullar tashqi stimullarga qaraganda faollikning har qanday ko‘rinishlarini o‘z-o‘zidan yo‘naltira olishi, shakllantirishi mumkin. Xulq-atvorni harakatlantiruvchi tashqi stimullardan bu kabi stimullarni farqlay olish uchun, ularni motiv deb yuritish ma’qulroq bo‘ladi. Zero motiv - shaxsiy, tashqi tasodifiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lmagan, faollikning ichki manbaiki, uning mavjudligi kishiga har joyda va har doim ma’lum tarzda harakat qilish imkonini beradi. Ta’lim-tarbiyaviy faoliyatning ichki motivasiyasi tashqi stimulyasiyaga ko‘ra, ancha kuchli hisoblanadi, shu sababli ham effektiv pedagogik baho sifatida boladagi ta’lim va tarbiyaning ichki motivasiyasini yuzaga keltiradigan va quvvatlaydi.

Eng yaxshi psixologik-pedagogik sharoitlar ichki motivasiyani keltirib chiqaradi va bir vaqtning o‘zida uni mos keluvchi tashqi stimulyasiya orqali quvvatlab boradi, ya’ni bolaning psixologik o‘z-o‘zini shakllantirishga intilishi uning uchun ijobiy bo‘lgan tashqi sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlanadi.

Pedagogik baholashning effektivligi haqidagi tasavvurlar individual hamda ijtimoiy-maxsus xarakterga ega. Pedagogik baholash tasavvurlarining individual xarakteri shunda namoyon bo'ladiki, uning effektivligi bolaning individual xususiyatlarga, uning muhim ehtiyojlariga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik baholashning ijtimoiy-maxsus xarakteri haqida so'z ketganda, ikki sharoit inobatga olinadi. Birinchidan, turli madaniyat sharoitlarida ta'lim va tarbiya tizimiga turli pedagogik baholar qo'llanilishi kuzatiladi. Ayrim hollarda, masalan, Shimoliy Amerika va ?arbiy Evropacha ko'rinisdagi zamonaviy jamiyatlarda eng maqbuli moddiy stimullar hisoblanadi; islom yo'nalishlaridagi Osiyo madaniyatlari sharoitda axloqiy-diniy stimullar; ba'zi mamlakatlarda esa misol uchun Yaponiyada ijtimoiy-psixologik stimullar e'tirof etiladi. Bu shuningdek, bolalardagi shakllanayotgan ta'lim va tarbiya motivlariga ham dahldordir. Ikkinchidan, pedagogik baholashning ijtimoiy-maxsus xarakteri qo'llanilayotgan sharoit tarzidan kelib chiqqan holda ushbu baho effektivligi xususiyatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Turli sharoitlarda qo'llaniladigan turli pedagogik baholar bir xil valentlikka (bola uchun ahamiyatli, kadrl) ega bo'lmasligi mumkin va bu turli ehtimollik darajasi bilan uning uchun muhim bo'lgan ehtiyojlarni amalga oshirilishiga olib keladi. Mazkur sharoitda eng katta valentlikka ega bo'lgan pedagogik baho muvaffaqiyatga erishish ehtimolini ta'minlaydi. Aytish joizki, pedagogik baholashning personal ahamiyati vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Bu holat ikki sabab tufayli yuzaga keladi. Birinchidan, kishi ehtiyojlar iyerarxiyasi uning qondirilishi bilan sharoitdan sharoitga nisbatan o'zgarib boradi. Bundan tashqari, yosh o'tishi bilan bolalarda shaxsiy o'zgarishlar sodir bo'ladiki, ular uchun oldin muhim hisoblangan baholar bora-bora stimullashtiruvchi rolini yo'qotadi, ularning o'rnini esa boshqa, yosh davrlariga xos baholar egallaydi. Nihoyat, bolalar o'rtasida individual farqlanishlar mavjud bo'lib, ayrimlari uchun stimullar bo'lgan narsalar ayrimlari uchun hech qanday turki roli o'ynay olmasligi mumkin.

### **Asosiy tushuncha va atamalar**

Pedagogik baho va uning psixologik jihatlari, rahbatlantirish, jazolash, pedagogik baholashda o'quvchining o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, pedagogik bahoning effektivligi, pedagogik bahoning ijtimoiy xarakteri.

## Rezyume

Pedagogik baholashning o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlarini o'rganish natijalariga asoslanib, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, yuqorida e'tirof etilganlar pedagogik baholashning personal ahamiyatini oshiradi va bunda quyidagi usullarni tartiblashtirish imkonini beradi;

1. Baholashda bolaning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini ahamiyatga olish va sistematik tarzda o'rganish.

2. Pedagog imkoniyatida bo'lgan stimullarga mos keluvchi etiyojlar va qiziqishlarning aktualligini hisobga olishi zarur.

3. Bolalarning bahoga nisbatan ko'nikish hissini oldini olish maqsadida pedagogik baholar tizimiga yondashishni o'zgartirib turish lozim.

4. Pedagogik baholar bola uchun ahamiyatli bo'lgan kishilar tomonidan qo'llanish kerak bo'ladi.

5. Pedagogik jarayonda katta e'tibor ijtimoiy-psixologik stimullar rolini oshirishga qaratish kerak bo'ladi, chunki ular ta'lim va tarbiya faoliyatidagi motivasiyada hal qiluvchi ahamiyatga egadir.



### *Bob yuzasidan savol va topshiriqlar*

1. Talabalarni ta'lim-tarbiya jarayonida rag'batlantirishning psixologik asoslari deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik faoliyatda rag'batlantirish va jazolash elementlari haqida gapiring?
3. Pedagogik yoki ishlab chiqarish faoliyatida o'zingizga yoki o'rtog'ingizga berilgan rag'bat yoki tanbehning psixologik ta'siri haqida kuzating va xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qiling.
4. Pedagogik bahoning effektivligi deganda nimani tushunasiz?
5. Rag'bat shaxsda qanday psixologik holatlarni yuzaga keltiradi?
7. Jazo yoki tanbehning ijobiy va salbiy tomonlari nimalardan iborat?

## INTERFAOL TA'LIM METODLARINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

### *Bobning qisqacha mazmuni*

*Interfaol ta'lim shakllari va ularni samarali amalga oshirishdagi pedagogik-psixologik talablar. Bahs turlari, yozma bahsni o'tkazish usuli, darsda munozara, breynshtorming va treninglar o'tkazish texnologiyasi, faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etish.*

*Interfaol ta'lim metodlari va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik shartlari.*

*Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash. Interfaol ta'lim metodlaridan namunalar.*

### **5.1. Interfaol ta'lim metodlari va ularni samarali amalga oshirishdagi pedagogik-psixologik talablar**

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib, tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim olishning samaradorligini oshiruvchi metodlar tushuniladi. Bu

metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Natijada ta‘lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta‘lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning *foydali jihatlar*i quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta‘lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta‘lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e‘tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatining ta‘lim oluvchi ehtiyojiga muvofiqlash-tirilishi;
- ta‘lim oluvchining tashabbuskorligi va mas‘uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interfaol metodning psixologik mohiyati shundaki, oddiy munozarada bahslashuvchilar ko‘proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar. Bunda esa bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, „tilga nima kelsa“, lekin navbatma-navbat aytish imkoniyati beriladi. Bu narsa ko‘proq muammo ancha notanish, savol murakkab yoki noaniq bo‘lgan sharoitlarda qo‘l keladi. Ya‘ni, bunda „erkin assosiasiyalar“ga imkon beriladi va oxir oqibat guruhning o‘zi ma‘lum rasional „mag‘zni“ ajratib oladi.

*Darsda munozara, breynshorming va treninglar o‘tkazish texnologiyasi.* Munozaralar yuritishning yana bir shakli borki, uning nomini rus tilida „mozgovaya ataka“, inglizchasiga „brain storming“ deb ataladi. Bizning tilimizda bu tushunchaning aniq analogik tarjimai yo‘q, lekin uni „miyaga hujum“ yoki „fikrlar to‘qnashuvi“, „fikrlar jangi maydoni“ deb atash mumkin.

Bu usulni birinchi marta amerikalik olim A. Ogborn 30-yillardayoq taklif etgan va bu usul yordamida yirik loyihalarni rejalashtirish va oldindan uning natijalarini bashorat qilishda ma‘lum yutuqlarni qo‘lga kiritgan edi. Lekin keyinchalik mutaxassislar uni faqat nostandart, o‘ziga xos echimi bo‘lgan vazifalarni muhokama qilgandagina qo‘llash mumkin, degan fikrni bildirib boshladilar. Biroq, to‘g‘ri tashkil etilgan breynshormingning amaliy afzalliklari ko‘p. Faqat bunda *quyidagi qoidalarga* rioya qilish kerak:

- jumalalar juda qisqa bo‘lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas;
- har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya‘ni fikrlar tanqiddan holidir;

— mantiqiy fikrlardan ko‘ra, fantastik yoki qo‘qqisdan, tasodifan miyada paydo bo‘lgan fikr muhimroq;

— fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi;

— bildirilgan fikr yoki g‘oyalari u yoki bu ishtirokchiliki, deb ajratilmaydi, ya‘ni ular — muallifsizdir;

— fikr yoki yaxshi g‘oyalarni tanlash alohida „tanqidchilar“ yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi ta‘kidlangan guruh katta bo‘lgan sharoitda bahs uyushtirishda ham generator, ya‘ni fikrlarni birlamchi jamlovchilarga ushbu usulda ishlashga imkon berish tajribada yaxshi natija beradi. Chunki o‘tkazilgan tekshiruvlar va ko‘plab sinov mashg‘ulotlarining ko‘rsatishicha, aynan shu guruhda breynshtorming usulining qo‘llanilishi turli-tuman va qarama-qarshi fikrlarning bayon etilishiga sharoit yaratadi. Aks holda muhim muammolar bo‘yicha munozarani boshlash va unda fikrlar rang-barangligiga erishish juda qiyin bo‘ladi. Bu usul, ayniqsa, kattalar auditoriyasida juda yaxshi samara beradi.

Bahsda ishtirok etish va undan manfaatdorlik hissi har bir ishtirokchida shakllanishi shart va bunda boshlovchi — o‘qituvchining roli katta. Amaliy mashg‘ulotlarning bahs-munozara shaklida o‘tkazilishi bolalarga oldindan aytilishi va ularning tayyorgarlik ko‘rishlari uchun savollar berilib qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir. Bahs ishtirokchilari hayajonlanmasliklari uchun mashg‘ulot boshlanishidan avval ularning o‘zlarini erkin tutishlari uchun ayrim engillashtiruvchi mashqlar, boshqacha qilib aytganda, psixogimnastik mashqlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Masalan, ana shu maqsadda o‘tkaziladigan *psixogimnastik mashqlarga* quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O‘qituvchi guruhni aylana shaklda turishini so‘raydi va a‘zolarni navbatma-navbat o‘rtaga chiqib, guruh bilan xohlagan tarzda, lekin samimiy salomlashishni so‘raydi. Keyin guruhdan kimning salomi ko‘proq yoqqanini so‘raydi.

2. Guruh a‘zolari o‘qituvchi atrofida yarim aylana shaklida turishadi. Navbat bilan guruh a‘zolari o‘rtaga chiqib, xohlagan a‘zo bilan so‘zsiz, lekin ochiq yuz bilan mimika vositasida salomlashish va biror fikrni bildirishi so‘raladi.

3. Hamma doira shaklida o‘tiradi va o‘qituvchi olib kelgan koptok navbat bilan muloqot qatnashchilariga otiladi, faqat kimga otilsa, o‘sha odamning kuchli, yaxshi bir sifati aytilib, so‘ng iring‘itiladi. O‘qituvchi koptokning albatta har bir kishiga tegishini nazorat qiladi.

Bu kabi mashqlar munozara qatnashchilari o'rtasida o'zaro tanglikning bo'lmasligi va o'z fikrini bayon etayotganda o'qituvchidan tortinmasligi uchun o'ziga xos trening hisoblanadi.

O'qituvchi munozarani boshlar ekan, ishtirokchilar ongiga quyidagilarni etkaza olishi kerak:

a) mashg'ulot har bir ishtirokchiga albatta foydali bo'ladi va ular bir-birlariga yordam berish uchun kelganlar;

b) munozara o'zaro muloqotning bir shakli bo'lib, har bir ishtirokchi bir-biriga ochiq va samimiy munosabatda bo'lsin;

c) munozara ishtirokchilarning o'zaro tajribalarini almashinishlari uchun qulay sharoitdir;

d) fikr bayon etishda, kerak bo'lsa, tavakkal qilaylik, lekin indamaslik shiorimiz bo'lmasin;

e) munozara paytida ko'p yozish shart emas;

f) agar biror narsa tushunarli bo'lmasa, uni so'rashdan tortinmang;

j) bilgan bilimlarimizni bir-birimizdan ayamaymiz, chunki boshqalar ham bundan manfaatdor bo'lsinlar, „yashiringan bilim — bilim emas“ligini unutmaylik!

## **5.2. O'qituvchini auditoriya bilan ishlashining ijtimoiy-psixologik shartlari**

Ma'lumki, har qanday pedagogik jarayonning asosiy maqsadi — ta'lim oluvchida bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishdir. Bu narsa ma'lumotlar almashinuvi orqali ro'y beradi. Pedagogik muloqot jarayonidagi ma'lumotlar almashinuvi asosan uch shaklda amalga oshiriladi:

- monolog;
- dialog;
- polilog.

Monolog — ma'ruzachi yoki o'qituvchining tinglovchilar yoki o'quvchi-talabalar qarshisiga chiqib nutq so'zlashi, darsni bayon etishidir. Ayni shu usul ta'lim-tarbiya jarayonidagi asosiy vosita ekanligi to'g'risida ongimizga o'rnatilib qolgan tasavvur mavjud. Bu holatda gapiruvchi ma'lumotlarning asosiy tayanch manbai hisoblanadi va faqat undagina faollik talab qilinadi. Monolog egasi esa o'zi mustaqil tarzda ma'lumot mazmunini tinglovchilarga etkazish va o'z mavqeini ta'kidlash imkoniga ega bo'ladi. Lekin auditoriya, ya'ni tinglovchilar unga nisbatan ancha passiv mavqeida bo'ladilar va bu narsa ma'lumotning faqat kichik bir

qisminigina idrok qilish va eslab qolishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qituvchi bu kamchilikning oldini olish uchun auditoriyani faollashtirishning boshqa yo‘llarini qidirishga majbur bo‘ladi.

Dialog — o‘quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o‘qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo‘lidir. Shuning uchun bu usul tinglovchilarni nafaqat faollashtiradi, balki auditoriyada ijodiy muhitning bo‘lishi va fikrlar almashinuvidan har bir ishtirokchining manfaatdorligi ta‘minlanadi. Ya‘ni, tinglovchilar o‘quv jarayonining ob‘ektidan uning subyektiga aylanadilar.

Dialog jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasida fikrlar almashinuvi, bilimlarni o‘zaro muhokama qila olish uchun real sharoit yaratiladi. Lekin dialogni tashkil etishdan avval o‘qituvchi auditoriyaning u yoki bu xususda bilimlar va tasavvurlarga ega bo‘lishini inobatga olishi zarur, aks holda o‘zaro muloqot samarasiz va mazmunsiz tortishuvga aylanib ketishi mumkin.

Dialog jarayonida uni tashkil etgan shaxs auditoriyaning u yoki bu muammo yuzasidan bilimlarini diagnostika qilish va shunga mos tarzda o‘z ishini tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Aynan shu holat dialogning eng muhim psixologik ahamiyatidir.

Polilog — guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchilar yoki o‘quvchilarning faolligini yanada oshirish, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi. Polilog jarayonida guruh a‘zolarining har biri muhokama kilinayotgan masala yuzasidan o‘z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, o‘qituvchi esa ushbu jarayonning tashkilotchi sifatida o‘quvchilar yoki talabalar faoliyatiga bevosita aralashmaydi. Bu usul dars mavzusi ko‘proq nazariy xarakterli bo‘lib, yangi g‘oyalardan ularning amaliy jihatlari keltirib chiqarilishi zarurarti bo‘lganda qo‘l keladi. Lekin, bu usul mashg‘ulotlar yoki muloqot darslari endi boshlangan paytda o‘tkazilishi maqsadga muvofiq emas, chunki polilog uchun o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlash tajribasidan tashqari yoshlarga o‘sha soha yuzasidan ma‘lum bilimlar majmui hamda hamkorlikda ishlash tajribasi zarur. Dialog va polilog texnikasini yaxshi egallagan muallim munozara yoki bahsni samarali tashkil etishga layoqatli bo‘ladi.

### **5. 3. Faol o‘qitish metodlari va ularni tashkil etish**

Bahsning samarali bo‘lishi, eng avvalo, bahslashuvchilarning bir-birlariga nisbatan fazoviy joylashuvlariga bog‘liq. Tinglovchi va muzokarada qatnashuvchilarning fazoviy joylashuvlari va ularning



psixologik mavqelarining mohiyati muhim bo'lganligi bois, biz ushbu holatlarni keltiramiz:

**Sinf sharoiti.** Bu — an'anaviy dars o'tkazish shakli bo'lib, tinglovchilar bir-birlarining yuzlarini ko'rish imkoniyati cheklangan va doska oldidagi o'qituvchiga va u bayon etayotgan mazmunga nisbatan tinglovchilarning mavqelari, mas'uliyati turlicha bo'ladi. Bu sharoitda bahs o'tkazish mumkin emas. Chunki sinfda oxirgi qatorda o'tirgan bola bilan birinchi qatorda o'tirganning darsga munosabati keskin farq qiladi. Tinglovchining psixologik mavqei — „Men“- o'yindan tashqarida“ bo'ladi. Endigi vazifa „Men“-o'yindan tashqarida“ vaziyatni „Men“ — o'yinda“ deb ataluvchi holatga keltirish hisoblanadi.

„Men“ — o'yinda“ tinglovchilar doira shaklidagi stol atrofida joylashadilar va o'rta tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr almashish, hattoki, ayrim ijtimoiy rollarga ham kirish imkoniyatiga ega bo'ladi, hatto boshlovchi ham „qatorda“ o'tiradi. „Ishchanlik o'yinlar“ va boshqa rolli o'yinlar ana shunday sharoitda o'tkazilishi mumkin.

„Men“ — munozarada“ deb ataluvchi bu holat ayni bahs-munozaralar o'tkazish uchun qulay, chunki unda shaxs o'z fikrini dadil aytish uchun imkoniyatni his qiladi. Odatda bunday bahslar to'rtburchak stol atrofida uyushtiriladi.

„Men“ — hamkorlikdaman“ degan bu holat kattaroq guruhlar tarkibida tashkil etiladi. Munozara a'zolari to'rt-besh kishidan iborat bo'lib, alohida stollar atrofida o'tirib, har bir guruh o'z qarorini chiqaradi. „Munozara klublari“ faoliyati shu tarzda tashkil etiladi.

Bu keltirilgan har bir holat bahs qatnashuvchilarida o'ziga xos ruhiy tayyorgarlik va mas'uliyat hissini keltirib chiqaradi.

Demak, dars mobaynida o'qituvchi mavzuning xarakteri va u shakllantirishi lozim bo'lgan bilim, malaka va fazilatlariga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi va shundan keyingina mashg'ulotni boshlashi kerak. Ko'rinib turibdiki, an'anaviy sinfda tashkil etiladigan mashg'ulotlarning samaradorligi deyarli yo'q, chunki ular oldingi qatorlarda o'tirgan tinglovchilarning faolligigagina yo'naltirilgan, qolganlar „o'yindan tashqari“ holatda, bu narsa ularning dars mazmuniga munosabatlarida bevosita aks etadi.

Kichik, tor doiralardagi kompakt guruhlarda uyushtirilgan munozaralarning *erkin mavzuli, yo'naltirilgan va aniq ssenariyli disput* turlari mavjud bo'lib, bu tanlangan mavzuga va munozara guruhlarining muloqot tajribasiga bog'liqdir („disput“ so'zining lug'aviy ma'nosi - „fikrlayapman“, „tortishayapman“, degan ma'noni bildiradi). Kichik

guruhlardagi munozaralardagi asosiy narsa — guruh a'zolarining tanlangan mavzu xususiyatiga qarab, har birining o'z fikr mulohazalarini oxirigacha bayon etish imkoniyatlarining borligidir. Bunday guruhda boshlovchi ham qatorda o'tirib, mavzuning yechimi batamom hal bo'lmaguncha faol muloqotlarning ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Lekin asosiy rol guruhning a'zolariga yuklanganligini va bevosita ajralib chiqqan norasmiy lider asosiy bahs yurituvchi bo'lishi mumkinligini unutmasligi zarur. Bunday munozaralar turli sharoitda, ko'pincha bahs ishtirokchilari uchun tabiiy sharoitlarda (masalan, sinfda, talabalar auditoriyalarida, ish xonalarida va b.q.) o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar bahslashuvchilar guruhi odatdagidan kattaroq hajmda (masalan, 30 kishigacha) bo'lsa, unda munozarani uyushtirishning o'ziga xos tomoni bor. Bu holda bahs guruhi shartli ravishda uchga bo'linadi. Birinchi guruh — „**fikrlarni jamlovchilar**“ — **generatorlar** guruhi deyiladi; ikkinchisi — „**tanqidchilar**“ va uchinchi guruh — „**fikrlarni tezlatuvchilar** — **katalizatorlar**“ deb ataladi. Har bir ajralgan guruhning o'ziga xos funksiyalari bor: „generatorlar“ o'rtaga tashlagan muammo yoki bahs mavzusi bo'yicha o'zlaridagi barcha fikrlarni o'rtaga xolis tashlaydilar. Guruh a'zolaridan biri, lider ularni jamlab, fikrlar ikkiga bo'lingan taqdirda ham ularni umumlashtirib bayon etadi. So'ngra o'yinga „tanqidchilar“ kirishadi. Ularning vazifasi — eshitgan fikrlariga tanqidiy munosabat bildirish, ya'ni tanqidiy nuqtai nazardan ular ichidagi „mag'zini“ va „puchak“ fikrlarni saralash. Shundan keyin vaziyatga qarab, yana so'z „generatorlar“ ga yoki „katalizatorlar“ ga berilishi mumkin. Bildirilgan fikr va takliflarda mabodo hisobga olinmay qolgan jihatlar yoki noo'rin fikr bo'lsa, yoki mohiyatan shu mavzuga aloqador bo'lgan, lekin ikkala tomon hisobga olmagan biror jihat aniqlansa, tomonlar diqqatini aynan shunga qaratishi kerak. So'ngra „tezlatuvchilar“ bahsni davom ettirishga ruxsat berib, agar uni yakun qilish taqozo qilinsa, ikkala guruhning o'yiniga xolis baho bergan holda munozarani to'xtatishi mumkin. Ular, ko'pincha ikkala guruh uchun xolis orbitirlar — „hakamlar“ rolini o'ynaydilar.

Maktabda bir sinf doirasida yoki talabalar guruhida axloqiy ma'naviy mavzuda bahs uyushtirganda, yuqoridagi usulni qo'llash imkoniyati bo'lsa, suhbatdoshlar **uchburchak shakldagi berk stol** atrofiga o'tirishlari mumkin. Demak, bahslashuvchilarning joylashishlari ham bu o'rinda ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Katta guruhlarda bahs yoki munozara uyushtirilganda, boshlovchining roli, ayniqsa, kattadir. Chunki u har bir guruhdagi tor-

tishuvlar va fikr almashinuvlarning boshida turmog‘i, kerak bo‘lsa, ular faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda yo‘naltirib turmog‘i lozim. Kichik guruhdagidan farqli ularoq, katta guruhlarda boshlovchi u yoki bu ichki guruhga yon bosmasligi yoki ularni o‘zining shaxsiy fikriga majburan ergashtirmasligi kerak. Aks holda, u o‘zining faoliyati bilan boshqalar tashabbusiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi va bahsning yo‘nalishini buzib qo‘yishi mumkin.

#### **5.4. Interfaol ta‘lim usullaridan namunalalar**

##### ***Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun metodi***

Akademik guruh jami talabalar sonidan kelib chiqqan holda 4-5 kishidan tashkil topadigan bir necha kichik guruhlariga ajratiladi. Kichik guruhning talab darajasida o‘quv faoliyati ko‘rsata olishi uchun uning tarkibida bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha bitta yaxshi, bitta undan sustroq talaba-o‘quvchining bo‘lishi shart. Qolganlari qobiliyatlari va bilim darajalari bo‘yicha sust o‘qiydigan talaba-o‘quvchilar bo‘lishi mumkin. Yaxshi o‘zlashtiruvchi talaba-o‘quvchi kichik guruhning sardori bo‘lib, o‘z navbatida sheriklarining ma‘lum hajmdagi bilimlarni o‘zlashtirishlari bo‘yicha o‘qituvchiga yordamchilar hisoblanadi. Har bir talaba-o‘quvchining darsga tayyorgarlik darajasidan kelib chiqqan holda barcha sheriklarining baholanishi o‘qituvchi tomonidan o‘quv yili boshida hammaga e‘lon qilinadi.

Kichik guruhdagi talabalarning fan bo‘yicha butun o‘quv faoliyati qat‘iy o‘zaro mas‘uliyatga asoslangan bo‘lib, „Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun“ shiori ostida boradi. Chunki sardorlarga joriy nazorat bo‘yicha rag‘batlantiruvchi ballarni qo‘yishda kichik guruhlar talaba-o‘quvchilarining uyga berilgan topshiriqlarni bajarganlik darajalari, ayniqsa sust o‘zlashtiruvchi talabalarning mavzu bo‘yicha o‘qituvchi va boshqalarning savollariga og‘zaki yoki yozma javob berishlari, masala echimini tushuntira olishlari e‘tiborga olinadi. Uy vazifasini ko‘proq sust o‘zlashtiruvchi, biroq bilim olishga ishtiyoqi bor talaba-o‘quvchilardan so‘rab, kichik guruhning barcha talaba-o‘quvchilarini uning javobini e‘tiborga olgan holda baholash katta ta‘limiy va tarbiyaviy samara beradi. Sust o‘zlashtiruvchilarni yaxshi tayyorlagan kichik guruh sardorlariga eng yuqori ball qo‘yiladi. Natijada sardorlarga ham tabaqalashtirilgan ball qo‘yishga erishiladi. Kichik guruhdan biror talaba-o‘quvchi uy vazifasini bajarmagan yoki qisman bajargan bo‘lsa, bu kamchilikni yo‘qotish uchun uning sardori yoki

barcha sheriklarini bir-ikki marta qo'yiladigan ballardan mahrum etib, o'sha mavzuni qayta ishlab darsdan keyin topshiradigan qilish kifoya. O'qituvchining uy vazifasini nega tayyorlamay kelding deyishi bilan bu gapni kichik guruh talabalarining jamoa bo'lib norozi ohangda sheriklariga aytishi orasida juda katta tarbiyaviy farq bor.

Darsning mustaqil ishlash qismida barcha kichik guruhlariga bir xil muammo (masala)ni sust o'qiydigan talaba-o'quvchilarga o'rgatishlari so'raladi. Chunki berilgan topshiriq tipidagi muammo (masala)lar darsning asosiy qismida o'qituvchi va talaba-o'quvchilar hamkorligida o'rganilgan bo'ladi.

Bitta kichik guruhga kirgan talaba-o'quvchilar auditoriyaning ma'lum qismidagi ketma-ket qo'yilgan partalarda birgalikda, sardor esa orqadagi partaning o'qituvchi borib yordam ko'rsatishi va o'zining kelib o'qituvchidan yoki boshqa kichik guruh sardoridan yordam olishi uchun qulay qismida o'tiradi. Ikkita parta bir-biriga qaratib qo'yilsa talaba-o'quvchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun yanada qulay bo'ladi. Sardorning amaliy mashg'ulot paytida auditoriya bo'ylab erkin harakatlanib, o'qituvchi va boshqa sardorlar bilan hamkorlikda vujudga kelgan tushunmovchilikni hal qilish bo'yicha muloqotda bo'lishiga ruxsat etiladi. Biroq, o'qituvchi huzuriga birdaniga bir nechta emas faqat bitta sardorning kelishiga yo'l qo'yiladi.

Bir kichik guruh qo'yilgan muammoni (masalani) hal etgach, uning to'g'riligini o'qituvchi tomonidan tekshirilib, sardorga sheriklariga o'rgatish taklif qilinadi. Uning o'rgatishi jarayonida masalani yecha olmagan guruhchalarning sardorlari ham shu guruhga kelib qo'shiladi, so'ngra o'zlarining guruhlariga qaytishib sheriklariga o'rgatishadi.

### ***„Ajurali arra“ metodi***

Ajur fransuzcha „ajour“ so'zidan olingan bo'lib, „bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq“ degan ma'noni anglatadi.

Bu metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- talaba-o'quvchilardan 4-5 kishilik kichik guruhlar tashkil etiladi;
- talaba-o'quvchilarga beriladigan topshiriq va ularni bajarishda foydalaniladigan matnli materiallar bir nechta asosiy qismlar (masalan, reja asosida bir nechta mavzuchalar)ga qirqiladi;
- mavzuchalar va ularga doir matnli materiallar paketi kichik guruhlarning har bir a'zosiga tarqatiladi;
- kichik guruh a'zolari matnli materiallardan foydalanib topshiriqni bajarishga kirishadilar;

— kichik guruhlarning yaxshi o‘zlashtiruvchi a‘zolaridan ekspert guruhi tashkil etiladi;

— ekspert guruhi a‘zolari qo‘llaridagi topshiriqlarni hamkorlikda muhokama qilishib, boshqalarga o‘rgatish rejasini egallashadilar;

— ekspertlar o‘zlarining dastlabki kichik guruhlariga qaytishib o‘rganganlarini boshqa sheriklariga o‘rgatishadi.

O‘qitishga bunday yondashilganda talaba-o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashlariga va katta hajmdagi o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishiga erishiladi.

Bu metoddan foydalanuvchi pedagog talaba-o‘quvchilarga taqdim etilgan topshiriqni bajarishga doir materiallarni qunt bilan o‘rganishni, birgalikda muhokama etishni, savol-javob qilishni, o‘rganganlarini boshqalarga o‘rgatishlari zarurligini oldindan aytadi.

### ***„Sinektika“ metodi***

Bu metod amaliy, seminarlar va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun qulay bo‘lib, „aqliy hujum“ metodiga yaqin. Bunda talaba darsda qo‘yilgan muammoni hal qilish yuzasidan analogiyaga asoslangan holda o‘z fikrlarini, qarashlarini olg‘a suradi. Bunda analogiya bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo‘lishi mumkin.

### ***„Dumaloq stol“ metodi***

Bu metod amaliy mashg‘ulot uchun qulay. Bunda o‘qituvchi tomonidan bitta savol yozilgan varaq kichik guruhga taqdim etiladi. Talabalar o‘zlarining ismi-shariflari va savolga javoblarini yozib, varaqni yonidagi talabaga uzatadi. Shu tariqa yozilgan javoblar yig‘ishtirib olinib, talabalar ishtirokida noto‘g‘rilari o‘chirib chiqiladi va natijalar baholanadi.

### ***„Ruchka stol ustida“ metodi***

Bu metod amaliy mashg‘ulot uchun qulay. Savolga o‘zining javob variantini yozgan kichik guruhdagi talaba ruchkasini stol ustiga qo‘yib varaqni yonidagi sherigiga uzatadi. Savolga javob yoza olmagan talaba ruchkasini stolga qo‘ymaydi. Bir nechta kichik guruhlardagi talabalarning qo‘yilgan bir xil savolga javoblari yig‘ishtirib olinib birgalikda muhokama qilinadi. Bu metodning afzalliklari: o‘qituvchi mashg‘ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko‘rib turadi; mashg‘ulotga tayyorlanmagan talaba og‘zaki muhokama paytida ko‘rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar oladi; bu metod kichik guruhda olib boriladigan ish bo‘lib, talaba intizomini mustahkamlaydi

va ulami jipslashtiradi, chunki o'zining javob varianti ustida uzoq o'ylab o'tiradigan talaba butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflab yuboradi. Shuningdek talaba mashg'ulotga tayyor bo'lmasa, bunda ham guruhga pand beradi; talabalar o'z javoblarini ikki marta, ya'ni yozma ish paytida va og'zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi.

### **„Rotasiya“ metodi**

Bu metod mashg'ulot mavzuini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi, yozganlarini butun guruh jamoa bo'lib tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

— dars mavzusi bo'yicha nomerlangan topshiriqlar (masalan, rejadagi mavzuchalar) plakatlarga yozilib doskaga osib qo'yiladi;

— topshiriqlar soni uchta bo'lsa, talaba-o'quvchilar ham shuncha kichik guruhlariga ajratiladi va guruhchalar nomerlanadi;

— kichik guruhlar o'zlarining nomerlariga mos nomerdagi topshiriqni va uni bajarishda foydalaniladigan yozma ma'lumotlar paketini oladi;

— kichik guruhlar o'zlariga taqdim etilgan materiallarni hamkorlikda o'rganishib topshiriqqa javoblarini yozishadi;

— javoblar kichik guruhdagi husnixati chiroyli bir talaba-o'quvchi tomonidan yoziladi;

— topshiriqlarga yozilgan javoblar varag'i, ma'lumotlar paketi kichik guruhlararo almashtiriladi va qo'shimchalar qilinadi, biroq javoblarning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi;

— javoblar qaysi kichik guruhniki ekanligi ajralib turishi uchun ularga har xil rangdagi flamasterlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, kichik guruhlar nomerlanib, ular o'zlarining javoblarini shu nomer ostida yozishlari ham mumkin;

— javoblar yozilgan varaqlar doskadagi osig'liq plakatlarga skochda yopishtirilib, o'qituvchi ishtirokida muhokama qilinadi, umumlash-tiriladi va to'g'ri javoblar daftarlarga yozib olinadi;

— to'g'ri va mukammal javoblar soniga qarab talaba-o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

### **„Galeriyani aylanish“ metodi**

Kichik guruhlarining barcha a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir kichik guruh o'zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan guruh ularni baholaydi va tugal bo'lmasa o'z variantlari bilan to'ldiradi. So'ngra guruhlarining fikrlari

umumlashtirilib, eng yuqori ballga arziydigan to‘g‘ri va mukammal javoblar tanlab olinadi.

### ***„Qor bo‘ron“ metodi***

Ikkiga ajratilgan guruh talabalari bir muammo yuzasidan eng ko‘p to‘g‘ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to‘g‘ri javob yumaloqlangan qor ko‘rinishida o‘sha guruh hisobiga yozib qo‘yiladi; to‘plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

### ***„Asalari galasi“ metodi***

Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo‘lishi mumkin. Guruhlar qo‘yilgan muammoni ma‘lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma‘lum qilishadi. Muammo echimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

### ***„Dumalovchi qor uyumi“ metodi***

Dumalovchi qor uyumi metodi o‘quv mashg‘uloti o‘tkazish metodining ramziy nomi bo‘lib, ish qo‘yilgan muammo ustida mulohaza yuritib ko‘rish uchun talabalarga vaqt, tegishli manbalar, tarqatma materiallar berishdan boshlanadi. Bu metod guruhning har bir a‘zosiga butun guruhning bilimlari va tajribalaridan foydalanib, o‘zining keng qamrovli nuqtai nazarini bayon etishni nazarda tutadi. Buning uchun talabalar 4 ta kichik guruhlariga ajratiladi. Muhokama qilib chiqish uchun barcha guruhlariga bitta topshiriq beriladi. Har bir kichik guruh topshiriq ustida alohida ishlaydi. So‘ngra birinchi bilan ikkinchi va uchinchi bilan to‘rtinchi guruhlar muammo ustida birgalikda muhokama yuritishadi. Oxir oqibatda barcha kichik guruhlar birlashib, butun yaxlit guruh bo‘lib qo‘yilgan muammo echimini hal etishning turli yo‘llarini, variantlarini muhokama qilishadi. Bunday muhokama jarayonida talabalarining qo‘yilgan muammo yuzasidan bilimlari chuqurlashib, oydinlashib, boyib, kengqamrovli bo‘lib boradi.

### ***„Sindikat“ metodi***

Guruh uchta kichik guruhlariga bo‘linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilish zarur. Masalan, uch no‘malumli uchta tenglamalar sistemasini echish topshirig‘i berilgan bo‘lsin, u holda birinchi guruh masalani Gauss, ikkinchi guruh Kramer, uchinchi guruh matrisa usulidan foydalanib echadi. So‘ngra echimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi.

### ***„Akvarium“ metodi***

Guruhdan uch talaba ajratib olinib ularga xona o'rtasidagi stol atrofida o'tirishlari va qo'yilgan muammoni o'n minut atrofida birgalikda muhokama, qilishib fikr bildirishlari so'raladi. Bu uch talaba akvariumdagi baliqlarga qiyos. Atrofda o'tirgan kuzatuvchilar o'rtadagi talabalarning fikrlarini diqqat bilan tinglab, javoblarni to'g'ri va noto'g'riga ajratib yozib borishadi hamda muhokama paytida o'zlarining qarashlarini bayon etishadi. Etarli darajada fikr bildira olmagan o'rtadagi talabalar o'z o'rinlarini kuchli fikr bildirgan kuzatuvchi talabalarga bo'shatib berishadi. Har bir muammo yuzasidan bildirilgan fikrlar talabalar ishtirokida o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

### ***Raqamli metodlar***

Guruhdagi talabalarning umumiy sonidan kelib chiqqan holda  $4 \times 4 \times 4$ ,  $5 \times 5 \times 5$  yoki  $6 \times 6 \times 6$  metodlarining biridan foydalaniladi. Masalan,  $5 \times 5 \times 5$  metodida har biri 5 talabadan iborat 5 ta kichik guruhchalar tashkil etilib, ularning 5 nafar sardorlari to'planishib qo'yilgan muammoni hamkorlikda muhokama etishadi, so'ngra o'zlarining guruhlariga qaytishib sheriklariga masalaning echimini o'rgatishadi.

### ***Karabey texnologiyasi***

„Skarabey“ interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya talaba-o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

### ***Veer texnologiyasi***

Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli harakterdagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.



### ***Delfi texnologiyasi***

Bu texnologiyaning mazmuni jamoa bo'lib qo'yilgan muammoning muqobil echimlarini maqbullik darajalari bo'yicha tabaqalashtirib, ulardan har birining muhim yoki nomuhimligini baholashdan, shu asosda eng yaxshi variantni tanlab olishdan iborat. Masalan, er maydonini plugda 15, 20, 25, 30, 35, 40, 45 sm chuqurlikda og'darish mumkin bo'lsin. Muayyan olingan er maydonini og'darishda shu variantlardan qaysi biri eng yaxshi ekanligini aniqlash uchun ulardan har biri erni haydashga doir mavjud agrotexnik faktorlar asosida o'qituvchining trenerligida talaba-o'quvchilar tomonidan baholanadi. Bunda har bir kichik guruh o'zlarining variantlarini taklif etishlari, so'ngra fikrlar umumlashtirilib eng yaxshi variant tanlab olinishi ham mumkin.

### ***T-jadval texnologiyasi***

Bu texnologiyadan leksiya darslari va amaliy mashg'ulotlarning yakuniy qismida foydalanish qulay. Bunda bir muammoni turli qarama-qarshi nuqtai nazarlardan qaraladi (ijobiy va salbiy, afzallik va kamchilik, foyda va zarar, to'g'ri va noto'g'ri). Masalan, o'qituvchi mavzu bo'yicha aralashtirib tuzilgan to'g'ri va noto'g'ri javoblarni ekranga chiqarib, bir partada o'tirgan talaba-o'quvchilarga hamkorlikda ularni jadvalga ajratib yozishlarini, so'ngra yozilgan varaqlarini yondosh partadagi talaba-o'quvchilar bilan almashtirib qo'shimchalar qilishlarini taklif etadi. Ish yakunlangach to'g'ri va noto'g'ri javoblar ajratib yozilgan jadval ekranga chiqariladi. Talaba-o'quvchilar o'zlarining javoblarini ekrandagi jadval bilan taqqoslab tegishli xulosalarga kelishadi.

To'g'ri javoblar	Noto'g'ri javoblar
1.	1.
2.	2.

### ***Insert texnologiyasi***

Bu texnologiya har bir talaba-o'quvchining mavzuni tezkor o'qib oldindan olingan bilimlari asosida matnga belgilar qo'yib chiqib munosabat bildirish imkonini beradi. Ma'ruza matnidagi har bir muhim tushunchalar, fikrlar to'g'risiga tegishli belgilar qo'yib chiqilib, ulardan quyidagi jadval tuziladi:

Mavzuning asosiy tushunchalari va tayanch iboralarini mazmuni	Bilaman	Men uchun yangi ma'lumot	Men bilgan ma'lumotni inkor qildi	Meni o'ylantirib qo'ydi (tushunmadim)
		V	q	—
1. $A(x; u)$ -nuqta	V			
2. $A(x)$ -to'g'ri chiziqda, $A(x; y)$ -tekislikdagi, $A(x; y; z)$ -fazodagi nuqta				?
3. $z$ - $A$ nuqtaning aplikatasi		q		
4. $xq_0$ -to'g'ri chiziqda nuqtani, tekislikda koordinata o'qini, fazoda ( $uOz$ ) tekislikni ifodalaydi			—	

**„Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim“ metodi**

Bu metod leksiya darslar uchun qulay. O'qituvchi mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va iboralar ro'yxatini kodoskopga o'xshash biror texnik vosita yordamida talaba-o'quvchilarga taqdim etadi. Talaba-o'quvchilar o'zlari biladigan va bilmaydigan tushunchalar va iboralar bilan namunadagi jadvalni to'ldiradilar:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Ro'yxatga kirmagan, biroq dars jarayonida yangidan paydo bo'lgan talaba uchun notanish tushuncha va iboralar ham jadvalning ikkinchi ustuniga qo'shimcha ravishda qayd etilib boriladi.

Talaba-o'quvchining asosiy diqqat e'tibori jadvalning ikkinchi ustunidagi bilimlarni egallashga qaratiladi. Talaba-o'quvchi darsni diqqat bilan tinglab jadvalning ikkinchi ustunidagi tushuncha va iboralarni bilib va yozib oladi hamda o'zlashtirgan savol to'g'risidagi uchinchi ustunga „q“ belgi qo'yadi, boshqalari bo'sh turadi. Agar dars jarayonida ikkinchi ustundagi ayrim tushuncha va iboralar o'rganilmasdan qolib ketsa, ular o'qituvchidan so'rab yoki mustaqil ravishda o'rganib olinadi.

Bu usul talaba-o'quvchida bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha o'z-o'zini nazorat qilish, darsdayoq tegishli ma'lumotlarni egallab olishga intilish, axborot resurslari ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

## *„Zig-zak“ metodi*

Zigzak siniq chiziq, ilonizi, egri-bugri ma'nolarini anglatadi.

Ta'limda zigzak metodining mohiyati bir guruh tomonidan o'rganib bo'lingan o'quv materialining, hali uni o'rganmagan boshqa guruhga taqdim etilishidan iborat.

„Zig-zak“ usulining bir muncha afzalliklari bor. Xususan, ushbu usulni qo'llash orqali talabalar jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini hosil qiladi va mavzuni o'zlashtirishga ketadigan vaqt tejalib, qisqa vaqtda katta materialning o'zlashtirishiga erishiladi. Ushbu usulning ketma-ketligi quyidagicha amalga oshiriladi:

- talabalar odatdagidek, bir qancha guruhlariga bo'linadi;
- har bir guruhga mavzu bo'yicha bitta savol tarqatiladi (savollar guruhdagi har bir ishtirokchiga bittadan berilishi lozim);
- guruh a'zolari shu tarqatilgan savolni belgilangan vaqtda o'rganib oladilar;

- har bir guruhga etakchi saylanadi va ular tarqatilgan matnni o'rganishda, ularning mohiyatini teran tushunishda shu guruhda etakchilik qiladi;

- liderning fikri guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi, qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin;

- matnlar guruhda to'liq o'rganilib bo'lganidan keyin ular guruhlararo almashtiriladilar;

- endi ushbu guruhlarda yangi savollar o'rganiladi;

- bu savollar ham o'rganilib bo'lingach, ular yana almashtiriladi;

- guruhlarda barcha savollar o'rganilganicha ushbu jarayonlar takrorlanadi;

- bir-birining bilimini baholash va o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruhlar bir-biriga ketma-ket ravishda savol berib boriladi;

- savol qaysi guruhga tashlangan bo'lsa, birinchi shu guruh a'zolari javob berishlari mumkin, boshqa guruh a'zolari qo'shimcha qilib borishga haqli.

Ushbu usulning „Aqliy hujum“ usuliga nisbatan farqi, bu erda talabalarning bilimlari baholanadi.

Mazkur usulni o'rganish uchun talabalar 3 guruhga yoki 6 guruhga bo'linadilar. Chunki mavzu 3 ta savolga bo'lingan.

### ***„Davra suhbatı“ metodi***

Davra suhbatida ma'ruzachi o'qituvchi bosh tashkilotchi bo'lib qoladi. Davra suhbatlari ko'pincha talaba-o'quvchilarga tanish yoki yaqin mavzularda o'tkaziladi. Davra suhbatı mavzuları, rejaları, savolları talaba-o'quvchilarga avvaldan bir necha kun oldin tarqatiladi.

Talaba-o'quvchilar uchun mustaqil tayyorgarlik ko'rishga, ularni bir-birlari bilan avvaldan o'zaro fikr almashishga, kutubxona, internetdan ayrim ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, kichik matn tuzish imkoniyati yaratiladi. Davra suhbatining afzalligi shundaki, har bir talaba-o'quvchi individual tayyorgarlik ko'radi. Har ikki tomon davrani o'tkazishga tayyorgarlik bilan keladi. Suhbatni o'qituvchi, goho lider talaba-o'quvchi olib borishi mumkin.

Davra suhbatlari oldindan dasturlangan dars jadvali asosida olib borilishi mumkin.

Davra suhbatining yana bir afzalligi shundaki, har bir talaba-o'quvchi o'z bilimni, og'zaki nutqini, shaxsiy fikrini emin-erkin namoyish etishiga muhit yaratiladi. Talaba-o'quvchi va o'qituvchining shaxsiy ma'suliyati oshadi, ham o'qish, ham o'rgatish yonma-yon davom etadi. Materialni o'qish, o'rganish, o'zaro fikr almashishga, o'zlashtirishga motiv oshadi. Bilimni olish, uning o'zlashtirilishi kafolatlanadi.

### ***„Mojarı“ metodi***

Bu metod amaliy mashg'ulotlar uchun qulay. Odatdan tashqari, hattoki favquloddagi vaziyatlarda qilinadigan hatti-harakatlarni talabalarga o'rgatish maqsadida bu metoddan foydalaniladi. Masalan, tug'ayotgan sigirning buzog'i teskari keldi, yurak to'xtash arafasida nima chora ko'rish kerak va hokazo. Bunday muammolarni hal qilish yo'llarini o'rganishda mojarı metodidan foydalanilsa, talaba-o'quvchilarning fikrlari faollashib qisqa vaqt ichida to'g'ri qaror qabul qilish, ishni to'la, tez va chaqqon bajarish sifatlari shakllanadi.

### ***Munozara metodi***

Disput — bu ikki yoki ko'proq kishilarning keskin chegaralangan qoidalar doirasida og'zaki olib boriladigan bahsi, munozarasi, masala talashuvidir. Disput mavzusi tayyorgarlik ko'rish uchun o'tkazishdan oldin talaba-o'quvchilarga ma'lum qilinadi.

Talaba-o'quvchilarga bilim berishga mo'ljallangan disputda kamida bitta rais va ikki guruhning har biridan bir nafardan so'zlovchi qatnashadi. Disputni ochuvchi birinchi talaba qo'yilgan taklifni ma'qullab chiqsa, ikkinchisi unga qarshi chiqadi, ya'ni opponent bo'ladi.

So'zlovchilarga 10 minutdan, har ikki guruhdan ikkitadan ortiq bo'lmagan qo'shimcha qilishga chiqadigan talabalarning har biriga 5 minutdan vaqt beriladi. Ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi. So'zga chiquvchilarning barchasi raisga murojaat etishadi va uning qarori qat'iy bo'lib, disputning mavzudan chetga chiqib ketmasligini nazorat qiladi.

### ***Munozaralar o'tkazish texnologiyasi***

Munozaralarni tashkil etish va o'tkazish tashkilotchidan juda jiddiy tayyorgarlikni, ijodiy muhit yaratishni talab etadi. O'qituvchi ilgaridan munozaraning mavzusini, uni o'tkazish rejasini, vaqtlarini talaba-o'quvchilar bilan o'zaro kelishib oladi.

Talaba-o'quvchilarga o'quv yili boshlanishida munozara mavzulari rejasi e'lon qilinib, ularga etkaziladi. Ularning tayyorgarlik ko'rishlari uchun vaqt beriladi. Munozara muhokamasiga ma'muriyat, mahalla faollari, mashhur mutaxassislar taklif etiladi. Munozaraning boshlovchisi tayinlanadi. Boshlovchi juda keng qamrovli bilimga ega bo'lishi kerak.

Munozara davrida vujudga keladigan muammoli masalalar, ay-niqsa, chigal fikrlar bo'yicha ularni chuqur tahlil qilish qobiliyatiga ega ekspertlar taklif etiladi. Munozarani olib borganda uning ishtirokchilarini qiziqtirib, qovushtirib, boshqarib, zarur yo'llanmalar berib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan munozara jarayonida to'g'ri xulosalar chiqarish juda katta ma'suliyat talab etadi.

Munozaralar mavzuga qiziqish bildirgan guruhlarini qo'shib, aksincha hollarda esa, ularni guruhlariga bo'lib, zarur bo'lgan ayrim xollarda katta zallarda, katta auditoriyalarda olib boriladi. Munozaralar demokratik, oshkoralik, tenglik, samimiylik, hamkorlik ham ijodkorlik, bir-birini qo'llash ruhiyatida olib borilishini ta'minlash yaxshi natijalar beradi. Munozara erkin fikr yuritishni, o'z shaxsiy pozitsiyasida turishga o'rgatadi. Eng muhimi, talaba-o'quvchini mustaqil mutolaaga, fikr almashuv orqali uzluksiz o'z bilim va malakasini oshirishga olib keladi.



„*Aqliy hujum*“ *metodi* — biror muammo bo‘yicha ta‘lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir echimga kelinadigan metoddir. „Aqliy hujum“ metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta‘lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta‘lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki „pinbord“ doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. „Aqliy hujum“ metodining yozma shaklida javoblarini ma‘lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxs erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

„*Aqliy hujum*“ metodidan foydalanilganda ta‘lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan, ta‘lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta‘lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta‘lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi.

„*Aqliy hujum*“ *metodi ta‘lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:*

1. Ta‘lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.


2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

„*Aqliy hujum*“ *metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:*

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.  
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham, inobatga olinadi.

3. Har bir ta‘lim oluvchi qatnashishi shart.



**4-rasm.** „Aqliy hujum“ metodining tuzilmasi

*„Aqliy hujum“ metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:*

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlari so'raladi;
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotas-maga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

*„Aqliy hujum“ metodining afzalliklari:*


- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
  - ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
  - fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
  - ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
  - ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.
- „Aqliy hujum“ metodining kamchiliklari:*
- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
  - ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshinish qobiliyatining talab etilishi.



„*Kichik guruhlarda ishlash*“ metodi — ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o’quv materialini o’rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo’llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo’lishga, bir-biridan o’rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo’ladi.

„*Kichik guruhlarda ishlash*“ metodi qo’llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega



5-rasm. „Kichik guruhlarda ishlash“ metodining tuzilmasi



bo'ladi. Chunki, ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb etadi va baholay oladi.

„Kichik guruhlarda ishlash“ metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

„Kichik guruhlarda ishlash“ metodining afzalligi:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;

- muloqotga kirishish ko'nikmasini takomillashtiradi;

- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;

- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

„Kichik guruhlarda ishlash“ metodining kamchiliklari:

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;

- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;

- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lishi mumkin;


- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

## „DAVRA SUHBATI“ METODI



„Davra suhbati“ metodi — aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

„Davra suhbati“ metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan „ko'z aloqasi“ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar




Belgilar:  
 1-ta'lim oluvchilar  
 2-aylana stol

**6-rasm.** „Davra suhbatlari metodi“ ishtirokchilarining joylashish tartibi

muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi.

Yozma davra suhbatida (6-rasm) ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va „Javob varaqasi“ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini „Javoblar varaqasi“ning biriga yozib, konvert



**7-rasm.** „Davra suhbatlari“ metodini amalga oshirish usullari

ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

*„Davra suhbatı“ metodining bosqichlari quyidagılardan iborat:*

1. Mashg‘ulot mavzusi e‘lon qilinadi.

2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchılarnı mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. Har bir ta‘lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda nechta ta‘lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan „Javoblar varaqalari“ tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta‘lim oluvchi konvertga va „Javoblar varaqalari“ga o‘z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta‘lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va „Javoblar varaqasi“ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertı olgan ta‘lim oluvchi konvert ustidagi savolga „Javoblar varaqalari“dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta‘lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertidagi „Javoblar varaqalari“ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta‘lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta‘lim oluvchılarnı muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta‘lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta‘lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta‘lim beruvchi ham ta‘lim oluvchılarnı ob‘ektiv baholashi mumkin.

*„Davra suhbatı“ metodining afzalliklari:*

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta‘lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- ta‘lim oluvchi o‘zining baholanish mas‘uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

*„Davra suhbatı“ metodining kamchiliklari:*

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta‘lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;


• ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

## „ISHBOP O'YIN“ METODI



„Ishbop o'yin“ metodi — berilgan topshiriqlarga ko'ra, o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O'yin faoliyati biron-bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zgartirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Ishbop o'yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o'z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o'yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha



8-rasm. „Ishbop o'yin“ metodini o'tkazish tartibi

qaror qabul qiladi, soʻngra guruh bilan maslahatlashadi. Oʻyin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

*„Ishbop oʻyin“ metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:*

Taʼlim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yoʻriqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

1. Taʼlim oluvchilarni oʻyinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

2. Taʼlim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.

3. Taʼlim oluvchilar oʻz rollari boʻyicha tayyorgarlik koʻradilar.

4. Taʼlim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan oʻyinni amalga oshiradilar. Taʼlim beruvchi oʻyin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

5. Oʻyin yakunida taʼlim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.

6. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi oʻz vazifasini toʻgʻri bajarishi, berilgan vaziyatda oʻzini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini koʻrsata olishi kerak.

• Ishbop oʻyin“ metodining afzalliklari:

• taʼlim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini oʻz qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;

• taʼlim oluvchining boshlangʻich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

• taʼlim oluvchilar oʻz bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

*„Ishbop oʻyin“ metodining kamchiliklari:*

• taʼlim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;

• vaqt koʻp sarflanadi;

• tanlangan mavzu taʼlim oluvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;

• taʼlim oluvchining his-hayajoni toʻgʻri qaror qabul qilishga xalaqit berishi mumkin.

## **„ROLLI OʻYIN“ METODI**



**„Rolli oʻyin“ metodi** — taʼlim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali koʻrsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga „Rolli o'yin“ metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, „Ishbop o'yin“ metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni echish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yiladi. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

„Rolli o'yin“ metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivasiyani shakllantirishga yordam beradi.

*„Rolli o'yin“ metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:*


1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin ssenariysini ishlab chiqadi.

2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.

3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.

4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi.



9-rasm. „Rolli o'yin“ metodining o'tkazilish tartibi

Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun ssenariy t'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning motivasiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin ko'rinishidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

*„Rolli o'yin“ metodining afzallik tomonlari:*

- o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivasiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;
- ta'lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

*„Rolli o'yin“ metodining kamchilik tomonlari:*

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning o'yinga tayyorgarligi turlicha bo'lishi mumkin.

## „BAHS-MUNOZARA“ METODI




*„Bahs-munozara“ metodi* — biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

*„Bahs-munozara“ metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:*

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;

- „o‘ng qo‘l“ qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.



10-rasm. „Babs-munozara“ metodini o‘tkazish tuzilmasi

*„Babs-munozara“ metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:*

1. Ta‘lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta‘lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya‘ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta‘lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

*„Babs-munozara“ metodining afzalliklari:*

- ta‘lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta‘lim oluvchilar o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta‘lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.



*„Bahs-munozara“ metodining kamchiliklari:*

- ta'lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.


## **„MUAMMOLI VAZIYAT“ METODI**



*„Muammoli vaziyat“* metodi — ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

*„Muammoli vaziyat“* metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning echimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi.

*„Muammoli vaziyat“* metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o'rganadilar.



**11-rasm.** „Muammoli vaziyat“ metodini o'tkazish tartibi

„Muammoli vaziyat“ metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

„Muammoli vaziyat“ metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va echimlarini topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.
- Muammoli vaziyat“ metodining kamchiliklari:
- ta'lim oluvchilarda yuqori motivasiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.




„Loyiha“ *metodi* — bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo’yicha axborot yig’ish, tadqiqot o’tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo’lishi mumkin, lekin har bir loyiha o’quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning echimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo’lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo’llay olishni talab qiladigan topshiriq bo’lishi kerak.

Loyiha o’rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo’lishi kerak.

„Loyiha“ *metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:*

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo’yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig’adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt



12-rasm. „Loyiha“ metodining bosqichlari

va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta'lim oluvchilar bilan birgalikda „Baholash varaqasi“ni ishlab chiqadi.

4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari, kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini „Baholash varaqasi“da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Muhandis-pedagog va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog „Loyiha“ metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.

*„Loyiha“ metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:*

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhli ish;
- jamoa ishi.

## **5.5. Bumerang texnologiyasini o'tkazish bosqichlari**

### ***1-bosqich:***

— Trening tinglovchilari 4—5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi;

— o'qituvchi har bir guruh va uning har bir a'zosiga mustaqil o'rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun alohida-alohida aniq

yoʻzma tarqatma material beradi. Ularning soni guruhlar va tinglovchilar soniga bogʻliq. Agar 4 ta kichik guruh boʻlsa, u holda umumiy mavzu 4 ta kichik matnlarga boʻlinib, har bir guruhga beriladi;

— faoliyat samarali boʻlishi uchun har bir guruhga berilgan tekstdan har bir tinglovchiga beriladi. Shunday qilib, 4 ta guruh umumiy mavzu asosida 4 xil matnga, har bir tinglovchi esa oʻz guruhiga tushgan matnga ega boʻladi.

### ***2-bosqich:***

— guruhlariga berilgan matnni guruh aʼzolari yakka tartibda alohida oʻrganishlari, tekstni eslab qolishlari, keyin esa, kerak boʻlsa, boshqalarga yoki oʻqituvchiga gapirib berishlari, iloji boricha tekstni oʻzlashtirib olishlari kerakligini oʻqituvchi uqtiradi va tayyorgarlik uchun matnni katta yoki kichikligiga qarab, 10—15 daqiqacha vaqt beradi. Oʻzi esa guruh va tinglovchilarning ish faoliyatini kuzatadi.

### ***3-bosqich:***

— oʻqituvchi oldindan tayyorlab qoʻyilgan raqamlar yozilgan kichik qogʻozlar bilan xar bir guruh yoniga kelib guruh aʼzolaridan ushbu qogʻozlardan bittadan raqam tortib olishlarini soʻraydi (qogʻozlar soni guruhdagi tinglovchilar soniga bogʻliq, masalan guruhda 5 kishi boʻlsa, qogʻozdagi raqamlar 1,2,3,4,5, etib tayyorlanadi, agar 4ta boʻlsa 1dan 4gacha va hokazo). Kichik guruhlardagi barcha tinglovchilar raqamlar yozilgan qogʻozdan olishlari kerak. Nechta guruh boʻlsa, shuncha guruh aʼzolari soniga qarab raqamlar yozilgan qogʻozlar tayyorlanadi.

Trener raqamlar boʻyicha tinglovchilardan yangi guruhlar tuzishlarini soʻraydi. Masalan, hammada 1-raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2-raqamlilar ikkinchi, 3-raqamlilar uchinchi guruhni, 4-raqamlilar toʻrtinchi guruhni, 5-raqamlilar beshinchi guruhni tashkil etishlarini soʻraydi. Guruh aʼzolari yangi guruhga oʻzlari bilan oʻrgangan matnlarini ham olib oʻtishadilar.

### ***4-bosqich:***

— raqamlar boʻyicha yangi guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar oʻz-oʻzidan toʻplanib qoladi, yaʼni 4 xil matn oʻrganilgan boʻlsa, bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil toʻplanadi, umumiy mavzu boʻyicha 4 tinglovchi va 4 xil matn toʻplanadi.

### **5-bosqich:**

— yangi tuzilgan guruhning har bir a'zosi endi o'ziga 2 ta vazifa, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko'rsatadi:

— o'qituvchi (o'rgatuvchi) sifatida, o'zi avval o'rgangan materialni gapirib beradi, o'zi mustaqil o'rgangan materialning asosiy joylariga barchaning diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a'zolarining tushunish va o'zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi.

— o'quvchi sifatida, guruh a'zolarining navbatma-navbat so'zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

— o'qituvchi esa ularga o'z tekstlarini faqat so'zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga 20 daqiqacha vaqt beradi (matn hajmiga va umumiy mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt ajratiladi).

Bu bosqichda trening boshlanishida tarqatilgan barcha material tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilgan hisoblanadi.

### **6-bosqich:**

— guruhdagilar bir-birlariga o'z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, o'qituvchi o'rganilgan material guruh a'zolari tomonidan qanchalik o'zlashtirib olganini tekshirib ko'rish uchun har bir guruh a'zolarining bir-birlariga o'z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkinligini tushuntiradi. Shunday qilib, guruh ichida ichki nazorat, ya'ni savol-javob orqali o'tkaziladi. Bu esa guruhdagi tinglovchilarni bir-birlariga so'zlab bergan materiallarini boshqalar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga, o'zining bilimini yanada mustahkamlashiga yordam beradi.

### **7-bosqich:**

— o'qituvchi barcha tinglovchilarni yana qaytadan avvalgi joylariga qaytishlarini so'raydi, ya'ni talaba-o'quvchilar yana mashg'ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

### **8-bosqich:**

— o'qituvchi auditoriyadagi tinglovchilarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lganliklarini hisobga olgan holda, har bir talaba-o'quvchidan o'rganilgan materialni so'rashi mumkinligini aytadi.

### ***9-bosqich:***

— tinglovchilarga tarqatilgan o‘quv materialining ular tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o‘qituvchi talaba-o‘quvchilarning nazorat savollariga bergan javoblarini reyting ballari orqali baholashini tushuntiradi, masalan, savollarga berilgan javoblar-agar to‘liq javob bo‘lsa — 3 ball, qo‘shimcha qilinsa — 2 ball, o‘tirgan joydan luqma tashlansa — 1 ball, javob berilmasa — 0 ball qo‘yilishi belgilanadi.

Baho sistemasida to‘liq javob uchun 5 baho, qo‘shimcha uchun 4 baho, luqma tashlansa 3 baho, javob bermasa 2 baho, umuman ishtirok etmasa 1 baho qo‘yishni belgilash mumkin.

Guruh a‘zolarining javoblarini yuqorida ko‘rsatilgan tartibda baholash, ballarni qo‘yib borish, umumlashtirish uchun har bir guruh o‘ziga guruh qatnashchilaridan birini „hisobchi“ etib tayinlashi mumkin („hisobchi“ ham davrada bo‘layotgan savol-javoblar muloqotida ishtirok etadi).

### ***10-bosqich:***

— o‘qituvchi tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5-6 ta) bilan talaba-o‘quvchilarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha hamma matnlarga tegishli bo‘lgani ma‘qul, shuningdek, o‘qituvchi auditoriyadagi barcha o‘quvchi-talabalarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi).

Belgilangan savollarga javob berish tugagach, o‘qituvchi doskaga guruhlar tomonidan to‘plangan ballarni yozadi va mashg‘ulotning keyingi bosqichiga o‘tadi.

### ***11-bosqich:***

—o‘qituvchi har bir guruhni o‘z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tayyorlashlari kerakligini aytadi va guruhlariga savol tuzishlari uchun 5—7 daqiqa vaqt ajratadi.

### ***12-bosqich:***

— guruhlar bir-birlariga savollar beradilar, guruhlardagi „hisobchilar“ esa guruh a‘zolarining javoblarini yuqorida belgilangan tartibda baholab boradilar. Javoblar to‘g‘ri bo‘lsa, savol bergan guruh javobni to‘ldirmaydi.

### **13-bosqich:**

— o‘qituvchi guruh a‘zolari to‘plangan ballarni yana bir marta doskaga yozadi va to‘plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymatini aniqlaydi. To‘plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymati barcha guruh a‘zolariga teng bo‘linadi (kelishganlik asosda).

*Izoh:* agar to‘plangan ballarni guruh a‘zolariga teng bo‘lishda o‘quvchi-talabalar tomonidan norozilik bo‘lsa, ya‘ni ba‘zi guruh a‘zolari guruhning faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy jamoaviy faoliyatda passiv bo‘lgan bo‘lishsa, yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan bo‘lishsa, bunday holatda vaziyatni echishni guruh a‘zolariga yuklatiladi. Guruhning echimi to‘g‘ri hisoblanadi, yoki o‘qituvchi o‘z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida o‘quvchi-talabalarning javoblari, faol yoki passivligini kuzatib boradi.

Umuman olganda, agar o‘quvchi-talaba faollik ko‘rsatmagan, yoki savol-javoblarda ishtirok etmagan bo‘lsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani eslab qolib o‘zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik ball berilishi mumkin. Bu o‘quvchi-talabani keyinchalik shu shakldagi darslarda faolroq bo‘lishga undaydi. Yuqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa uning echimini har bir o‘qituvchi sharoitga qarab o‘zi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Ba‘zida guruhning „hisobchilari“ ballarni qo‘yishda noaniqlik yoki qo‘shib yozishlari mumkin, natijada, ba‘zi guruhlarning umumiy to‘plangan ballari boshqa guruhlarnikidan juda kam farq qilishi mumkin. O‘quvchi-talabalarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlangan „hisobchi“lariga bog‘liq ekanligini o‘qituvchi oldindan eslatib o‘tadi. Agar umumiy to‘plangan ballarni guruh a‘zolariga taqsimlaganda shu mashg‘ulot uchun belgilangan maksimal balldan ortib ketgan bo‘lsa, u holda shu mashg‘ulot uchun kerakli ballni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashg‘ulotlarga yoki yakuniy nazoratga o‘tkazish mumkin.

### **14-bosqich:**

— har bir talaba-o‘quvchiga ballar qo‘yilgach, o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi. O‘quvchi-talabalarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o‘z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

- bugungi mashg‘ulotdan nimalarni bilib oldingiz?
- nimalarga o‘rgandingiz?
- nimalar siz uchun yangilik bo‘ldi?
- yana nimalarni bilishni istar edingiz?



### ***15-bosqich:***

O'qituvchi o'quvchi-talabalarning javoblarini diqqat bilan tinglab ularga minnatdorlik bildiradi va darsni yakunlaydi.

## **5.6. Muloqot treningi**

Ushbu trening o'quvchi-talabalarda dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda bunday mashg'ulot tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'lgan holda o'tkaziladi.

### ***Muloqot trenigini o'tkazish bosqichlari***

O'qituvchi mashg'ulotni boshlashdan avval tinglovchilarni muloqot, baxs-munozarani o'tkazishga qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi.

#### ***1-bosqich:***

— o'qituvchi ishni o'tkaziladigan muloqotning mavzusini aniqlashdan boshlaydi, masalan, „Siz qaysi madaniyat tarafdorisiz: „Sharq yoki Evropa?“. Shu mavzuni o'rtaga tashlab tinglovchilardan Sharq madaniyati va Evropa madaniyati tarafdorlarini aniqlab oladi. Ularni shu tartibda guruhlariga bo'ladi.

#### ***2-bosqich:***

— har bir guruhdagi tinglovchilar o'z mavzulari bo'yicha kerakli materiallar, dalillar, misollar, aniq fikrlar, o'z fikrini tasdiqlovchi ko'rgazmali materiallar, imkoni bo'lsa videofilm, maqolalar, mutafakkir va olimlarning so'zlari va boshqalarni tayyorlaydilar. Guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlar esa o'z fikrlarini qo'shimcha qilishlari mumkin. O'qituvchi guruh talabalarining tayyorgarlik ko'rish imkoniyatlarini hisobga olgan holda vaqt beradi.

#### ***3-bosqich:***

— guruhlar himoyaga tayyor bo'lgach o'qituvchi guruhlarining biriga himoya uchun so'z beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda bo'lishi mumkin). Guruh vakili guruh nomidan so'zga chiqib, ularga berilgan mavzuni tayyorlangan materiallar, dalillar asosida himoya qilishga kirishadi. Guruh vakili so'zini tugatgach, guruhning qolgan a'zolari qo'shimcha fikrlar bildirishlari mumkin.

#### **4-bosqich:**

— mashg‘ulotning 3-bosqichidagi kabi bu bosqichda ham o‘qituvchi navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun so‘z beradi. Ikkinchi guruh ham birinchi guruh kabi o‘z mavzusi bo‘yicha himoya qiladi. Himoya tugagach, o‘qituvchi mashg‘ulotning keyingi bosqichiga o‘tadi. Xar ikkala himoya vaqtida o‘qituvchi iloji boricha o‘z fikr va mulohazasini bildirmaslikka, savol bermaslikka harakat qiladi, hech qaysi guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshqaradi, guruh himoyasi vaqtida tartib saqlanishiga va muloqotni o‘tkazishga qo‘yilgan talab, qoidalarning to‘liq bajarilishiga erishishga harakat qiladi. Bu bosqichda, asosan, ikki guruh erkin, mustaqil faoliyat ko‘rsatishlari kerak bo‘ladi.

#### **5-bosqich:**

—guruhlar bir-birlariga savol berishni boshlaydilar. Guruhlar tomonidan beriladigan savollar ular himoyasi vaqtida aytilgan dalillar, misollar, fikrlarni yanada oydinlashtirish maqsadida, shuningdek, o‘z guruhlarining fikrlarini yanada ta’kidlab, isbotlab, qolganlarni ham shu fikrga qo‘shilishlariga da’vat qilish uchun berilishi mumkin. Tinglovchilar erkin holda o‘zlarining chiqishlari bilan barchaga ta’sir ko‘rsatishga, o‘z fikrlarini ma’qullashga harakat qiladilar. O‘qituvchi bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratadi, ya’ni u bahs-munozarani samimiylik bilan boshqaradi.

#### **6-bosqich:**

— o‘qituvchi har ikki tomonning bir-birlariga savollari, aytadigan fikrlari, ma’qullaydigan so‘zlari tugagach, har ikki guruh tomonidan aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va o‘zining bu masala haqidagi fikr va mulohazasini bayon etadi va guruh tinglovchilari tomonidan tushgan savollarga kerakli javoblarni berishga harakat qiladi.

Mashg‘ulot oxirida o‘qituvchi har ikkala guruhning mashg‘ulot jarayonidagi faoliyatlarini tahlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg‘ulotni yakunlaydi. Ushbu treningning davomiyligi sharoitga qarab belgilanadi.

### **5.7. FSMU texnologiyasi**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o‘quv seminari haqida fikrlarini bilish maqsadida), yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki

bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

### ***FSMU texnologiyasini o'tkazish bosqichlari***

#### ***1-bosqich:***

— o'qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

— o'qituvchi o'quv mashg'ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlalinishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi;

— mashg'ulot davomida har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

#### ***2-bosqich:***

— har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4-bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F — fikringizni bayon eting;

S — fikringizning bayoniga sabab ko'rsating;

M — ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring;

U — fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozni FSMU ning 4-bosqichi bo'yicha o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'latadi.

#### ***3-bosqich:***

— har bir tinglovchi o'z qog'ozlarini to'latib bo'lgach, trener ularni kichik guruhlariga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlariga ajratish usullarining biridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'lib yuboradi;

— o'qituvchi har bir kichik guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

- o'qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

#### **4-bosqich:**

— kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o‘zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a‘zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a‘zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a‘zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

— guruh a‘zolari FSMUning 4-bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar;

— fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

#### **5-bosqich:**

— kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o‘qiydi (iloji boricha izoh bermagan holda). Ba‘zi bo‘limlarni isbotlashi, ya‘ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

#### **6-bosqich:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;

- quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojaat qiladi;

- ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o‘rgandingiz?

- ushbu texnologiyaning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi qanday samara berdi?

ushbu texnologiyaning qo‘llanilishi talaba-o‘quvchilarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

ushbu texnologiyani o‘quv jarayonining qaysi bosqichida qo‘llash ma‘qul va nima uchun?

- ushbu texnologiyaning dars jarayonida qo‘llanilishi o‘quvchi talabalarga nima beradi va nimaga o‘rgatadi?

- ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o‘tkazish mumkin?

- ushbu treningda o‘qituvchining asosiy vazifasi nimadan iborat.

*Izoh:* yuqorida keltirilgan savollar har bir treningning mazmuni, maqsadidan kelib chiqib trener (o‘qituvchi) tomonidan tinglovchilarga yoki talaba-o‘quvchilarga berilishi mumkin.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi:

## ***FSMU mexnologiyasi***

- (F) — Fikringizni bayon eting;  
(S) — Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating;  
(M) — Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring;  
(U) — Fikringizni umumlashtiring.

### ***BLIS-SO'ROV mexnologiyasi***

Blis-pedagogikada tezkor, bir zumlik ma'nosida ishlatiladi.

Bu texnologiyada talaba-o'quvchilarga o'rganilgan butun mavzu yoki uning ma'lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralari bo'yicha tuzilgan savollarga javob (og'zaki, yozma, biror jadval yoki diagramma ko'rinishida) berishlari taklif etiladi. Masalan, genetika fanidan o'tilgan „Hujayra tuzilishi“ mavzusining oxirida quyidagi savollar bo'yicha blis-surov o'tkazish mumkin:

1. Hujayraning irsiyatda qanday ahamiyati bor?
2. Hujayraning shakli va o'lchami qanday bo'lishi mumkin?
3. Hujayraning ximiyaviy tarkibi qanday moddalardan tashkil topgan?
4. Hujayra organoidlari va ularning vazifalari nimalardan iborat?

### ***BLIS-O'YIN mexnologiyasi***

Ushbu texnologiya o'quvchi-talabalami harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchi-talabalar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi.

### ***„BLIS-O'YIN“ texnologiyasini o'tkazish bosqichlari***

#### ***1-bosqich:***

— o'qituvchi ushbu trening bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida tinglovchilarga (talaba-o'quvchilarga) tushuncha beradi. Har bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

— o'qituvchi hamma tinglovchilarga alohida-alohida tarqatma material beradi va tinglovchilardan ushbu materialni sinchiklab o'rganishlarini so'raydi;

- o‘qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya’ni tarqatma materialda berilgan 13 ta harakatning ketma-ketligini to‘g‘ri belgilash kerakligi, belgini esa qog‘ozda alohida ajratilgan bo‘limga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi;
- qo‘yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

### **2-bosqich:**

— o‘qituvchi birinchi berilgan vazifani har bir tinglovchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, qiynalganlarga yordam beradi, yoki qaytadan tushuntiradi;

— har bir tinglovchi tarqatma materialdagi „YaKKA BAHO“ bo‘limiga shu erda berilgan harakatlardan o‘zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi, ya’ni berilgan 13 harakatdan, uning fikricha, qaysi biri birinchi bo‘lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo‘lishini va hokazo. Bu vazifani bajarishga 10 daqiqa vaqt beradi.

### **3-bosqich:**

— o‘qituvchi tinglovchilardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so‘raydi. 3 kishilik guruhlar tinglovchilarning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo‘yicha tashkil etilishi mumkin;

— kichik guruhlardagi tinglovchilarning har biri o‘z qog‘ozidagi yakka baho bo‘limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin 3 kishida uch xil bo‘lgan ketma-ketlikni birgalashib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirib kelishgan holda bir muqimga kelib ularga tarqatilgan qog‘ozdagi „GURUH BAHOSI“ bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar.

— o‘qituvchi kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir tinglovchi faoliyatini kuzatadi. Bu vazifani bajarish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

### **4-bosqich:**

Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, o‘qituvchi harakatlar ketma-ketligi bo‘yicha to‘g‘ri javobni beradi, ya’ni tinglovchilardan ularga tarqatilgan qog‘ozlardan „TO‘G‘RI JAVOB“ bo‘limini topishi va unga o‘qituvchi tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligining raqamlarini yozishni so‘raydi.

### **5-bosqich:**

O'qituvchi „TO‘G‘RI JAVOB“ bo‘limida berilgan raqamlardan „YaKKA BAHO“ bo‘limida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), ya‘ni kattadan - kichikni ayirgan holda „YaKKA XATO“ bo‘limiga chiqqan farqni yozishni so‘raydi. „YaKKA BAHO“ bo‘limidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqib umumiysonini hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

### **6-bosqich:**

— xuddi shu tartibda „TO‘G‘RI JAVOB“ va „GURUH BAHOSI“ o‘rtasidagi farq kattadan-kichikni ayirish orqali bajariladi, chiqarilgan farqlar soni „GURUH XATOSI“ bo‘limiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy son keltirib chiqariladi.

### **7-bosqich:**

— O‘qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy miqdori (soni) bo‘yicha tushuncha berib, ularni alohida-alohida sharhlab beradi.

„YaKKA XATO“ bo‘limidagi umumiy sonlarning sharhi:

Agar yakka xatolar soni 30 gacha bo‘lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik, konstruktivlik qobiliyati etarli, ular mustaqil ravishda har bir ishni tashkil eta oladilar, turli sharoitlardagi harakatlar vaqtida mantiqli ularning ketma-ketligini tashkil eta oladilar.

Agar yakka xatolar soni 30 dan 40 gacha bo‘lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik qobiliyati yetarli emas, biron bir ishni yoki faoliyatni tashkil etishlarida qiynaladilar yoki pala-partishlikka yo‘l qo‘yadilar. Shuning uchun ular alohida kurslarda o‘qishlari yoki mantiqiy fikrlashga o‘rganishlari kerak bo‘ladi.

Agar xatolar son 40 dan yuqori bo‘lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik, mantiqiy fikrlash qobiliyati etarli emas, ular o‘z ustilarida ishlashlari kerak bo‘ladi yoki maxsus treninglar kurslarida o‘qishlariga to‘g‘ri keladi.

„GURUH XATOSI“ bo‘limidagi umumiy sonlarning sharhi:

— Agar xatolar soni 30 gacha bo‘lsa, bu guruhlardagi tinglovchilar bir-birlarini tushunishga harakat qilganlar, bir-birlarini ishontira olganlar va natijada bir xil natijaga erishganlar. Demak, guruhda samimiy munosabat o‘rnatilgan, fikrlar bir joydan chiqqan.

— Agar guruhning xatolar soni 30 dan 40 gacha bo‘lsa, bu guruhda tinglovchilarning bir muqimga kelishlari qiyin bo‘lgan, tortishuvlar yuzaki yoki ishonarsiz bo‘lgan yoki guruh a‘zolari bir-

birlarini tushunishga sust holda intilganlar yoki vazifaga beparvor bo'lganlar, yoki bir-birlarini xafa qilib qo'yishdan cho'chiganlar, yoki guruhning barcha a'zolari yuzaki holda kelishilgan-u, aslida esa har kim o'z fikrida qolgan bo'lishi mumkin. Samimiy munosabat bu guruhda o'z aksini topmagan.

Agar guruh xatosining soni 40 dan ortiq bo'lsa, bu guruh a'zolari umuman bir-birlari bilan kelisha olmaganlar, o'zaro ishontirish bo'lmagan. Har kim o'z fikrida qolgan. Samimiy munosabat o'rnatilmagan.

Izoh: Bajarilgan vazifani baholashning yana bir turi quyidagicha: tinglovchilarning javoblari o'qituvchi tomonidan berilgan „TO'G'RI JAVOB“ ning yarmidan ko'piga to'g'ri kelgan bo'lsa „qoniqarli“, 75 % to'g'ri kelgan bo'lsa „yaxshi“, 100 % to'g'ri kelgan bo'lsa „a'lo“ deb belgilash mumkin.

### **8-bosqich:**

— Misol tariqasida „Men-tashkilotchisi“ mavzusidagi blis-o'yinining chizmasini keltirish mumkin. (har bir o'qituvchi o'z predmeti o'tayotgan yoki o'tgan mavzusi asosida blis-o'yin shaklidan foydalanib, o'yin mazmunini tuzishi mumkin);

- o'qituvchi mashg'ulotni yakunlaydi. Guruhlarning ba'zilariga, ularning faoliyatlariga o'z fikrini bildiradi. Ushbu trening ularni nimalarga o'rgatganini, ular shu trening orqali nimalarni bilib olganlari bilan qiziqadi va kerakli savollarni beradi.

*3-jadval*

### **Blis-o'yin „Men-tashkilotchisi“**

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Guruhdan chetlashish	Harakatlar mazmuni
		5				Tadbir rejasini tuzish
		2				Tadbirning maqsadini belgilash
		3				Tadbirning mazmunini tanlash



		8			Tadbiri boshlash yo'lini tanlash vauning ssenariy-sini yozish
		12			Tadbiri repetisiya qilish
		7			Bo'lajak tadbirga tomosha-binlarning munosabatlarini oldindan ko'rabilish
		9			Tadbiri vaqtlargabo'lish
		1			Tayyorlangan tadbirning boshqa tadbirlarga nisbatan dolzarbligini baholash
		4			Tadbirning mavzusini tuzish
		6			Bo'lajak tadbirning eng qiziqarli, ta'sirli nuqtalarini tanlash
		13			O'tkaziladigan tadbirning yakuniy tahlili va keyingi tadbirga tayyorgarlik
		10			Tadbirda ishlatiladigan turli texnikalarni tayyorlash masalalarini hal etish
		11			Tadbir o'tkaziladigan joy-ni jihozlash hamda kerakli texnikani tayyorlash

### **Asosiy tushuncha va atamalar**

Interfaol ta'lim metodlari va ularning pedagogik-psixologik jihatlari, auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik shartlari, faol o'qitish metodlar va ularni tashkil etish, breynstorming metodi, bahs turlari, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, davra suhbat, ishbop o'yin, rolli o'yin, bahs-munozara, muammoli vaziyat, loyiha kabi faol ta'lim metodlari.

### **Rezyume**

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan „Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi“da ko'rsatilgandek, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijod qilishi, izlanishini ta'minlaydigan faol o'qitish usullarini

qo'llash hozirgi zamon talabidir. O'quvchi-talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini mazmunan takomillashtirish va sifatini yaxshilash uchun yangi pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Har qanday interfaol ta'lim usullari bilan ishlash insondan aqliy harakat qilishni talab qiladi. Aqliy harakatlar shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlar bo'lib, ular yordamida har qanday yangi pedagogik texnologiyalarni egallash orqali bilimdonlikning barcha ko'rinishlarini mukammallashtirish mumkin bo'ladi.



### ***Bob yuzasidan savol va topshiriqlar***

1. Interfaol ta'lim metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. Interfaol ta'lim metodlarining psixologik qonuniyatlari deganda nima nazarda tutiladi?
3. Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik omillari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslarini bayon eting?
5. Interfaol ta'lim shakllarini samarali amalga oshirishga qo'yiladigan pedagogik-psixologik talablar nimalardan iborat?
6. Interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish to'g'risida shaxsiy mulohazalaringizni yozma tarzda bayon eting?
7. Seminar darsida har bir talaba bittadan interfaol ta'lim metodlarining ssenariysini taqdimot qilish.
8. Interfaol ta'lim metodlaridan namunalarni keltiring?
9. Breynshtorming metodi qanday metod?

## OLIJ TA'LIM PSIXOLOGIYASI

Bobning qisqacha mazmuni

**Oliy ta'lim psixologiyasi.** *Oliy maktabning bosh mezoni va uning amaliy ahamiyati.*

**Talabalarning psixologik xususiyatlari.** *Talaba shaxsi, xulq atvori psixologiyasi, talabaning bilish va tafakkur xususiyati.*

**Oliy ta'limda milliylik muammosi.** *Milliy mafkura, milliy g'oya tushunchasi va uni oliy ta'lim talabasida shakllantirish muammolari.*

**Oliy ta'limda ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini tashkil etishning psixologik-pedagogik asoslari.** *Oliy ta'lim tizimida milliylik muammosining o'rni, diniy bilimlarning talabalarga ijobiy va salbiy ta'siri.*

### 6.1. Oliy ta'lim psixologiyasi

Oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlangan mutaxassilar va ularning mazkur ixtisoslikda muvaffaqiyat bilan ish yuritishi o'sha sohaning mavqeini yanada yuqori ko'taradi. Oliy maktabning mahsuloti — bu etishtirilgan kadrlar hisoblanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarining nufuzi ularning bosh mezonlarida o'z ifodasini topadi. Bular *qatoriga quyidagi o'lchamlarni kiritish mumkin:*

1) Oliy o'quv yurtida mutaxassislarning professional tayyorgarligi (ularning kasb egasi sifatida shakllanganligi);

2) Oliy maktablarda mutaxassislarni professional tayyorlashning sifati (umumiy ma'lumoti, saviyasi, maxsus bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalari);

3) Mutaxassislikka oid professional faoliyatning muhim shart-sharoiti, qo'yadigan talabi, o'ziga xos xususiyati va boshqalari;

4) Mutaxassis yoki bo'lg'usi kasb egasining individual-tipologik va yosh xususiyatlari.

*Oliy maktab psixologiyasining dolzarb muammolari quyidagilardan iboratdir:*

1. Oliy maktab tuzilishining etnik, etnopsixologik va hududiy xususiyatlariga asoslanib, uni qayta qurish maqsadga muvofiq. Chunki jahon ta'limi standartlariga yaqinlashmoq, ularga moslashib yangi mutaxassisliklarni joriy qilmoq va ularni tayyorlashni (menejer, broker, marketing, sosiolog, sosial xizmat, amaliy psixolog, oila psixologi

kabilarni) mahalliy ehtiyojlardan, kadrlarni tayyorlovchi professor-o'qituvchilar mavjudligidan kelib chiqqan holda rejalashtirmoq lozim (ba'zan yuqori malakali kadrlar etishmasligiga qaramasdan mutaxassislar tayyorlashga ruxsat berilmoqda).

2. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitish, shaxs sifatida shakllantirish (ijtimoiylashuv) jarayoni hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan metodlar (uslublar, shakllar), vositalar, usullar yangi mazmun bilan boyitilishi, milliy qiyofa, xarakter, his-tuyg'ularni hisobga olib, sa'yi-harakatlar amalga oshirilishi joiz. Asta-sekin monologik o'qitish tizimidan dialogik, innovasion (yangilikka asoslangan), hamkorlik (o'qituvchi bilan talabalar faoliyatini uyg'unlashtirish) singari ta'limning yangi turlariga o'tish o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Oliy maktab o'quv rejasi, dasturi va ularga asoslanib chop qilinadigan darsliklar, qo'llanmalar, ishlamlar, ma'ruza matnlarini qaytadan ko'rib chiqish, ularni mamlakatimiz hududlari xususiyatlarini hisobga olib takomillashtirish, yanada puxtalashtirish, mutaxassislikka bevosita aloqasi bo'lmagan o'quv fanlarini (materillarini) oqilona qisqartirish inson omilini hisobga olish demakdir:

a) talabalarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olib, auditoriya mashg'ulotlarini kichik kurslarda 24 soat, katta kurslarda 28 soat qilib belgilash mustaqil fikrlashga, ijobiy izlanishga puxta zamin hozirlaydi hamda ishchanlik qobiliyatiga putur etkazmaydi va bu psixologik voqelik bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlaydi;

b) jahon ilg'or tajribasiga asoslangan holda nazariy va amaliy bilimlar nisbatini 30:70 etkazish kasbiy malakalarini takomillashtirishga xizmat qiladi; bizning mutaxassislar boshqa mamlakatlar kadrlaridan nazariy jihatdan ustunlar, lekin ko'nikmalar egallash ancha zaifdir; ana shu yo'l bilan kundalik talaba faoliyatini ikki qismga ajratish imkoniyati yaratiladi (9-12;13-17), bu esa, o'z navbatida, uy topshiriqlarini keskin qisqartirishga olib keladi, ijodiy izlanish, mustaqil fikrlash tanqidiy munosabatni talabalarda shakllantiradi; (o'qituvchilar nazariy yuklamasini 280 soat qilib belgilash o'qitish sifati, samaradorligini oshiradi);

c) o'quv dasturini mumkin qadar ixchamlashtirish — uni rejalashtirishni osonlashtiradi; ma'lumki, 2 soatga mo'ljallangan dastur mavzusida o'rtacha 30 ta ilmiy tushuncha, atama mujassamlashgan, lekin ularning mohiyatini ochib berish juda mushkuldir; bizningcha, yuzakilik aynan shundan kelib chiqadi, mulohaza o'rnini ta'kidlov egallaydi xolos: buning uchun muhim tushunchalar, ta'riflar, teoremlar tanlab olinishi, yordamchilarini esa manbalar bilan tanishishga yo'naltirish ma'qul, ana shunda chalkashliklar barham topadi;

d) o'qitishni faol uslublar negiziga qurish lozim, toki bunda o'qituvchi bilan talaba hamkorligi ustuvor o'rin egallasin; test, bahs, ishbilarmonlik o'yinlari, qiyinlashtirilgan pedagogik muammo, evristika, trening, psixodrama, boshqotirma, fikrlar jangi kabi faol, mustaqillikka etaklovchi o'qitish metodlari va shakllari oliy ta'limning negiziga aylansin; kompyuterlashgan ta'lim, masofadan o'qitish (internet) va hokazolar zamon talabi, ehtiyoji, zaruratidir;

e) darslik va qo'llanmalar hajmi o'spirinlarning yosh xususiyatlari, imkoniyatlariga mutlaqo mos tushishi lozim, chunki 17-18 yoshlik talabalarning diqqat barqarorligi 60 minut atrofida, mabodo matn hajmi katta bo'lsa, uni o'zlashtirish darajasi shunchalik qiyin kechishi kuzatiladi; radio va televideniya diktori bir bet matnni (1680 alomatni) 2 minutda o'qiydi, biroq o'zlashtirmaydi, agar bu jarayon psixologik jihatdan tahlil qilinsa, u holda tushunish uchun (ilmiy tilda bitilganligi hisobga olinsa) 3 marta ko'p vaqt sarflanadi; 10 bet matnga bir soat vaqt talab qilinadi, agar 3 ta fandan mustaqil topshiriq berilgan bo'lsa, u taqdirda matnlarni egallash ko'rsatkichi yanada pasayib ketishi shak-shubhasiz; darslik sahifalari har xil shriftida berilishi, ajratib ko'rsatishi, qoramtirroq qilinishi, tagiga chizilishi va hokazolar vosita sifatida xizmat qiladi; hatto jahon psixologlari talabiga binoan darslik (qo'llanma) paralingvistik, ekstralingvistik, proksemik qonuniyatlarga asoslangan holda yozilsa, uning matnlarni egallash ko'rsatkichi ko'tariladi, ishchanlik qobiliyati yo'qolmaydi, aqliy zo'riqish, asabiy taranglik hodisalari mumkin qadar kamayadi.

4. Talabalarda fikrlashni shakllantirish, ijodiy izlanishga o'rgatish, tanqidiy tafakkurni tarkib toptirish — oliy maktab psixologiyasining dolzarb muammolaridan biridir. Ularda yuqoridagi jarayonlarni shakllantirish faol ta'limiy usublardan foydalanish natijasida ro'yobga chiqishi mumkin. Shuningdek, mashg'ulotdan tashqari davrlarda, mustaqil faoliyatni amalga oshirishda yoki o'qituvchi tomonidan unga talabalarni o'qitish orqali erishiladi, xolos. Maxsus mashg'ulotlar ularga mustaqil ravishda bilim olish vositalari bilan qurollantiradi:

a) fan to'garaklari, tezis, referat, kurs ishi, bitiruv ishi, birlamchi manbalar bilan shug'ullanish kezlarda muayyan maqsad amalga oshadi va u yoki bu darajada shaxsiy, prosessual xislatlari tarkib topa boshlaydi;

b) iste'dodli talabalar faoliyatini tashkil qilish; birinchidan, fanlar bo'yicha erishilgan ko'rsatkichlar iste'dodning aynan o'zi emas, albatta bu birgina mezon, xolos; ikkinchidan, iste'dod topshiriqlar rang-barangligini tushunish va ularni echishni uddalash; uchinchidan, ijodiy unsurlarning mavjudligi va uzluksizligi; to'rtinchidan, vaqt tejama-

korligi, bashorat qilish layoqatining mavjudligi; beshinchidan, no-standart topshiriqlarni bajarish, shuningdek, shartlari etishmasligi va ortiqchaligini payqash (sezish) yoki antisimpatiyaga moyillik hukm surishi; maxsus dastur asosida, alohida tartibda mashg'ulotlar uyushtirish; ijodiy izlanishni xohish, layoqat, mayil va motivdan kelib chiqqan holda tashkil qilish iste'dodlilar kamolotini oqilona amalga oshirish bilan yakunlanadi.

5. Talabalarni milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalashni amalga oshirish muhim muammolar sarasiga kiradi. Vatanparvarlik, fidoiylilik yuksak his-tuyg'ularni talabalarga maxsus ravishda shakllantirish orqali hamda ijtimoiy-siyosiy fan asoslari mohiyatiga singdirish yordami bilan ularning ongiga yo'naltirish hozirgi zamon oliy maktab psixologiyasining dolzarb masalalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi, sifat darajasini orttiradi.

Tadqiqotlarda talabalar deganda, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruhi tushuniladi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarining boshqa ijtimoiy guruhlar bilan (ular xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri, ijtimoiy etuklikning jadal surat bilan ro'yobga chiqishidir. Talabalik davri o'spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib, 17-22-25 yoshni o'z ichiga oladi va o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Shu boisdan o'spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasb mavqeini anglashidan boshlanadi. Mazkur pallada o'spirin o'ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, jumladan, kattalarning har xil ko'rinishdagi (unga yoqish yoki yoqmasligidan qat'iy nazar) rollarini tez sur'atlar bilan bajarib ko'rishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlariga ko'nika boshlaydi. Katta odamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog'liq ichki qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

## **6.2. Oliy ta'limning bosh mezoni va uning amaliy ahamiyati**

Davlat ta'limi standartlarini ishlab chiqish va ularni yanada takomillashtirish oliy maktab psixologiyasi fani oldiga „inson-inson“,

ya'ni „subyekt-subyekt“ munosabatlarini oqilona, odilona va omilkorlik bilan hal qilish vazifasini qo'yadi. Oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlanayotgan mutaxassislar va ularning mazkur ixtisoslikda muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatishi, ish yuritishi o'sha sohaning mavqeini muayyan darajada yuqori ko'taradi. Oliy maktabning mahsuloti — bu tayyorlanayotgan kadrlari sanaladi, xuddi shu bois oliy o'quv yurtlarining nufu'zi ularning bosh mezonlarida o'z ifodasini topadi. Bular qatoriga quyidagi mezonlarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

1. Oliy o'quv yurtida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi (muayyan professiogramma, professiografiya, psixogrammaga asoslangan holda ularning kasb egasi sifatida shakllanganligi).

2. Oliy maktablarda mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning darajasi, sifati (ularning umumiy ma'lumotlilik, saviyasi, maxsus bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalari, turli vaziyatlarda ulardan foydalanish imkoniyati).

3. Mutaxassislikka oid kasbiy faoliyatning muhim shart-sharoitlari, qo'yadigan talabi, o'ziga xos xususiyatlari („inson-inson“, „inson-texnika“, „inson-obraz“ va boshqalar).

4. Mutaxassis yoki bo'lg'usi kasb egasining individual-tipologik (temperament, irsiy alomatlar, tug'ma mayllar), jins va yosh xususiyatlari (ilk o'spirinlik, o'spirinlik va bunda biologik rivojlanishning ta'siri, o'rni).

Odatda, oliy maktab ta'limi (o'qitish tizimi) ikki yoqlama (o'zaro ta'sir o'tkazishga) yo'nalgan aqliy jarayon (obyekt bilan subyekt, subyekt-subyekt teng huquqli munosabatlardan iborat) bo'lib, bu saboq oluvchi (talaba) bilan saboq beruvchi (o'qituvchi)larning faol qatnashuvida o'z ifodasini topuvchi hamkorlik faoliyati va shaxslararo muomalasidan iboratdir. Buning natijasida talabada o'zaro ta'sir orqali muayyan darajadagi bilimlar, kasbiy ko'nikmalar, malakalar, odatlar, uquvlar hosil bo'ladi.

O'qituvchining talabaga ta'sir o'tkazishi natijasidagina mazkur narsalar (bilim, ko'nikma, malaka, odat) tafakkur yordamida aqlidrok tufayli shakllanishi mumkin, bu esa o'z navbatida, ruhiy zo'riqish, asabiy taranglik, jiddiylik, faollikni va intilishni vujudga keltiradi. Ta'lim talaba shaxsining faollik ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar tug'dirish imkoniyatiga ega, chunonchi, saboq oluvchi faoliyatini uyushtiradi (tashkillashtirishga yordam beradi), uni maqsadga muvofiq yo'naltiradi, jarayonning kechishini nazorat qiladi hamda axborot, ma'lumot, xabar, vosita, usul, operasiya kabilar bilan ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, talabalarning bilim olish qobiliyati, iste'dodi, zehni va uquvchanligining rivoji ko'p jihatdan uchta muhim omilga bog'liqdir.

1. Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalarning puxtaligi, barqarorligi, mustahkamligi (chunki ularni o'zlashtirish jarayonida ba'zi bir salbiy qusurlik jihatlari kelib qo'shiladi).

2. O'quv va tarbiyaviy ishlarni oqilona tashkil etish va nazorat qilish — talabalarning o'qishga munosabatlarining (motivasiyalarining), ya'ni ichki turtkilari majmuasining muhim shartidir (talaba shaxsining o'ziga xos xususiyati, mavzuning ijtimoiy-shaxsiy ahamiyatligi, o'quv fani bo'limining dolzarb muammolarga boyligi va hokazo).

3. Talabalarni mustaqil (faol, ijodiy, nostandart) ravishda oqilona bilim olishga o'rgatish (o'qituvchining tinglovchilarda mustaqil aqliy faoliyat uyushtirish va tashkil etish usullari, vositalari, texnologiyasi bilan ishlash ehtiyoji, motivi, mayili, qiziqishi, hissiy intilishini uyg'otishi) va bu sohada muayyan maslahatlar, tavsiyalar ishlab chiqish umumiy maqsad namoyon bo'lishining kafolati (garovi) dir.

Shuni unutmaslik lozimki, oliy maktablarda fan asoslarini egallash sifati, *mahsuldorligi ko'p jihatdan quyidagilarga bog'liqdir.*

1. Oliy o'quv yurti professor-o'qituvchisi talabani nimaga o'rgatadi?

2. Kim, ya'ni qaysi professor-o'qituvchi va qay yo'sinda ob'ektiv (tabiiy) va subyektiv (shaxsiy) omillarni nazarda tutadi?

3. Kimni (qaysi toifadagi, qanday aqliy imkoniyatga ega bo'lishiga binoan unga, guruhga bilim berish zarur ekanligi nazarda tutiladi) o'qitadi:

a) talabalar hukmiga, muhokamasiga qo'yiladigan o'quv materialining (mavzusining) xususiyati;

b) muallimning o'qituvchilik mahorati, o'qitish uslubi, muomala maromi;

c) talabalarning individual-tipologik, jins (biologik o'sishdagi tafovut) va yosh xususiyatlari hamda ularni ta'lim jarayonida hisobga olish (o'qitishda saboq oluvchilarga individual, differensial munosabatda yondashish);

d) ta'lim taraqqiyotni o'z ketidan etaklaydi degan tamoyildan biron chetlashish evaziga (internetlar tufayli, iste'dodli talabalar mavjudligi sababli) taraqqiyot ta'limni etaklashi mumkin degan qarorga kelindi.

Buning uchun o'qituvchi (muallim) ma'ruzaning mazmuniga, unda muammoli vaziyatning („fikrlar jangi“) ishtirokiga, ijodiy va nostandart fikrlashga, dalillarning (ishonchli omillarning) serobligiga, o'quv materiallarining mutaxassislik bilan uzviy aloqasiga (uyg'unligiga), ularning tarkibiy tuzilishiga, uni yuksak darajada talabalarning ongiga etkazish uslubiga, muallimning tinglovchilariga munosabatini (usullar bilan muloqot o'rgatish uslubi, muomalaga kirishish maromiga, odobiga, nazokatiga), auditoriya (laboratoriya) bilan uzviy



bog'lanishga va uni boshqarishga, pedagogik faoliyatni oqilona idora qila olishga, ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun intilishga alohida e'tibor berish ayni muddaodir. Bundan tashqari, o'qituvchi o'zining kundalik muallimlik faoliyatida talabalar ustidan kuzatish, suhbat o'tkazish, psixologik, pedagogik va mutaxassislikka oid bilimlarni talab qiladigan topshiriqlar tavsiya qilish, aqlni peshlash mashqlarini uzluksiz ravishda amalga oshirib borish, buning uchun esa turli xususiyatli, mohiyatli matnlardan hamda testlardan, yangi pedagogik texnologiyadan, faol o'qitish uslublaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmog'i maqsadga muvofiq.

Shuning bilan birga, o'qituvchi o'zining har kunlik pedagogik faoliyatiga talabalar ustidan kuzatish o'tkazish, psixologik, pedagogik, mutaxassislikka oid bilimlarni talab qiladigan topshiriqlar tavsiya qilish, aqlni peshlash mashqlarini uzluksiz ravishda o'tkazib borish va uning turli xususiyatiga ega bo'lgan matnlardan hamda testlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmog'i zarur.

### **6.3. Talabalarning psixologik xususiyatlari**

Pedagogik psixologiya fanidan ma'lumki, o'rta maktab o'quvchilarni har (biologik, fiziologik, pedagogik, psixologik) jihatdan oliy maktab ta'limiga tayyorlaydi va ularda umumlashtirish, mavhumlashtirish, sistemalashtirish kabi qobiliyatlarda ko'rinadigan fazilatlar namoyon bo'ladi. Shu bilan birga o'spirinda aqliy, axloqiy, estetik va g'oyaviy-siyosiy jihatdan muayan darajada o'sish ro'y beradi. Shunga qaramay, ular oldida oliy o'quv yurtida mutaxassislikni egallashga bog'liq yangi vazifalar paydo bo'ladi.

Talabalarga mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va hokazolar o'rgatiladi. Bu vazifalarni amalga oshirishning asosiy omili — monologik ma'ruzadan dialogik (talaba va o'qituvchining muloqotiga asoslangan) ma'ruzaga o'tishdir.

Psixologlardan B.G. Ananyev, N.V. Kuzmina, N.F. Talizina, V.A. Lyaudis, I.S. Kon, V.T. Lisovskiy, A.A. Bodalev, A.V. Petrovskiy, M. G. Davletshin, I.I. Ilyasov, A.V. Dmitriyeva, A. Verbiskiy, V.A. Tokareva va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish talabalar uchun juda og'ir kechadi, chunki bu davrda shaxsning murakkab fazilatlarini, xislatlarini, sifatlarini takomillashish bosqichida bo'ladi. Mazkur yosh davridagi ijtimoiy-psixologik o'sishning xususiyatlaridan biri o'qish faoliyatining ongli motivlari kuchayishidir.

Talabalarda axloqiy jarayonlarning o'sishi sust amalga oshsada, lekin xulqining eng muhim sifatleri — mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va hokazolar takomillashib boradi. Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish tobora kuchayadi.

Psixologlarning tadqiqotlari shaxs hayot tajribasini egallashda unda o'zligini anglash vujudga kelishini ko'rsatadi. Shaxsiy hayotning mazmunini anglash, aniq turmush rejalarini tuzishi, kelajak hayot yo'lini belgilash shular jumlasidandir. Talaba asta-sekin mikroguruhning notanish sharoitlariga ko'nikib boradi, o'zining va majburiyatlarini bila boshlaydi, shaxslararo munosabatning yangicha ko'rinishini o'rnatadi, turmushdagi ijtimoiy rollarni amalda shaxsan sinab ko'rishga intiladi. Ulardagi rolning his-tuyg'ular voqelikka muayyan yondashishga birmuncha xalaqit beradi. Chunki ular turmushdagi yutuqlar va muvaffaqiyatlarning ijtimoiy-psixologik ildizlari nimadan iborat ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmaydilar.

Yosh fiziologiyasi va psixologiyasi fanlarida aniqlangan materiallar tahlilidan ko'rinadiki, talaba 17-19 yoshda ham o'z xulqi va bilish qobiliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va shunga ko'ra, xulq motivlarining asoslanmagani, uzoqni ko'ra olmaslik, ehtiyotsizlik kabi hollar ro'y beradi.

V.T. Lisovskiyning fikricha, 19-20 yoshlarda ayrim salbiy xatti-harakatlar ko'zga tashlanadi. Mazkur yoshda xohish va intilishning rivojlanishi iroda va xarakterdan ancha ilgari lab ketadi. Bunda odamning hayotiy tajribasi alohida rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, talabadagi tajriba etishmasligi natijasida nazariya bilan amaliyotni, fantaziya bilan reallikni, romantika bilan ekzotikani, haqiqat bilan illyuziyani, orzu bilan xohishni, optimizm bilan qat'iylikni aralashtirib yuboradi.

Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini o'zi kamolotga etkazish jarayoni muhim rol o'ynaydi. Lekin, o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o'zini-o'zi tahlil qilish, nazorat qilish, baholash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ideal (yuksak, barqaror, barkamol) „menni real (aniq voqea) „men“ bilan taqqoslash orqali o'zini-o'zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo'ladi. Talabaning nuqtai nazaricha, ideal „Men“ ham muayyan o'zak asosida etarli darajada tekshirib ko'rilgan. Shuning uchun ular goho tasodifiy, g'ayritabiiy his etilishi muqarrar. Binobarin, real „Men“ ham shaxsning aqliy bahosidan ancha yiroqdir. Talaba shaxsining takomillashuvida bunday ob'ektiv qarama- qarshiliklar o'z shaxsiyatiga nnsbatan ichki ishonchsizlikni, ishga nisbatan

salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Jumladan, o'quv yili boshida talabada ko'tarinki kayfiyat, oliy o'quv yurtiga kirganidan zavq-shavq tuyg'usi kuzatilsa, ta'limning shart-sharoiti, mazmuni, mohiyati, kun tartibi, muayyan qonun va qoidalari bilan yaqindan tanishish natijasida uning ruhiyatida keskin tushkunlik ro'y beradi.

Yuqorida aytilgan ichki va tashqi vositalar, omillar ta'siri oqibatida uning ruhiy dunyosida umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, ya'ni istiqloqlga ishonchsizlik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his-tuyg'ular namoyon bo'ladi.

Bizningcha, oliy maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda, ta'lim jarayonida talabaga o'ziga xos munosabatda bo'lish mazkur davrning muhim sharoitlaridan biridir.

Yuqorida aytilganlardan qat'iy nazar, yigit va qizlarni oliy o'quv yurtiga qabul qilishda ularda o'z kuchlari, qobiliyatlari, aql-zakovatlari, ichki imkoniyatlari va irodalariga qat'iy ishonch bildirilishi zarur. Ana shu ishonch, o'z navbatida, to'laqonli hayot va faoliyatni uyushtirishga umid his-tuyg'usini vujudga keltiradi.

O'spirinlikning ikkinchi davri xulqqa, voqelikka baho berishda imkoniyatdan tashqari talab qo'yish va qat'iylik xususiyati bilan farqlanadi. Shuning uchun talabalar har doim prinsipial bo'la olmaydilar. Ba'zan, qat'iyatlilik kattalarga salbiy munosabatga ham aylanadi. Talabalarning o'qituvchi tavsiyalarini inkor qilishi ko'pincha nizolarni keltirib chiqaradi.

B.G. Ananev rahbarligida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'lishicha, talabalar kamol topishining jinsiy va neyrodinamik xususiyatlari ularning aqliy imkoniyatlarini to'la ishga solish va sermahsul o'quv faoliyatini tashkil qilish uchun muhim imkoniyat, shart-sharoit yaratadi.

Yu.A. Samarinning ta'kidlashicha, yoshlarning kamol topishida har xil ijtimoiy-psixologik xususiyatli o'ziga xos qarama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Ularning moddiy jihatdan ota-onaga, oliy o'quv yurti ma'muriyatiga bog'liqligi iqtisodiy ziddiyatni keltirib chiqaradi. Bu hol talabalarning xohishlari bilan mavjud imkoniyatning nomutanosibliigi tufayli sodir bo'ladi.

Odatda, talabalar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda oliy o'quv yurti va mutaxassislikni nima uchun tanlagani haqida yana jiddiy o'ylaydilar. Mazkur yosh davrida o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari, ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajriba o'zlashtirilgan bilimlarni tartibga solish asosida his-tuyg'ular, qarashlar, axloqiy qadriyatlar, o'zligini anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi. Talaba hukm va xulosa chiqargach, o'z xatti-harakatida qat'iy turib ularni himoya qiladi, u hayotning turli sohalari bo'yicha har xil darajadagi ko'nikma va

malakalarga nazariy bilimlar ijtimoiy-psixologik tushunchalarini amaliy faoliyata tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

B.G. Ananyev rahbarligidagi tadqiqotchilar jamoasining fikricha, 18-20 yosh davrida fiziologik imkoniyatlar yuksak darajada rivojlanadi. Organizmning tashqi ta'sirga javobi, qon bosim optimal darajasi ortadi, qon kislorod bilan to'yinadi va hokazo. Insonda o'quvlikning qulay imkoniyati vujudga keladi. O'quv insonning axborotlarni qabul qilish, eslab qolish va xotirada saqlash qobiliyatini bildiradi. Keyinchalik insonda psixik funksiyalarning dinamikasi, o'quvlik imkoniyatlari sira pasaymaydi.

Odamning etuklik davri quyidagi qonuniyatlar bilan farqlanadi: 1) turli funksiyalarning rivojlanishi bir tekis va bir vaqtda amalga oshmaydi (bir bosqichda xotira, boshqa bir bosqichda tafakkur); jadal sur'at bilan o'sadi; 2) yoshga qarab turli funksiyalar o'zaro bog'liq muvofiqlashgan xususiyat kashf eta boshlaydi; 3) etuk inson aqlining funksional o'sish darajasi yosh evolyusiyasining har xil bosqichida etarli darajada yuqori bo'ladi; 4) mazkur funksiyalar dinamikasida hech qanday keskin pasayish bo'lmaydi; 5) etuklik davrida o'quvlik kamaymaydi.

#### **6.4. Oliy ta'limda etnopsixologik xususiyatlarni hisobga olish ta'lim samaradorligi omili sifatida**

Istiqloldan keyin ta'lim jarayonida qo'llanib kelinayotgan saboq, o'qish va tarbiyalashning yo'l-yo'riqlari, vosita hamda uslublari tizimiga o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatlarini, muomala madaniyatini, qadriyat va ma'naviyat durdonalarini kiritmasdan turib oliy maktabda o'qitish samaradorligini oshirish, uni takomillashtirish, sharqona tarbiya nazariyasini talabalar ongiga singdirish mumkin emasligi yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda.

Jahon madaniyati va maorifining ilg'or g'oyalaridan oqilona va unumli foydalanish bilan birga bir necha o'n asrlik tarixga ega bo'lgan, hatto unutilishi darjasiga borib qolgan milliy tuyg'u, milliy xarakter, milliy qiyofa, milliy did va hokazolar iymon, e'tiqod, vatanparvarlik, soflik, vijdonlilik, rostgo'ylik, mas'uliyat va burch hislarini tarkib toptirib bo'lmaydi.

Ma'lumki, har bir millat o'ziga xosligi, milliy madaniyati, milliy adabiyoti, milliy tili va shu millatning ruhiy (ma'naviy) olami tarzining majmuasida, ya'ni milliy ruhiyatida o'z ifodasini topadi.

O'zbek xalqining o'z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, milliy xarakteri, milliy his-tuyg'usi, mijozi (temperament), xulq-atvori, xulqi, didi, ta'bi alohida ajralib turadi. O'zbek millatining bilish jara-

yonlari (sezgisi, idroki, tasavvuri, xotirasi, tafakkuri, xayoloti) qobiliyatining aniq yo'nalishga qaratilganligi, ehtiyoji va qiziqishi, milliy ongi o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

O'zbek xalqining tarixiy an'analari, urf-odatlari, udumi, rasm-rusumlari, axloq me'yori, turmush tarzi, madaniy qadriyatlari, shaxslararo munosabati, muomala va muloqot maromi va xususiyati boshqa xalqlamikidan ma'lum darajada tafovutlanadi. Masalan, o'zbek xalqi xarakterida andishalilik, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, mehmon kutishdagi qo'li ochiqlik va saxiylik odatlari mavjud. Shuning bilan birga, sabr kosasi to'lgach, zo'raonliklarga nisbatan ayovsiz bo'lish, yurgan yo'lidan ortga qaytmasdan, isyonkorlik, bir so'zlik xususiyati ham xalqimizga xosdir.

Milliy xarakter muayyan millat fazilatlarining o'ziga xos xususiyatlari majmuasidan iborat bo'ladi. Milliy xarakter o'z ichiga irodaviy sifatlarni (mustaqillik, chidamlilik, prinsiplilik, o'z-o'zini tuta bilish, o'ziga buyruq berish, o'zini qo'lga olish, qat'iyatlik, matonat kabilarni) va axloqiy xislatlarni (poklik, intizomlilik, samimiylilik, haqqoniylik, insonparvarlik va boshqalarni) qamrab oladi. Shuningdek, milliy xarakter odamlarga bo'lgan munosabatlarni (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik), mehnatga bo'lgan munosabatlarni (mehnatsevarlik yoki yalqovlik, mas'uliyatlilik yoki mas'uliyatsizlik), narsalarga bo'lgan munosabatlarni (ozodalik, ifloslik, tejamkorlik, isrofgarchilik, ayash yoki ayamaslik) va odamlarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini (izzat-nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish-dimog'dorlik, kamtarinlik kabi xususiyatlarni) ifodalaydi.

Xalq o'rtasida hukm surib kelayotgan „Sut bilan kirgan fe'l — jon bilan chiqadi“ degan naql hamisha ham to'g'ri bo'lavermaydi. Chunki hech qachon inson zoti onadan o'g'ri, diyonatsiz, beburd, berahm bo'lib tug'ilmaydi. Aksincha, milliy xarakter xislatlari oila, jamoatchilik, maktabgacha tarbiya, o'rta va oliy maktab muhiti ta'sirida shakllanadi va inson shaxsi ijtimoiylashishiga olib keladi. Xuddi shu boisdan inson shaxsining kamoloti uchun aqliy taraqqiyot emas, balki axloqiy barkamollik o'zak vazifasini o'tashi lozim.

Axloqiy masala insoniyat er yuzida paydo bo'lgan daqiqiqadan boshlab, to hozirgi davrgacha o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. ?ayriodatiy xatti-harakatlar yuzaga kelmasligi uchun axloq tarbiyaning negizi bo'lib qolmog'i shart.

Milliy o'zlikni anglash — odamni ijtimoiy etnik umumiylikka mansubligida, ijtimoiy sohadagi munosabatlarda o'z millatining egallagan mavqeini yaqqol tasavvur qilganlikda, milliy manfaatdorlikda yorqin ifodasini topadi.

Milliy tuyg‘u — shaxslararo munosabat jarayonida hissiy ta’sir-  
lanishda, yuksak ma’naviy ichki tug‘yonlarda (nafosat, lazzatlanish,  
qoniqish), ijodiy g‘oyalar tug‘ilishida, milliy zavq va shavqda,  
kayfiyat, xush ko‘rish kabi ichki kechinmalarda aks etadi.

Milliy kuy — xalq his-tuyg‘usi va kechinmalarining uyg‘un bir  
maromdagi tovushlar orqali ifodalanishidir. Binobarin, milliy san‘at,  
adabiyot, rasm-tasvir, me‘morchilik o‘zining jilosi, maromi, gav-  
dalanishi, milliy ruhi, ohangdorligi va monandligi bilan betakroridir.

Milliy yurish — turmush tarzi kishilarning milliy xususiyati  
to‘g‘risida goh oqilona, goh holis bo‘lmagan taxminiy fikr yuritishga  
olib keladi. Ayrim hollarda u millatlararo muloqotga kirishishda ijtimoiy  
to‘siq vazifasini o‘taydi. Shuning uchun xalq va elatlarning barqaror  
xulq-atvorini atroflicha o‘rganmasdan turib, xoh u katta, xoh u  
kichik millat bo‘lsin, millatlararo tenglikni o‘rnatish mumkin emas.

Bizningcha, milliy maktab qaysi bosqichli bo‘lishidan qat’iy  
nazar, dastavval o‘zining tashqi ko‘rinishi bilan: birinchidan, uning  
binosi milliy uslubda, xalq me‘morchilik an‘analariga rioya qilgan holda  
qurilishi, ikkinchidan, maktab hududidagi erlar milliy bog‘dorchilikka  
uyg‘un bo‘lishi, uchinchidan, uning sport maydonlari ham milliy  
jilolarga hamohang bo‘lishi kerak. Binoning ichki qismi milliy naqsh  
va ganch o‘ymakorligi namunasi bilan bezatilishi, dahlizning yaxlit  
manzarasida milliy tuyg‘u hokimlik qilishi lozim.

Ta’lim va tarbiya jarayonida respublikamizning tarixi, madaniyati,  
ajdodlarimizdan etishib chiqqan jahongashta kishilar, ilm-fan arbob-  
lari, mutafakkirlar, ma’rifatparvarlar to‘g‘risida bilim urug‘ini sochish  
o‘quvchilarda va talabalarda g‘urur va iftixor tuyg‘usini vujudga keltiradi.

O‘qitishda o‘zbek milliy ta’lim uslublaridan, topishmoqlaridan,  
muammolaridan, topqirlik qilish mashqlaridan, ijodga undovchi  
vositalardan foydalanish talabalar aqliy faoliyatini rivojlantiradi, aqlni  
peshlash vazifasini bajaradi, aqliy qobiliyatlarni o‘stiradi.

Oliy maktab tarbiviy ishlarida milliy an‘analar, marosimlar, rasm-  
rusumlar, bayramlar ma’lum darajada o‘z o‘rnini topsa, talabalarga  
eng samarali ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, umumiy harakatlar jamoatchilik  
faoliyati bilan uyg‘unlashadi, mustahkam jamoa bo‘lib yashashga  
undaydi. Mazkur ishlarda talabalarning ijtimoiy ishtiroki ularda faollikni  
orttiradi, har bir shaxs o‘z qobiliyati, uquvini sinab ko‘radi.

Ota-bobolarimizdan xalqimizga meros bo‘lib qolgan saxiylik,  
mehmondo‘stlik, rostgo‘ylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik  
fazilatları milliy xarakterning eng muhim jihati hisoblanadi.

Ushbu xislatlarni ta’lim-tarbiya jarayonida talabalar ongiga sing-  
dirish, ular ruhiyatini xalq durdonalari bilan boyitish, milliy qad-  
riyatlarining oqilona tadbirlariga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Xush axloq va odobli bo'lish, ota-onalar va katta yoshdagi odamlarga, o'qituvchilarga hurmat, samimiylik, inoqlik, qadr-qimmat, vijdonlilik, iffatlilik, o'zaro yordam berish kabi insoniy xislatlar o'zbek xalqi ma'naviyatining ramzi sanaladi.

Tug'ishganlariga, avvalo, ota-onaga nisbatan milliy tuyg'udagi munosabat, qon-qardoshlik rishtalari ham milliy ruhiyatni aks ettiradi. Bu narsalarniig barchasi xalqning boy madaniyati, tili, adabiyoti, obidalarida o'z ifodasini topadi. Ana shu sababdan milliy ma'naviy boyligimizni talabalar chuqur egallashlari uchun uning bebaho durdonalarini keng ko'lamda namoyish qilishimiz, bular to'g'risidagi bilim va ma'lumotlarni talabalar ongiga singdirishimiz zarurki, ular ko'p asrlik qadriyatlarimizdan xabardor bo'lmog'i kerak. Zotan, bularning barchasi o'zbek guruhlarida milliy tuyg'uning keng ko'lamda quloqchilik uchun puxta zamin hozirlaydi.

Milliy urf-odatlar va marosimlarning barqaror bo'lishi yangi mazmun, yangi mohiyat kasb etadi, uni yanada boyitadi. Mehmondo'stlik, insonparvarlik, do'stlik, bolajonlilik, mehnatsevarlik kabi xislatlar Turon xalqlarida, Turkistonda mavjud bo'lgan. Ular, ayniqsa endilikda, istiqoldan keyin yangicha ma'no kasb eta boshladi.

Xalqimizda oilaviy turmushda sodir bo'layotgan voqealarni, unutilmas damlarni nishonlashga intilish, o'z navbatida yangi an'ana va marosimlarni — tug'ilgan kun, maktabga borish, balog'atga etish, oliy o'quv yurtiga joylashish, nikohdan o'tish, yangi mehmonni qutlash, o'quv yurtini bitirish kechasi, kursdoshlar bilan uchrashuvlar, farzandni askarlikka kuzatish, qaytib kelganligini nishonlash kabilarida bevosita ishtirok etish oldilariga yangi talablar qo'yadi, ijtimoiy jihatdan kamolotga etishuviga xizmat qiladi.

Milliy an'analar milliy urf-odatlar va marosimlar shaklida namoyon bo'ladi. Urf-odat muayyan xatti-harakatlar aynan takrorlanib turishini, unga to'la amal qilinishini taqazo etadi. Shuningdek, u ijtimoiy madaniyatning o'ziga xos amaliy ifodasi hisoblanadi. Marosimlar esa urf-odatlarining barqarorlashgan shaklini bildirib, ichki yaxlitlikka, shaklan bejirimlikka ega bo'ladi. Marosimlarning eng muhim xislatlaridan biri — bu xalq nazokati, latofati, nafosati, ruhiyatini aks ettirishdir. Ota-onaga hurmat, keksalarga ehtirom kabilar o'zbek va Markaziy Osiyo xalqlarining eng asosiy urf-odatlarini hisoblanadi.

Xalq rasm-rusumlari marosimlar va urf-odatlar doirasiga mansub bo'lib, ularning o'zaro munosabatini anglatadi. Rasm-rusumlar marosimlar va urf-odatlarining namoyon bo'lish shakli tariqasida tasnif kilinadi. Masalan, to'y, mehmon kutish, dafn bilan bog'liq urf-odatlar

va marosimlar umumiy jihatlar bilan bir qatorda, o'zbek millatida so'z va harakatlar bilan ajralib turadigan o'ziga xos mahalliy xususiyatga ega.

O'zbek xalqining azaliy hashar, qovun sayli, hosil bayrami kabi an'analari hozirgi davrda yangicha mohiyat kasb etib, jumhuriyat miqyosida davom etmoqda.

An'ana va urf-odatlar mohiyatiga ko'ra, inqilobiy, jangovarlik va mehnatsevarlik xususiyatiga ega bo'lib, umumiylik, xalqaro, baynalminal va milliylikni o'zida aks ettiradi. Masalan, atoqli kishilarning tavallud topgan sanalarini nishonlash (Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, Alisher Navoiy va hokazo), Navro'z, paxta va hosil bayrami, uzum sayli kabilar esa milliy xususiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda chaqaloqlarni tantanali ravishda ro'yxatga olish, go'dakka ism qo'yish, 16 yoshga etgan o'spiringa pasport topshirish, birinchi qo'ng'iroq, so'nggi qo'ng'iroq, birinchi kurslar bilan uchrashuv, katta hayotga yo'llanma berish marosimi, tantanali ravishda ishchilar, dehqonlar, ziyolilar safiga qabul qilish, mehnat faxriylarini pensiyaga kuzatish, „Kumush to'y“, „Oltin to'y“, „Hovli to'yi“, „Payg'ambar yoshi“ kabilar an'analar qatoriga kiradi.

O'zbeklar orasida chaqaloq qulog'iga azon aytish, zagsdan o'tish, nikoh o'qitish, aqiqa, beshik va sunnat to'ylari kabi marosimlar o'tkazilib kelinmoqda. O'qituvchilar ularning mohiyatini aniq dalillar keltirib tushuntirib berishi shart.

Xalq urf-odatlari, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlik - birodarlik his-tuyg'ularini rivojlantiradi. Bular, o'z navbatida, yoshlar uchun ibrat namunasini o'taydi.

Jumhuriyatimizda „Kitob bayrami“, „Ashula bayrami“, „Sog'ligim — boyligim“, „Balli qizlar“, „Balli yigitlar“ o'yinlari va musobaqalarini o'tkazish ham odat tusiga kirib bormoqda.

O'zbek oilasida farzand ko'rish juda katta baxt va unutilmas voqea. Farzand ko'rgan oilani qarindosh urug'lar, do'stlar, hamkasblar tabriklashib, chaqaloqqa har xil sovg'alar olib kelishadi. Bolaga ism qo'yishda, beshikka solishda oila a'zolari bilan birga qarindoshlar, do'st-birodarlar ishtirok etadilar va bu marosim juda samimiy, milliy tarzda o'tkaziladi.

Hozirgi kunda tug'ruqxonalar, bolalar shifoxonalarida tashkil qilingan „Onalar maktabi“, „Yosh ona maktabi“, „Sog'lom turmush tarzi kuni“, „Ichkilikning go'dakka va yosh onaga ta'siri“, „Ichkilikbozlik va befarzandlik“, „Onaning sog'ligi — bolaning baxti“, „Giyohvandlik — umrning egovi“, „Otalarning bolalar tarbiyasidagi roli“ tadbirlarini o'tkazish an'anaga aylanib qoldi.



Keksalarni, xotin-qizlarni izzat-hurmat qilish, o‘zaro yordam va bolalarga mehr-muhabbat tuyg‘ularini ifoda etuvchi an’analar xalqimiz hayotida uzoq zamonlardan beri davom etib kelmoqda. Shuning uchun inson shaxsining tarkib topishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan an’analardan talaba va o‘quvchilarini tarbiyalashda muntazam foydalanish zarur.

Xalqimizning „Mehmon — otangdan ulug‘“, „Mehmon kelsa, mushugingni ham pisht dema“ degan hikmatlari mehmondo‘stlikka undaydi. Shuningdek, „Mehmon kirs a eshikdan-rizqi kelar teshikdan“, degan ibora esa har qanday sharoitda ham mehmonni samimiy, beminnat kutib olishni anglatadi.

Odamlarning bir-biriga mehr-oqibati, oqilona munosabati, to‘g‘ri muloqoti, iltifoti, ehtiromi xalqimizning ichki go‘zalligini, boy ma’naviy va ruhiy qiyfasini ifodalaydi. Zero, „Har narsa ham me’yorida bo‘lgani ma’qul“, „Asalning ozi shirin“ deydi dono xalqimiz. Shuning uchun ichkilikbozlikka, ortiqcha isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ortiqcha xarajatlar uchun mehmon xursand bo‘lmaydi, aksincha, ranjishi mumkin.

Kishining haqiqiy insonparvarligi, boy ma’naviy go‘zalligi vatan, jamiyat manfaati yo‘lida jon fido qilishida, inson osoyishtaligi, baxt-saodati yo‘lida qayg‘urishida o‘z ifodasini topadi. Insonning sofdil ekanligi, olijanobligi uning tanishga ham, begonaga ham beg‘araz yordam qo‘lini cho‘zishida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda, urush yillarida 14 nafar etimni boqib tarbiyalagan Shoahmad ota va Bahriniso opa oilasini misol tariqasida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

O‘zbek xalqining ajoyib fazilatlaridan biri - do‘stlikka sadoqatdir. Do‘stlik bor joyda mehru muhabbat, vafo, sadoqat, adolat, haqiqat qaror topadi. Bu esa, o‘z navbatida, insonning ma’naviyati va ruhiyatiga, aql-zakovatiga kuch baxsh etadi, uni yaxshilik, samimiylik sari etaklaydi. „Do‘stlik barcha boyliklardan afzal“, „Arpa-bug‘doy bir kuningga yaraydi, sodiq do‘sting o‘lguningcha yaraydi“, „Do‘st achitib gapirar, dushman — kuldirib“, „Do‘st — do‘stning oynasi“, „Do‘st-do‘stning tayanchi“, „Do‘st kulfatda sinalar“, „Do‘st so‘zini tashlama, tashlab boshing qashlama“, „Do‘st uzoqda bo‘lsa ham ko‘ngli yaqin“, „Do‘st yuzingga boqar, dushman izingga“, „Do‘stning eskisi yaxshi kiyimning yangisi“, „Do‘stdan molni ayamagan, eldan jonini ayamasa“, „Do‘stlarning sonini sanama, sifatini sana“, „Do‘stsiz boshim — tuzsiz oshim“ kabi o‘zbek xalqining qator maqollari borki, bularning barchasida do‘stlik madhini qadrlash, kuylash g‘oyasi yotadi.

Xalqimizning „Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar“, „Esing borida el tani, kuching borida er tani“, „Qatorda noring bo‘lsa, yuking yerda qolmaydi“, „Do‘stlaringning yutug‘i sening yutug‘ingdir“ degan maqollarda jamoatchilik his-tuyg‘ulari o‘z ifodasini topgan.

Xalq ijodiyotida do‘stlik, o‘rtoqlik, birodarlik, jamoatchilik tuyg‘ulari kishilar o‘rtasidagi eng mo‘tabar, eng go‘zal, eng qudratli, yuksak insoniy fazilatlar tarzida talqin qilinadi. Baxshilarning kuy-layotgan dostonlari va termalari yuqoridagi olijanoblik fazilatlarini bilan yo‘g‘rilgandir. Bularning barchasi kishilarda hamkorlik, sevgi va muhabbat, samimiy hurmat kabi insoniy xislatlarni takomillashtiradi.

Kishilarning o‘zaro samimiy salomlashuvi, ayniqsa, notanishga ham salom berib o‘tish milliy urf-odatlarimizning ibratli va o‘ziga xos bir ko‘rinishi hisoblanadi.

„Assalomu alaykum“ — tinchlik, salomatlik ramzi, osoyishtalikka, beg‘arazlikka etaklaydigan ta‘sirchan vosita. Salomlashish bu hurmat-ehтиrom, do‘stlikka undovchi nido, tanishish istagi, do‘stlik-birodarlik aloqalarini bog‘lovchi ko‘prik, xohish-istaklarni aks ettiruvchi qalb sadosidir. Bu odamiylik, odob va axloq, nazokat, hurmat-e‘tibor, ochiq qablilik, shirinsuxanlik, dilkashlik, xushtavozelik, xushtabassumlik kabi insoniy xislatlarning yaqqol timsolidir.

Xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik, o‘zaro muruvvat, yaqinlik iplarini bir-biriga bog‘lovchi ushbu tushuncha to‘g‘risida dono xalqimiz ko‘plab hikmatlar, rivoyatlar, latifalar yaratgan, ularning tarbiyaviy ahamiyati to hozirgi kungacha pasaymagan. Shuning uchun xalqimiz „Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom ber“ deydi.

Xalq hikmatlarida ta‘riflanishicha, kek saqlamaydigan insonning hamisha ruhi toza, fikri ravshan, orzusi porloq, niyati xolis, maqsadi pok, dili ochiq, tili shirin bo‘ladi. Binobarin, salom-alik xalq orasida muomala munosabat, muloqot, ishora, ifoda, mohiyat muvozanatini saqlab turadigan sehrli kalitdir. Bu so‘z odob-axloqning barcha sifatlarini o‘zida mujassam etadi.

Odamlarning madaniyatli, yuqori saviyali, savodxon ekanligini ularning salomlashuviga qarab ajratish mumkin. Binobarin, salomlashishga kirishuvchi ikki shaxsning his-tuyg‘usi va ichki kechinmalarini tahlil qilish asosida ularning bir-birlari bilan qay darajada yaqinlik va tanishlik alomatlarini aniqlash muhim. Shu boisdan salomlashish tarbiyada, qoralash va jazolash vositalarini qo‘llash nazokatli va yumshoq, imi-jimida bo‘lishi zarur; u baqiriq-chaqiriqsiz, qo‘rqitishsiz, mehribonlik, yaxshilik bilan amalga oshirilishi kerak. Masalan, farzandning kamchiliklarini hamisha ta‘kidlab turish, unga hadeb „sen tuzalmaysan“ deb, gapiraverish yaramaydi. „Men sendan o‘yinqaroqlikdan boshqa narsani kutmayman“, „Sen hamma vaqtdagidek o‘jarsan va bema‘ni gaplarni gapirasan“, „Sen chinakam ishbuzarmonsan“, deb aytish ularda o‘z kuchlariga ishonmaslikni namoyon qiladi.

Xalq pedagogikasi bolaning nojo'ya ishlari salbiy xarakteristikasi bilan bog'liq bo'lgan salbiy baho shaxsning ijobiy yo'nalishida katta foyda keltiradi. „Sen boshqa qo'pollik qilmaysan deb ishonaman, chunki sen bunaqa bolalardan emassan“.

O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish — har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsni tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham xalqimizning milliy ruhiyatidagi bunday urf-odatlar, an'analar, udumlarni kelajak avlodga me'ros sifatida qoldirish muqaddas burchdir.

### **6.5. Oliy ta'limda ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini tashkil etish**

Oliy ta'lim sohasidagi qiyinchiliklarning asosiy sababablari talabalar o'quv faoliyatining to'g'ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat bo'lib, bular aqliy zo'riqishning negizi hisoblanadi. Talabalarda vujudga kelgan aqliy zo'riqish tasodifiy psixologik hodisa emas, uning zamirida shaxsiy o'quv faoliyatini oqilona boshqarish o'quvining zaifligi yotadi. Shunga ko'ra, oliy o'quv yurti talabalari ko'pincha o'quv materiallarini o'zlashtirishda bu faoliyatni tasodifiy boshqarishga harakat qiladilar. Bunda muayyan materiallar mantiqiy harakat bilan eslab qolinsa, qolganlari mutlaqo diqqatdan uzoqlashtiriladi. Natijada ular ma'ruzaning bir qismini tinglaydilar, uning mohiyatini bazo'r anglaydilar, uni konspektlashtirishga ulgurmaydilar. O'quv yili mobaynida ana shu holning davom etishi imtihon sessiyalarini talaba uchun qattiq sinovga aylantiradi. Shunga ko'ra, oliy o'quv yurtining asosiy vazifalaridan biri talabani o'quv materiallarining asosiy manbalari bilan ishlashga o'rgatishdan, uning mustaqil bilish faoliyatini tashkil qilishdan, uni o'zini boshqarish usullari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Oliy ma'lumot olish talabani maqsadga muvofiq, muntazam, rejali, izchil o'quv faoliyatini ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshirishini taqozo etadi.

Oliy maktab psixologiyasi fanida talabalarining o'quv faoliyati auditoriya va auditoriyadan tashqari qismlarga ajratiladi. Shu bilan birga talabalar oldida o'quv faoliyatining tarkibiy qismlari bilan bog'liq muayyan qoidalarga rioya qilib, hal etiladigan masalalar kiradi: 1) Qanday yo'l bilan auditoriyada to'g'ri o'qish va o'qitish mumkin? 2) Qay yo'sinda auditoriyadan tashqari vaqtlarda mustaqil faoliyatning umumlashgan usullaridan foydalansa bo'ladi? 3) Ma'ruzada talabani aqliy faoliyati uchun optimal shart sharoitlar qanday yaratiladi?

4) Amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasini qanday aniqlash va ifodalash mumkin? 5) Talabanning imtihon va sinovlarga tayyorgarlik saviyasini aniqlash imkoniyati bormi va hokazo.

Mazkur fanda ma'ruzaning muhim beshta turi qonuniy ravishda tavsiflanadi. Ular axborot beruvchi, yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi, metodik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ma'ruzalar deb ataladi. Ana shu ma'ruzalarning *sifatini* baholashda quyidagilar hisobga olinadi.

1. Ma'ruzaniig mazmuni (g'oyaviy-siyosiy yo'nalishi, ilmiyligi, ommabopligi, nazariya bilan amaliyotning birligi, empirik materiallar ko'lami, bayon qilish shakli va boshqalar).

2. Talabani o'ylashga, bosh qotirishga etaklovchi materiallarning muammoli bayon qilinishi (uning darajalari, jabhalari, jihatlarini, davriyligi kabilari).

3. Ma'ruzaning asosiligi yaqqol dalillar bilan mustahkamlanuvchi nazariy qoidalarining haqqoniyligi, lo'ndaligi).

4. Ma'ruzaning mutaxassislar kasbiy tayyorgarligi darajasiga bog'liqligi (qay darajada, qay shaklda, qay yo'sinda).

5. Ma'ruzaning tizimi (rejaliligi, tartibiligi, to'planganligi, umumlashganligi).

6. Ma'ruza o'tish usuli (ko'rsatmalilik, jonli nutq, his-tuyg'uga boyligi, material bayonining sur'ati, o'rinli to'xtalish, mantiqiy urg'u).

7. O'qituvchining talabaga munosabati (e'tiboriligi, talabchanligi, samimiyligi, mehribonligi, odobliligi).

8. Auditoriya bilan aloqa qilish (bevosita, jonli, yakkama-yakka, guruhiy, jamoaviy, uzluksiz, ahyon-ahyonda).

9. Talabalarniig ma'ruzadagi davomati (akademik guruhning to'la qatnashuvi, bir oz kamchiligi, umuman kamchiligi).

10. Ma'ruzani konspektlashtirish (ko'pchilik tomonidan yarmisi, ayrimlari).

11. Lektorlik faoliyatini boshqarish (erkin, ishonch bilan, matnga asoslanib bayon qilish, ma'ruza konspektidan uzoqlashmay bayon qilish).

12. Maqsadga erishish (ishlab chiqilgan yo'llar, sinalgan vositalar, egallangan usullar, shaxsiy nuqtai nazarni bayon qilib talabanning mustaqil holda ishlashi uchun imkoniyat yaratish va boshqalar).

Ma'lumki, oliy maktabdagi o'quv-tarbiya jarayonida ma'ruza bilan seminar mashg'ulotlari bog'lanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Seminar mashg'ulotlari, asosan, talabalarda tafakkurning tanqidiyligi, mahsuldorligi kabi aqlning zaruriy tarkibiy qismlari shakllanishiga qaratilgan bo'ladi. Seminar mashg'ulotlarida o'qituvchi o'rganilayotgan muammo

yuzasidan talabalarning bilimlarini tekshirishi, ularda tafakkurning mustaqilligini, mahsuldorligi va teranligini oshirishi, atrof-muhitga munosabatini shakllantirishi ularga ilmiy nazariyalar, konsepsiyalar bo'yicha shaxsiy fikrlarini bildirishni o'rgatishi kerak.

Seminar mashg'uloti talabani o'z o'quv faoliyatini boshqarishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, ta'limning turli shakllarida (mustaqil ishlar, to'g'arak mashg'ulotlari, ilmiy tadqiqot ma'ruza va bahslarda olingan bilimlar yaqollashadi, tartibga tushadi, yanada chuqurlashadi mustaqil bilim olish malakalari o'sadi, aqliy mehnat usullari kengayadi, og'zaki va yozma nutq takomillashadi).

Oliy maktabda ko'pincha seminar mashg'ulotining ikki turidan foydalaniladi: a) seminar rejasiga kirgan masalalardan har birini alohida keng muhokama qilish; b) har bir talabani o'rganilayotgan mavzu yuzasidan ma'ruzasini tinglash.

Bizningcha, seminarning ikkinchi turi keng ko'lamda axborotlar almashish imkoniyatiga ega. Chunki, unda dolzarb muammolar, qonuniyatlar, xususiyatlar bo'yicha mulohaza yuritiladi va tegishli qarorga kelinadi.

Tajribalarda talabalarning seminar mashg'ulotidagi faoliyati quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Seminar mashg'ulotiga chiqishning muayyan maqsadga yo'nalgani (masalaning yo'qolishi, bo'lg'usi mutaxassislikda nazariy bilimlarni amaliy bilimlarga bog'lash).

2. Talaba ma'ruzasining rejasi: oqilona rejalashtirish, masalani birlamchi va ikkilamchi alomatlariga ajratish, bibliografiyani to'g'ri tuzish (nodir, yangi va kasbga oid manbalar tanlangani).

3. Talabani xulqi: o'rinli bahslashuvi, to'g'ri javobi, materialni chuqur tahlil qilishi, dalilni qayta bayon etishi, o'z nuqtai nazari mavjudligi, ixcham va lo'nda tahlil: ma'ruzaning zerikarliligi, bo'shligi.

4. O'zaro aloqa: talabani kursdoshlariga tanqidiy, samimiy, e'tirozli munosabati; seminar qatnashchilari bilan tez muloqotga kirishish imkoniyati.

5. Talabani mashg'ulotni ishonch bilan, mutaxassislarcha yakunlashi, tengdoshlari bilimni boyitishi yoki aksincha; seminar barcha holatlar va munosabatlarni yozib borishi, unga qarashlarini bildira olishi.

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari *samaradorligini oshirish uchun* quyidagi psixologik holatlarga e'tibor berish lozim:

1. Matn va birlamchi manbalar bo'yicha muhim va nomuhim belgi hamda alomatlarni ajratish yoki mavhum o'zlashtirish.

2. O'zlashtirilayotgan o'quv materiallarini o'z vaqtida tahlil qilib borish va umumlashtirish.

3. Talaba o'quv materialini idrok qilishi uchun aqliy faoliyatining barcha jabhalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar.

4. O'qituvchi nutqidan xayolan ilgarilab ketib, uning yakunlovchi fikrini oldindan fahmlay bilish va boshqalar.

Shunday qilib, ma'ruza va seminar mashtulotlarining samaradorligini oshirish bilan oliy maktabdagi ta'lim va tarbiya jarayonida kamol toptiruvchi hamda tarbiyalovchi prinsiplarni amalga oshirish, talabalarga o'zini o'zi boshqarishni o'rgatish mumkin.

### ***Ma'ruzaning metodik ishlamasi:***

*Ma'ruza mavzusi: uning tanlanganligining asoslari.*

1) Umumiy kurs sistemasida mazkur mavzuning o'rni va ahamiyatini aniqlash.

2) Mavzu bo'yicha manbalar saralash (o'qituvchi foydalangan adabiyotlar, talabalarga tavsiya qilinadigan manbalar).

3) Amaliy mashg'ulot, tajriba materiallarini tanlash.

### ***Ma'ruzani tashkil qilish formasi:***

1) Auditoriya va texnik vositalar (tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi va xarakteri).

2) Ma'ruzaning maqsadi (predmet mazmunini o'z ichiga qamrab olgan ma'ruzaning asosiy g'oyasi).

3) Bosh maqsadni amalga oshiruvchi ma'ruzaning vazifalari.

4) Ma'ruza vazifalarining ketma-ketligi.

5) Kutilgan vazifaning xarakteri: informasion, analitik, sistemalashtiruvchi, muammoli va boshqalar.

6) Tavsiya qilingan vazifalarni bajarish uchun talabalarga zarur vositalar (kategoriyalar, tasavvur sistemasi, funksional, genetik, strukturali, ehtimollik, sababiy aloqalar va o'zaro uzviy bog'liqlik).

7) Qo'yilgan vazifalarni hal qilishda, bajarishda tinglovchilarda o'qituvchi tomonidan shakllantirilayotgan munosabat va emosional tuyg'ular hamda pozisiyalar.

8) Ma'ruzaning tashkiliy shakli:

a) monologik mulohazalar;

b) audivizual vositalarga tayangan monologik muvaffaqiyat shaklidagi taassurot;

- c) tom ma'nodagi evristik suhbat;
- d) dialogik bahs, diskussiya, muhokama qilinadigan muammo yuzasidan qarama-qarshi nuqtai nazarlar.

### *Ma'ruza mazmuni:*

- 1) ma'ruza mazmunining konspekti va rejasi;
- 2) yaxlitlik, sistemalilik, ko'rsatmalilik, izohlilik, soddalikni ta'minlovchi didaktik usullar va uning vositalari (konspekt hoshiyasida) mavjudligi.

#### *Ma'ruza jarayonida o'qituvchining yaxlit obrazi (timsoli):*

1) ma'ruza mazmunining har qaysi qismiga taalluqli bo'lgan vazifalarni bajarishda talaba bilan o'qituvchi hamkorligi shakllari (birgalikda muammo yoki masalani echish, berilgan namunaga taqlid qilish: raqobat, sheriklik, raqiblik kabilar);

2) fikr bildirishning til orqali (nutq faoliyatida) ifodalanishi (leksik, grammatik, stilistik, semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyatni tashkil qilish);

3) o'qituvchining auditoriya bilan noverbal, emosional, ifodali muloqot vositalari (imo-ishora, mimika, pantomimika, intonatsiya, temp, ritm, pauza, ovozni kuchaytirish yoki pasaytirish).

#### *Seminar mashg'ulotining metodik ishlamasini:*

- 1. Mashg'ulot mavzusi:
  - a) mavzu tanlashni asoslash;
  - b) kurs programmasida mavzu o'rnini aniqlash;
  - c) mashg'ulotning maqsadi, vazifasi, bilishga oid tarbiyaviy uslubiy xususiyatlari;
  - d) adabiyot, mavzu murakkabligi, hajmini hisobga olish va ana shu negizda birlamchi manbalarni saralash.

#### *Seminar mashg'ulot o'tkazish shakli:*

1) auditoriyaning tayyorgarligi xarakteriga bog'liq ravishda seminar mashg'uloti o'tkazish shaklini tanlash:

a) savol-javob; b) reja asosida keng ko'lamda suhbat o'tkazish; v) o'zaro taqriz qilingan ma'ruza sifatiga fikr almashish; g) bahs elementi mavjud yozma referatlar muhokamasi; d) guruhiy bahs (diskussiya) erkin ravishda yoki maqsadga yo'naltirilgan tarzda; s) o'quv-rolli o'yin tarzda;

2) adabiyotga, mashg'ulot xarakteriga, operatsiyaga, ob'ektga, muammolarga, masalalarga, mavzuga oldindan talabalarni yo'naltirish dasturi;

3) muhokama qatnashchilariga rollarni taqsimlash, ma'ruzaga, referatga, mavzu muhokamasiga, xarakteriga, shakliga qo'yiladigan talablar.

#### *Mashg'ulotni o'tkazash rejasi va konspekti:*

1) mashg'ulot mazmunining dasturi, mavzuning asosiy qismlari, har bir qismning asosiy vazifasi, tahlil qilinayotgan muammoni hal qilish jarayonida vujudga keladigan asosiy ziddiyatlar, qarama-qarshiliklarni qayd qilish (fiksasiyalash);

2) dasturning asosiy qismlari mazmunining konspekti; qarama-qarshiliklar echimini ta'minlovchi didaktik usullarni ajratish, nuqtai nazarlarning isbotlanganligi va asoslanganligi, muhokamaning guruhiy shakllarini ta'minlovchi vazifasi va nazariyalarni ajratish mashg'ulotning har bir bosqichlarida guruhiy kommunikasiya vositalari va usullarini saralash;

3) seminar mashg'ulotlarida mavzuni turlicha shaklda muhokama qilish yo'llari;

4) seminar mashg'uloti o'tkazilgandan so'ng uni tahlil qilish va yakunlash.

#### **Asosiy tushuncha va atamalar**

Oliy ta'lim psixologiyasi, oliy ta'lim talabalarining individual-psixologik xususiyatlari, oliy maktabning bosh mezoni, oliy ta'limda milliylik muammosi, ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, talabalarda milliy g'oya, milliy mafkura tushunchalarini shakllantirish.

#### **Rezyume**

Oliy ta'lim psixologiyasi ta'lim tizimida o'ziga xususiyatlarga ega bo'lgan jarayonlardan biri sanaladi. Shu boisdan oliy ta'lim psixologiyasida talabalarining psixologik xususiyatlari, oliy maktabning bosh mezoni va uning amaliy ahamiyati, oliy ta'limda milliylik muammosi, oliy ta'limda ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini tashkil etishni o'ziga xos psixologik qonuniyatlarga aslangan holda amalga oshirish oliy ta'lim samaradorligini belgilovchi omillardan hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'limda talabalarining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, milliylik tamoyillariga e'tibor qaratish muhim jihatlardan hisoblanadi.





### *Bob yuzasidan savol va topshiriqlar*

1. Oliy maktab psixologiyasining umumiy masalalari.
2. Oliy maktab psixologiyasining predmeti, maqsadi, vazifalari.
3. Oliy maktab psixologiyasi, oliy o'quv yurti rahbarlari, o'qituvchilari va talabalari faoliyatining psixologik xususiyatlari.
4. Oliy maktab psixologiyasining asosiy vazifalari va psixologiyasi metodlari.
5. Oliy ma'lumotli muttaxis, komil shaxs rivojlanishiga qo'yiladigan talablar.
6. Oliy maktabdagi ta'lim va tarbiyaning psixologik tavsifi.
7. OO'Yu da ta'lim va tarbiyaning o'ziga xosligi.
8. Ta'lim va tarbiyada o'qituvchi bilan talabalarning hamkorligidagi faoliyati.
10. Talaba asosiy faoliyat turlarining psixologik xususiyatlari.
11. Talaba ijtimoiy faoliyatining psixologik xususiyatlari.
13. Talabalar jamoasidagi psixologik muhit.
14. Oliy maktab o'qituvchilari faoliyatining psixologik tahlili.
15. O'Yu o'quvchilari faoliyati samaradorligini oshirishning hamkorlikdagi asosi.
16. Oliy maktab o'qituvchisi mehnatini ilmiy tashkil qilishning psixologik masalalari.

## SHAXS INSONIY MUNOSABATLAR SISTEMASIDA. MUOMALA VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

### *Bobning qisqacha mazmuni*

*Psixologiyada shaxs tushunchasi.* Psixologiyada inson shaxsini o'rganish muammosi, shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida, ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs, shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar, shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotipik omillar

*Insoniy munosabatlar psixologiyasi.* Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni, insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari, muloqot va uni o'rganish muammolari.

### **7. 1. Psixologiyada shaxs muammosini o'rganilishi**

Inson shaxsini o'rganish masalasi bilan falsafa, psixologiya, pedagogika kabi fanlar shug'ullanadi. Hozirgi davrda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot ob'ektiga aylanib bormoqda. Shunga qaramasdan, bir tomondan, insonni o'rganishda differensiasiya hodisasi yuz bermoqda, ikkinchi tomondan, inson taraqqiyotining sintetik tavsifi bo'yicha integrasiya holati ko'zga tashlanmokda. Inson bir qator fanlarning tadqiqot ob'ekti ekanligini yig'iq tarzda tasavvur etish uchun uni biososial va sosiobiologik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, inson hayoti va faoliyatining operasional (O'quv, operasiya, harakat, malaka) mexanizmi uning ontogeneza funksional mexanizmga o'sib o'tadi, binobarin, unda komillik belgisi shakllanadi, natijada u kamolot cho'qqisining muayyan darajasiga erishadi.

Inson — jamiyat — tabiat — turmush munosabatlarini tekshirgan rus olimlari S.L.Rubinshteyn, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, B.G. Anan'ev odamning ular bilan har xil turdagi va ko'rinishdagi kauzal, strukturaviy, funksional, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta'kidlab o'tganlar.

Birinchidan, inson u yoki bu aloqalar tizimiga binoan biologik mahsuli „Homo Sapiens“ sifatida o'rganiladi.

Ikkinchidan, tarixiy jarayonning ham ob'ekti, ham subyekti tariqasida shaxs tadqiq etiladi

Uchinchidan, individ muayyan ko‘lamda o‘zgaruvchan, taraqqiyotning genetik dasturiga asoslanuvchi alohida xususiyatli jonzot tarzida ilmiy jihatdan tekshiriladi. Insonni jamiyat ishlab chiqarishining etakchi tarkibi, bilish, kommunikasiya va boshqaruv subyekti, tarbiya predmeti sifatida tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega. Inson va uning borliq bilan ko‘p qirrali munosabatga hamda aloqaga kirishishi quyidagi tarzda namoyon bo‘lishi mumkin:

- tabiatning biotik va abiotik omillari — inson;
- jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti — inson;
- inson — texnika;
- inson — madaniyat;
- inson va jamiyat — yer va fazo.

XXI asrda ham odam individ, shaxs, subyekt, komil inson sifatida talqin qilinishda davom ettiriladi, lekin har bir tushuncha mohiyatida sifat o‘zgarishlari yuz berishi mumkin.

Odama individ sifatida tavsif berishda uning yosh davri, jinsiy va individual-tipologik xususiyatlariga asoslaniladi. Yosh davri sifatleri ontogenetik evolyusiyasi bosqichlarida izchil ravishda namoyon bo‘ladi va takomillashuv jarayonida o‘z ifodasini topadi, jinsiy demorfizm xususiyati esa ularga mos tushadi. Individning individual-tipologik xususiyatiga konstitusion (tana tuzilishi, bioximik individuallik) holatlar, simmetriya va assimetriya juft reseptorlari, effektorlari funksiyasi kiradi. Bu xususiyatlar va xossalalar birlamchi hisoblanib, hujayra va molekulyar tuzilishning barcha darajalarida ishtirok etadi.

Yosh, jinsiy va individual tipologik xususiyatlar sensor, mnemik, verbal va mantiq psixofiziologik funksiyalari dinamikasi hamda organik ehtiyojlar tuzilishini aniqlaydi. Individning bu xususiyatlarini ikkilamchi deb atab, ularning integrasiyasi temperamentda va tug‘ma mayllarda ifodalanilishini ta’kidlab o‘tish joiz.

Yuqoridagi sifatlar rivojining muhim shakli ontogenetik evolyusiyadan iborat bo‘lib, ular filogenetik dasturga asoslanib hukm suradi. Yosh va individual o‘zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta’siri ostida har xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatleri ta’sir etib, uning individual o‘zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi.

Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi, uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ya’ni uning jamiyatda egallagan o‘rni) orqali ifodalanadi. Status negizida doimiy o‘zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning

ijtimoiy funksiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo'nalganlik shaxsni faollashtiradi. Status, rol, qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning ta'rifi xulq motivasiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l-atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl — uning jamiyatdagi hayot yo'li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi.

Individ, shaxs va subyekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e'tibor qilishi zarur:

— inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari);

— insoning o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyusiya bosqichi, barqarorlashuvi va evolyusiya;

— inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar.

Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallashda interiorizasiya va eksteriorizasiya amalga oshadi.

Odamning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati prosessida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatining funksional sistemasi prosesslari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, kishining sosial tajribalarini o'zlashtiribgina qolmay, balki, o'zining idroki, tafakkuri, xayoli, hissiyotlari va irodasini bir so'z bilan aytganda, voqelikka bo'lgan ongli munosabatini hamda o'z harakatlari va xulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi.

Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti-harakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma'lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo'lgan hamda shartli ravishda *to'rtta* o'zaro mustahkam bog'langan funksional bosqichlarga birlashtiriladi:

Birinchi — boshqaruv tizimi;

Ikkinchi — stimullashtirish tizimi;

Uchinchi — stabilizatsiyalash tizimi;

To'rtinchi — indikatsiyalash tizimi.

Shaxsning ana shu sosial ahamiyatga ega bo'lgan barcha sifatleri ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilaydi.

Birinchi tizimning hosil bo'lishida analizatorlar o'rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar katta rol o'ynaydi. Biroq, bu ilgari yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ontogenez prosesida filogenetik analizatorlar o'rtasidagi aloqa vaqti aloqalar bilan organik jihatdan qo'shilib keladilar. Bunda, mazkur tizimning ichida perseptiv tizimiga o'tib ketadigan yuksak darajada integrasiyalangan ma'lum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko'rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot-faoliyati jarayonida o'zaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensor-perseptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratadi. Insonning sensor-perseptiv jihatlari doimo takomillashib boradi.

Ikkinchi tizim barqaror psixik holatlarni o'z ichiga oladi. Bu holatlar bolaning aniq maqsadni ko'zlovchi va foydali faoliyatning ongli subyekti sifatida bola boshlagan ilmlarining dastlabki yillaridayoq shakllana boshlaydi. Temperament, intellekt, bilim va munosabat ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.

Uchinchi tizim — shaxsni arbob sifatida stabilizasiyalash tizimidir. Yo'naltirilganlik, qobiliyat, mustaqillik va xarakter uning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Yo'naltirilganlik bilim, munosabatlarning hamda shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatlarida ijtimoiy ahamiyat etakchilik qilgan motivlarning bir butun ekanligida o'z ifodasini topadi. Bu xususiyat odamning dunyoqarashi, qiziqishlari va ma'naviy ehtiyojlarida namoyon bo'ladi.

Yo'naltirilganlik strukturasi g'oyaviy e'tiqod katta rol o'ynaydi. G'oyaviy e'tiqod — bu bilimning, o'sha shaxsiga xos bo'lgan intellektual, emosional va iroda sifatlarining sintezi, g'oyalar va xatti-harakatlar bir butunligining negizidir.

To'rtinchi tizim o'z ichiga shunday xususiyatlar, munosabatlar va xatti-harakatlarni oladiki, ularda real shaxslarning ijtimoiy „o'y fikrlari va his-tuyg'ulari“ aks ettiriladi. Ular bu shaxslarning siyosiy jihatdan ongli, ijtimoiy taraqqiyotning mas'ul arboblari sifatida xulq-atvorini belgilab beradi. Bunga gumanizm, kollektivizm, optimizm va mehnatsevarlik fazilatlarini kiradi.

## 7.2. Shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida

„Shaxs“ tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, „Homo sapiens“ — „aqli zot“ tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darvin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida er yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy-sosial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sosial yoki ijtimoiy muhit — bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi.

Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A. Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo, uning shu jamiyatda to'tgan o'rni va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezonini ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak.

Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga harakat qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin.

**Shaxs** — *ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyektini bo'lmish individdir.* Shaxs taalluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabat-

larga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'ekt, ham subyekt bo'lishligidir.

Shaxsga taalluqli bo'lgan fazilatlaridan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob'ektni), so'ngra shu ta'sirlarning subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq „mening hayotim“, „bizning dunyo“ degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit — kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'qiblanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib-qoidalarni qabul qiluvchi subyekt bo'lsa, *jamiyat — ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.*

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta'sirotlar mohiyatan, aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshq.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura, mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab, boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasiga ko'tarilsa, va unda yana yangidan-yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi, o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim; kashfiyotchi, muhandis bo'lib, elu yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichmabosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizasiya va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

### 7.3. Shaxs xulq-atvori normalari va sanksiyalar

*Ijtimoiy norma* — shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, „*Assalomu alaykum*“ deb kelishi — norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlami bajarishi lozimligi — norma; xotinning er hurmatini o'rni qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik — norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi — norma, va hakozi. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. *Ijtimoiy sanksiyalar* — normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta mo'ysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, „ko'zini moshday qilib ochib qo'yish“ ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. *Rol* — shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish — u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygo'h ichki tar-



tib-intizomi normalariga so‘zsiz bo‘ysunish, darslarga o‘z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o‘zlashtirishni bajarish, amaliyotda bo‘lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan „farzandlik“ roli (ota-ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya’ni, konkret shaxsning o‘ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra, kimdir „tartibli, ba‘mani, fozil, axloqli va odobli“ deyilsa, kimdir be‘mani, bebosh, o‘zgaruvchan, ikki yuzlamachi (ya’ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda betartib) degan hayotiy mavqega ega bo‘lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko‘pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo‘lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o‘zi uchun o‘ta ahamiyatli bo‘lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o‘sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko‘pligi ba‘zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda — shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o‘zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o‘zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba‘zan bir-biriga zid xislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo‘lishmoqda. Masalan, yosh oila boshligi, talaba, ota-onalarga moddiy jihatdan qaram bo‘lmaslik uchun, bir vaqtning o‘zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa — chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lishi mumkin.


#### **7.4. Shaxs ijtimoiylashuvining asosiy mezonlari**

Ijtimoiylashuvning institutlaridan tashqari uning oqibati masalasi ham psixologiyada muhim amaliy ahamiyatga ega. Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli — bu uning hayotda o‘z o‘rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, shaxsning yo‘nalganligi masalasiga ham fanda katta e‘tibor beriladi.

*Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yunaltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turg‘un, barqaror motivlar majmuiga ega bo‘lishlik shaxsning yo‘nalganligi deb ataladi.*

Yo‘nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagilar tashkil etadi:

Quyidagi 13-rasmda shaxs yo‘nalishlarining sxematik ko‘rinishi bayon etilgan.



**13-rasm.** Shaxsning yo‘nalishlarining eng muhim tarkibiy qismlari

**Mas'uliyat.** Bu ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning etukligini belgilovchi muhim ko‘rsatgichlardan sanaladi. Oxirgi yillarda G‘arb va rus psixologiyasida nazorat lokusi nazariyasi (teoriya lokusa kontrolya) keng tarqaldiki, unga ko‘ra, har bir insonda ikki tipli mas‘uliyat kuzatiladi.

Birinchi tipli mas‘uliyat shundayki, shaxs o‘zining hayotida ro‘y berayotgan barcha hodisalarning sababchisi, mas‘uli sifatida faqat o‘zini tan oladi. („Men o‘zim barcha narsalarga mas‘ulman. Mening hayotim va yutuqlarim faqat o‘zimga bog‘liq, shuning uchun o‘zim uchun ham, oilam uchun ham o‘zim javob beraman“).

Mas‘uliyatlilikning ikkinchi turi undan farqli, barcha ro‘y bergan va beradigan voqea, hodisalarning sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar (ota-ona, o‘qituvchilar, hamkasblar, boshliqlar, tanishlar va boshqalar).

**Maqsadlar va ideallar.** Maqsad va rejasiz inson — ma‘naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsadlar doimo o‘zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog‘liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o‘rnashishida ma‘lum ma‘noda ideallar ham rol o‘ynaydi. Ideallar — shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari bo‘lib, ongda mavjudligi va har doim ham amalga oshmasligi bilan xarakterlanadi. Chunki ularning paydo bo‘lishiga sabab bevosita tashqi muhit bo‘lib, o‘sha ideallar ob‘ekti bilan shaxs imkoniyatlari o‘rtasida tafovut bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘smirning ideali otasi, u otasiday mashhur va el suygan yozuvchi bo‘lmoqchi. Bu orzuga yaqin kelajakda erishib bo‘lmaydi, lekin aynan ana shunday

ideallar odamga maqsadlar qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga yordam beradi.

**Qiziqishlar va e'tiqod.** Qiziqishlar ham anglangan motivlardan bo'lib, ular shaxsni atrofida ro'y berayotgan barcha hodisalar, olamlar, ularning o'zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to'plash, ularni o'rganishga imkon beruvchi omildir. Qiziqishlar mazmunan keng yoki tor, maqsad jihatidan professional, bevosita yoki bilvosita bo'lishi, vaqt tomondan barqaror, doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. qiziqishlarning eng muhim tomoni shundaki, ular shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini shakllantirishga asos bo'ladi. Chunki e'tiqod shaxsning shunday ongli yo'nalishiki, u insonga o'z qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon beradi. Xalq doimo e'tiqodli insonlarni hurmat qiladi. E'tiqodning predmeti turlicha bo'lishi mumkin — Vatanga e'tiqod, dinga, fanga, kasbga, axloqiy normalarga, oilaga, go'zallikka va shunga o'xshash.

Insonning insonligi, uning jamiyatdagi mavqei va nufuzi ma'lum ma'noda undagi e'tiqodlilik darajasi bilan belgilanadi. Ayrim insonlar butun umri mobaynida faqat bitta narsaga e'tiqod qiladilar. Masalan, Mir Alisher Navoiyning butun hayoti xalqqa va millatga fidoiylikning namunasi sifatida, turkiy xalqlar adabiyotiga asos solishga bag'ishlanganligi, Imom Buxoriy, Ibn Sino singari buyuk allomalarning turli tazyiqlarga qaramay ilm va ijod yo'lidagi qat'iyatlari, erishgan yutuqlari e'tiqodlilikning yorqin namunasi.

Demak, agar insonda biror narsaga e'tiqod shakllangan bo'lsa, undan yaxshi inson bo'lib, odamlarga nafi tegishiga umid qilish mumkin. Lekin e'tiqodsizlikdan qo'rqish kerak. Agar atrofimizda biror bir narsaga aniq ishonmaydigan, maqsad-maslagi yo'q kishini ko'rsangiz, unga yordam berish yo'lini izlash kerak, chunki bu odamdagi e'tiqodsizlik nafaqat uning o'ziga, balki atrofdagilarga ham faqat salbiy ta'sir ko'rsatadi. E'tiqodli inson avvalo o'zgalarga ziyon keltiruvchi amallardan o'zini tiyadi, yolg'on gapirmaydi. Unda har doimo lafz bo'ladi, ya'ni bir nrasani qilaman, deb ahd qilsa, albatta, butun kuchi va iqtidorini safarbar qilib, uni bajaradi, boshlagan ishini oxiriga yetkazadi. E'tiqodli inson nima qilayotganini, nima uchun aynan shu ishni qilayotganligini juda yaxshi anglaydi. Shu tufayli haqiqiy e'tiqodli inson ilmga intiladi, o'z hayotining mazmun-mohiyatini tushunishga intiladi, go'zallik yaratish, har tomonlama barkamol bo'lishga tirishadi, yaxshilarga oshno bo'lish, buyuklikka havas uning hayotiy shioriga aylanadi. Haqiqiy e'tiqod sohibida sog'lom fikr bo'lib, bu fikr orqali u insoniyatning umrboqiyligini idrok etadi, o'zidan oilasiga,

farzandlariga nimadir qoldirib ketishni istab yashaydi. Shuning uchun ham e'tiqodlilik — shaxsdagi jur'at, mardlik, fidoiylik, iroda, vijdon, qat'iyat, halollik, isnonparvarlik, vatanparvarlik kabi qator ijobiy sifatlar bilan bog'liqdir.

**Iymon.** („Iymon“ arabcha soʻz boʻlib, lugʻaviy maʼnosi „ishonchdir“ Haqiqiy e'tiqodli odamda iymon ham boʻladi.)

Iymon keltirish yoki ishonch shunday psixologik holatki, unda shaxsning e'tiqodiga mos keladigan, biror konkret narsa va hodisalar ta'sirida ongda o'mashib qoladigan tasavvurlar majmui etakchi rol o'ynaydi. Iymon ob'ekti ko'pincha shaxs tomonidan chuqur tahlil qilinmaydi, tekshirilmaydi, chunki unda insoniyat tajribasi, shaxs e'tiqod qilgan ijtimoiy guruhning qarashlari mujassam bo'ladi.

Iymon tushunchasiga faqat diniy tushuncha sifatida qarash to'g'ri emas. Chunki har kungi faoliyatida insonlarga nafi tegadigan amallar, savob ishlar qilish, solih xulq sohibi bo'lish, oilasi, yaqinlariga mehru-muhabatini ayamaslik, jamiyatdagi xulq normalarini qalban his qilib, ularni buzmaslikka intilish ham iymondan ekanligini unutmaslik kerak. Agar bola yoshlikdan go'zal xulqlarga ergashsa, musulmonchilik odatlari, xushxulqlilik tamoyillarini o'zlashtirib borishga ruhan tayyor bo'lsa, uni iymonli bo'lib tarbiya topayapti, deyish mumkin.

**Dunyoqarash.** E'tiqod va qiziqishlar har birimizdagi dunyoqarashni shakllantiradi. Shaxsning dunyoqarashi — tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni, o'z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo'liga — kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqoddur.

## **7. 5. Shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotipik omillar**

Shaxs individual taraqqiyotining muhim omillaridan yana biri uning yoshiga bog'liq bo'lgan xususiyatlaridir. Chunki, taraqqiyotning har bir yosh bosqichi o'zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga, yangiliklari va o'zgarishlariga ega bo'lib, ular shaxsning xarakteri, temperamenti, iqtidori, bilish jarayonlariga bevosita ta'sirini o'tkazadi.

Yosh taraqqiyoti davrlarining ham sifat, ham miqdor o'zgarishlariga ega bo'lgan ko'rsatkichlari borki, amaliy psixologiya har bir

yosh xususiyatlarini ana shu ikkala ko'rsatkich nuqtai nazaridan o'rganishi va shaxs xulqini boshqarish va ta'sir ko'rsatishda ularga tayanmog'i lozim. Umuman, psixologiyada isbot qilingan faktlardan biri shuki, turli davrlardagi inson taraqqiyoti o'ta murakkab jarayon bo'lib, har bir davrning o'z qonuniyatlari mavjud. Har bir bosqichda shaxsning biror bir xususiyatlari o'zining etuklik fazasiga erishadi. Masalan, olamni sensor jihatdan bilishning etuklik fazasi 18-25 yoshlarda (Lazarev ma'lumotlariga ko'ra), intellektual, ijodiy yetuklik — 35 yoshlarda (Leman ma'lumotlari), shaxsning etukligi 50-60 yoshlarga kelib eng yuqori nuqtasiga erishadi. Shunga o'xshash xususiyatlar insonning butun umri mobaynida muttasil kamolga etib, rivojlanib borishini ta'minlaydi. Shunisi xarakterliki, har bir yoshda biror funksiyalarning rivojlanishi boshqa bir funksiyalarning susayishi hisobiga ro'y beradi. Masalan, bolalikning ilk bog'cha yoshida fazoga moslashuv juda kuchaysa, keyinchalik uning o'rnini vaqtni adekvat idrok qilish kuchayadi. Qariyalarning biror narsalar xususida bilimdonligi, ma'lumotlar dunyosidagi yaxshi oriyentasiyasi, psixomotorik funksiyalar va bevosita bilish jarayonlarining susayishi hisobiga ro'y beradi.

Psixologiyaning maxsus tarmog'i hisoblanmish yosh davrlari psixologiyasining eng asosiy muammolaridan biri shuki, inson psixik taraqqiyotida qanday omillar — genetik, tug'ma yoki orttirilgan, ijtimoiy omillar roli etakchi ekanligi masalasidir. Bir tomondan, bolaning o'z ota-onalaridan meros sifatida o'zlashtirgan sifatleri, masalan, anatomo-fiziologik xususiyatlar, miya faoliyatining o'ziga xosligi, tana tuzilishi (qo'l, oyoq, yuz tuzilishi va boshq.) albatta, psixologik jihatdan odam bolasining muhitga moslashuvi, unga erkin harakat qilishi, jarayonlarni ongida aks ettirishiga sabab bo'ladi. Chunki, oddiygina anatomik anomaliya holati (qo'lning kaltaligi, bo'yning juda kichikligi kabi) psixikaga va shaxsning jamiyatda o'zini tutishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin, ikkinchi tomondan, tashqi muhit ta'sirini ham kamsitib bo'lmaydi. Masalan, agar bola maxsus o'quv maskanlarida o'qimasa, unga tarbiyaviy ta'sirlar ko'rsatilmasa, uning rivojlanishi qanday bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas.

Bu muammolar ustida bosh qotirgan olimlar L. Vigotskiy, J. Piaje, S. Rubinshteyn, A. Leontev va ko'plab boshqa psixologlar ikkala omil rolini ham inkor qilmagan holda ijtimoiy muhitning etakchilik ta'siri to'g'risidagi fikrni baravar yoqlaganlar. Chunki to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya, oila va undagi o'zaro munosabatlarning xarakteri, shaxs

muloqotda bo'ladigan ijtimoiy guruhlar, u tanlagan kasb va kasbdoshlari muhiti, nikoh va ma'lumot masalalarining qanday hal qilinganligi kabi qator ijtimoiy omillar shaxsning rivojlanishi, uning o'z-o'zini anglashi va o'zgalarga munosabati, bilish jarayonlari hamda intellektual taraqqiyotida katta ahamiyatga egaligiga shubha yo'q. Respublikamiz Prezidenti I. Karimov boshchiligida mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq boshlangan „Sog'lom avlod uchun“ shiorini amalga oshirish siyosati farzandlarimizning ham jismonan, ham ruhan, ham aqlan etuk bo'lishlariga qaratilgan. Jismonan sog'lom tanada sog'lom ruh bo'lishi tabiiy.

## **7.6. Insoniy munosabatlar psixologiyasi**

Shaxs — ijtimoiy munosabatlar mahsuli, deyilishining eng asosiy sababi — uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi. Bu shaxsning eng etakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita „yuzma-yuz“ bo'lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; subyekt-subyekt tipli (diologik, sheriklik) yoki subyekt-ob'ektl (monologik) bo'lishi mumkin.

Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslaro munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu — quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki „yarimta jumladan“ ham fikr ayon bo'ladigan bo'lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni — bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin (ona-bola, qaynona-kelin va h-zo).

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari — o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, „jozibasi“,

betakrorligi shundaki, o‘zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o‘ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo‘lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta’sir bo‘lgan bo‘lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko‘rishmay qolgan do‘stingizni ko‘rib qoldingiz. Siz undan hol-ahvol so‘radingiz, lekin, u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma‘qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo‘lgan va siz ikkinchi marta o‘sha odam bilan iloji boricha rasman salom-alikni bajo keltirib o‘tib ketavergan bo‘lardingiz. Ya’ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo‘ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o‘ziga jalb etadi.

Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma’naviy jihatdan rag‘batlantiriladilar.

XXI asrda yashar ekanmiz, odamning eng tabiiy bo‘lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo‘lish va o‘zgalarga samarali ta’sir eta olishga bo‘lgan intilishi yanada oshdi va buning qator sabablari bor.

Birinchidan, industrial jamiyatdan axborotlar jamiyatiga o‘tib bormoqdamiz. Axborotlarning ko‘pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma’lumotlarni saralash, u bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni taqozo etdi. Axborot XXI asrda eng nodir kapitalga aylandi va bu o‘z navbatida insonlarga zarur axborotlar o‘zatilishi tezligi va tempini o‘zgartiradi.

Ikkinchidan, turli kasb-faoliyat sohasida ishlayotgan odamlar guruhining ko‘payishi, ular o‘rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig‘iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi. Umuman, XXI asrning korporasiyalar asri, deb bashorat qilayotgan iqtisodchilar ham bu korporasiya insonlarning o‘zaro til topishlariga qaratilgan malakalarning rivojlangan, mukammal bo‘lishi haqida gapirmoqdalar. Undan tashqari, bu kabi korporativ aloqa ko‘p hollarda bevosita yuzma-yuz emas, balki zamonaviy texnik vositalar — uyali aloqa, fakslar, elektron pochta, internet kabilar yordamida aniq va lo‘nda fikrlarni uzatishni nazarda tutadi. Bu ham o‘ziga xos muloqot malakalarining ataylab shakllantirilishini taqozo etadi.

Uchinchidan, oxirgi paytlarda shunday kasb-hunarlar soni ortdiki, ular sosionornik guruh kasblar deb atalib, ularda „odam-odam“ dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi. Masalan, pedagogik fao-

liyat, boshqaruv tizimi, turli xil xizmatlar (servis), marketing va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday sharoitlarda odamlarning ataylab muloqot bilimdonligining oshirilishi mehnat mahsuliini belgilaydi.

Shuning uchun ham muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish (sosal psixologik trening) masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'mi va salohiyati keskin oshdi.

Shaxslararo munosabatlarni o'rganish psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki inson shaxsining eng nufuzli va etakchi faoliyatlaridan biri bo'lgan muloqot va u orqali o'zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylik, o'xshashlik, uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Ayniqsa, oila muhitida shaxslararo munosabatlarning, chunonchi, ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o'ziga xos tomonlari shaxsning hayoti, faoliyatining samarasi va mazmuniga bevosita ta'sir etadi. Shunday ekan, insonlar orasida amalga oshadigan shaxslararo munosabatlar, ularning turli psixologik xususiyatlarini o'rganish masalasi ijtimoiy psixologiya fanida muhim va dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Muomala shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida odamlar o'zaro psixik jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashinadilar, ta'sir o'tkazadilar, ta'sirlanadilar, idrok etadilar, tushunish va baholash jarayonlarini kechiradilar. Shuning uchun muomala ijtimoiy psixologik hodisa, ijtimoiy kategoriya sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida bevosita ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, emosional, kognitiv, motivasion, reguliyativ qirralarini aks ettiruvchi ob'ektiv va subyektiv ehtiyoj sifatida vujudga keladi, ijtimoiylashuvning asosiy omili, negizi vazifasini bajaradi.

Shaxslararo munosabatlarda muomalaning inson psixik dunyosiga ta'siri masalalarini psixolog olimlardan L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev, B.G. Ananev, A.V. Zaporozes, A.A. Bodalev, B.F. Lomov, A.A. Leontev, M.I. Lisina tadqiqot ishlarini olib borganlar.

L.S. Vigotskiy bola shaxsi ruhiy dunyosi rivoji va taraqqiyotida muomalani tushuntirib shunday deydi: „Bola shaxsiy faolligini namoyon bo'lishining asosiy yo'li kattalar bilan muomalasi hisoblanadi...Uning tashqi olamga munosabati hamisha boshqa odam orqali munosabat bildirishdir“.

L.S.Vigotskiy fikricha, ontogenezda genetik jihatdan birlamchi o'zaro ta'sir bahs, dialogdir; ikkilamchi esa individning ongi, ruhiy



jarayonlarining individualligidir: „Biz madaniy rivojlanishning umumiy genetik qonunini mana shunday shaklda ifodalashimiz mumkin: bolaning madaniy o‘shida har qanday funksiya baholanishi uchun ikki marta, ikki xil rejada paydo bo‘ladi, avval ijtimoiy, keyin psixologik, shuningdek, shaxslararo interpsixologik kategoriya sifatida so‘ng bola ichki dunyosida intropsixologik kategoriya tariqasida“

L.S. Vigotskiy shuningdek, shaxslararo munosabatlarda asosiy qurol va vosita muomala jarayoni ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, shaxslararo munosabatlarda dastavval muomala asosiy vosita, so‘ngra esa xulq atvor vositasi turadi. Chunki, inson yakka qolgan paytda ham muomala funksiyasini o‘zida saqlaydi.

L.S. Vigotskiy qarashlaridan yana shu jihat ko‘rinadiki, muomala intereorizasiya, ya‘ni ichki nutq va ektereorizasiya tashqi nutq, muomala shakllarida namoyon bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, muomala tufayli shaxs ijtimoiylashuvi yuzaga keladi.

Demak, L.S. Vigotskiyning muomala, shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid fikrlari g‘oyat qimmatli, chunki unda biz shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni uchun muhim asos sifatida muomalani ko‘ramiz va shaxs shakllanishida bu jarayonning qimmatli cheksiz ekanligini yanada anglaymiz.

V.M. Bexterevning boy merosida shaxslararo munosabatlar muammosi, xususan, muomala mavzusi ijtimoiy psixologik nazariya jihatidan o‘rganilgandir. Uning qarashlarida insonlarning o‘zaro ta‘sir etishlari muhim muammo sifatida talqin etiladi. V.M. Bexterev ijtimoiy hayotda muomalaning rolini tavsiflab, uning funksiyalarini hamkorlik faoliyatini amalga oshirish mexanizmi sifatida ajratib talqin qiladi. Uning fikricha, shaxsning atrofdegilari bilan muomalasi qanchalik xilma xil va boy bo‘lsa, shunchalik uning taraqqiyoti muvaffaqiyatli amalga oshadi.

V.M. Bexterev muomalaning ijtimoiy roli va funksiyasini tahlil etishda uning ko‘rinishlari bo‘lmish taqlid va ta‘sirlanish ahamiyatiga to‘xtaladi. Uning fikricha, taqlid bo‘lmasa, shaxs ham yuzaga kelmas edi. Chunki, taqlid o‘z materialini muomaladan olishini uqtiradi. Ta‘sirlanish esa ijtimoiy jarayonlar namoyon bo‘lishining omili tariqasida qaraladi.

V.M. Bexterev muomalani shartli ravishda bevosita va bilvosita turlarga ham ajratadi. Bilvosita muomala tarkibiy qismlari sifatida xat, telefon, telegramma, erkalash, urishish va boshqalarni olsa, bevosita

muomala turiga nutqni kiritadi. Shuni ta'kidlash joizki, muomalani eksperimental o'rganish ishini V.M.Bexterev tomonidan amalga oshirilgandir.

V.N. Myasishevning „Shaxsning munosabatlar psixologiyasi“ konsepsiyasiga ko'ra, shaxs „dialogik“ xususiyatli, muomalaning shaxsiy tajribasi va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabat mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Shu tufayli shaxsda qiziqish darajasi, emosiya kuchi, hoxish, ehtiyoj, ijtimoiy yo'nalganlik kabi shaxsni harakatlantiruvchi ichki kuchi tarkib topadi va bu uning kechinmalari, xulqida, harakatlarda ifodalanadi.

V.N. Myasishevning shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid asarlarining tahlilidan ko'rinadiki, muomala jarayoni shaxsning xususiyatlari, xarakteri, mayli, qobiliyatiga ta'sir etishdagina rivojlanmasdan, balki muloqotda ishtirok etuvchilarning psixik jarayonlari bilan ham bog'liqligi namoyon bo'lar ekan. Shuning uchun V.N. Myasishev ishlarining alohida tomoni muomala, uning psixologik tuzilmasi bilan muloqot ishtirokchilari psixik jarayonlari orasidagi munosabat xususiyatlarini ochib berilishida yaqqol ko'rinadi.

Shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan uch xil vazifalar va murakkab jarayon tuzilmasini G.M. Andreyeva „Ijtimoiy psixologiya“ kitobida ushbu tuzilishini taklif etadi:

1. Muloqotning kommunikativ tomoni, ya'ni o'zaro munosabat yoki muloqotga kirishuvchilarning o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi jarayoni sifatida;

2. Muloqotning interaktiv tomoni, ya'ni muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvorlariga ta'sir jarayoni sifatida;

3. Muloqotning perseptiv tomoni, ya'ni muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunchalari bilan bog'liq jarayon sifatida.

O'zaro munosabatlarda muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligini B.F. Parigin shunday yozadi: „Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- A) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- B) individlar o'rtasida axborot almashinuvi jarayoni;
- C) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- D) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- E) bir-biriga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- F) shaxslarning bir-birini tushunishi jarayoni“.

Demak, shaxslararo munosabatlar, ya'ni muloqot jarayoni odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar orasida eng murakkabligi va ko'p

qirraliligi bilan xarakterlanar ekan, ijtimoiy psixologiya fanida olib borilgan jahon psixologlarining juda ko'p tadqiqotlari shu fenomenni shaxs uchun ham zarur, ham oddiy, ham ta'sirchan deb qaraydi.

### **7.7. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni**

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi — suhbat-doshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk xislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, hol-ahvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz. Bu kabi birlamchi kontakt usullari boshqa millat va xalqlarda ham bor, ya'ni bu jihat milliy o'ziga xoslikka ega.

Uning **ikkinchi** muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'irlanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, „mauglilar“ biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvdan ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday holat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim *vazifasi* — u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda izolyasiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning inson ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'z-

garishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin, baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning etishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, havotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu, avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan erda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. „Biz, deb yozadi u, shu hayotsiz g'or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim...“

Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma-yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga „bayramga kelganday“ keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sosiolog hamda psixolog Jon Moreno o'tgan asrning boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sosiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnomasida bir-birini yoqtirgan va bir-birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sosiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Insoniyatning muomala quroli til bo'lib, odamlar bir-birlari bilan bo'ladigan barcha munosabat va muloqotlarini so'zlashish yordamida amalga oshiradilar. Dono xalqimizda so'zlashish qoidasi, tilga ehtiyotkor bo'lish, har bir so'z, har bir jumlaning o'ylab gapirish, qisqasi - so'zlash odobi va muloqot madaniyati haqida juda ko'p ibratli hikmatlar bor. Ulardan birida keltirilishicha, odamning sharafi va iftixori uning madaniy so'zlashishida ko'rinadi. Kim-ki so'zlashish odobiga rioya qilmasa, unda insoniylik ham ko'rinmaydi. Gap o'rinli va ma'noli aytilgan bo'lsa, uni jim turib tinglamoq foydalidir.

Bu borada so'zlashishning sakkizta qoidasini keltirishni lozim deb topdik:

- bemavrid gapirmaslik;
- lutf ila yumshoqlik bilan so‘zlashish;
- ochiq chehra bilan gapirib, yuzda samimiylikni saqlay olish;
- eshituvchiga malol kelmaydigan tarzda gapirish;
- faqat foydali gaplarni gapirish;
- o‘ylab, andisha bilan so‘zlash, o‘ylamay aytilgan gap pushaymonlik keltirishini yodda tutish;
- kishilar gapirayotganda oraga gap qo‘shmaslik, so‘zini bo‘lmaslik;
- ko‘p gapirmaslik, zero, bu yaxshilik alomati emas.


Har bir odam kishilarga zarar keltiradigan so‘zlardan o‘zini saqlashi lozim. Buning uchun tilga ehtiyot bo‘lish, kishi dilini og‘ritadigan, ko‘ngilni qoldiradigan, izzat nafsiga tegadigan, ornomusi, sha’nini oyoq-osti qiladigan so‘zni hech so‘zlamaslik darkor. Hamma vaqt shirin so‘z bo‘lish, doimo yaxshi, ma’nili so‘zlash kerak, chunki, tildan etgan ozor, nayza ozoridan yomon.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial — birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo‘lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi va samaradorlikning muhim omillaridandir.

### 7.8. Insoniy muomalaning psixologik asoslari

Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko‘zlagan maqsadlaridan biri — o‘zaro bir-birlariga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni fikr-g‘oyalarga ko‘ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o‘zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. **Psixologik ta’sir** — bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta’sirning asosan uch vositasi farqlanadi.



14-rasm. Shaxsga psixologik ta’sir etish turlari

1. **Verbal ta'sir** — bu soʻz va nutqimiz orqali koʻrsatadigan taʼsirimizdir. Bunday asosiy vositalar soʻzlardir. Maʼlumki, nutq — bu soʻzlashuv, oʻzaro muomala jarayoni boʻlib, uning vositasi — soʻzlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam oʻzidagi barcha soʻzlar zahirasidan foydalanib, eng taʼsirchan soʻzlarni topib, sherigiga taʼsir koʻrsatishni xohlaydi.

2. **Paralingvistik ta'sir** — bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyasiya, tovushlar, toʻxtashlar, duduqlanish, yoʻtal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, doʻstimiz bizga biror narsani vaʼda berayotgan boʻlsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib-pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan „Albatta bajaraman!“, desa ishonamiz, albatta.

3. **Noverbal ta'sirning** maʼnosi „nutqsiz“dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan oʻrinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida oʻrtogʻingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, „Koʻrganimdan biram xursandman“, desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir-birlariga taʼsir koʻrsatmoqchi boʻlishganda, dastavval nima deyish, qanday soʻzlar vositasida taʼsir etishni oʻylar ekan. Aslida esa, oʻsha soʻzlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol oʻynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga koʻra, birinchi marta koʻrishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy boʻlishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38% va noverbal harakatlar 58% gacha taʼsir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat oʻzgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol toʻgʻri: „Ust-boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi“.

Muloqotning qanday kechishi va kimning koʻproq taʼsirga ega boʻlishi sheriklarning rollariga ham bogʻliq. **Ta'sirning tashabbuskori** — bu shunday sherikki, unda ataylab taʼsir koʻrsatish maqsadi boʻladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida taʼkidlangan vositalardan foydalanadi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u oʻmidan turib kutib oladi, iltifot koʻrsatadi,

hol-ahvolni ham quyuqroq so‘raydi va so‘ngra gapning asosiy qismiga o‘tadi.

**Ta’sirning adresati** — ta’sir yo‘naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorming suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo‘lmasa, yoki adresat tajribaliroq sherik bo‘lsa, u tashabbusni o‘z qo‘liga olishi va ta’sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo‘ladi.

### ***Muloqot jarayonidagi psixologik to‘siqlar***

**Motivasion to‘siq** — muloqotga kirishishdan bosh tortish, muomala odobidan chetga chiqish.

**Aqliy to‘siq** — suhbatdoshning xodimga nisbatan bilim doirasining kengligi, mantiqiy fikrlashining chuqurligi, huquqiy savodxonligi suhbat jarayonini qiyinlashtiradi.

**Hissiy to‘siq** — tajovuz, qo‘rquv, asabiylik, o‘zini tuta olmaslik va haqligini isbotlashga asossiz harakat qilish.

**Tarbiyaviy to‘siq** — tarbiyasi qiyin o‘smirlar, nosog‘lom muhit sharoitida tarbiyalangan shaxslarni biror ilg‘or fikrga yo‘naltirishning qiyinligi.

Muloqot jarayonidagi to‘siqlar muloqotda turli xil qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Ayrim hollarda, umumiy vazifa va maqsadlar o‘z qimmatini yo‘qotib, antogonizm, ya’ni o‘zaro dushmanlik holati yuzaga keladi. O‘zaro tushunmaslik to‘sig‘ini yo‘qotish uchun muloqotga kirishuvchilar bir-birining hayot tajribasi, jamiyatda tutgan o‘rni, dunyoqarashi va qiziqishlari psixologiyasini tushunishga harakat qilmoqlari lozim bo‘ladi.

### ***Muomalada psixologik aloqa o‘rnatish bosqichlari***

1. Bo‘lajak muloqotni bashorat qilish. Psixologik aloqa o‘rnatishning samarali bo‘lishida dastlabki rejalarning bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun muloqotga kirishuvchi shaxs to‘g‘risida birlamchi ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur.

2. Muloqotni engillashtiruvchi tashqi omillarni (sharoitlarni) yaratish. Nutq madaniyati, mimika, tashqi ko‘rinish psixologik aloqa o‘rnatishda ijobiy natija beradi. Masalan, suhbat yurituvchining o‘zini tutishiga qarab suhbatdoshda emosional holatlar yuzaga keladi. Suhbatdosh bilan muloqot boshidanoq hamfikir bo‘lishga harakat qilish kerak.

3. Umumiy va barqaror qiziqishlar doirasini aniqlash. Muloqot boshida shaxs bilan umumiy til topishga harakat qilish darkor, umumiy qiziqishlarning borligi emosional turg‘un holatga olib keladi. Bu o‘z-

o'zidan suhbatdoshni samimiy bo'lishga undaydi, psixologik iqlimni mo'tadillashtirib mavqeni tenglashtiradi.

4. Muomaladagi og'ishlarni bartaraf etish psixologik aloqa o'rnatishning majburiy omili hisoblanadi. Bu muloqotga begona shaxslarning aralashishi, xonada begonalarning borligi muloqotning kechishiga xalaqit beradi va hissiy zuriqishlarni keltirib chiqaradi.

5. Individual (alohida) ta'sir etish. Psixologik aloqa o'rnatishning yakuniy bosqichi huquqshunosning suhbatdoshiga alohida ta'siri hisoblanadi. Bu ta'sirning asosiy maqsadi kerakli, ishonchli ma'lumotlarni olish.

### ***Muloqot jarayonida psixologik aloqani o'rnatish usullari***

- Notanish shaxslar bilan tez fursat ichida aloqa o'rnatish va ularga moslashish.

- Boshqa shaxslarning gapini eshita olish qobiliyatiga ega bo'lish, ya'ni tinglovchanlik qobiliyati.

- Insonlarga psixologik ta'sir ko'rsata olish, bundan tashqari, o'z ta'sirini o'tkaza olish ham muhim hisoblanadi.

- Muloqot jarayonida shaxsdagi psixologik to'siqlarni bartaraf eta olish.

### ***Nutqiy ta'sir etish bo'yicha tavsiyalar***

1. Auditoriya yoki suhbatdoshingizni o'zingizga moslang? (suhbat ishtirokchilari yoki ishtirokchisining salohiyati, kayfiyati va xususiyatlarini inobatga oling).

2. Gapirayotgan yoki tushuntirayotgan paytingizda aytayotgan so'zlaringizga to'liq ishonchingizni namoyon qilishga harakat qiling.

3. Suhbatda nigohingizni tinglovchiga yo'naltiring. Bir nuqtaga qarab qolmang, sizga tikilib o'tirgan nigohlardan qochishga o'rganmang, harakat ham qilmang.

4. Nutqingiz ravonligi va tushunarligiga e'tibor qarating.

5. Suhbatda sizni sinash, o'zingizni yo'qotish uchun qilingan har qanday xatti-harakat oldida aslo ojizlik qilmang. Berilgan savolni bilmasangizda o'zingizga qat'iy ishongan holda xohlagan javobingizni berishdan chuchimang.

6. Suhbatdoshingizning nozik jihatlarini suhbat jarayonida iloji boricha arlashtirmaslikka harakat qiling.

7. Suhbatdoshni eshiting, tinglang, yordam berishga harakat qiling.

8. Suhbat jarayonida suhbatdoshingizning ismini aytib murojaat



qilishga harakat qiling. Chunki insonga o‘z ismini eshitish qanchalik yoqishini unutmang.

9. Suhbatdoshingizning kerakli inson ekanligini, kishilarga foydasi tegishi mumkinligini ko‘rsating.

10. Suhbatdoshingizning fikriga hurmat bilan qarashga intiling. Hech qachon sizning fikringiz mutloq noto‘g‘ri deya ko‘rmang.

## **7.9. Muloqot va uni o‘rganish muammolari**

Oxirgi yillarda „professionalizm“ tushunchasi tez-tez ishlatiladigan bo‘lib qoldi. Chunki jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirish, mehnat unumdorligini „inson omili“ni takomillashtirish hisobiga oshirish davr talabi bo‘lib qoldi. Ayniqsa, odamlarni boshqarish sohasidagi professionalizmga katta e‘tibor qaratilmoqda. Juda ko‘pchilik mutaxassislar barcha bajaradigan funksiyalari orasida odamlar bilan til topishish, ularga ta‘sir ko‘rsatish, ular faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish va boshqarish eng murakkablaridan ekanligini e‘tirof etmoqdalar. Odamlar bilan normal munosabatlarni o‘rnata olmaslik, ayniqsa, biznes sohasida amaliy sheriklarning holatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, o‘z nuqtai nazariga o‘zgalarni professional tarzda ko‘ndira olmaslik, „birov“ ni, uning ichki kechinmalari va o‘ziga bo‘lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada *kommunikativ uquvsizlik* yoki *diskommunikasiya* holatini keltirib chiqaradi. Bunda odamlar oddiy til bilan aytganda, bir-birlarini tushunolmay qoladilar, shuning oqibatida pishib turgan loyiha yoki yaxshi reja amalga oshmasligi, bir necha oylarga cho‘zilib ketishi mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasining tatbiqiy yo‘nalishida, boshqaruv psixologiyasida katta yoshli odamlarni kommunikativ bilimdonlikka o‘rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir korxonada, xususiy firma yoki davlat muassasasini boshqaruvchi menejer, rahbar tayyorlash muammosi ana shu rahbarlarni, boshqaruvchilarni psixologik jihatdan odamlar bilan ishlashga o‘rgatish muammosini chetlab o‘tolmaydi. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis - vrach, muhandis, o‘qituvchi, iqtisodchi, agronom, quruvchi, jurnalist, madaniyatshunos yoki boshqalar ham kommunikativ malakalarga ega bo‘lmaguncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamoaga kirishib, ko‘pchilik bilan til topishib, o‘z professional mahoratini ko‘rsata olmaydi. Har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san‘atiga ega bo‘lishi kerak.

Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ymoqda. To'g'ri, muloqotga kirishish ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatlardan, u tabiiy va hayotiy narsa. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay, atrofidagilar bilan aktiv muloqotga kirisha boshlaydi. Lekin masalaning paradoksal tomoni ham shundaki, yillar o'tgan sari ongli, aqlli odam har bir gapini o'ylab gapiradigan, har bir qadamini o'ylab bosadigan bo'lib qoladi, bu uning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi vositadir. Bu muloqotga kirishishga ruhan tayyorlanishning ahamiyatini ham odam anglashini taqozo etadi.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni — tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Kamegi „Yaxshi suhbatdosh — yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir“ deganda, aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35—40 % oylik maoshlarini odamlarni „tinglaganlari“ uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikasiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan.


Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer „Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ulami tinglang“ deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa — bu bizning o'z fikr-o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba'zan

rasman sherigimizni tinglayotganday bo‘lamiz, lekin aslida xayolimiz boshqa erda bo‘ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o‘xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko‘p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo‘llaymiz: *so‘zma-so‘z qaytarish* va *boshqacha talqin etish*. Birinchisi, suhbatdosh so‘zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo‘llab-quvvatlashni bildiradi. Ikkinchi usul esa — sherigimiz so‘zlarini tinglab, undagi asosiy g‘oyani muxtasar, o‘zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, hattoki, undagi g‘oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bundan tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo‘lib, „Yo‘g‘-e?“, „Nahotki?“, „Qara-ya?“, „Yasha!“ luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o‘z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs etakchi, u suhbatning mutloq xokimi, degan tasavvur unchalik to‘g‘ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug‘diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa — bu axborotning o‘zi. Tinglayotgan odam ma‘nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma‘lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o‘zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan „teskari aloqani“ olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o‘rgatishning muhim yo‘nalishlaridan biri — odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va nonverbal omillardan o‘rinli foydalanishga o‘rgatishdir. Muloqotning samarali faoliyatiga tinglash texnikasi ham o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatdi.

- *Aktiv holat*. Bu — agar kreslo yoki divan kabi mebel bo‘lsa, unga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so‘ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;



15-rasm. Shaxsning suhbatdoshini tinglash texnikasi

- *Suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish.* Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki, keyin navbat kelganda, o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishning samarali yo'lidir.

- *O'ychan jimlik.* Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo'li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o'z-o'ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo'lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon — gapirish va tinglashning o'zaro faol ta'siri uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o'rgatishga juda katta e'tibor beriladi. Bu boradagi fanning o'z uslubi bo'lib, uning nomi *ijtimoiy psixologik trening* (IPT) deb ataladi. IPT — muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

*Amaliy muloqot treningi* — IPTning bir ko'rinishi bo'lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo'ladigan kommunikativ malaka, ko'nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo'l-yo'riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so'zlashga o'rgatish, majlislar o'tkazish, janjalli, nizoli holatlarda o'zini to'g'ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bunday asosiy narsa — trening qatnashchilari ongiga birovlarini tushunish, o'zini o'zga o'rniga qo'ya olish, boshqalar manfaatlarini bilan o'zinikini uyg'unlashtira olish g'oyasini singdirishdir. Treninglar mobaynida *guruhiy munozaralar, rolli o'yinlarning* eng optimal variantlari sinab, mashq qilinadi.

## Asosiy atama va tushunchalar

Shaxs, o'zligini anglash; ta'sirga beriluvchanlik; konformizm, nokorformizm, ta'sir ko'rsatish madaniyati; shaxs e'tiqodi, xulq normalari, ijtimoiy norma, ijtimoiy sanksiyalar, ijtimoiy rollar, ijtimoiy ta'sir, muomala, psixologik ta'sir, verbal ta'sir, paralingvistik ta'sir, noverbal ta'sir, ta'sirning tashabbuskori, ta'sirning adresati, insoniy munosabatlar psixologiyasi, o'zaro munosabatlar, samarali ta'sir, shaxslararo muomala, bir-birini tushunish, ijtimoiy tajriba, muloqot, kommunikativ uquvsizlik, diskommunikasiya holati, ijtimoiylashuv jarayoni, faol muloqotning paradoksal tomoni, tinglash mahorati, professional tinglash texnikasi.

### Rezyume

Shaxsga xos xulq normalari ijtimoiy kutishlar va sanksiyalar tufayli yuzaga kelib, bu uning ijtimoiy rollarni bajarish shart-sharoitlarida namoyon bo'ladi. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi kuchlar sifatida esa, bugungi kun psixologiya fani dunyoqarash, ma'naviyat va ma'rifat, yoshlarning ma'lumotlilik darajasi, oila, ot-onalar savodxonligi, bobolar va momolar, hamda ijtimoiy ustanovkalar kabi alohida ahamiyatga molik ijtimoiy omillar ketma-ketligini ajratib ko'rsatadi.

Insoniy munosabatlar psixologiyasi deganda, bu avvalo, o'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlarning bundan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari majmuasi tushuniladi. O'zgalarga samarali ta'sir eta olishga bo'lgan intilishi esa, muloqotning tuzilmaviy tomonlarini tadqiq etishni shakllantiradi. Shu bois, ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlarda muloqotning kommunikativ tomonini ma'lumotlar almashinuv jarayoni sifatida baholangan. Uning interaktiv hamda perseptiv tomonlari esa idrok qilishning persepsiya mexanizmlarini o'rganishni taqozo etadi.



### *Bob yuzasidan savol va topshiriqlar*

1. „Shaxs“ tushunchasining ta'rifi qanday?
2. Ijtimoiy norma nima?
3. Ijtimoiy sanksiya nima?
4. „Men“ obrazi deb nimaga ataladi?

5. O‘z-o‘ziga nisbatan baho qanday ko‘rinishlarga ega?
6. Ijtimoiylashuv qanday jarayon?
7. Shaxs dunyoqarashi va e‘tiqodini o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi omillar qaysi?
8. O‘zingizga o‘zingiz savol-javoblar tarzida xat yozishga harakat qiling. Yozganda ko‘p o‘ylanmay, kallaga kelgan savolga, mos tarzda javob yozing. Javoblarni sharhlash o‘zingizga havola. O‘zingiz xolis xulosa chiqaring?
9. Ilovada keltirilgan metodikalar orasida o‘z-o‘zini baholash metodikasini toping va o‘zingizni tekshiring.
10. Muloqot qanday amalga oshiriladi?
11. Muloqotga ehtiyoj qanday sabablarga asosan yuzaga keladi?
12. Psixologik ta’sir vositalari qanday?

## MEHNAT FAOLIYATI PSIXOLOGIYASI

### *Bobning qisqacha mazmuni*

**Psixologiya va mehnat.** Mehnat faoliyati psixologiyasining asosiy vazifalari. Mehnat, kasb, mutaxassislik, mehnatning psixologik mazmuni.

**Mehnat faoliyatini o'rganish metodlari.** Mehnat faoliyatini o'rganish metodlarining klassifikatsiyasi. Professiografiya. Professiogrammani tuzish tamoyillari.

**Mehnat faoliyatining klassifikatsiyasi.** Mehnat turlarining klassifikatsiyasi. Kasblar klassifikatsiyasi.

**Professional shaxsning shakllanishi.** Mehnat subyekting professionalshuvi. Shaxs va faoliyat. Yosh va biografik inqirozlar.

### 8.1. Mehnat psixologiyasi

Mehnat psixologiyasi — kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadigan fan sifatida, bugun tom ma'noda, mehnat faoliyatining psixologik qonuniyatlarini bilish, mehnat vazifalarini ro'yobga chiqarishda inson shaxsi imkoniyatlarini va chegarasini aniqlash, inson va mehnat shart-sharoitlarining o'zaro ta'siri hamda moslashuvining qonunlarini o'rganish eng muhim hisoblanadi.

Mehnat faoliyati psixologiyasi — bu psixologiyaning bir sohasi bo'lib, inson shaxsini mehnat subyekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shart-sharoitlari, yo'llari va usullarini ilmiy jihatdan o'rganadi.

Mehnat faoliyati psixologiyasining asosiy vazifalariga quyidagi muammolar bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'rganish va ishlab chiqish kiradi:

Kasbiy faoliyat muayyan turlarining psixologik xususiyatlari (uning vositalari, mazmuni, tashkil etish va shart-sharoitlar, xatolar tahlili, kasblar klasifikatsiyasi va boshqalar);

Shaxs individual-psixologik xususiyatlarini mehnat samarasi, muvaffaqiyati va xavfsizligiga ta'siri;

Kasbiy layoqat shakllanishining psixologik qonuniyatlari (kasbga yo'naltirish, tanlov, tayyorgarlik, mehnatga moslashuv);

Mehnat kishisining funksional holati (toliqish, emosional zo'riqish, stress, monotoniya va boshqalar) va ularni diagnostika, profilaktika va korreksiya qilish usullari;

Inson-texnika munosabatlarining psixologik qonuniyatlari;

Yangi texnikani yaratish va qo'llash jarayonining injener-psixologik ta'minoti (loyihalash, baholash).

Mehnat faoliyati psixologiyasi faoliyatni takomillashtirish yo'llari, usullari va vositalarini o'rganishdan tashqari, inson psixikasining fundamental hodisalarini tadqiq etadi (mehnat subyektining shakllanishi, mehnat sharoitida shaxs xususiyatlarining roli, kasbiy qobiliyatlarni shakllanishi va boshqalar).

Atrof muhitni o'zgartiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida mehnat va psixologiyaning o'zaro munosabatlari mehnat faoliyati psixologiyasi mohiyatining bir qator jiddiy holatlariga tayanadi:

- U nafaqat inson mehnatini engillashtirishga, balki mehnatni yanada mahsuldor, jozibali, xavfsiz etib, zavq va iqtisodiy jihatdan naf berishga qaratilgan;

- U mehnatni insonga va insonni mehnatga moslashtirishga qaratilgan (insonning tabiat, texnika, boshqa odamlar ustidan hukmronlik qilishi g'oyasini munozarali, gohida mavhum etadi);

- U mehnat faoliyatida psixikaning shaxsga bog'liq va o'zgaruvchan xususiyatlarini turli toifadagi odamlarga xos ekanligini aks ettiruvchidir.

## **8.2. Mehnat, kasb, mutaxassislik**


Mehnat — inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat bo'lib, u inson faolligining anglangan bir turiga kiradi. Mehnat inson uchun shaxsiy va ijtimoiy hayotida o'zini ro'yobga chiqarish va ko'rsata olish vosita hamda usulidir. Bu o'z navbatida, uning muomalasi, o'zini va tashqi olamni anglashi, o'zini shaxs sifatida rivojlantirishi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishida aks etdi. Bu vazifalarning bajarilishi mehnatning maqsadini tashkil etadi.

Mehnat funksiyalarining samarali amalga oshishi quyidagi omillarga bog'liqdir:

- 1) muayyan faoliyat uchun layoqatli kishilarni tanlash;
- 2) kasbiy tayyorgarlik;
- 3) mehnat jarayonini tashkil etish va rasional sharoitlar;
- 4) mehnat qurollarining qulayligi va samarali ekanligi;
- 5) ish ko'lamiga inson imkoniyatlarining mos kelishi;
- 6) mehnat xavfsizligi tizimi, kasbiy salomatlik va umrni saqlash, ishga layoqatlikni psixologik quvvatlash.




Mehnat — inson imkoniyatlarining psixologik, fiziologik, kasbiy va boshqa jihatdan namoyon eta olish xususiyati bo‘lib, u turli toifa odamlarda turlicha bo‘ladi. Asosan, yoshga ko‘rsatkichiga, kasbiy tayyorlik darajasiga, salomatlik holatiga bog‘liq ravishda kechadi.



**16-rasm.** Mehnat va uning asosiy vazifalari

Mehnat faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ko‘pgina amaliy vazifalarni bajarish, shuningdek, shaxs psixik faolligining asoslarini mehnat faoliyatiga bog‘liqlik tomonlarini o‘rganish masalasi muhimdir. Unga ko‘ra, mehnat faoliyati tashkil etuvchilarining tizimini ko‘rib chiqish mumkin. Mehnat faoliyati tashkil etuvchilarining tuzilmasi 17-rasmda aks ettirilgan.



**17-rasm.** Mehnat faoliyatini tashkil etuvchi komponentlar tuzilmasi

Mutaxassislik — faoliyat shakllari birlashmasi bo‘lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat subyektini tayyorlashga qo‘yiladigan talablar majmuini tashkil etadi. Bu tushunchada mehnat faoliyatining turli tomonlari va turli darajasi aks ettiriladi:

1) mehnat ob‘ekti va predmeti, uning mazmuni, shartlari hamda tashkiliy jihatlari;

2) maqsadli vazifa va mehnatning natijaviy xarakteri;

3) mehnat egasining xususiyatlari — uning bilimlari, malaka, ko‘nikma, qobiliyatlari;

4) iqtisodiy va ijtimoiy tomonlari — ishga joylashish, moddiy ehtiyojlarning qondirilishi, ijtimoiy mavqeyining tasdiqlanishi;


Mutaxassislik tushunchasi, odatda, konkret faoliyat turi va xususiy xarakteristikasini ifodalaydi, mehnatning qay darajada bo‘linish imkoniyatini aks ettiradi (masalan, vrach kasbi, mutaxassislik — terapevt, jarroh, ko‘z vrachi, kardiolog va boshqalar).

### 8.3. Mehnatning psixologik mazmuni

Mehnat faoliyatining har bir aniq turi ma‘lum darajada normativ tasdiqlangan bo‘ladi. Bunda, albatta, samaraliroq va ixchamroq variant muhim mezon etib olinadi. Inson kasbni o‘zlashtirish jarayonida bu yozilgan normalarni individuallashtiradi, ya‘ni o‘ziga, ungagina xos bo‘lgan shaxsiy fazilatlar va psixologik xususiyatlarni namoyon etadi.

1) faoliyat motivlari, uni harakatlantiruvchi kuchlari (moddiy, bilish, estetik va boshqalar);

2) faoliyat maqsadlari, uning mazmunini shakllantiradi va aniq kutiladigan natijalarda ifodalanadi;



18-rasm. Psixologik faoliyat tizimining tuzilmaviy chizmasi

- 3) faoliyat dasturi, mazmunning tasavvuri va jarayonni aks ettiradi;
- 4) faoliyatning axborotga asoslanganligi, ma'lumotlar bazasi, kasbiy bilimlarga oid predmetli va subyektiv sharoitlar, ularni amalga oshirishga oid ma'lumotlar;
- 5) qarorlarni qabul qilish jarayoni, muammoli vaziyatni ko'rish, farazni, ilgari surish, bajarish tamoyilini aniqlash, hal etish variantlari baholashni amalga oshirish;
- 6) psixomotor jarayonlar;
- 7) muhim professional sifatlar, mehnat egasining psixologik xususiyatlari, aniq mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan individual-psixologik sifatlar, fazilatlar.

#### **8.4. Mehnat faoliyatini o'rganish metodlari**

Shaxsning mehnat faoliyatida psixik holati, jarayonlari, mehnatdagi yutuqlarini aniqlash maqsadida turli metodlar qo'llaniladi. Bunda qaysi mezonlarga ko'ra shaxs muvaffaqiyatlarga erishishi amalga oshganligi masalasi muhim bo'ladi. Shuning uchun ushbu toifadagi metodikalar qo'llanishi kuzatiladi:

- 1) aniq faoliyatning o'ziga xos tomonlari bilan tanishish uchun ish hujjatlarini tahlil etish;
- 2) faoliyat mazmuniga oid ma'lumotni vizual to'plash uchun ish jarayonini kuzatish;
- 3) xronometraj, mehnat jarayonining ayrim ko'rsatkichlarini baholash;
- 4) mehnat kishisidan yozma yoki og'zaki ravishda ma'lumot olish uchun so'rov (anketa, suhbat, ekspert baholash) metodi;
- 5) mehnat vazifalarini bajarishga oid shaxsiy tasavvur, fikr, kechinmalarni o'zida kuzatish va hisoboti;
- 6) mehnat faoliyatiga qo'yilgan eksperimentatordan faoliyatga oid ma'lumotlarni olish uchun mehnat metodi;
- 7) shaxsning hayotiy va faoliyatga oid ma'lumotlarini tahlili uchun biografik metod;
- 8) faoliyat sharoitlarini o'rganish uchun fiziologo-gigiyenik metodlar;
- 9) mehnat subyektining psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun tajriba (tabiiy va laboratoriya ) metodi.

## 8.5. Professiografiya metodi

Mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini tahlili olingan sifat va miqdor ko'rsatkichlarini har tomonlama o'rganish hamda sistemalashtirishga asoslanadi. *Professiografiya* deb, mehnat subyekting faoliyat tarkiblari (uning mazmuni, vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o'zaro munosabati va bog'liqligini o'rganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metodga aytiladi. Faoliyatni o'rganish natijasida *professiogramma*, ya'ni kasbning turli ob'ektiv xarakteristikalarining tasnifi va *psixogramma*, ya'ni faoliyatning psixologik xarakteristikalari tasnifi tuziladi.

*Professiogramma ushbu tamoyillarga ko'ra tuziladi:*

- 1) ma'lum faoliyatning aniq, o'ziga xos tasnifi;
- 2) kompleks o'rganilganlik;
- 3) o'rganish dinamikasi (rivojlanish sharti bilan, faoliyat o'zgarishi);
- 4) sistemalilik (faoliyatning alohida xarakteristikalarini o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri);
- 5) qabulning o'xshashligi (kasblarni aniq taqqoslash uchun);
- 6) miqdoriy va sifatiy metodlarni qo'llash.

*Professiogramma ushbu xarakteristikalaridan tashkil topadi:*

- 1) kasbga oid umumiy ma'lumotlar (tarkib, tayinlash, xodimlarning majburiyatlari, mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari);
- 2) faoliyat mazmuni (asosiy vazifalar tahlili, ma'lumotlar oqiminin o'ziga xosligi, xatolar tahlili);
- 3) faoliyat vositalari (ma'lumotlarni ko'rsatish, ularni joylashtirish, obzor);
- 4) mehnat sharoitlari (sanitar-gigiyenik, ijtimoiy-psixologik, estetik);
- 5) faoliyatni tashkillashtirish (ish yuklamasining ko'rinishi va hajmi, ish va dam olish rejimi);
- 6) faoliyat subyekti (funktional holatlar, kommunikativ sifatlar, vazifalarga taalluqlilik).

Faoliyat psixogrammasi mehnat egasining kognitiv, emosional-irodaviy, motivasion, individual-psixologik va boshqa kasbiy muhim bo'lgan sifatlarga qo'yiladigan talablar hamda xarakteristikalaridan iborat bo'lishi kerak.

## 8.6. Kasblar klassifikatsiyasi

Kasblar klassifikatsiyasiga oid lug'atlar ko'riladigan bo'lsa, u holda 7000 dan 35000 gacha kasblar mavjud ekanligi kuzatiladi. Psixologiyada ilmiy-amaliy vazifalarni echish uchun bu kasblarni sistematsiyalash, ularni qandaydir kasbiy va psixologik belgilarga ko'ra taqsimlash va qiyoslash kerak bo'ladi.

I.A. Klimov tomonidan „kasblarning to'rt xil daraja“si taklif etilgan. Unga ko'ra, birinchi darajaga ob'ekt tizimini inobatga olib, besh xil toifadagi kasblar kiritilgan:

- 1) odam-tabiati (O-Ta) — agronom, mikrobiolog, ...;
- 2) odam-texnika (O-Te) — mexanik, operator, payvandchi,
- 3) odam-odam (O-O) — vrach, o'qituvchi, sotuvchi, ...;
- 4) odam-belgilar sistemasi (O-Bs) — matematik, redaktor, ...;
- 5) odam-badiiy obraz (O-Bo) — dirijyor, musavvir, artist,

Ikkinchi darajada mehnat maqsadiga ko'ra uchta toifa keltirilgan:

1) Gnostik (yunoncha, bilim) kasblar: degustator (O-Ta), nazoratchi (O-Te), sosiolog (O-O), korrektor (O-Bs), san'atshunos (O-Bo).

2) O'zgartiruvchi kasblar: cho'pon (O-Ta), payvandlovchi (O-Te), o'qituvchi (O-O), buxgalter (O-Bs), gul bezovchi (O-Bo).

3) Alohida kasblar: kuzatuvchi-uchuvchi (O-Ta), injener-konstruktor (O-Te), tarbiyachi (O-O), programmist (O-Bs), kompozitor (O-Bo).

Uchinchi darajada avvalgi darajadagi har bir kasb to'rtta alohidaga bo'linadi, bo'linishda esa mehnat qurollari asos etib olinadi:

1) Qo'l mehnatiga asoslangan kasblar — payvandlov ishlari nazoratchisi, ximiyaviy tahlil laboranti, veterinar, payvandchi;

2) Mashina va qo'l mehnati kasblari — tokar, avtomobil haydovchisi, ekskavator mashinisti;

3) Avtomatik sistemalarni qo'llaydigan kasblar — programmali boshqaruv stanogi operatori, aviadispatcher, el.tarmoqlari smenli operatori;

4) Mehnatda funksional vositalarga ko'ra kasblar-aktyorlar, akrobatlar.

To'rtinchi darajada mehnat sharoitiga ko'ra har bir guruhning o'ziga xos quyidagi belgilari ko'rinadi:

1) Normal sharoitda ishlaydiganlar - laborantlar, buxgalterlar;

2) Ochiq havoda ishlaydiganlar-agronom, montajchi, DAN xodimi;

3) Alohida noqulay sharoitda ishlaydiganlar — g‘avvoslar, shax-tachilar, o‘t o‘chiruvchilar;

4) Ish sharoiti o‘ta mas’uliyatli bo‘lganlar — bolalar bog‘chasi tarbiyachisi, o‘qituvchi, tergovchi.

Mazkur klassifikasiya tufayli kasblarning umumiy sxemasi ko‘rinadi. Bu, o‘z navbatida, ko‘p kasblar turli xarakteristikalariga xos ravishda bo‘linishini bildiradi.

## 8.7. Mehnat egasining shakllanishi

„Mehnat egasi“, ya’ni mehnat subyekti tushunchasi psixolo-giyaning fundamental kategoriyasi bo‘lib, u insonning anglab, maqsadli, faol harakat qilishini bildiradi. Mehnat egasi sifatida aniq bir inson (individ)gina emas, balki ijtimoiy guruh, ya’ni mehnat jamoasi ham olinishi mumkin. Shunday qilib, mehnat subyekti, egasi — bu faol harakat qiluvchi, anglash va o‘zgartirishga layoqatli, ong va iroda bilan ish olib boruvchi individ yoki ijtimoiy guruhdir.

*Mehnat egasi bo‘lish uchun ushbu talablar amalga oshishi zarur:*

1) qobiliyatlarning va boshqa kasbiy muhim sifatlarning yuqori darajasiga erishish;

2) mehnatdan qoniqish;

3) mehnat ob’ektini to‘g‘ri tushunish va aks ettirish;

4) o‘zini boshqara olish tizimini rivojlantirish;

5) faoliyatning umum qabul qilingan usullarini o‘zlashtirish;

6) o‘zini-o‘zi baholay olish malakalarini rivojlantirish, o‘zini ro‘yobga chiqara olish va hurmat qila olish.

Kasbiy mahorat sohibi bo‘lish uchun ikkita asosiy jihat: mehnat egasining professionalizasiyasi va professionallik mahorati masalasi muhim bo‘ladi. Professionalizasiya — bu mehnat kishisining (psixologik, fiziologik, xulq-atvor va ishga bog‘liq) xarakterologik xususiyatlarini ish jarayonida shakllanishiga aytiladi. Bunda, albatta, bu xususiyatlar uning mehnat kishisi sifatida shakllanishiga, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishiga imkon berishi ko‘zda tutiladi. Professional deganda, biz mehnat kishisining mehnat faoliyatida unga qo‘yilgan vazifalarni yuqori darajada bajarish darajasiga erishgan holatini tushunamiz.

*Mehnat subyektining professionalizasiyasini ushbu to‘rt yo‘nalishda ko‘rish kerak:*

1) Uning ijtimoiylashuvi jarayoni sifatida. Bunda shaxs tomonidan ijtimoiy normalarning o‘zlashtirilishi, ijtimoiy tajribaga ega bo‘lish, qiziqish, qadriyatlar, ijtimoiy rollar, jamoat ishlari, ijtimoiy muhitga kirish va moslashish amalga oshadi.

2) Shaxs rivojlanishi jarayoni sifatida. Bunda mehnat egasining faolligi, mehnatidagi samara va yutuqlarning miqdor va sifat ko'rsatkichlari, kasbiy qobiliyatlarning shakllanishi, mehnat motivlarining mehnat talablariga ko'ra amalga oshishi ko'zda tutiladi.

3) Shaxsning kasbiy o'z-o'zini ko'rsata olishi, o'zini baholashi, o'zini nazorat qila olishi tushuniladi. Bu mehnat egasining turli yosh davrlarida, faoliyatining turli bosqichlarida, jamiyatning unga qo'yadigan talablarida namoyon bo'ldi. Bu, o'z navbatida, mehnat biografiyasi, ijod yo'li, kasbiy rivojlanish davrlari sifatida ham e'tirof etiladi.

4) Shaxsning faollik ko'rinishi sifatida. Bunda shaxsning faoliyat bilan birgalikda o'sishi, dinamik rivojlanishi tushuniladi.


Professionalizasiya faollik ko'rinishi sifatida o'z tizimiga ega. Bu tizimga professionalizasiya motivlari, maqsadlari, jarayonni amalga oshirish dasturiga oid tasavvurlari, mehnat faoliyatining informasion asoslari, qarorlar qabul qilish bosqichlari, qabul qilingan qarorlarni tekshirish bo'yicha nazorat operatsiyalarini amalga oshirish kiradi. Demak, professionalizasiya bu jamiyat va shaxsning vazifasi bo'lib, bu jarayonning samarasi va mahsuldorligi mehnat kishisining ijtimoiy va shaxsiy ko'rsatkichlari bo'yicha faoliyatini baholash va rivojlanishini kuzatish sifatida qaralar ekan.

## **8.8. Shaxsning mehnat faoliyati va mehnat turlari**

Shaxs mehnat faoliyatini tushuntirishda beshta tushuncha muhim hisoblanadi.

Mehnat faoliyati bir tomondan odamning ehtiyojlari, ichki motivatsiyasi mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan, aynan u shu mehnatni amalga oshiruvchi, hamda uning mahsullarini o'zlashtiruvchi ham aynan uning o'zidir. Shuning uchun ham shaxsning ushbu tizimdagi asl mohiyatini bilishi, uning faolligini ta'minlovchi shart-sharoitlarni yarata olish va mehnati mahsulini bashorat qilish faoliyat samarasining bosh omili hisoblanadi.

Odamning mehnatga munosabati masalasi, mehnatining shaxs uchun muhim qadriyatga aylanishi, mehnat motivatsiyasi masalasi psixologiya uchun dolzarb va ahamiyatlidir. Bu masala yana shuning uchun ham dolzarbki, O'zbekiston mustaqil bo'lib, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishi sharoitida odamni ijtimoiy qadriyat hisoblanmish mehnatga ongli munosabati va qadriyatlar iyerarxiyasida ijtimoiy faollik va mehnatning o'rnini aniq bilish asosiy hisoblanadi.



**19-rasm.** Shaxs mehnat faoliyatini tushuntirishning muhim beshta omili

Shunday qilib, yuqorida sanab o‘tilgan omillar mehnatning subyekti bo‘lmish shaxsni ishga undovchi va mehnat operasialarini muvaffaqiyatli bajarishga psixologik jihatdan hozirlovchi psixologik shart-sharoitlardir. Ular kompleks tarzda odamni mehnat faoliyatiga safarbar qiladi va mehnatga munosabati xarakterini belgilaydi.

Ma'lumki, tevarak-atrofimizni qamrab olgan olamdagi iqtisodiy ob'ektlar, jarayonlar, munosabatlarning rivojlanishi va o'zgarib borishi iqtisodiyot va psixologiya fanlari o'rtasidagi bog'lanishni tobora oydinlashib borishiga xizmat qilmoqda. Bunday bog'lanishlarni, ularning ilmiy tadqiqotlari ko'lamining kengayib borayotganligidan ham kuzatish mumkin.

Bir tomondan, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy va psixologik fanlarning nafaqat yaqinlashuvi, balki qo'shilishi, bir-birining mohiyatiga kirib borishi sodir bo'lmoqda.

Ikkinchi tomondan — individual, guruhli va jamoaviy psixologiyaning xo'jalik jarayonlariga, iqtisodiy amaliyotga hamda sohadagi boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga ta'siri keskin kuchayishi kuzatilmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarning shakllanish darajasiga e'tibor berib qarasaq, psixologiya borgan sari ko'proq iqtisodiyotga kirib borayotganligi, to'ldirayotganligi, yo'naltirayotganligi hamda uning katta-kichik ko'lamdagi voqeliklarning tub negiziga aylanib borayotganligi sezilmoqda. Afsuski, bu holat iqtisodchilarning ham, psixologlarning ham ilmiy tadqiqotlari predmeti sifatida izlanishlar ko'lamini kam miqyosda qamrab olmoqda. Insonning iste'molchi va iqtisodiy foyda izlovchilar sifatidagi xulqida kuzatiladigan psixologik xususiyatlar Adam Smit va Alfred Marshallardan boshlab to Jon Keynsgacha bo'lgan „iqtisodiy nazariya“ning klassik namoyondalari asarlarida aks etgan bo'lsa-da, iqtisodiyot fani hozirgacha psixologiya bilan yonma-yon turib, uning ichiga kirishmagan. Psixologiya fani esa, o'zining ong va psixika xususidagi ilmiy asoslangan qarashlarini saqlagan holda, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash,



almashish, iste'mol qilish, shuningdek, boshqaruvni tashkil etish jarayonidagi iqtisodiy xulqni o'rganishga kirishgan.

*Mehnat turlarining klassifikatsiyasi.* Jamiyatning har bir rivojlanish bosqichida, uning ijtimoiy-iqtisodiy darajasiga ko'ra, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq xolda yangi mehnat faoliyati turlarining paydo bo'lishi, eskilarining yo'qolishi kuzatiladi. Bu jarayon mehnat subyekting xarakteristikasi va faoliyat komponentlarida namoyon bo'ladi. Masalan, inson resurslarining soni, ularning dunyoqarashi, ma'lumot saviyasi, darajasi, mehnat vazifalarining mazmuni, ish yuklamasining turi, mehnat vositalarining o'zgarishi, ishni tashkil etish va sharoitlarning xususiyatlari.

Mehnat faoliyatining turli xarakteristikalari uning turli klassifikasion ko'rsatkichlarga ko'ra tizimlashtirishga olib keladi. Bunga misol sifatida bunday tasnifning bir ko'rinishini keltirish mumkin.

1) Mehnat egasining ish yuklamasi xususiyati va mehnat vazifalarini bajarishiga ko'ra: jismoniy va aqliy mehnat.

2) Mehnat vazifalarining xarakteristikasi, ish ko'lami, mehnat jarayonining tashkil etilishiga ko'ra aqliy mehnat ushbu turlarga bo'linadi:

Operativ (boshqaruvchi);

Operatorli (texnika bilan informasion bog'lanishli);

Ijodiy (an'anaviy — dars berish, davolash; noan'anaviy — ilmiy ish, adabiy, musiqiy asarlarni yozish);

Evristik (kashfiyot);

Dinamik va statik;

Bir xil (monoton) va har xil (mazmuni, tempiga ko'ra).

3) Mehnat sharoitlarining xususiyatlariga ko'ra qulay sharoitli (mehnat sharoitlarida gigiyenik talablar norma darajasida bo'lishi), noxush va noqulay ish sharoitlari (bosimning ko'tarilishi — g'avvoslarning ishi, past harorat — qutbda ishlaydiganlar, ma'lumotlar oqimining juda ko'p bo'lishi — dispetcherlik xizmati).

4) Faoliyat tashkil etish shakliga ko'ra:

Reglamentli (ma'lum kun tartibi bilan);

Reglamentlanmagan (erkin kun tartibi bilan);

Aralash (smenali, vaxta);

Individual va jamoaviy (hamkorlikdagi).

Hamkorlikdagi faoliyat bu umumiy motivlar va faoliyat maqsadi asosida mehnat egalarining olib boradigan ish faoliyatlari hisoblanadi. Hamkorlikdagi faoliyat psixologik tizimida ushbu tarkibiy jihatlar: umumiy maqsad, aniq vazifalar, umumiy motiv, hamkorlikdagi harakat va umumiy natija bo'ladi. Hamkorlikdagi faoliyatning umumiy belgilari va uning subyekti o'zaro bog'liqdir.

## Asosiy tushuncha va atamalar

Mehnat psixologiyasi; mehnat; kasb; mehnat subyekti; professiografiya; professiogramma; psixogramma; mutaxassislik; ish jarayonini kuzatish; xronometraj; biografik metod; professionalizasiya; iqtisodiy psixologiya, mutaxassislik.

### Rezyume

Xulosa qilib aytganda psixologiya va mehnat orasidagi o'zaro bog'liqlik, avvalo, mehnat faoliyati psixologiyasining asosiy vazifalari tahlilida namoyon bo'ladi. Mehnat, kasb, mutaxassislik esa, tom ma'noda mehnatning psixologik mazmunini belgilab beradi. Qator mehnat faoliyatini o'rganish metodlari orqali, jumladan, professiografiya usuli yordamida shaxsning professiogrammasini tuzish mumkin. Shu bois, mehnat faoliyatining klassifikatsiyasiga tayanib fanda kasblar klassifikatsiyasini ajratish mumkin.



### *Bob yuzasidan savol va topshiriqlar*

1. Mehnat psixologiyasi va mehnat faoliyati psixologiyasi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Mehnat faoliyati psixologiyasining asosiy vazifalarini qanday boholaysiz?
3. Mehnat vazifalarining samarali amalga oshishi qanday omillarga bog'liq?
4. Mehnat faoliyatini tashkil etuvchi komponentlar tuzilmasi nimalardan iborat?
5. Mehnatning psixologik mazmuni deganda e'tibor nimalarga qaratiladi?
6. Mehnat faoliyatini o'rganuvchi qanday metodlar mavjud?
7. Professiografiya metodi shaxsdagi qanday xususiyatlarni aniqlaydi?
8. Professiogramma qanday tamoyillarga ko'ra tuziladi?
9. Mehnat egasining ish yuklamasi xususiyati va mehnat vazifalarini bajarishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
10. Kasblar klassifikatsiyasi tushunchasini qanday izohlaysiz?

## BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI ASOSLARI VA PEDAGOGIK JAMOALARNI BOSHQARISH

### *Bobning qisqacha mazmuni*

*Boshqaruv psixologiyasi fani haqida.* Boshqaruvda inson omili bosh tayanch sifatida, boshqaruv faoliyati va uning psixologik jihatlarini, rahbar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro shaxslararo munosabatlar psixologiyasi, rahbarning muhim shaxsiy-kasbiy sifatlarini, guruhlarda rahbarlik va liderlik. Boshqaruv uslublari haqida tushuncha

*O'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarish.* O'quvchilar guruhida o'zaro munosabatlarni boshqarish, ta'lim jarayonini boshqarishda guruhning va o'quvchilarning xususiyatlarini hisobga olish, pedagogik jamoalar faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari.

### 9.1. Boshqaruv psixologiyasi, boshqaruvda inson omili bosh tayanch sifatida

Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiborning ortib borishi munosabati bilan boshqarish psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo'limi — **boshqarish psixologiyasi** paydo bo'ldi. Boshqarish psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmog'iki, u boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

Boshqarish muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o'rganiladi, jumladan, falsafa, tarix iqtisod, xuquqshunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tomonlarini ochish bilan shug'ullanadi. Psixologiya boshqarishni ham ob'ekti, ham subyektini o'rganadi. Psixologik tadqiqotlarda o'rganiladigan olimlar jamoasi, alohida shaxs, ularning psixologik holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boshqaruv ob'ekti deb aytiladi. Boshqaruvning subyektini o'rganilganda esa, odatda, boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi.

Psixologiya ko'proq boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o'rganadi va shu asosda bo'ysunuvchilar ishlarinn samarali tashkil etish, aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun qanday psixologik holat va jarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator

muammolarni echadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshliq majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'zga chiquvchilarning fikrlari, ma'ruzalari va hokazolar orqali ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqariladi, qabul qilingan qarorlarga ko'ra, boshliqning va xodimlarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslahatlar beriladi.

Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko'ra, u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil, chunki kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga beriladi, kim uchundir unga berilajak huquqlarni afzal ko'rish xos, kimgadir yuksak mas'uliyatlarni bo'yinga olish ma'qul keladi. Shaxslarning boshliq funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo'lishi talab qilinadi.

Ayniqsa, boshliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar tug'diradi, chunki o'sha guruhlarni tashkil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi, boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr-qanoatning bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham kundalik hayotimizda, ham ilmiy adabiyotlarda tez-tez yonma-yon ishlatiladigan „lider“ va „boshliq“ tushunchalarining psixologik mazmunlarini bilish maqsadga muvofiqdir.

Boshqarishning umumiy nazariyasini kibernetika fani o'rganadi. Kibernetika (grekcha so'zidan olingan bo'lib, „kibernetike“ — korablni boshqarish san'ati demakdir). Boshqarishning obykti bu alohida shaxslar yoki guruhlar bo'lib, ularga maxsus tashkil etilgan, sistemali va rejalashtirilgan usullar orqali ta'sir etiladi.

Boshqarishda gorizontal va vertikal jihatlar mavjud. Masalan: gorizontal bu psixologik bilimlarni asos qilib olsa, vertikal esa yuridik hujjatlarga asoslangan bo'ladi. Boshqaruv — bevosita ijtimoiy psixo-

logiya bilan bog'liq bo'lib, eng avvalo, shaxsni boshqarish va shaxs orqali uning faoliyatini boshqarish demakdir. Boshqaruvning asosini ijtimoiy, huquqiy, psixologik va nazariy bilimlar tashkil etadi. Boshqaruvning nazariyasi va uning tizimi kibernetika fani bilan uzviy bog'liq. Boshqaruv nazariyasi o'ziga xos genezisga ega bo'lib, avvalo, ijtimoiy hayotiy tajribalarga suyanadi. Boshqarish — o'zi san'at, san'at esa — qobiliyatdir. Demak, shaxs doimo boshqarishga muhtojdir.

Boshqaruvda rahbarning doimo ob'ekti mavjud bo'lib, qonun, buyruq va ko'rsatmalarga asoslanib, o'z faoliyatini olib boradi. Faoliyat esa ko'p hollarda xabarlar yig'indisidan iboratdir. Boshqaruv nazariyasi qonun, bo'yruq va ko'rsatmalarga asoslangan bo'lsa, psixologik bilimlar esa boshqaruvning asosiy quroli va usuli hisoblanadi. Boshqaruv faoliyatida rahbar o'zining ijtimoiy xatti-harakatini tartibga solib boradi. Boshqaruv faoliyatini o'ziga xosligi shundan iboratki, agar boshqaruv faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilmas ekan, har qanday qaror, ko'rsatmalar yo'lda pala-partish bo'lib ketishi barchaga ma'lum.

Nazariya qachon ijtimoiy hayotga tadbiq etiladi-ki, u qachonki hayotiy va aniq maqsadga qaratilgan bo'lsa. Boshqaruvda nazariya empirik hodisalarni tushuntirishga tadbiq qilish mumkin bo'lgan mavhum talqinlarni yaratishni taqozo qiladi. Boshqaruvga nazariy yondashuv — ularni empirik jihatdan tekshirish mumkin bo'lgan taqdirdagina o'rinlidir. Har qanday nazariya boshqaruvda nazariy savollar, dalillarni anglab idrok qilishga yordam beradi. Aslida rahbarlar empirik masalalar, muammolar bilan shug'ullanadilar, lekin o'rganilayotgan hodisalarning, muammolarning sababini nazariy jihatdan tahlil qilishmasa, o'ylagan natijalariga erisha olmaydilar.

Rahbar g'oya va nazariy fikrlarga e'tibor bermasliklari mumkin, biroq amaliyotda yuzaga keladigan muammolarning echimi asosida nazariya yotadi. Nazariya grekcha so'zdan olingan bo'lib, teoriya — tadqiqot ma'nosini anglatadi, boshqacharoq aytganda, fanni u yoki bu yo'nalishi bo'yicha g'oyalar tizimi degan mazmunda tushunishimiz mumkin. Nazariya — haqiqat me'zoni va rivojlanishning asosidir. „Boshqaruv — bu doimo ikki jarayonni o'z ichiga oladi, ya'ni nazariya va amaliyot“. Nazariya doimo amaliyot bilan ziddiyatda bo'lib boradi, chunki ba'zida nazariya amaliyotdan ilgarilab ketadi, ba'zi hollarda esa uning aksi bo'lishi mumkin. Nazariya ko'pincha amaliyotda yuzaga kelgan yangiliklarni takomillashtirishga bevosita yordam beradi.

Boshqaruv nazariyasi qachon yuzaga keldi degan savol tug'ilishi tabiiydir. Amaliy faoliyatda shaxs o'zining mehnatini samarali tashkil etishni xohlaydi, samarali tashkil etish esa, albatta mantiqiy fikrlashga

majbur etadi. Mantiqiy fikrlash boshqaruvning eng oliy darajasi va qurolidir shu sababdan jamiyatni, jamoani, taraqqiyotning barcha bosqichida, qobiliyatli, bilimli kishilar tomonidan boshqarish ehtiyoji mavjud bo'lgan. Boshqaruv nazariyasini takomillashtirib borish natijasida barcha sohani boshqarish usuli va mehnat metodologiyasi yuzaga keladi. Boshqaruv nazariyasida boshqaruv tizimi, bosqichi, muddati va javobgar shaxslar ko'rsatiladi.

Boshqaruvda nazariyaning samarasi ko'p jihatdan ushbu jarayonning asoslanganligiga bog'liqdir. Boshqaruv nazariyasi boshqaruvning asosi sifatida barcha rahbarlarga birdek taalluqli yoki har-bir rahbarga shablon shaklida ta'sir qilishi kerak bo'ladi degan fikrdan biz uzoqdamiz. Boshqaruv psixologiyasining nazariyasi va metodologiyasida maqsadga erishish uchun o'zaro uyg'unlik mavjuddir. Psixologiyada *boshqarish nazariyasining* quyidagi jihatlarini o'rganiladi:

- a) boshqarish faoliyatining nazariyasi;
- b) boshqarishda kasbiy faoliyatning psixologik tahlili;
- c) boshqarish tizimida guruhlarining faoliyati;
- d) boshqarish tizimida shaxslararo munosabatlar;
- e) boshqarish tizimida rahbarlik;
- f) boshqarishda psixologik ta'sir etish usullari va hokazo.

Boshqarishda huquqiy funktsiya tushunchasi mavjud bo'lib, bu — qo'l ostidagi shaxslarni, jamoani to'g'ri boshqarishda asosiy huquqiy usul hisoblanadi. Boshqarishda psixologik bilimlar esa yordamchi usul hisoblanadi. Boshqarish jarayonida vaqtdan samarali foydalanish bugungi kun talablaridan biridir. Vaqt — bu to'xtatib bo'lmaydigan jarayon hisoblanadi. Vaqtdan samarali foydalangan shaxsning ishida unum, baraka bo'ladi. Vaqtni boshqarish tushunchasi bu insonning o'zini o'zi boshqarishi bo'lib qolmasdan, balki jamoani, oilani boshqarish demakdir. Vaqtdan unumli foydalanish majlisbozlikdan, qog'ozbozlikdan va foydasiz ishlardan holi bo'lish demakdir.

## **9.2. Guruhlarda rahbarlik va liderlik**

Guruhlardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, guruh a'zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu borada „lider“ va „boshliq“ tushunchalari o'rtasidagi farqlar haqida gapirish lozim. B.D. Parigin bu ikki tushunchani farqlab shunday yozadi:

1) lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo'lgan hodisa bo'lsa, rahbarlikning haq-huquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin;

3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisadir;

4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yunalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi;

5) rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va rag'batlantirish tizimiga ega bo'lib, shu asosda o'z xodimlariga ta'sirini o'tkazishi mumkin;

6) lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo'nalishda ko'plab rasmiy ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketishi kiyin;

7) liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider hech qachon yolg'iz bo'lmaydi, u doimo guruh a'zolari orasida bo'ladi, u shu guruh a'zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarni hammadan ham yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir. Agar sinf doirasida olib qaraladigan bo'lsa, turli xil lider borligini aniqlash mumkin. Masalan, guruh a'zolari ichida eng bilag'oni, aql o'rgatuvchisi, topqiri, intellektual lideri, bolalar ichida eng hazilkashi, dilkashi, xushchaqchag'i, ko'ngil so'rovchisi, o'zgalarni tushuna oladigan — emosional lider, guruhni ish faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qat'iyatli, irodali-irodaviy liderlar bo'lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko'ra paydo bo'ladilar hamda bolalar ongida o'z sifatlariga ko'ra obro' qozonadilar. Lider sifatleri ichida yaxshi va yomonlari ham bo'lishi mumkin, lekin guruh liderga ergashganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko'rsatmalariga amal qiladi. Maktabda bolalar yoshida xulqi maktab normalariga to'g'ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma'lum guruh ichida so'zsiz obro'ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi. Masalan, lider

„ketdik“ deb ko‘rsatma bersa, unga ergashganlarning darsni ham tashlab keta olishi shu bilan tushuntiriladi.

Shuning uchun ham sinf rahbari o‘z sinfidagi rasmiy liderlar bilan ishlash bilan cheklanmaydi, balki norasmiy liderlarni ham aniqlay bilishi, ular bilan hamkorlikda ishlashi zarur. To‘g‘ri, ba‘zi hollarda rasmiy va norasmiy lider bir shaxs bo‘lishi ham mumkin. Bu juda qulay, lekin liderlik vaziyatga bog‘liq bo‘lgani uchun ham ularning o‘zgarib turishini hisobga oladigan bo‘lsak o‘qituvchining boshqarish mahorati yoki san‘ati uning norasmiy liderlar bilan samarali ishlash usulidir.

Shunday qilib, har qanday lider obro‘ga ega. Obro‘lilik shaxsning shunday xususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emosional, ham irodaviy ta‘sir ko‘rsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obro‘lilik ya‘ni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro‘ juda samaralidir. Odamlar ko‘ngliga yo‘l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ishonch va shunga o‘xshashlar obro‘ orttirish mezonlaridandir.

### 9.3. Liderlik va superliderlik

Amerikalik tadqiqotchi *Linda Djuell* o‘zining „Industrialno-organizatsionnaya psixologiya“ (2001 yil) kitobida ijtimoiy psixologik xodisalardan muhimi bo‘lmish **liderlik** masalasiga o‘zining o‘ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya‘ni mardlik va jasorat ko‘rsatish uchun ochiq maydonlar yo‘q bo‘lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini ochishga urinadi. Uning fikricha, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi, eng avvalo xodimlar rolini oshirib, liderlarnikini, aksincha, pastlashtirish, yoki aniqrog‘i, kamaytirish hisobiga ro‘y beradi. Shundagina rahbarlikda ortiqcha bo‘g‘inlarni kamaytirish mumkin. Liderning, ya‘ni amerikaliklar rahbari lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi, vazifasi - guruhning samarali faoliyat ko‘rsatish yo‘llarini belgilab berishdir.

Bu kitobda ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ahamiyatli bo‘lgan tushunchadan biri — „*superlider*“ tushunchasidir. Superlider kim va qachon oddiy lider superga aylanadi? Amerikalik tadqiqotchilar Mans va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider — bu „*superliderdir*“. Bu shunday shaxski, u o‘z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o‘zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bunday asosiy g‘oya shundan iboratki, agar odam eng *avvalo o‘zi uchun lider bo‘la olsa*, o‘zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga etkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqt-soat etib keladiki, jamoa o‘zi mustaqil



ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo'lmagan mexanizmga aylanadi. Bu — superliderlikdir.

Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi (pr.):

I — o'zi uchun lider bo'lish, ya'ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi rag'batlantirish, hayoliy repitisiyalar va kognitiv tahlillar orqali o'zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o'zida boshqalarga o'mak bo'luvchi sifatlar borligini anglash;

II — yuqorida qayd etilgan sifatlarning afzalliklarini o'zgalarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishonтира olish;


III — xodimlariga o'zlarida tashabbus va o'ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;

IV — mustaqil qobiliyat egalari bo'lgan xodimlarni rag'batlantirish, kerak bo'lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish;

V — o'z-o'zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga hadeb aralashaverishdan o'zini tiyish.

Demak, samarali boshqaruv — aslida ijtimoiy ta'sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko'rinishidir. Shu ma'noda, liderlik — avval shaxsning o'ziga, so'ngra o'zgalarga bera oladigan ta'sirida ko'rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta'riflanadi.

### RAHBARGA ZARUR BO'LGAN TO'RTTA „T“



### 9.4. Boshqaruv uslublari

Har bir lider yoki boshliq o'zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boshliq o'z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkil etishidadir.

Ijtimoiy psixologiyada boshqaruv sohasida batafsil o'rganilgan muammolardan biri — turli boshqaruv uslublaridir. Bu sohada nemis

olimlari G.Gibsh va M. Forverg, rus olimlari V.D. Parigin, L.N. Umanskiy, M.Yu. Jukov va boshqalarning ishlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda ijtimoiy psixologiyada qabul qilingan uch asosiy boshqarish uslublariga xarakteristika berib chiqamiz. Bu uch uslub:

- Avtoritar;
- Demokratik;
- Liberal ish uslublaridir.

### ***Avtoritar uslub***

Avtoritar rahbar barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq-ravshan, keskin ohangda xodimlarga etkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan do'q-po'pisa, keskin ta'qiqlash kabi qat'iy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri — nima yo'l bilan bo'lsa-da, o'z hukmini o'tkazish. Uning nutqi ham aniq va ravon, doimo jiddiy tusda bo'ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarni maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilish sof subyektiv bo'lib, bu narsa boshliqning kayfiyatiga va o'sha shaxslarga nisbatan shaxsiy munosabatiga bog'liq. Jamoa a'zolarining tilak-istaklari, ularning fikrlari va maslahatlari juda kam xollardagina inobatga olinadi, aksariyat hollarda bunday istaklar yoki ko'rsatmalar to'g'ridan-to'g'ri do'q-po'pisa, kamsitish yoki ma'naviy jazolash yo'li bilan cheklanadi yoki qoniqtirilmaydi. Bunday rahbar o'z ish uslublari, kelajak rejaları, biror aniq ishni, operatsiyani qanday amalga oshirmoqchiligini, odatda, jamoadan sir tutadi, uning fikricha, bu uning obro'yiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Guruhdagi ijtimoiy-fazoviy munosabatlardagi o'rni jihatidan, u „jamoadan chetda“, avtonomdir.

*Avtoritar rahbarda* har bir jamoa a'zolarining qobiliyatlari, ishga munosabatlari, mavqelariga ko'ra tutgan o'rinlari haqida tasavvurlar borki, shunga ko'ra u har bir xodimning ish harakatlarini maksimal tarzda dasturlashtirib qo'ygan, unda har qanday cheklashlar uning ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli uslublari mavjud. Ya'ni bunday jamoalarda hokimiyat— markazlashtirilgan, jamoa rahbari ushbu markazning yakka hokimi — shuning uchun ham bu erda „mening odamlarim“, „mening ishim“, „mening fikrim bo'yicha“ kabi iboralar tez-tez ishlatiladi. Bunday rahbarlarda ishga nisbatan shunday fidoiylik borki, ular o'zlarini shu ishsiz tasavvur qila olmaydilar, ya'ni ish uning „butun vujudini qamrab olgan“. Shu sabab bo'lsa kerak, bunday rahbar har bir odamni uning kundalik

ish faoliyatini, uning natijalarini juda yaxshi biladi. Lekin, aslida, uni ishning mazmunidan ko'ra, uning o'sha erdagi etakchilik roli, boshliqligi ko'proq qiziqtiradi va o'ziga o'sha sifatlarga qarab baho beradi. Bu sifat, tabiiyki, ishning sifatiga ham ta'sir qilgani uchun jamoa oldiga qo'yilgan barcha topshiriqlar bajarilmay qolmaydi („temir rahbar“). Bunday jamoalarda tanqid ishi juda sust, chunki u o'zini ham, boshqalarni ham tanqid qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Tanqid qilishga, uning fikricha, faqat boshliq haqli, yig'ilishlarda so'zni o'zi boshlab, tashabbusni oxirigacha boshqalarga bermaydi, odamlarning takliflari, ularning hissiyotlari e'tiborga olinmaydi.

G. Gibsh va M. Forverglarning tahlil qilishlaricha, avtoritar lider bosh bo'lgan jamoada ishlarining samaradorligi ancha yuqori bo'lib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lar ekan. Lekin jamoadagi ruhiy-ma'naviy muhit og'ir, tang bo'lib, bu narsa odamlarning jamoadan, ishdan qoniqmasliklariga olib keladi. Bunday rahbarlar boshchilik qilgan mehnat jamoalarida ishlaydigan odamlar o'z kasblari, ish joylarini osonlikcha almashtirishlari mumkin.

### ***Demokratik uslub***

*Demokratik rahbar*, aksincha, bo'ysunuvchilarga mustaqillik erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda taqsimlaydi. Bunda u xodimlarning shaxsiy moyilliklarini ham hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlar, odatda, taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha, do'stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, uning lavozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra ishiga baho berish doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Tanqid, ko'pincha taklif, istak shaklida qilingan ishlarining mazmuniga baho berish holida „aybdorga“ etkaziladi. Har bir yangi ish jamoa maslahatisiz boshlanmaydi. Shuning uchun ham uning fazoviy-ijtimoiy holati „jamoada ichida“.

Jamoada tanqid va o'z-o'zini tanqid shunday yo'lga qo'yilganki, uning oqibatidan hech kim aziyat chekmaydi. Chunki, ko'proq boshliq emas, balki jamoaning boshqa faollari — norasmiy liderlar tanqid qiladilar. Boshliq yo'l qo'yg'an xato-kamchiliklarni jamoatchilik oldida bo'yniga olishdan qo'rqmaydi. Chunki undagi mas'uliyat hissi nafaqat yuqori boshqaruv tashkilotlari a'zolari bilan muloqot paytida, balki, xodimlar bilan muloqotda ham sezilib turadi va qo'yilgan topshiriq yuzasidan mas'uliyatni boshqalarga ham bo'lib berishni yaxshi ko'radi. Boshliqning xodimlaridan siri yo'q, shuning uchun ham majlislarda

ko'proq u emas, balki barcha xodimlar gapiradilar, oxirgi qaror chiqarish va so'zlarni yakunlash, umumlashtirish huquqidan u to'liq foydalanadi.

Gibsh va Forverglarning tahlillariga ko'ra, bunday boshliq rahbarlik qilgan jamoalarda ma'naviy-ruhiy muhit juda yaxshi, ishchilar jamoadan, ishdan qoniqish hosil qilganlar, ishdan ketish hollari kam bo'ladi, lekin ishlab chiqarish zo'rg'a norma holatida bo'lar ekan.

### ***Liberal uslub***

*Liberal* (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda taqiqlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga ko'pincha ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo'q boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, go'yoki boshqa „koinotda“ yurganga o'xshaydi. Aniq ko'rsatmalar bermaydi, uning o'rniga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo'lgan topshiriqlar bajaruvchilarga yetkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xom-ashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashish va hokazolardan iborat.

Xodimlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri kelganda, u doimo xushmuomala bo'lib, odob, axloq normalarini buzmaslikka harakat qiladi, lekin hech qachon ular bilan tortishmaydi. Majlislarda agar biror muammo munozarani keltirib chiqarsa, u bevosita jarayonga aralashmay, oxirgi so'zni o'ziga qoldiradi. Shunday qilib, xodimlarga fikrlash va xatti-harakatlar erkinligi berib qo'yilgan, bular yuzasidan boshliqning fikri so'ralgan taqdirda ham, undan aniq gap chiqmaydi, chunki u xodimlarni yaxshi bilmaydi, qolaversa, ularni xafa qilib qo'yishdan qo'rqadi. Uning fazoviy-psixologik holati „guruh tashqarisida“.

Olimlar fikricha, bunday rahbar ishni olib borgan jamoalarda barcha ko'rsatkichlar doimo orqada, qo'nim ham yo'q. Liberal rahbar ishda o'zboshimchalikka yo'l qo'yib, ko'p turmay, boshqa erdan ish qidirishga harakat qiladi.

Yuqorida baho berilgan boshqarish uslublari ko'proq liderlikka emas, balki rahbarlikka taalluqli, lekin ilmiy adabiyotlarda bu ikkala ibora, ko'pincha sinonimday ishlatiladi. Aslida, eng yaxshi rahbar o'zida barcha liderlik sifatlarini ham mujassamlashtirgan bo'ladi. Chunki sof ijtimoiy psixologik ma'nodagi liderning turlari turli sharoitlarda o'zida ko'proq namoyon etadigan shaxsiy sifatlariga ko'ra tabaqalanadi.

Masalan, lider-tashkilotchi, lider-tashabbuskor, lider-erudit, jamoa hissiy-emosional holatni boshqaruvchi lider, lider-bilag'on va hokazo. Yaxshi rahbar ana shu lider sifatlarini bilgan holda, ularni o'zida tarbiyalashi va jamoasidagi liderlar bilan hamkorlikda ishlay olishi kerak. Oxirgi yillarda Moskva va boshqa yirik ilmiy markazlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, aslida hayotda sof demokrat yoki sof avtoritar rahbarni uchratish qiyin, lekin uchragan paytda ham ular bir jamoani uzoq muddat boshqara olmasligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham ular vaziyatga bog'liq, konkret jamoa, unda qabul qilingan hatti-harakat normalari, shaxslararo munosabatlar tipi liderning ham, rahbarning ham ish taktikasi va uslubini belgilaydi, degan g'oya qabul qilinmoqda. Lekin bu rahbarlik uslublarining psixologik mazmun va mohiyatini bilishning amaliy ahamiyati shundaki, har bir uslubda o'ziga xos ijobiy tomon bor, mohir rahbar o'zini-o'zi tarbiyalar ekan, o'shalarining eng ma'quli, ayniqsa, o'zi rahbarlik qilayotgan jamoaga moslarini tarbiyalashi maqsadga muvofiqdir.

### ***Rahbarlik sifatleri***

Yuqorida aytib o'tilganidek, rahbarda tug'ma qobiliyat bo'ladi, deb ham aytib bo'lmaydi, ikkinchi tomondan, rahbar vaziyatga qarab stixiyali tarzda tarbiyalanib ketaveradi, deb ham bo'lmaydi. Minglab shaxs sifatleri ichida ko'plari rahbarlik uchun qulay va ma'quldir. A.V. Petrovskiy ana shunday ijobiy sifatlardan bir yarim mingini sanab chiqqan. Lekin ularning barchasini umumlashtiradigan, albatta, bo'lishi lozim bo'lgan ayrim sifat, qobiliyatlar borki, ular haqida qisqacha to'xtalib o'tmoq lozim.

Avvalo, har qanday rahbarda intellekt — aql-zakovatning ma'lum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir, chunki, geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash xodimlar uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlantirishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyot va hayot ko'rsatdi. Rahbardagi o'rtadan yuqori intellektni qoplab ketadigan yana boshqa muhim sifatlar borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik, tashabbuskorlik sifatleri. Chunki, ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar original fikrlar aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur. Chunki, mustaqillik shaxs qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

Rahbarda mustaqillik bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi, bu esa o'z navbatida rahbardagi subyektiv talablar darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha, rahbarning boshqalarga talabchanligi haqida gapiriladi, lekin yaxshi rahbar avvalo, o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. O'z-o'zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

Har qanday rahbar uchun universal, kerak bo'lgan hislatlardan yana biri tom ma'noda, „ziyoli“ bo'lish yoki, boshqacha qilib aytganda, madaniyatli bo'lishdir. Boshliq o'zidagi madaniyatni, avvalo, muomalada, odamlar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda namoyon etmog'i lozim. Muomala madaniyati — bu o'rinli, aniq, qisqa, samimiy gapirish san'ati va ikkinchi tomondan, suhbatdoshni tinglash qobiliyatidir. Chunki, boshliq bilan xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlarning asosida yo tinglay olmaslik yoki gapni to'g'ri yo'sinda gapira olmaslik yotadi. O'zgarining o'miga tura olish, uning hiskechinmalariga sherik bo'lish, empatiya hissining borligi, dialoglarda sabr-toqatlilik va boshqalar muloqot madaniyatining muhim tomonlaridir.

Jamoa faoliyatini va o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati rahbar uchun muhim bo'lgan talablardan biridir. Chunki rejalashtirish asosida o'z-o'zini boshqara olish va boshqalarni tashqi faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda boshqara olishni ta'minlovchi muhim psixologik xususiyat yotadi.

Rejalashtirish — bu o'ziga xos kelajakni ko'ra olish qobiliyati, kelajak obrazi bo'lib, bu narsa shaxsning qanchalik kamol topganligi va maqsadga intiluvchanligining muhim belgisidir. Bu juda murakkab psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning o'z diqqatini qanchalik oqilona tarzda boshqarishi, uni faqat muhim narsalarga qarata olishi, vaqtdan tez foydalana olish, ortiqcha ishlardan o'zini tiyish, qo'l ostidagilarga, imkoni boricha, ularning qobiliyatlariga qarab ish buyura olish va nihoyat, buyurgan ishni o'z vaqtida nazorat qilib, so'rab olish imkoniyati bilan bog'liq. O'z ishini puxta rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan rahbar realistik tafakkurga ega bo'lmog'i, ya'ni har qanday sharoitlarda ham o'sha muammo yoki ishga taalluqli barcha alternativ variantlardan eng to'g'risi va maqsadga muvofiqini tanlay oladigan, ishni to'g'ri tashkil eta bilgan, ya'ni eng kam kuch va vaqt sarflab ishni uddalay olgan, noaniq yoki tasodifiy vaziyatlarda ham ish taktikasini to'g'ri yo'lga yo'naltira oladigan odam bo'lishi kerak Bundan tashqari, yaxshi rahbar uchun oldida turgan ishning har bir alohida detallarigacha tasavvur qilib, uni amalga oshirishning barcha bosqichlari va vositalarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati ham zarur. Shunday

taqdirdagina u ishga dadil kirishishi, o'zgalarni o'z ortidan ergashtirishi va ishlab chiqarishda yuksak ko'rsatkichlarga erishishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan rahbarlik sifatleri ichida eng muhimi, tabiiyki, psixologik mahoratni talab etgani — odamlar bilan ishlash mahoratidir. Jamoa a'zolari bilan samarali ishlash uchun esa boshliq ularning psixologiyasini, har bir a'zo psixologiyasini va guruh psixologiyasini yaxshi bilishi zarur, chunki "o'zgalarni psixologiyasini bilish ular ustidan hukmronlikning yagona yo'lidir", — deb yozishgan edi ingliz olimlari. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada ham yaxshi vositasi — ijtimoiy psixologik trening uslubi borki, uning yordamida odamlar bilan ishlovchilar jamoani boshqarishning turli usullariga muvaffaqiyatli tarzda tayyorlanmoqdalar.

Rahbarning professional muhim sifatleri masalasi oxirgi yillarda mutaxassislar va amaliyotchilarni ko'proq qiziqtirmoqda. Bir guruh olimlar amerikalik hamda yaponiyalik rahbarlar faoliyatini o'rganib, ularga xos bo'lgan eng muhim sifatlerinng bloklarini ajratganlar. 1500 ta amerikalik menedjer va 41 ta yirik Yaponiya firmalari rahbarlarining sifatleri quyidagicha tabaqalandi:

*A. Konseptual qobiliyat va xulq-atvor standartleri:*

- dunyoqarashning kengligi, global yondashuv;
- uzoqni ko'ra bilish va egiluvchanlik;
- tashabbuskorlik va dadillik, tavakkalchilikka moyillik;
- muntazam o'z ustida ishlash va uzluksiz o'qish.

*B. Shaxsiy sifatler:*

- maqsad va yo'nalishlarni aniq belgilash;
- o'zgalarni fikrini tinglash qobiliyati;
- xolislik, samimiyat va bag'rikenglik;
- adolatli qarorlar chiqarish orqali xodimlarni joy-joyiga qo'yish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish;
- shaxsiy yoqimtoylik;
- jamoa tashkil etish va unda uyg'un muhitni ushlab tura olish qobiliyati.

*C. Salomatlik*

Lekin barcha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, amerikalik rahbarlar ko'proq xodimlarning *shaxsiy-individual tashabbuslar* ko'rsatishlariga imkon beruvchi muhitning bo'lishi tarafdorlari bo'lsalar, yaponiyaliklar xodimlarning *hamkorlikdagi faoliyatleri* samarasini oshiruvchi sharoitlarni yaratishga e'tibor beradilar.

Shuning uchun ham rahbarlik sifatleri xaqida gap ketganda, shaxsning bir qator bilimdonlikleri nazarda tutiladi.

1. *Professional bilimdonlik* — o‘zi boshqarayotgan soha faoliyatini mukammal yo‘lga quyish uchun o‘sha faoliyat borasida to‘la ma‘lumotlar, bilim va malakalarga ega bo‘lishlikdir.

2. *Uslubiy bilimdonlik* — bilgan narsalari, shaxsiy malaka va ko‘nikmalari, turli loyihalar xususidagi ma‘lumotlar, topshiriqlarni tez, to‘g‘ri va tushunarli tarzda xodimlarga etkaza olish qobiliyati.

3. *Ijtimoiy psixologik bilimdonlik* — odamlar bilan ishlash, ular bilan til topisha olish, jamoani uyushtira olish, uni yaxshi ishlashga safarbar qila olish, o‘zidagi liderlik sifatlarini to‘la namoyon eta bilish qobiliyati. Bu tushuncha ko‘pincha „*kommunikativ bilimdonlik*“ tushunchasi bilan sinonim sifatida ham ishlatiladi.

50-chi yillardan boshlab o‘tkazilgan tadqiqotlarda har qanday faoliyatda ham muvaffaqiyatni ta‘minlovchi sifatlarning yuzlab xillari aniqlandi. Lekin ularni umumlashtirilganda, 5% sifatlargina barcha tadqiqotlarda muhim, deb e‘tirof etildi. Ularning orasida eng ko‘p marta takrorlanganlari: a) *intellekt (odamning murakkab va mavhum muammolarni echa olish qobiliyati, u o‘ta yuqori bo‘lmasligi, aksincha, o‘rtachadan yuqori bo‘lishi kerakligi e‘tirof etildi); b) tashabbuskorlik (yangicha ishlash va harakatlarga ehtiyojni anglash qobiliyati va shunga mos motivlar) kiradi.*

## **9.5. Rahbar va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro shaxslararo munosabatlar psixologiyasi**

Boshqaruv nazariyasi va metodologiyasida rahbarning muomalasi eng asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Muomalaning eng muhim tarkibiy qismi — muloqotdir. Boshqaruv jarayonida muomala o‘z ichiga hamkorlik faoliyatini asos qilib oladi. Bu jarayonda til va nutq asosiy qurol hisoblanadi. Rahbar bilan qo‘l ostidagi shaxs yuridik jihatdan to‘g‘ri rasmiy muloqot qilsagina, faoliyatda samara bo‘lishi mumkin. Rasmiy muloqot jarayonida rahbar etakchi subyekt hisoblanadi, shuning uchun ham rahbarning axloqiy sifatlariga va qo‘l ostidagi shaxslar bilan bo‘ladigan muomalasiga katta talablar qo‘yiladi. Rahbar boshqaruvda barcha tabaqadagi shaxslar bilan munosabat o‘rnatadi. Muomala jarayonida ikkala subyekt ham umuminsoniy va milliy axloq normalarini o‘zlashtirib boradi. Xodim muomala odobini asosan rahbar timsolida anglab oladi. Rahbarning muomalasi ham bugungi kunda psixologik-pedagogik adabiyotlarda qayd etilganidek, *rasmiy* -norasmiy muloqotga bo‘linadi.

Rahbarning *rasmiy muloqoti* — mavjud qonunlar va direktiv hujjatlarga asoslanadi. Norasmiy muloqot esa kasbiy pedagogika va



etikaning qonuniyatlariga asoslanadi hamda bu jarayon rahbarning oilaviy tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Agar rahbar jamoada sog‘lom aqliy-ruhiy muhit tashkil qila olsa, rahbarning talab va buyruqlari bajari-libgina qolmasdan, har bir jamoa a‘zosining e‘tiqodiga, odatiga ay-lanadi, bu esa rahbarda boshqaruv hissini to‘la shakllanishiga bevosita yordam beradi. Rahbar qo‘l ostidagi shaxslar bilan o‘zaro munosabatda va xatti-harakatida noqonuniylikka yo‘l qo‘ysa, xodimlarda e‘tiroz va tanbeh yuzaga kelib, ular o‘rtasida muhokamaga asos yaratiladi.

Rahbar muomala vaqtida odob va odoblilik qoidalariga amal qilsa, suhbatdoshni buyruq, ko‘rsatmalarni qabul qilayotganini fahmlab turadi. Rahbarning boshqarish jarayonida ba‘zi bir o‘ylamay bildirgan fikrlari, ortiqcha xatti-harakatlari, imo-ishoralari, uning obro‘sig-a putur etkazishi mumkin. Rahbarning muomalasi pedagogik ahamiyatga ega bo‘lishi kerak, chunki uning qo‘l ostida endi yangi ishga kelgan tajribasiz xodimlar, tajribali xodimlar va yoshi ulug‘ odamlar bo‘lishi mumkin.

Rahbarning jamoani boshqarishda jamoa a‘zolariga ta‘sir o‘tkazish samarasi (ijobiy ma‘noda) va xodimga qo‘ygan vazifani nazorat qilishi uning prinsipialligi talabchanligida o‘z aksini topadi. Boshqarish - bu quruq gap va so‘zlar majmuasidan iborat bo‘lib qolishi kerak emas. Boshqarishda har bir so‘zni o‘ylab gapirish, boshqa hamkasblarning so‘zi, fikri, mulohazalarini eshita bilish ham jamoada o‘zaro mu-nosobatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Rahbar tomonidan ko‘rsatma va farmoyishlarni ko‘paytirib yuborishi ularni oddiy qog‘ozda qolib o‘z kuchini yo‘qotishga olib keladi. Rahbar doimo qonunlarning ijrosini to‘la tarafdori bo‘lishi bilan birga o‘ziga xos psixolog bo‘lishi ham talab etiladi.

Demak, rahbar ham qonun ijrosini ta‘minlovchi va uni nazoratini amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi. Agarda xodimlar sof dil, pok bo‘lganlarida rahbarning bunday qonun ijrosini nazorat qilishiga, vaqti kelganda qattiqqo‘l bo‘lishiga zarurat ham bo‘lmas edi. Lekin xodimlar turli oilada, muhitda tarbiyalanganligi uchun ular orasida beoqibat, beburt va bemaslaklar etarli darajadadir. „Agar yaxshilik qilsang ular sen tomonda, hamma narsa seniki, deb qasam ichadi, biroq xavf tug‘ilsa hech ikkilanmay sotqinlik qiladi“.

Boshqarishda rahbarning bosh vazifasi bu jamoani asrashdan iboratdir. Jamoani tanazzulga olib kelgan va uni barbod qilgan rahbarni jamoa kechirmaydi. Rahbar jamoani boshqarishda nafaqat nazariyachi bo‘lishi, balki amaliyotchi bo‘lishi ham talab etiladi. Rahbar jamoani ikki yo‘l bilan boshqarishi mumkin:

- birinchisi, rahbarni jamoa hurmat qiladi, sevadi va u tomonidan berilgan barcha topshiriqlarni bajarishadi;

- ikkinchisi, rahbardan qoʻrqqanidan uning buyruqlariga itoat etadi, shuning uchun sevgan rahbarimiz bizni qanday oʻziga itoat ettirsa, qoʻrqib hurmat qiladigan rahbar ham bizni shunday idora qiladi.


Baʼzi rahbarlar uchun burch yoki nomus barcha insoniy omillardan ustun turishi mumkin. Xalqni xalq, millatni millat sifatida yashashini taʼminlaydigan — bu rahbardir. Lekin rahbarni rahbar qiladigan — bu jamoadir. Jamoa bilan rahbar oʻrtasida bir-birini tushunish, qoʻllab quvvatlash yuzaga kelsa, jamoaning, rahbarning kasb-korida baraka boʻladi. Boshqaruvning nazariyasi va metodologiyasi haqida soʻz yuritar ekanmiz, boshqarish madaniyati, bu eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Boshqarish madaniyati oʻz ichiga huquqiy, axloqiy normalarni, milliy anʼanalarni, inson maʼnaviy boyligini u yoki bu darajada qamrab oladi.

Boshqarish madaniyati, rahbarning ichki madaniyati, dunyoqarashi, psixologiyasi va pedagogik bilimlar darajasi bilan oʻlchanadi. Boshqarish madaniyatida mehnat samaradorligi muhim hisoblanadi. Samaradorlikning yaqqol namoyon boʻlishi qiyin jarayon, chunki rahbarning ish faoliyatida ish vaqtini oʻzi tartibga solinmagan, yaʼni ertalab soat 08.00 da ish boshlansa, bu faoliyat kechki soat 22.00, 23.00 largacha davom etishi mumkin.

Boshqarish prinsipi bevosita obʼektivlik prinsipiga boʻysunadi. Bu prinsip bilim, hamkorlikni obʼektiv qonuniyatlarni hisobga oladi. Boshqarish bu doimo ikki tomonlama jarayon hisoblanib, unga engil-elpi qarab boʻlmaydi. Birinchi holatda boshqarishda xuddi muvaffaqiyatga erishayotgandek tuyiladi. Keyinchalik bu yengil-yelpining natijasi koʻzga koʻrinadi. Boshqarish jarayoni tut daraxtiga oʻxshash kerak, bodom daraxtiga emas. Chunki, bodom juda erta gullaydi hosilni juda kech beradi. Tut daraxti kech gullaydi-yu, ammo uning mevasini birinchi boʻlib eyishadi. Quyidagi chizmada rahbarlik faoliyatining diagnostik xususiyatlari berilmoqda.

Bizda D. Karnegining kitoblari asosida rahbarlar faoliyat yuritmoqchi boʻladilar. Bu, aslida, Sharq mamlakatlari xalqlariga koʻp ham toʻgʻri kelavermaydi. Chunki, Sharq xalqlarining boshqarish sanʼati oʻzgacha. Bizda demokratiyani anarxiyaga aylantirib yuborish hissi kuchlidir.

Deyl Karnegidan esa rahbarlik faoliyatiga ehtiyot boʻlib, kerakli maslahatlarni olishimiz lozim. Oʻzgalarning xatosini toʻgʻridan-toʻgʻri emas, balki yordamchi vositalar bilan koʻrsating.



1. Rahbar tub ma'noda realist bo'lishi, ya'ni uning barcha harakatlari korxonada manfaatlariga mos kelib, unga foyda keltirishini tasavvur qilishi lozim;

2. Rahbarning umuman odamlar haqida qanday tasavvurda ekanligi, ular to'g'risida nima deb o'ylashi, bu boradagi bilimlari juda muhim;

3. Har qanday narsani yo'l-yo'lakay, qiyinchiliksiz idrok qila olishi muhim qobiliyat ekanligi;

4. O'zgarishlar faoliyati va jamoani yaxlit tarzda boshqara olish hamda bajarayotgan ishni birgalikda hamma qatori amalga oshirishga tayyor bo'lishi lozim.

5. Jamoa va uning tashqarisidagi raqobatchi hamda hamkasblarning mavqei va ishlab chiqarish salohiyatini aniqlab, o'zi zarur xulosalarni chiqara olishi.

6. Har qanday toshpirilgan vazifani oxiriga etkazish va bundan malum bir qoniqish hissi hosil qilish uchun o'zidagi qobiliyat va kuch-quvvat zahirasiga ega bo'lishi shart. Buning uchun esa:

a) o'z kuchi, salohiyati va qobiliyatlarini eng asosiy maqsadga qaratish, irodani aynan shunga sarf qilish;

b) doimo tetik va sog'lom bo'lib, har doim ham ishga yaroqli ekanligini ko'rsata olish;

c) boshqa xodimlar ham bajara olishi mumkin bo'lgan maydatchuyda ishlarga qo'l urmay, ularning nazoratigagina e'tiborni qarata olish (delegirovaniye);

d) yon-atrofdagi boshqa tashkilot va korxonalaridagi boshqaruv uslublari haqida ham malumotga ega bo'lib, boshqaruvda ulardan ortda qolib ketmaslikka harakat qilish, korporasiya usulidan unumli foydalanish.

### 20-rasm. Rahbarlik faoliyati xususiyatlari

Yuqori darajadagi psixologik zo'riqish rahbarning psixikasida (salbiy) o'zgarishni yuzaga keltirishi tabiiydir. Undan tashqari rahbar tomonidan doimo qo'l ostidagi xodimning xatti-harakatiga, ishidagi

samara, ishga munosabati o'zgarganmi, yangi topshiriqqa munosabati qandayligi hisobga olinishi darkor hisoblanadi. Rahbar bir joyda ko'p yil ishlasa, uning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomoni yuzaga keladi.

Ijobiy tomonida rahbar jamoani, jamoa rahbarni biladi, lekin rahbarni yoqtirmaydigan xodimlar ham bo'lib, ular o'zlarining fikridan qaytmaydi faqat rahbardan kamchilik izlaydi.

Salbiy tomonida rahbar ko'p vaqt bir mansabda o'tirgandan keyin, o'zining faoliyatidagi kamchiliklarni ko'rmaydi, unga tanqid yoqmaydi va tanqidchilardan qutilishga harakat qiladi.

Rahbarning yoshi qancha katta bo'lsa yangilik tarafdori, demokratiyaga xayrixoh, o'z ishonchidagi shaxslarni mansablarga qo'yishga harakat qiladi, lekin anarxiya qilishga yo'l qo'ymaydi.

Rahbar tarbiyalash jarayonida xodimning individual xususiyatlarini hisobga oladi. Rahbar faoliyatini hech qachon ijrochi faoliyatidan ajralgan holda o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun rahbar uchun xodimning bilish jarayoni, xodimning yakka tartibdagi o'ziga xos xususiyati ham muhim hisoblanadi. Xodimning hujjat bilan ishlash qobiliyati, hujjatni tuzish, hujjatni to'liq rasmiylashtirish qobiliyati rahbar uchun muhim hisoblanadi.

Xodim buyruqlarning mazmuni, o'ziga kerakligini rahbarga to'g'ri etkazishi kerak bo'ladi. Undan tashqari, rahbar qo'l ostidagi shaxslarga hech qachon predmet sifatida qarashi kerak emas, chunki har bir xodimning o'ziga xos mavqei, oilasi va yoru do'stlari mavjud. Rahbar qabuliga kelgan xodimlarni eshita olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Eshita olish san'ati har bir rahbarga ham berilavergan emas. Eshita olish qobiliyati orqali rahbar muammoni hal qilishga ob'ektiv yondashishi mumkin. Xodimlarni va fuqarolarni qabul qilishdagi farq mavjud. Qabul qilishda shikoyatni, arizani yoki taklifni eshitibgina kifoyalanishi, yoki muammoni hal qilishga harakat qilishi, yoki masalani hal qilishini aytib o'tishi mumkin.

Rahbar o'z faoliyatini olib borishda texnik vositalardan ham foydalanadi. Masalan, telefon, selektor orqali, bunda ham ma'lum bir vaqt ketadi. Keyingi faoliyatga bir daqiqadan uch daqiqaga tanafus qilinsa, rahbar yana fikrini jamlash uchun 15 minutdan 30 minutgacha vaqt ketar ekan. Telefon orqali gaplashishning o'z etikasi mavjud.

Rahbarda boshqarish san'atini yuzaga chiqaradigan bu ijro intizomini amalga oshirishdir. Ijro intizomi bu — buyruq, ko'rsatma, farmoyishlarni xodim tomonidan qanday bajarayotganini, ijrosini kuzatishdan iboratdir. Rahbar ijro intizomini nazorat qilmas ekan,

uning rahbarlik faoliyatida samara bo'lmaydi. Samara, samaradorlik bevosita rahbar faoliyatini mezonini o'lchaydigan jarayon hisoblanadi. Inson omilini rahbar bilmas va qadrlamas ekan, demak, boshqarishda inson taqdiriga befarq bo'lishida ko'rinadi.

Jamoadagi bitta murakkab xarakterdagi xodim, jamoada shaxslararo munosabatlar va faoliyatni buzilishiga olib keladi. *Jamoada rahbar, eng avvalo, psixolog bo'lishi bilan bir qatorda psixolog tadqiqotchi ham bo'lishi zarur:*

a) rahbar, eng avvalo, jamoadagi xizmat munosabatlarini tartibga keltirishi zarur;

b) jamoaga yaxshi yangiliklarni tadbiq etib borish;

c) oldingi rahbarning qaysi mansabga ketishi ham jamoaning ijobiy yoki salbiy tomonga boshqarilishiga ta'sir qiladi (nafaqaga ketganmi yoki past mansabga ketganmi);

d) yangi rahbarning boshqa joydan kelganligi yoki o'zi ishlayotgan joyda rezervda turganligi ham jamoaning ijtimoiy faoliyatida ahamiyatga ega;

e) jamoani boshqarishda psixologik qiyinchiliklarning mavjudligi (jamoada norasmiy liderlarning mavjudligi);

f) rahbarning mansabni o'zi xohlab egallashi yoki yuqoridan buyruq asosida tayinlanishi ham muhim rol o'ynaydi;

j) rahbarning jamoani boshqarishda shaxsiy xislatlariga ham ko'p narsa bog'liq bo'ladi. Masalan: rahbarlik mansabida tajribaning kamligi; maxsus bilimlarning etishmasligi; kasbiy qiziqishining yo'qligi; rahbarlik mansabiga psixologik jihatdan tayyor emasligi; rahbarlikda man-manlikning darrov yuzaga kelishi; rahbarda „Men“ tushunchasining ustunligi.

Mansabga ko'nikish jarayoni degan tushuncha mavjud, ya'ni mansabga o'tirgandan keyin shu sharoitga ko'nika oladimi, yo'qmi? Rahbarning faoliyatida jamoa a'zolari uni qanday qabul qilishiga ko'p narsa bog'liq. Masalan, jamoaning 15% foizi rahbarni yaxshi tanisa ham, rahbar shu jamoadan ehtiyotkor bo'lib, rahbarlik qilishga kirishadi. Sabab nima? -degan savol turadi.

*Buning sababi:*

1. Rahbarni yaxshimi, yomonmi sir asrorini bilish mumkin, boshqalarga fikr beradi.

2. Rahbarni demokratmi, avtokratmi, konservativmi qanday rahbarligi haqida barchaga namoyon qilishi mumkin.

3. Jamoa haqida rahbarga fikr berishi mumkin.

Bugungi kunda jamoani boshqarishda rahbarning ish uslubi jamoaning faoliyatini boshqarishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Rahbarning ma'lumoti, yoshi rahbar bo'lib ishlashiga to'la asos bo'lishi mumkin, lekin rahbarni rahbar qiladigan uning prinsipidir. Hozirgi kunda Rossiya Federasiyasida rahbarlikka nomzodlarni tanlash bo'yicha etarli tajriba to'plangan, masalan: hujjatlar o'rganiladi, guruhli 8 soatli testlar, yakka tartibdagi suhbat va hokazolar.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, rahbarni rahbarlik faoliyatiga tayyorlashda psixologik test o'tkazib psixologik treningni tashkil qilish kerak bo'ladi. Treninglar quyidagi usullarni o'z ichiga olishi mumkin, ya'ni guruhli suhbat, aniq bir vaziyatlarni tahlil qilish, psixodrama, rolli o'yinlar.

Psixologik tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, rahbar xodim doimo quyidagi savollarga javob topa olishi kerak:

- a) qanday yo'llar bilan jamoani boshqarsam samaradorlik oshadi, jamoa tinch va manfaati yuqori bo'ladi;
- b) jamoada nimalarni bilishi kerak;
- c) jamoa uchun nimalarni qila olishi zarur.

Kuchli rahbarlarga alohida psixologik testlar zarur bo'lib, avvalo nutqi, diksiyasi, muzokara olib bora bilish qobiliyati, vaziyatlardan tez chiqib keta olish xususiyatlarini shakllantirish kerak bo'ladi.

Kuchsizroq rahbarlarga esa boshqa uzoq vaqtga mo'ljallangan testlar, treninglar tashkil etilishi kerak.

*Rahbarni psixolog tadqiqotchiligini hisobga olib quyidagicha psixologik tayyorgarlikni tashkil etish mumkin:*

- bo'lg'usi rahbarni yakka psixologik o'ziga xosligini o'rganish va psixologik imkoniyatlarini diagnostika qilish;
- jamoadagi yaxshi psixologik muhitni saqlab qolgan holda, jamoani boshqarishni tashkil etish;
- jamoani boshqarishda rahbar o'zining ichki psixologik rezervini saqlab qolgan holda ishni tashkil etish;
- rahbar xodim doimo o'zining ustida ishlab borishi dunyoqarashi, huquqiy ongi, madaniyati boshqa qo'l ostidagilardan ustun bo'lishi kerak bo'ladi.

*Rahbar xodimlar (Oliy akademik kurs uchun) mansabga kirishish, mansabga o'tirishga asos kursini tashkil etish maqsadga muvofiqdir, bunga nimalar kiradi yoki nimalar bu kursni asosini tashkil etishi mumkin:*

- 1) auditoriya oldida ochiq chiqish qilish (majlisda, jamoa oldida, televideniya);

2) ikki kishi bo‘lib suhbat o‘tkaza olish treningi (eshita bilish, ishontira olish, suhbat chog‘ida boshqara olish, ta’sir eta olish san’ati);

3) jamoa guruh oldida muloqot qilish treningi (jamoani fikrini hisobga olish, munosabatlar dinamikasiga ta’sir etish);

4) yangi tayinlangan rahbar o‘z faoliyati davomida duch kelishi mumkin bo‘lgan psixologik qiyinchiliklarni tashkil etish;

5) bu kursda bo‘lg‘usi rahbar o‘zining kasbiy faoliyatida xato qilishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘radi, shunga psixologik jihatdan tayyor bo‘lib boradi.

Ushbu treningdan keyin rahbarlik faoliyatiga hali tayyor yoki tayyor emasligi haqida taxminiy xulosa qilishimiz mumkin:

— rahbarlik faoliyatiga tayyor lekin, o‘zining ustida hali ishlashi kerak (qaysi tomonlama ko‘rsatish kerak);

— rahbarlik faoliyatiga tayyor, lekin birinchi navbatda, quyidagilarga e’tibor qaratilishi kerak, deb aytib o‘tish lozim.

Shunday qilib, bo‘lg‘usi rahbar qo‘l ostidagi xodimlar va jamoani boshqarish uchun shaxsiy psixologik bilimlari bilan bir qatorda, yuridik, pedagogik, falsafiy, mantiqiy bilimlar ham muhim hisoblanadi. Bu bilimlarni amaliyotga tadbiq etish, avvalo, rahbarning o‘ziga, uning tarbiyasiga va qobiliyatiga bog‘liq.

Rahbarni jamoani boshqarishidagi eng asosiy maqsadlaridan biri, jamoani muvaffaqiyatli boshqarishidir. Boshqarish faoliyatiga psixologiya fani allaqachon asosiy kerakli fan sifatida kirib kelgan. Rahbarda ham, odamda ham uning o‘ziga yarasha yutuq va kamchiliklari mavjud, lekin kamchilik hech bir vaqt jamoaning faoliyatiga ta’sir qilishi kerak emas. To‘g‘rirog‘i, rahbar bilan qo‘l ostidagi xodimni munosabati, ish faoliyatiga ta’sir qiladigan darajada bo‘lishi mumkin emas.

## **9.6. Rahbarning muhim shaxsiy-kasbiy sifatleri**

Tinglovchilarni rahbarning shaxsiga qo‘yiladigan ijtimoiy-psixologik talablar, axloqiy-ma’naviy sifatleri, kasbiy tafakkuri, ma’suliyat hissi, irodaviy sifatleri, obro‘si va hokimiyati, ularning o‘zaro nisbati, obro‘sini oshirishning psixologik shart-sharoitlari hamda rahbar xulq-atvorining psixologiyasi va shaxsiy sifatlarini diagnostika qila olish kabi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

– K.Makiavelli „davlat, hokimiyat, qonunlar va kuch yordamida boshqariladi“ — deb ko‘rsatadi. Uning o‘zi davlatni qonunlar yordamida boshqarish tarafdoridir. Ammo tarixiy taraqqiyotdagi tajribalarni o‘rganish va saroy tajribalarini kuzatish uni qonunlar ham har doim

kutilgan natijaga olib kelavermaydi — degan fikrga olib keladi. Demak, qonunlar kuchga tayanishi vojib: kuchsiz qonunlar oddiy qog‘oz.

Hukmdor qonunlardan ham, kuchdan ham foydalana bilishi darkor. Hukmdor hammaga bir xil munosabatda bo‘la olmaydi, u soflik va poklik niqobiga o‘ralib olib, „buyuk mug‘ombirlik va laqillatish san‘atini namoyon etadi. Kishilar uning ushbu sifatlarini sezmaydilar, chunki ular hukmdorning kimligini, xizmatlarini davlatni asrashiga qarab baholaydilar.

Hukmdorning poklik va soflik niqobiga o‘ralishi davlatni va hokimiyatni asrash uchun zaruratdir. Ushbu maqsadda u „nopok vositalardan ham foydalanishi mumkin“. Hukmdorni kishilar o‘z ixtiyori bilan sevadi, qo‘rquv uyg‘otish esa hukmdor izmidadir: birinchisida, u fuqarolarning ixtiyorida, ikkinchisida, u fuqarolardan mustaqildir.

Bugungi kunda hayotni uzluksiz kommunikasiyasiz yoki bir-biridan uzoq-uzoqlarda yashayotgan odamlarning o‘zaro muloqotisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ommaviy kommunikasiya bo‘lmaganda insonlar axborotsiz yashar va rivojlanish bu darajada bo‘lmas edi.

Operativ ma‘lumotlar maxsus ma‘lumotlar sirasiga kiradi, chunki, rahbar bu ma‘lumotlarni o‘z kasb mohiyatidan kelib chiqqan holda tahlil qiladi va kerakli qarorni qabul qiladi. Ma‘lumotlar to‘g‘ri, yolg‘on, uydurma bo‘lishi mumkin. Ma‘lumotlar xodimlar yoki ularning faoliyati haqida ham bo‘lishi istesnodan holi emas. Ongni kasbiy yo‘naltirishda ma‘lumotlarning roli benihoya kattadir. Ongga barcha ma‘lumotlar sig‘maydi, shuning uchun „xotira“ning roli o‘zgacha.

Olimlarning fikricha, agar texnik vositalar, jumladan, kompyuter bo‘lmaganda tom-tom ishlar qalashib, inson faoliyatini qiyinlashtirgan bo‘lar edi. Kompyuterni bilishning o‘zi har bir rahbarni bilim saviyasi, dunyoqarashi va asr mo‘jizasiga munosabatini ko‘rsatadi. Ong shakllanishining manbai bu ma‘lumotlardir.

Bugungi kunda ma‘lumotlar shu darajada ko‘payib ketganki, natijada ommaviy axborot vositalari imperializmi yuzaga keldi. Kim kuchli, kimda axborot va ma‘lumotlar ko‘p bo‘lsa, o‘sha inson kuchlidir. Shuning uchun kim ko‘p ma‘lumotga ega bo‘lsa, o‘sha xatarli shaxs hisoblanadi, uni o‘zingizdan ozgina uzoqlashtirishga harakat qilsangiz, u birinchi dushmaningizga aylanadi. Ma‘lumotlarning ko‘pligi rahbarning qaysidir ma‘noda professional tayyorgarligini belgilashi hamda jamoada ob‘ektivlikni saqlab qolishga yoki yuzaga keltirishga xizmat qilishi mumkin.

Rahbarning jamoa uning faoliyati haqida vaqtida etarli darajada ma‘lumotga ega bo‘lib turishi, o‘zining orkestrining egasi bo‘lishidan



dalolat beradi. Demak, o'z qo'lidagi bo'lim yoki soha xizmatidagi shaxslarning faoliyatidan xabardor bo'lib turishi demakdir.

*Ma'lumotlarni olish bazasi bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi:*

- a) instruksiyalar;
- b) turli maxfiy hujjatlar;
- c) suhbatlar;
- d) tajribali xodimlar bilan suhbat; zarurat tug'ilgan vaqtlarda jinoyatchi, gumondor, guvohlar bilan suhbat.

Rahbarning ongi uning faoliyatini tartibga soluvchi regulyator hisoblanadi. Shunday qilib, rahbarning ongi, kasbiy ijtimoiy taraqqiyot mahsuli bo'lish bilan birga, u rahbarlik faoliyatida, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish vaqtida, hamkorlikdagi o'zaro ta'sirda, tabiatga, jamiyatga nisbatan munosabatlar mohiyatida vujudga kelgan.

Har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma'lum narsaga-predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlarning xususiyatlari va sifatini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan tinglovchining predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo, o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali, bilimlar zahirasini boyitayotgan bo'ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo'naltirilganligiga qarab, tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. Tashqi faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki faoliyat — birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishini ta'minlaydi.

Dastlab predmetli tashqi faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirilib borgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o'zicha gapirishni o'rganib, o'ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi. Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ichki psixologik, tashqi muvofiqlik nuqtai-nazardan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy motor harakatlar mujassam bo'ladi.

Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, hattoki tana

va qo‘l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to‘xtamga kela olmayotganidan yoki fikrni topib, undan mamnuniyat his qilayotganidan darak beradi.

Aqliy harakatlar shaxsning ongli tarzidagi ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir.

Faoliyat hamisha rahbarning boshqa xodimlar bilan muayyan munosabatlari sistemasida yuz beradi. U boshqa xodimlarning yordami va ishtirokini taqozo etadi, ya‘ni birgalikdagi faoliyat xususiyatiga ega bo‘ladi. Rahbar xodimdagi mo‘‘tadillik, ruhiy sog‘lomlik ongning boshqaruv imkoniyati mavjudligini bildirib, ayrim hollarda hissiyotga berilishi esa, uning o‘z funksiyasini bajarishdan chetlashganligini ko‘rsatadi. Turli xususiyatli munosabatlar ong nazoratida amalga oshirilsa, shaxs xulq-atvorida, faoliyatida va muomala jarayonida, hech qanday nuqsonlar, chetga og‘ishlar sodir bo‘lmaydi.

Shu narsani ta‘kidlab o‘tish o‘rinliki, patologik holatlarni tahlil qilish, ong mohiyatining genezisini atroflicha anglab olishga xizmat qilishi mumkin. Shu boisdan rahbar ongning zaiflashuvi shaxsning his-tuyg‘ulari va munosabatlarini o‘zgartiradi, natijada simpatiya antipatiya bilan, quvonch qayg‘u bilan, optimizm pessimizm bilan vaqti-vaqti bilan o‘rin almashib turishi kuzatiladi.

Ongning yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan barcha funksiyalarini namoyon bo‘lishining muqarrar sharti til va nutq hisoblanadi. Rahbar nutq faoliyati yordami bilan bilimlarini o‘zgartiradi, ajdodlar tomonidan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida yuzaga keltirilgan tajribalar majmuasi tilda mustahkamlanadi, u o‘zining tafakkuri orqali hayoti va faoliyatini boyitadi.

Til alohida ob‘ektiv tizim sifatida namoyon bo‘lib, unda ijtimoiy tarixiy jarayonlarda vujudga kelgan an‘analar, marosimlar, qadriyatlar, g‘oyalar majmuasi tariqasida ijtimoiy ongda aks ettirilgandir. Psixologik talqinlarga qaraganda, alohida, yakka hol shaxs tomonidan egallangan til boyliklari, qoidalari ma‘lum ma‘noda uning yaqqol, individual ongi sifatida yuzaga keladi. Shaxsiy hayoti va faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Til bilan nutq borliqni anglashning aloqa quroli hamda vositasi, funksiyasini bajarib, shaxsning boshqa mavjudodlardan farqlash sharti hisoblanadi va unda til bilan tafakkur birligi ong uchun moddiy negiz vazifasida ishtirok etadi va qaysidir ma‘noda mexanizm rolini bajarishi ham mumkin.

Rahbar shaxsi bir maromda, bir xil usulda, bir xil yo‘nalishda uzoq vaqt ishlashi oqibatida, shu jamoaga shunday fikrlashga o‘rganib

shablon xarakterini oladi. Unga yangilik, yangicha ish uslubi, yangi shakl ko'p ham ma'qul kelavermaydi. Chunki yangilik doimo ma'lum bir ortiqcha xarakterni, ortiqcha tashvishlarni keltirib chiqarayotgandek tuyilaveradi.

Yangilikka intilmaslik, yangilikning mohiyatidan, mazmunidan uzoq bo'lishga olib keladi. Tafakkurida tinmay yangi-yangi g'oyalar izlashga o'rgatadi.

Zaif rahbar, hatto u hokimiyatga ega bo'lganda ham, hayotdagi tasodiflardan, nomukammallikdan, o'zgarishlar va burilishlardan qo'rqadi, u turg'unlik tarafdoridir. Kuchli rahbar aksincha, nomukammallikni, to'qnashuvlarni tabiiy hol deb biladi, hayotdagi bemani-liklar uni cho'chitmaydi, hatto unga ba'zida janjal kerak, chunki qarashlar uning irodasini mustahkamlaydi, g'alabalar esa hokimiyat-ning yanada mustahkamlanishiga olib keladi.

Ongning konservativligi haqida so'z yuritar ekanmiz, rahbar qarshi fikrdan qo'rqadi, qarshi fikrni unga nisbatan aytilgan fikr deb tushunadi, aslida esa u ishni yaxshilashga faoliyat foydasiga aytilgan fikr bo'lishi mumkin. Qarshi fikrdan qo'rmaslik kerak, qarshi fikr, fikrlarni rivojlantirishga qaratilgan fikr bo'lishi mumkin.

Konservativ boshqarish psixologiyasiga ega bo'lgan shaxsni ishontirish qiyin, chunki ishontirishni boshqa bir shaxsni fikri, g'oyasi deb qaraydi. Ishontirishda doimo ular uchun mantiqiy, asoslangan dalillar kerak bo'ladi.

Ishontirishni quyidagilarga bo'lishimiz mumkin:

- verbal, qachonki shaxs so'z bilan ishontirishga harakat qilsa;
- vizual, rahbar qachonki ko'rsagina ishonadi;
- hujjatlarga asoslansa, dalillar qo'l ostida bo'lsagina.

Konservativ ongga ega bo'lgan rahbarlarga o'z jamoasi, o'z teng-dosh va fikrdoshlari mavjud bo'lib, boshqa shaxslarni dunyoqarashiga e'tibor bermaydi. Yangilik xuddi uning tinchini buzayotgandek tuyuladi. Konservativ boshqarishga ega bo'lgan shaxs odatda ziddiyatli bo'lmaydi va ularni kechirishi ham qiyin jarayon hisoblanadi. Tanqid o'zini-o'zi tanqid qilish, degan fikrlardan uzoqroq bo'ladi.

Konservativ yo'nalishda fikrlaydigan rahbar xodimga rahbarlik faoliyatini ilmiy tahlil qilish masalasi ko'pincha muammo hisoblanadi, sababi barcha tashkil etilgan ishlar o'z an'anaviy yo'nalishidan, izidan chiqadi.

Bundaylar boshqarishda haqiqatni iloji boricha ochiq aytmaslikka harakat qiladi. Har bir fikrni mavhum qilib etkazishga odatlangan

bo'ladi, chunki ochiq-oydin aytish unga g'alva keltirishi mumkinligini biladi. Bugungi kun rahbari „buyruq va qonunlarni amalda bajarilishini ta'minlay oladigan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish“ga qodir bo'lmog'i lozim.

Xodimlarning huquqiy-ruhiy ongiga ta'sir etishda rahbar xodimlar qo'l ostidagi xodimlardagi quyidagi omillarni hisobga olish kerak bo'ladi:

- ularning yakka psixologik xislatlarini;
- nimalarga qodirligini;
- bilimi, oilasi haqida ma'lumotlarni hisobga olish;
- eskilik tarafdorimi yoki yangilik tarafdorimi;
- o'ziga ishonchi bor xodimmi yoki ko'p qatorimi;
- muloqot qilishning qiyinligi;
- nimalarga moyilligi borligi hamda nimalarga qodirligi aniqlanadi.

Tajribali rahbar xodimlarni *quyidagi kategoriyalarga* bo'ladi va o'rganadi:

1. ishlashni biladi, lekin xohlamaydi;
2. ishlashni xohlaydi, lekin ishlashni bilmaydi;
3. ishlashni xohlamaydi va ishlamaydi ham.

Bizning vazifamiz ishlata bilish yoki bunday xodimdan qutilish, qutilishni iloji bo'lmasa, barcha imkoniyatlarni ishga solib tarbiyalash. Talabchanlik bilan g'amxo'rlik rahbarda uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Rahbarning metodik jihatdan tayyorgarligining sustligi uni auditoriya (qo'l ostidagi) xodimlar o'rtasidagi chiqishida samarasizlikni keltirib chiqaradi. Bundaylarning chiqishi zerikarli, faqat do'q-po'pisadan iborat bo'ladi. Rahbar qaysi auditoriyada va qayerda chiqish qilishidan qat'iy nazar, faqat dalillar va qonunlar majmuasiga suyanib qolishlari kerak emas, balki rahbarlik faoliyatidagi chiqishlar mazmunli, hayotiy tajribalarga suyangan bo'lishi kerak. Chunki hayotiy tajriba ijobiy yo'nalishda yoki salbiy xarakterda bo'lishi mumkin.

Etuklik darajasi bo'yicha yo'nalish deb — shaxsning hayotda, jamiyatda tutgan o'rni, g'oyaviylik darajasi tushuniladi. Xodimlar faoliyatidagi motivlar shaxs yo'nalishidagi muhim komponent hisoblanadi. Motiv — bu inson ongida aks etgan talablardir. Motiv sifatida xohish, istak, qiziqish, ideallar, dunyoqarashlar bo'lishi mumkin. Inson talablari qanchalik keng va turli xil bo'lsa, motivlari shunchalik turg'un va turli xil, ko'p qirrali bo'ladi. Motivlar barcha sohalarida ishlayotgan

xodimlar faoliyatini uyg'unlashtirib va yo'naltiribgina qolmay, balki uning subyektiv faoliyati va harakatlariga shaxsiy ma'no beradi.

Maqsad paydo bo'lishining ichki manba'si motivlar bo'ladi. Maqsadga xodimning harakati tufayli erishiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bitta motivning o'zi bir necha harakatlarda o'zining maqsadlari bo'yicha amalga oshishi mumkin. Maqsadlar va motivlar asosida kelajak rejalar shaxsning yo'nalishi sifatida shakllanadi.

Psixik faoliyat dinamikasi na faqat temperamentga, balki xodimning psixik holati, motivi, ustanovkalariga ham bog'liqdir. Temperamentning psixologik tavsifi tashqi ko'rinishlarga ega bo'lib, ular bo'yicha uni o'rganish va o'lchash mumkin. I.P. Pavlov oliy nerv faoliyatining to'rt asosiy tipini ajratgan:

1) kuchli, biroq muvozanatlashmagan tip, qo'zg'alish jarayonlarining tormozlanishidan ustun turishi bilan xarakterlanadi, bu tip xolerik temperamentga mos keladi;

2) kuchli, muvozanatlashgan, nerv jarayonlari juda harakatchan tip. Oliy nerv faoliyatining bu tipi sangvinik temperamentga mos keladi;

3) kuchli, muvozanatlashgan, nerv jarayonlari kam harakatchan tip („yuvosh“, kam harakatchan, inert tip). Bu flegmatik temperamentga mos keladi;

4) kuchsiz tip, bunda qo'zg'alish jarayoni ham, tormozlanish jarayoni ham sust bo'ladi. Bu tipdagi kishilar uchun nerv sistemasining tez charchab qobiliyatining yo'qotilishiga olib kelishi xos. Bu melanxolik tipga ta'luqli.

Quyida temperament turlari va ularning namoyon bo'lishining rasmi ko'rinishi berilmoqda. (21-rasm)

Xodimning amaliy xatti-harakatidagi temperamenti uning boshqa xususiyatlari bilan birgalikda baholanadi. Xodimlar bilan tarbiyaviy jarayonni olib borishda ularning temperamenti xususiyatlari hisobga olinishi kerak va ular bilan ish olib borishda melanxolik xodimlarda o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, shubhalilik, o'zi bilan o'ralib qolishi kabi xususiyatlarini jamoatchilik ta'siri ostida bartaraf etish lozim bo'ladi.

Shuning uchun xodimlarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Sangviniklar xizmat vazifalarini tez o'zlashtiradilar, flegmatiklar yangi materialni o'zlashtirishga ulgurmaydilar, xolerik esa yaxshi sharoitlardagina faol bo'ladi, melanxolik xizmat sharoitlariga juda ta'sirchan bo'ladi. Bundaylar rahbarning dag'al gapirishi yoki kulgiga olishini juda og'ir qabul qiladi.

Xodimlarni yangi sharoitdagi xizmat vazifalariga psixologik tayyorgarligini tashkil etishda ularning temperamentidagi xususiyatlari

**Temperament** — shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o'zgaruvchan) va emosional — hissiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuidir

Temperament xususiyatlarini belgilab beruvchi uch oliy nerv tizimi xossalari: kuch, muvozanatlashganlik, harakatchanlik

**Kuch** — nerv tizimining kuchli qo'zgatuvchilar ta'siriga bardoshi, shunga ko'ra insonda mehnatga yaroklilik, chidam kabi

**Muvozanatlashganlik** — asabdagi tormozlanish va qo'zgalish jarayonlarining o'zaro mutanosibligi, shunga ko'ra, o'zini tuta olish, bosqlik kabi sifatlar

**Harakatchanlik** — qo'zgalish va tormozlanish jarayonlaridagi o'zaro almashinish jarayonining tezligi va harakatchanligi

**Shaxs temperamenti toifalari**

1. Xolerik toifa;
2. Sangvinik toifa;
3. Flegmatik toifa;
4. Melanxolik toifa.

### 21-rasm. Temperament va uning turlari

e'tiborga olinishi kerak. Barcha biologik va ko'pgina individual-psixologik xususiyatlar xulq-atvor belgilariga ta'luqli bo'lmaydi, masalan: birmuncha past mexanik xotira misol bo'la oladi.

Insonning fe'li, xulq-atvorini bilish orqali uning har xil holatlarda o'zini qanday tutishini oldindan bilish mumkin. Xulq-atvorning fiziologik asoslarini bilish rahbarning qo'l ostidagi xodimlarini bilish uchun juda muhimdir.

Xodimning hulq-atvori uning odatlariga uzviy bog'liq bo'ladi. Odatlar deganda shakllangan harakatlar tushuniladi. Xarakter, xodim-

ning xatti-harakati va faoliyatida namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatlar majmui hisoblanadi. Xarakter individuallikning muhim belgilaridan bo'lib, kishiga takrorlanmaydigan o'ziga xos xususiyatlarni beradi. Xarakter shaxsning iroda, shuningdek, emosional sferasi, temperamenti (mijozi) va intellektual (aql-idroki) xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Xarakter belgilari xodimning barqaror xususiyatlari hisoblanadi, ular sekin o'zgarishi mumkin. Xarakter xodimlarning ancha barqaror va yaqqol ko'rinadigan belgilaridan bo'lib, ular xatti-harakat (xulq-atvor)da, qilmishlarda, tabiatga, jamiyatga hamda kishining o'z faoliyatiga, o'ziga nisbatan munosabatlarida ko'zga tashlanadi.

Quyidagi rasmda xarakter va uning namoyon bo'lish jarayoni aks ettirilgan.

**Xarakter** — shaxsdagi shunday psixologik, subyektiv munosabatlar majmuiki, ular uning borliqqa, odamlarga, predmetli faoliyatga hamda o'z-o'ziga munosabatini ifodalaydi

Xarakterning namoyon bo'lish tizimi:

**1. Mehnatdagi xususiyatlar** — mehnatsevarlik, mehnatkashlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, ishga qobillik, mas'uliyat, dangasalik, qo'nimsizlik

**2. Insonlarga munosabatlardagi sifatlar** — odoblilik, mehribonlik, takt, jonsaraklik, dilgirlik, altruizm, muloqotga kirishuvchanlik, g'amxo'rlik, rahm-shafqat

**3. O'z-o'ziga munosabatlardagi sifatlar** — kamtarlik, kamsuqumlilik, mag'rurlik, o'ziga bino qo'yish, o'z-o'zini tanqid, ibo, sharm-hayo, manmansirash

**4. Narsalar va hodisalarga munosabatlarda namoyon bo'ladigan xususiyatlar** — tartiblilik, oqillik, saranjom-sarishtalik, qo'li ochiqlik, ziqnalik, tejankorlik, pokizalik

**22-rasm.** Xarakter va uning namoyon bo'lishi

Xarakter ijtimoiy sharoitlar, o'rganish va tarbiyalanish asosida asta-sekin shakllanadi. Bunda jamoa va rahbar, atrofda gilarning xulq-atvori katta ahamiyatga ega. Kasbiy faoliyat haraktemi tarbiyalab hamda rivojlantiribgina qolmay, balki uning ijobiy belgilarini mustahkamlashga, salbiylarini esa yo'qotishga olib keladi.

Xodimlarni o'rganish va baholashni bilish muhim shart hisoblanadi. Buning uchun rahbar psixologik va pedagogik ta'sir etish usularini bilish lozim. Kuchli his-hayajon uyg'otuvchi holatlarda yuzaga keladigan sharoitlarda xodimlarning o'zini tutishi va faoliyatini o'rganish ularning xarakterini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Tartib-intizomli bo'lishda bir qator bir-biri bilan bog'liq belgilar: e'tiborlilik, harakatchanlik, bajaruvchilik, (prinsipiallik) qat'iyatlilik, faollik, mustaqillik va boshqalar shakllanishi kerak bo'ladi.

Xodimlar bilan olib boriladigan ishlarda har qanday mafkura quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zda tutadi:

- muayyan g'oyaga ishontirish;
- uyushtirish;
- safarbar etish;
- ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish;
- g'oyaviy tarbiyalash;
- g'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- harakat dasturi bo'lish.

Rahbar o'zining hulqi bilan xodimlarga o'rnak bo'lishi kerak. Xodimlarda ijobiy odatlarni shakllantirish va salbiylarini bartaraf qilish uchun ikkita yo'nalish tanlab olingan:

1. O'zini tutish uchun qanday harakat qilish kerakligini to'g'ri tushunish;
2. O'zini to'g'ri tutishni tashkil etish.

### **9.7. O'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarish**

O'quv maskaniga (maktab, o'rta maxsus, oliy ta'lim) birinchi bor kelgan bolada qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularda avvalo, o'quv maskani qoidalariga bo'ysunish qiyin kechadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir. O'qituvchilar o'quvchilarning doimo jim o'tirishiga harakat qilishadi, lekin kamharakatli, passiv, quvvati kam bo'lgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi.

O'quvchini qanday qilib o'quv maskani qoidalariga bo'ysunishga o'rgatish mumkin? Bu borada o'qituvchining o'quvchilar bilan qiladigan muomala-munosabat uslubining ahamiyati juda katta.



Kichik o'quv maskani yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchiga ishonch hissi bo'lib, bunda o'qituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon inson deb biladi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'larining nufuzi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar.

Boshqaruv bu shunday yo'naltiruvchi kuchki, u insonlardagi ijodiy potensial imkoniyatlaridan oladigan sharoitlarni yuzaga chiqarishni maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri va oqilona boshqara olishi o'quvchi shaxsi kamolotida nihoyatda katta o'rin tutadi.

Faoliyatdan kutiladigan natija psixologiyada maqsad deyiladi. O'quv jarayonining boshqarilishi ikkita asosiy maqsadni ko'zda tutadi. Ulardan *birinchisi*, o'quv jarayonini to'g'ri tashkil eta olish, *ikkinchisi* esa o'quvchilarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirishdir. Ana shu maqsadlar boshqarishning vazifalarini belgilab beradi. Demak, o'quv *jarayonini boshqarishning*:

— birinchi vazifasi tashkiliy bo'lib, o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasi bo'yicha ijtimoiy buyurtmalarni qondirish;

— ikkinchi vazifasi — bevosita o'quvchining qiziqish va talablarini qondirishga yo'naltirilgan holatdagi ijtimoiy vazifadir.

Shuningdek, bu vazifa o'quvchilarning ko'tarinkilik, yaxshi kayfiyat va o'quv jarayonidagi ishchanlikni yuzaga keltirishni ham o'z ichiga oladi. Afsuski, ko'p yillar davomida boshqarishning ana shu ijtimoiy vazifasiga juda kam e'tibor berildi.

Boshqaruvning ikkinchi vazifasi bu ijtimoiy-psixologikdir. Bu vazifa o'quvchilarda samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-psixologik holat va xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgandir.

Bu holat va xususiyatlar o'quvchilarni o'zaro jipslashtirish, nazorat, o'z-o'zini boshqarish, shuningdek, mustaqil ta'lim olishlarini rivojlantirishdan iboratdir.

O'quv jarayonini boshqarish uchun quyidagi tarkibiy qismlarni egallash lozim:

1. Berilgan o'quv topshirig'ini echish uchun vositalar tanlash.
2. Topshiriqlarni echish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish.
3. O'zlashtirilgan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar sifatini baholash.
4. O'quv topshiriqlarining bajarilganligini tekshirish.

5. O‘z oldiga maqsad qo‘ya olish.

6. Turli belgilar bilan predmetning ichki munosabatlari muvofigligini ko‘ra olish.

O‘qitishning *ikkita usuli mavjud*. Biri an’anaviy o‘qitish usuli — bunda o‘qituvchi muammoni belgilaydi, vazifalarni aniqlanaydi va muammoni echib beradi. O‘quvchi esa masalani echish yo‘llarini eslab qoladi va uni echishni mashq qiladi. Bunda o‘quvchilarda reproduktiv tafakkur shakllanadi.

Rivojlantiruvchi ta‘lim o‘qitishning muammoli usulida o‘qituvchi o‘quvchilarning bilish jarayonlarini boshqaradi, uni tashkil etadi va nazorat qiladi. O‘quvchi esa muammoni tushunadi. Uni echish yo‘llarini qidiradi va echadi. Bunday hollarda o‘quvchi tafakkurining mahsuldorligi oshadi va uning mustaqilligi rivojlanadi.

O‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish uchun o‘qituvchi *quyidagi qoidalarga* tayanishi lozim:

1. O‘quv jarayonini shunday tashkil etish lozimki, bunda o‘quvchi faol harakat qilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o‘zi kashf etishi va muammoli xarakterdagi masalalarni echish uchun sharoit izlashi kerak.

2. O‘quvchilarga bir xil o‘qitish usullari va bir turdagi ma‘lumotlarni berishdan qochish kerak.

3. O‘rgatilayotgan fanga nisbatan qiziqishning namoyon bo‘lishi uchun ayni shu fan yoki bilim, o‘quvchining o‘zi uchun qanchalik ahamiyatli va muhim ekanligini bilishi kerak.

4. Yangi material qanchalar o‘quvchi tomonidan avval o‘zlashtirilgan bilimlar bilan bog‘liq bo‘lsa, u o‘quvchi uchun shunchalik qiziqarli bo‘ladi.

5. Haddan ziyod qiyin material o‘quvchida qiziqish uyg‘otmaydi. Berilayotgan bilimlar o‘quvchining kuchi etadigan darajada bo‘lishi lozim.

O‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzu yoki bilimning ahamiyatini ko‘rsatish, o‘quvchining o‘quv faolligini oshirish uchun qiziqarli misollar, aqliy o‘yinlardan keng foydalanishi lozim. Lekin, ta‘limdagi har bir beriladigan bilim yorqin, qiziqarli bo‘lavermaydi, shuning uchun o‘quvchilarda iroda, qat‘iylik, mehnatsevarlik kabi xislatlarning kamol toptirilishi nihoyatda zarurdir. Ana shu xislatlar o‘quvchining kelgusida o‘z-o‘zini nazorat qilishga, o‘z-o‘zini baholashga va mustaqil ta‘lim olishga asos bo‘lish kerak.

## 9.8. O'quvchilar guruhida o'zaro munosabatlarni boshqarish

Birinci bor o'quv maskaniga kelgan o'quvchi hali o'zini to'liq anglashi va o'zi xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina o'quvchiga me'yorlar qo'yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi mumkin. O'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. O'qish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar. O'quvchi uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat guruhdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. O'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining *quyidagi uslublari* mavjud.

Avtoritar uslub: bu qattiqqo'llik bo'lib, bunda o'qituvchi o'quvchilarini so'zsiz o'ziga bo'ysunishlarini talab etadi. Lekin, nima uchun qattiqqo'llik qilayotganini yoki o'quvchilariga nima uchun o'zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, shuningdek, o'quvchilarni o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishga ham o'rgatmaydi. O'qituvchi dars davomida o'quvchilaridan jim o'tirishini, savollarga doimo qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan javob berishini, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishini talab etadi.

Bunday pedagoglar o'quvchilarning qiziqishlari asosida emas, balki asosan o'quv rejasi asosida dars o'tadilar. Dars davomida ham bahs-munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmagan holda, asosan, o'qituvchining fikri singdiriladi. O'quvchilari bilan muomala munosabatda ham ularning individual psixologik xususiyatlari, jumladan, nerv tizimining qo'zg'aluvchanlik darajasini ham e'tiborga olmaydilar. Bu uslub o'qituvchini sinfdan, o'quvchidan uzoqlashtiradi. Emosional sovuqlik guruhda intizomli o'quvchida yakkalanish, xavotirlik, himoya qilinmaganlik hissini ham yuzaga keltiradi. Bu uslub guruhda yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichini berishi, lekin bu o'zlashtirish, asosan, xotira evaziga bo'lib, mustaqil tafakkur, ijodkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlarning rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'ladi va shaxsda doimiy xavotirlik o'ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

*Imperativ* uslubdagi o'qituvchining o'quvchilari guruhda bo'lmagan vaqtlarda o'z-o'zini boshqarish malakasi bo'lmaganligi uchun ham intizomga mutlaqo bo'ysunmaydilar. Bu asosan, to'polonda namoyon bo'ladi. Bu uslub o'qituvchining mustahkam irodasini ko'rsatadi, lekin

bu irodada o'quvchiga nisbatan muhabbat hamda o'quvchining „ustozim meni yaxshi ko'radi“ degan fikri emas, balki qo'rquv hissi mavjuddir.

*Demokratik uslub* o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asos bo'ladi. Darsdagi intizom majburiy emas, balki muvaffaqiyatga erishish garovi sifatida o'quvchilar ijobiy emosiyani, o'ziga ishonch, o'z muvaffaqiyati, yutuqlaridan quvonishi, do'stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini beradi. *Demokratik uslub* o'quvchilarni birlashtiradi. Shu bilan birga o'zining faoliyati natijalariga qiziqish uyg'otgan holda o'zi uchun o'zi harakat qilishi lozimligini anglatadi. O'zini-o'zi boshqarishga, o'z xatti-harakatini o'zi nazorat qilishga o'rgatadi. Har bir ishga mas'uliyat bilan yondoshish hissi o'qituvchining shu yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi.

*Liberal uslub* kasbiy layoqati yo'q bo'lgan o'qituvchilarga xos bo'lgan uslubdir. Bunday o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir o'quvchi o'z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o'zini tutadi. O'quvchi o'z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatdagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlariga mutlaqo zid uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida bu usulni qo'llab bo'lmaydi. Shunday qilib, o'quvchilar bilan muomala-munosabatdagi imperativ uslub, asosan, ma'lum bir chegaralarga asoslangan holda o'quvchi shaxsi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demokratik uslub o'qituvchidan muomala-munosabatda juda katta kasbiy mahoratni talab etgan holda, o'quvchi shaxsining ijobiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub hisoblanadi. Liberal uslub esa o'quvchini emosional zo'riqtirmaydi, lekin uning shaxsi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatmaydi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'cir ko'rsatadi.

Pedagogik jamoadagi o'zaro munosabatlarning norasmiy sistemasini bilmay turib, pedagog jamoa rivojlanishini boshqara olmaydi. Pedagogik jamoaning ruhiy muhitini tahlil qilayotganda:

- guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qandayligini;
- jamoada pedagogik talablarga qarshi kayfiyatdagi guruhlar bor yoki yo'qligi;
- rasmiy jamoa qilayotgan (ya'ni saylab qo'yiladigan) faollar a'zolari kimlar ekanligi;
- saylab qo'yiladigan faollar real (ya'ni, jamoaning me'yorlari va qadriyatlarini belgilab beradigan) faollar deb hisoblanishi yoki hisoblanmasligini;
- har bir bolaning jamoadagi mavqei qandayligini bilish zarur.

Peshqadamlarning ko'rsatadigan faoliyat jamoa uchun ahamiyatli va ichki zaruriyatga aylanadi va bu qoida jamoaning boshqarishga doir pedagogik vazifalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog jamoa faoliyati jamoada muayyan qadriyatlarni mustahkamlashni nazarda tutadi va peshqadam ularning namunasi bo'lib qoladi. O'z peshqadamlarni ko'rsatmaydigan faoliyat rasmiyatchilik bilan bajariladi va uning asosidagi qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

O'quv faoliyati, bu avvalo, shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o'quvchining o'zida o'zgarish yuzaga keladi. Uning mahsuli esa turli xil motivlar bilan qurilgan bo'lishi darkor. Bu motivlar bevosita faoliyat mazmuniga bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda o'quvchi shaxsining o'sishi yoki rivojlanishi bilan ham bog'liq bo'lishi ham mumkin.

O'qish va o'rganish ham o'quv faoliyatiga taalluqli tushunchalardan bo'lib, unda asosiy diqqat o'quvchiga qaratiladi. Bunda kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun o'quvchi tanlagan o'quv harakatlari asosiy hisoblanadi.

O'quv faoliyati tuzilishining birinchi elementi o'quv-bilish motivlari, ya'ni shaxsiy rivojlanish motivlari hisoblanadi. O'quv faoliyatining ikkinchi ahamiyatliroq bo'lgan elementi bu o'quv topshiriqlaridir.

### **Asosiy tushuncha va atamalar**

Boshqaruv psixologiyasi, boshqaruvda inson omili, boshqaruv faoliyatining psixologik omiflari, rahbar, liderlik, superliderlik, jamoani boshqarish, rahbarlik qobiliyatlari, o'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarish, peshqadam, rahbarlik sifatleri, rahbarlik uslublari, kasbiy sifatlar, guruhdagi o'zaro munosabatlar.

### **Rezyume**

Boshqaruv psixologiyasi haqidagi bilimlarni bilish, rahbarning kishilar jamoasini boshqarishda muvafaqqiyatga erishish garovidir. Shuningdek, boshqarish faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik qonuniyatlardan xususan, qo'l ostidagilarning individual-psixologik xususiyatlarini bilish, rahbarlik fazilatlariga ega bo'lish, boshqaruv faoliyatidagi nizolarni bartaraf etish yo'l-yo'riqlarini puxta egallash rahbarlik faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi.



### ***Bob yuzasidan savol va topshiriqlar***

1. Boshqaruv psixologiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Boshqaruvning psixologik jihatlari nima?
3. Rahbarlik qobiliyatlari haqida fikr bildiring?
4. Boshqaruv faoliyatidagi nizolar va ularning oldini olish haqida gapirib bering?
5. Pedagogik jamoalarni boshqarishning pedagogik-psixologik jihatlari nima deb o'ylaysiz?
6. Ta'lim jarayonini boshqarishda o'quvchilarning individual- psixologik jihatlarini hisobga olish nima?
7. Rahbarlik uslublarini sanab bering?
8. Jamoani boshqarish to'g'risidagi shaxsiy fikrlaringizni yozma tarzda bayon eting?

## IJTIMOYIY JARAYONLAR: OILA VA OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

### *Bobning qisqacha mazmuni*

*Oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Oilada sog'lom muhit psixologiyasi.*

*Yoshlik faslining o'ziga xos odobi va psixologiyasi. Sevgi va muhabbat, yoshlar o'rtasidagi munosabatlar psixologiyasi.*

*Oilada bolalar tarbiyasi. Oilada bolalar tarbiyasining pedagogik-psixologik jihatlari, oilaviy tarbiyada bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, milliy tarbiya imkoniyatlari.*

*Oilaviy munosabatlar odobi va psixologiyasi. Oilada er-xotin o'rtasidagi munosabatlar odobi va psixologiyasi, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy nizolar va ularning oqibatlari.*

### **10.1. Oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi**

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari, taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emosional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Oila bu o'ziga xo'jalik bo'lib, uning turmush kechirishlarini muammolari mavjud. Ota-onalar oila a'zolarining amaliy faoliyatlarini uyushtiradi, ularning ovqatlanish, ta'lim olish, ishlash, dam olish, kiyim-bosh bilan ta'minlash kabi kundalik rejimini tashkil qiladi.

Oila muammolari orasida o'zaro munosabat va yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlash, to'g'rirog'i bo'lajak oila boshqaruvchisi sifatida tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Shu ma'noda ota-onalar, keng jamoatchilik zimmasiga yoshlarni oilaviy hayotni o'tashdek ma'suliyatli vazifani bajarishga, uy tutish, ro'zg'or, oila xo'jaligini tejab-tergab boshqarishga tayyorlash, ularda „erkak“, „ayol“ fazilatlarini tarbiyalash, o'zaro muomala-munosabat odobini tarkib toptirish, ularga ona mehri, ota g'amxo'rliigi, farzand minnatdorligi nimaligini va hayotda shularga amal qilish zararliligini uqtirish yuklatilgan.

Oila baxti, farzandlar istiqboli uchun ota-ona o'g'il-qizni oilaviy hayotning hamma muammolariga ma'suliyat bilan yondashadigan, o'z umr yo'ldoshini hurmat qiladigan, unga hamma vaqt tayanch, sodiq do'st bo'ladigan, shuningdek, qayin-bo'yinlariga munosabatini, kelinlik, kuyovlik vazifasini o'rniga qo'ya oladigan, ya'ni ularni farzandlik burchini o'tay oladigan qilib tarbiyalashi zarur.

Kuzatishlarda ayrim yoshlarning oilaviy hayotga ma'naviy tayyor emasligi, ularda his-tuyg'ular, oilaga jiddiy mas'uliyat hissi etishmasligi ma'lum bo'lmoqda. Shuningdek, ular oilasi, farzandlari oldidagi, qolaversa, jamiyat oldidagi burchlarini yaxshi anglamaydilar. Bunday yoshlarning ko'pchiligi oila byudjetini rejalashtirish, unga amal qilish, uy yumushlarini oila a'zolari o'rtasida to'g'ri taqsimlash, ota-onalar fikri bilan hisoblashish va hakozolarni bilmaydilar. Bu hol o'quvchi va talaba yoshlarni kelajakdagi oilaviy hayotga moddiy va ma'naviy jihatdan tayyorlashni taqozo etadi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga oilaviy turmush munosabatlarining butun sistemasini, ya'ni, oilada sog'lom psixologik muhit yaratish, kelin va kuyovning bir-birini tushunishga harakat qilishi, mayda-chuyda gaplardan chetlab o'tishi, uy tutish, ro'zg'or tebratish, poklik, zebolik, hayo, andisha, qaynota-qaynonasini siylashi, ularni hurmat qilishi kabi fazilatlarini singdirib o'rgatib borish zarur.

Yoshlarimizda bu masala bo'yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun, bundan 90-100 yillar oldingi ularning tengdoshlari, ya'ni o'tgan asrning boshidagi va bugungi kunlarimizdagi 15-16 yoshli yigit-qizlar o'rtasidagi tafovutlarni solishtirib o'tamiz.

Maxsus adabiyotlarda yozilishi va o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akselerasiya jarayoniga ko'ra, ularning jinsiy, fiziologik balog'atga etishi 2-3 yilga ilgari ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog'atga etish davri 15-16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12-13 yoshlarga to'g'ri keladi. Endi shu yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlik jihatlarini ko'rib chiqamiz.



Ilgarigi tengdoshlaringiz 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo'lmish jinsiy etuklikka, balog'atga etar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bolalarni odatda, 13-14 yoshidan shogirdlikka berishgan), o'sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayonlar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilmagan, 3-4 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshida o'zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o'z ishini amallab keta oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigan bo'lsa, o'z hunari orqali mehnat qilib o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigit mahalla-ko'yda, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy etuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbir va marosimlarda etuk, uning haqli ishtirokchisi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga etganligi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Bu jarayon shaxsning oldiga, oila va jamiyat oldida o'ziga xos mas'uliyat yuklagan, mas'uliyatni his qilish esa uning psixologik etukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Endi shu xususiyatlarni bugungi kun yoshlarida ko'rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarda jinsiy (fiziologik) etuklikka erishadilar, biroq ular biror bir kasb-hunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab, o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun, avvalo, maktabni bitirishi, so'ng u yoki bu kasb-hunar kolleji yoki akademik liseyda o'qib, biror-bir kasbni egallashi kerak. Buning uchun 9 yil maktabda, kollej yoki liseyda o'qishi zarur bo'ladi.

12 yillik barcha uchun majburiy ta'limdan so'ng yoshlarimizning ma'lum bir qismi o'qishni oliy o'quv yurtlarida davom ettiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma'lum qismi uchun 20-21, boshqalari uchun 23-25 yoshga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, odamlarning turmush tarzi rivojlanishi bilan birga oilalarining kundalik hayoti o'zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga, moddiy farovonlik darajasiga bo'lgan ehtiyoji ham ortib boradi.

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi shaxsni madaniy takomillashuviga, u esa shaxslarni bir-birlariga qo'yadigan talablari oshishiga va shaxslararo munosabatni noziklashuviga olib keladi. Fikrimizning dalili sifatida bir faktni keltirishimiz mumkin. Ajralish foyizi oliy ma'lumotlilar ichida umumiy o'rta ma'lumotlilarga nisbatan yuqoriroqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuqori saviyada bo‘lmagan jamiyatdagi oila a‘zolari o‘zlarining oilaviy yumushlarining aksariyatini qo‘lda bajaradilar. Unga oilaning barcha a‘zolari va birinchi navbatda, farzandlar mumkin qadar ko‘p jalb qilinadi. Oila ishlarini bajarishdagi umumiy faoliyat yoshlarda ma‘lum malakalarni, shu jumladan, oiladagi tegishli rollarni bajarishni, oilada bir-birlari bilan qanday muloqotda bo‘lish malakalarini, oilada har bir shaxsning iyerarxik mavqeiga ko‘ra o‘z huquq va vazifalarini aniqlab olishiga imkon beradi.

Moddiy ta‘minot, yuqori madaniy saviya esa oilada shaxsning shaxsga qo‘ygan talabini yanada kuchaytiradi. Oila a‘zolarining o‘zaro muloqotda bo‘lish vaqti, miqdorini qisqartiradi. Bu esa ko‘pgina yoshlar uchun otana oilasi shaxsiy oilasiga namuna vazifasini bajara olmasligiga olib keladi.

Shulardan ko‘rinib turibdiki, bundan 100 yillar oldingi yoshlar 16-18 yoshida oila qursalar, ular shu vaqtga kelib oilaviy hayot uchun, muvaffaqiyatli turmush kechirib ketishlari uchun zarur bo‘lgan etuklik darajalarining barchasiga erishganlar, bu esa ularning oilaviy hayotlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning bartaraf etilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Bugungi yoshlarimiz esa yuqorida bayon etilganidek, 12-13 yoshlarida jinsiy balog‘atga etadilar va aksariyat hollarda oradan 7-8 yil o‘tgandan so‘ng, ya‘ni qizlar 19-20 yoshda, yigitlar esa 21-22 yoshda oila quradilar. Bu vaqtda esa ular na iqtisodiy jihatdan, na ijtimoiy jihatdan va na psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyor bo‘lmaydilar. Bunday holatlar shubhasiz, ularning oilaviy hayotlarida oldingi tengdoshlari hayotida kuzatilmagan muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o‘ziga xos yangi ijtimoiy funksiyalarni ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash masalasini eng dolzarb masalalardan biri bo‘lishini taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham so‘nggi 15-20 yil davomida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida, bizning respublikamizda esa mustaqillikka erish-ganimizning dastlabki yillaridanoq, oila masalalariga, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalariga, oilalarda komil shaxsni shakllantirish masalalariga alohida e‘tibor berib kelinmoqda. Umuman, insoniyat jamiyati tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligini ham shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo‘lgan e‘tibor ham kecha va bugunga qaraganda ertaga yanada yuqoriroq bo‘ladi. Chunki, oila jamiyatning kichik bir ko‘rinishi bo‘lib, u qancha inoq, ahil va mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik qudratli bo‘ladi. Mana „Oila psixologiyasi“ kursini yoshlarga o‘qitishning dolzarbligini ifodalovchi asosiy omil.

„Oila psixologiyasi“ kursining yaratilishi va uning o‘quv predmetlari qatorida maktab, kollej, liseylarda o‘tiladigan darslar jadvaliga kiritilishi ham Respublikamiz hukumati tomonidan yuritilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning mantiqiy va mazmuniy davomidir.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, oila va oilaviy munosabatlarda er-xotin o‘rtasida kelishmovchiliklar, nizolar bo‘lib turishi tabiiydir.

Oilada er-xotin orasida sodir bo‘ladigan kelishmovchiliklarning sabablari bir qanchadir. Shulardan ba‘zilariga to‘xtalmoqchimiz.

Ishga muvaffaq bo‘lgan ba‘zi erkaklar xotinlariga e‘tiborsiz bo‘lib qoladilar. Uy-ro‘zg‘or ishlari va bola tarbiyasi bilan umuman qiziqmaydilar, uyiga yotoqxonaga yoki mehmonxonaga kelganday keladilar va yotib uxlab turib, yana ishlariga ketaveradilar.

Xotin kishilarning ko‘pchiligi uchun esa uy, oilaviy hayot tabiatning butun bir olamidir. Hatto, ishda o‘tirib oilasi haqida o‘ylaydi, uy-ro‘zg‘or tashvishlari-yu quvonchlarini uning hayolidan nari ketmaydi. Ish orasida yoki tushlikdan foydalanib, uy-ro‘zg‘or uchun zarur narsalarni xarid qiladilar. Ishdan keyin bog‘chaga yuguradi, uyga qaytayotib esa qanday ovqat tayyorlash haqida o‘ylab ketadi. Ishga berilgan erkaklar, hatto, uyga kelib ham ertangi qiladigan ishlarining rejasini tuzish bilan band bo‘ladi. Ayollar ishxonada „mehmon“ sifatida o‘tirib, uyga shoshilsa, erkak kishi oiladan ishga qochadi, aynan ishlar oqibatida oilaviy kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

Bu kabi ziddiyatlarning oldini olish uchun erkaklar, eng avvalo, oilaga e‘tibor bo‘lmashliklari kerak. Erkaklar vaqti-vaqti bilan ayollariga etarlicha e‘tibor berolmaganliklari tufayli, vaqtini topib ayoli ko‘nglini ko‘tarishlari, uning bebaho mahoratiga tasannolar aytishi, dam olish kunlarida bolalar tarbiyasiga, uy-ro‘zg‘or ishlariga qarashib turishlari kerakdir.

Ba‘zan onalar qizlariga „ering bilan janjallashganingda ko‘z yoshi qil“, deb maslahat berishadi. Bunda chuqur psixologik ma‘no bor. Negaki, xotin ko‘zlarida yosh ko‘rgan er buni mag‘lublik belgisi deb biladi. Jahldan tushadi, rahm-shafqat tuyg‘ulari paydo bo‘ladi. Murosaga keladi. Xotining ko‘nglini topishga urinadi. Ko‘rib turibsizki, bundan avval kelin, keyin oila yutadi. Buni ayollar bilib qo‘ygani yaxshi.

Avvalo, oilada yoshlar „oila taxti uchun kurash“ erga ham, xotingga ham foyda keltirmasligini, aksincha, har bir janjal gullab turgan oila daraxtiga urilgan bolta zarbi ekanini yaxshi bilib olishlari kerak. Dono xalqimizdan qolgan, „Bir kun janjal bo‘lgan uyda, qirq kun barakasi, ko‘tariladi“ deb aytilgan iborani unutmasligimiz kerak bo‘ladi.

Oilada er-xotin munosabatlarining hissiy rivojlanishi, er-xotin samimiyligi, bir-biriga yaqinlik, qadrlash, hurmat qilish oilaviy tur-

mushning dastlabki bosqichlarida, aksariyat hollarda, nisbatan yaxshi bo'ladi. Bu esa ko'p jihatdan sevgi-muhabbat tufayli paydo bo'ladi. Muhabbatga bo'lgan ehtiyojning ifodalanishi har bir inson hayotida go'daklikdan paydo bo'ladi. Bu dastlab onaga, otaga, oila a'zolariga bo'lgan munosabatida o'z ifodasini topadi. Kattaroq bo'lgach, butun bir qalb, vujud tuyg'ular, fikr, ruhiy holat kimnidir izlaydi, nimagadir intizor. Odamda butun qalbi, borlig'ini kimgadir bag'ishlagisi, kimnidir ardoqlagisi, bir umrga u bilan hayotini bog'lash istagi paydo bo'ladi. Bunday odam tinchini yo'qotadi, atrofga boqib dil quvonchini izlaydi.

So'nggi yillarda mustaqil respublikamizda oila, nikoh munosabatlarida katta o'zgarishlar kuzatilmoqda, bu boradagi ishlarda yutuqlar bilan bir qatorda ayrim muammolar ham ko'zga tashlanadi. Ba'zan oila, nikoh masalalariga bepisand qarovchilar ham uchrab turadi, mustahkam oilalar ko'payishi bilan birga ba'zi buzilayotgan oilalar ham yo'q emas. Oqibatda, „tirik etimlar“ ota-ona mehridan uzoq bo'lgan qarovsiz bolalar soni ko'paymoqda.

Ba'zi ota-onalar tomonidan bolalar tarbiyasiga e'tibor pasayib ketganligi tufayli o'smirlar qonunbuzarlik yo'llariga kirib qolishlari, oilada o'zaro kelishmovchiliklar, urush janjallar tufayli fojeali voqealar kelib chiqadi. Oilada aka-ukalar, qaynona-kelin va er-xotin munosabatining buzilishi yomon oqibatlarga olib keladi.

Oila baxti, farzandlar istiqboli uchun ota-onalar o'g'il-qizlarni oilaviy hayotning muammolariga ma'suliyat bilan yondashadigan, umr yo'ldoshini hurmat qiladigan, unga hamma vaqt tayanch, sodiq do'st bo'ladigan, kelinlik, kuyovlik vazifalarini o'miga qo'yadigan, farzandlik burchini o'tay oladigan qilib tarbiyalashalari zarur.

Oilada er-xotinlar orasida bo'layotgan ajralishlarning natijasida bolalarning ruhan ezilish, ichki xavotirlanish, nafratlanish, bezovtalanish, qiynalish kabi barcha hollar ta'sirida shakllanishlar yuzaga kelmoqda. Farzandlar oiladagi urush-janjallarni ko'raverib, ich-ichlaridan jarohatlangan holda rivojlanadilar. Ota-onalarning o'z muammolari bilan band bo'lishlari natijasida farzandlari xulqi og'ishganlar davrasiga kirib qolganlarini sezmay qolish hollari, ota-onalarning kelisha olmaganliklari natijasida bolalarni mehribonlik uylarida, ko'ngillari o'ksigan holda hayot kechirishlari kuzatilmoqda.

Oilada ota-onalarning ichkilikka ruju qilishi, buning oqibati va boshqa sabablarga ko'ra tez-tez sodir bo'lib turadigan oilaviy janjal-majoralar tufayli bolalarning oromi buziladi, uyqusi qochadi, cho'chiydigan bo'lib qoladi, asab sistemasi kasalligiga chalinadi, farzanlari ko'z o'ngida ota-onaning obro'si to'kiladi.

Yuqoridagi ko'ngilsizliklarning ro'y birishiga sabab oilada ishonch, mehr, muhabbat, vafoning etishmasligida, er-xotinning bir-biriga ishonmasliklari esa muloqot madaniyatining pastligi, o'zaro samimiyat yo'qligidir. Oiladagi ajralishlar ham bolalarni muloqotdan o'zini chetga olishlariga olib kelayпти.

## **10.2. Oilada sog'lom muhit psixologiyasi**

O'sib kelayotgan shaxsda ijobiy sifatlar shakllanishida oiladagi sog'lom muhit katta ahamiyat kasb etadi. Oilada sog'lom muhitning yaratilishi ko'p omillarga bog'liq bo'ladi. Masalan, oila boshliqlari bilan bolalarning o'zaro yaxshi munosabati, xonadon qariyalariga hurmat, e'tibori, oiladagi bolalarning o'zaro munosabatlari, to'g'ri tarbiyalangani, ota-onaning bolalar tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o'rnatilgan to'g'ri tarbiya va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'lish kabilar shular jumlasidandir. Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa, demak, o'sha oiladagi sog'lom muhitga putur etadi.

Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati, o'zlarini tuta bilishlari muhimdir. Oilada muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi lozim. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mehribonlik, ayniqsa, ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanib borishi kerak. Bolalarga onani hurmat qilishni, unga mehribon bo'lishni o'rgatish otaning muhim vazifasi.

Odatda o'g'il bola otasiga, qizlar esa onasiga o'xshashga, ulardagi yaxshi xislatlarni o'ziga singdirishga harakat qiladi. Ota ham, ona ham bolani tarbiyalashga o'z hissalarini qo'shadilar. Ona g'amxo'r, mehribon, ko'ngilchan uy bekasi bo'lsa, ota kuch-qudrat, jasurlik, qattiqqo'llik va adolat ramzi. Ota ko'proq bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun qayg'ursa, ona yurish turish, muomala, his-tuyg'u, nafosat uchun tashvishlanadi. Bularning hammasi nisbiy bo'lib, ota ham, ona ham bolaning aqliy, axloqiy, jismoniy kamoloti uchun baravar javobgar, chunki, ularning birdan-bir maqsadi shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Ana shu jarayonning mufaaqqiyatli bajarilishi, ko'p o'rinda ota-onaning obro'sini belgilaydi.

Oilada er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va vafosadoqat bolalarning quvnoq, xushchaqchaq o'sishlariga, normal tarbiyalanishlariga, xonadonda sog'lom muhit yaratilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Oila a'zolari o'zaro hurmatni o'rniga qo'yishlari, bir-birlari uchun jon kuydirishlari, yaxshi munosabatda bo'lishlari kerak. Oilada hamisha

samimiyat va ko'tarinki ruh hukmron bo'lsa, oila a'zolarining kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi.

Qaysi oilada nohaqlik, qo'pollik, do'q-po'pisa, asabiylik, hukmron ekan, unda halovat ham bo'lmaydi. Oiladagi arzimagan janjal ham dastavval bolalarning psixik holatiga ta'sir qiladi, ularda yomon odatlar hosil bo'lishiga olib keladi. Bolalar ulg'aygach, ular ham qush uyasida ko'rganini qiladi qabilida ish tutishadi. Ota-ona bir-birini behurmat qilmasligi, obro'larini tushirmasligi, oilaviy nizolarni bola yo'q vaqtida bartaraf etishlari shart. Oiladagi sog'lom vaziyatni barpo etish uchun er-xotin baravar ma'suliyatli bo'lishlari, agar ulardan biri mehribonroq, xushtavozeroq bo'lsa, u ikkinchisiga namuna ko'rsatishi lozim.

### **10.3. Yoshlik faslining o'ziga xos odobi va psixologiyasi**

Haqiqatdan yoshlik, etuklik yoshi inson umrining bahori. Badan kuch-quvvatga to'lgan, qalblarda his-tuyg'u, orzu tilaklar jo'sh urgan davr.

Sevish-sevilish, yashash, o'qish, ishlash tilagi xayolni band qilgan dam. „Qanday kasbni egallasam, qanday yashasam ekan, qanday kiyinib, qanday yursam ekan, odamdagi eng yaxshi fazilatlar nima va ularni qanday qilib egallash mumkin“ kabi savollarga javob izlash chog'i. Tug'ilib o'sgan el-yurt qadrini, ota-ona, tuqqan-tug'ishganlar mehrini, do'st-o'rtoqning oqibatini tushunish, e'zozlash, hayotda o'zining munosib o'rnini topib olishga intilish davridir.

Yoshlik-balogat yoshi, o'zini-o'zi boshqarish, oilaviy turmush qurishga o'zini puxta tayyorlash davridir. Uning o'z murakkabliklari ham mavjuddir. O'n sakkiz yoshga etgan yoki shu yoshga yaqinlashganlar uchun his-tuyg'u sofligini saqlab qolish juda muhim. Bu yoshda qalbda sevish, sevilish istagi jo'sh ura boshlaydi. Ammo, ba'zan o'tkinchi his-hayajonlar, hirsiy intilishlar samimiy sof tuyg'uning o'rnini egallab, yoshlarni noto'g'ri yo'lga olib kirishi mumkin.

„Sindbodnoma“da soch oqarmasdan, yosh, go'zal chehra so'lmasdan, quyosh oq bulut parda bilan qoplanmasdan, zebo tunlar keksalik chandirlari bilan almashinmasdan, qon suyulib, rangsiz bo'lmasdan, taqdir jarrohi ko'zning asab nurini qirqmasdan, aldanchi vaqt gul yuzlarga qahrabo talqonini sochmasdan, anor behiga aylanmasdan, ko'z qarilikdan, qizil yuzlar bujmaymasdan burun, bahor — yoshlikni zinhor bekorga sovrma, deyiladi. Haqiqatan ham har bir yigit yoki qizning birdan-bir orzusi bo'ladi, u ham bo'lsa, o'zi xayolida ideal bo'lgan yomi uchratib, sevib oila qurishdir. Lekin

hayotda hamma vaqt ham shunday bo'lavermaydi. Yoshlar psixologiyasida shu narsa ham uchrab turadiki, qizlar o'z shanlari, yigitlar o'z g'ururlarini noto'g'ri tushunishadi, bu esa yigit bilan qiz bir-birini tushunmasligiga olib keladi. Masalan, ba'zi yigitlar uylanishgacha bir necha ayollar yoki qizlar bilan uchrashadilar, hatto norasmiy yaqinlashadilar. Uylanishga kelganda esa „onasi o'pmagan“ qizni qidiradilar.

Qizlarimiz esa bunday yigitlarning yolg'on gaplariga uchib, ularning iltifotlarini sevgi deb o'ylashadi, keyinchalik yigit bir narsadan janjal chiqarib, urushib tashlab ketgandan so'ng, aldanganini sezishadi, tushkunlikka tushishadi, ba'zilar bo'lar ish bo'ldi deb, aysh-ishratga berilib ketishadi, boshqalarida esa yigitlarga ishonch yo'qoladi. Ular ham yolg'on ishlatib turmush qurishga intilishadi. Yigit ko'p qizlar bilan yaqin aloqada bo'lgani tufayli xotin qizlarga nisbatan didini yo'qotib qo'yadi va xotiniidan sovub ketadi. Bo'lar-bo'lmasga oilada janjallar ko'taradigan, xotiniga bevafoqlik qiladigan bo'lib qoladi.

#### **10.4. Oilada bolalar tarbiyasi**

Farzand — oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi. Shuning uchun ota-bobolar o'z maqollarida er-xotonga farzandlarni ko'paytirishni va bu bilan jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishni tavsiya qilganlar: „O'nta bo'lsa o'rni boshqa, 40 ta bo'lsa — qiligi“, „Bolaning yo'g'idan bori yaxshi, ochidan to'qi yaxshi“, „Xotinsiz o'tish — xato. Bolasiz o'tish jaf“. „O'g'li yo'qning o'rni yo'q, qizi yo'qning qadri yo'q“, „O'rada yotda o'g'il tug'“, „Tug'iladigan bolaga to'g'anoq bo'lmas“, „Bolali uydan baxt arimas“, „Olti o'g'illining olti arshda moli bor“, „Qo'y egiz tug'sa, cho'pning boshi ayri tug'adi“, „Og'ilda o'g'il tug'lsa, adirda o't unib chiqadi“. Keyingi ikki maqolda er-xotinlarga „Bolam ko'payib ketsa, ularni boqishga qiynalib qolaman, deb qayg'urib yurmang, har bir bolaning o'z rizqi bor“, deyiladi.

Xalq maqollarida yaxshi va yomon farzandlarning fe'l-atvori, yurish turishi, xatti-harakati, gap-so'zi, qiliqlari, ota-onaga va boshqalarga tegadigan foydasi, hamda ziyoni har tomonlama ifoda etiladi: „Yaxshi bo'lsa-bola, yomon bo'lsa-balo“, „Yaxshi qiz yoqadagi qunduz, yaxshi yigit- ko'kdagi yulduz“, „Qobil farzand-jonga payvand“, „Yaxshi qiz erta turib soch tarar, yomon qiz erta turib non so'rar“, „Yaxshi o'g'il uy tuzar, yomon o'g'il to'y buzar“, „Qobil o'g'il otga mindirar, noqobil o'g'il otdan yiqitar“, „Yomon bo'lsa bolasi, kamon bo'lar otasi“.

Insonning qanday kishi bo'lib etishishi ko'p jihatdan oiladagi tarbiyaga, ota-onaning mas'uliyatiga, bola tarbiyasining umumiy

qonuniyatlarini yaxshi bilishga va hayotda ularga qanchalik amal qilishga ham bog'liq. Bolalarning hozirgi kundagi intilishlari birgina oilaviy manfaatlar bilan bilan cheklanmaydi.

Tarbiya — ko'p qirrali uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muhitning hammasi odamlar, narsalar, hodisalar uning ongida, hulq-atvorida ma'lum iz qoldiradi, uni o'zgartiradi va o'stiradi. Ota-onalik burchi mana shu o'sishni ziyraklik bilan boshqarib borish. Ota-onaning mehri, muruvvati, g'amxo'rliigi bolalar uchun suv va havodek zarur.

Oilada bola tarbiyasining o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, ota-onalar ulardan o'rinli foydalanishlari lozim.

Xususan, ular quydagilar:

1. Oilada hissiy moslik, ruhiy xotirjamlik va iliq iqlim yaratish;
2. Ota-ona obro'sini saqlash;
3. Tarbiyada ota-ona, kattalar o'rtasida talabchanlik;
4. Bola shaxsini mehnatda tarbiyalash;
5. Oila, bog'cha, maktab va jamoatchilik hamkorligi;
6. Bolani sevish va izzat qilish;
7. Oilada qat'iy reja va kun tartibi o'rnatish;
8. Tarbiyada bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.
9. Bola taraqqiyotini aniqlab borish.

### **10.5. Oilaviy munosabatlar odobi va psixologiyasi**

Yigit va qiz tanishib, uchrashib turadilar. Nihoyat, ular o'z munosabatlarini qonuniy rasmiylashtirmoqchi bo'ladilar. Nikoh qayd etilib, to'y bo'ldi. Xo'sh, bu yangi oila tashkil topdi deganimi? Qonuniy jihatidan ha, lekin aslida-chi? Oila, eng avvalo, bir butunlikni taqazo etadi. Boshqacha aytganda, kelin va kuyov dutorning alohida-alohida torlari bo'lib qolmay, bir xil tovush beradigan sozda turishi lozim. Buning uchun yigit va qiz orasidagi muhabbat ular kuyov va kelin bo'lgandan so'ng yana ham mustahkamlanishi, uyg'unlashib ketishi kerak. Ana shundagina yangi turmush qurgan kelin-kuyovlarning o'zaro munosabatlari samimiyat, tenglik va adolat asosiga quriladi. Fransuz yozuvchisi Anatol Frans „Sevgi olovga o'xshagan narsa qalab turmasang o'chib qoladi“, degan.

Ayrim holda, to'ydan keyin kelin-kuyov o'rtasidagi mehr-muhabbat susayganday bo'lib qoladi. Buning sababi, bir tomonda turmush ikir-chikirlari, ayrim qiyinchiliklarning kelib chiqishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, yosh kelinning ro'zg'or tuta bilmasligi, uy ishlariga



no'noqligi, o'ziga qarab yurmasligi, ma'naviy jihatdan o'zini boyitib bormasligidir.

Ma'lumki, biron qiz uchrashuvga yasanmasdan, o'ziga oro bermasdan bormaydi, albatta. Lekin ayrim kelinchaklar sochini taramay, ust boshini dazmol qilmay, tashqi ko'rinishga qaramay qo'yadi. U „mayda-chuydalar“ emas, balki ahamiyatga molik narsalar-ki, ularning hammasi yig'ilib, muhabbat imoratini qulatiishi mumkin.

Uyda, oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, samimiyat va xayri-xohlik, o'zaro yordam munosabatlari tarkib topsa, ularning kayfiyati hamisha chog' bo'ladi va mamnun hayot kechiradilar. Vrachlar kasalliklarning sabablarini o'rganar ekanlar, ko'p kasalliklar oilaviy janjallar tufayli vujudga keladigan asabiy holatlardan boshlanishini aniqlaganlar. Ularning ta'kidlashlaricha, infarkt va insultlarning yarmi oilaviy janjallardan so'ng yuz bergan. Shuning uchun har bir kishi ishda, ko'cha-ko'yda o'zini qanday tutsa, uyda ham shunday tutishi, hech qachon erkak „ko'cha xandon, uy zindon“ bo'lmasligi kerak. Uyda o'zini tuta bilish tarbiyalanganlik darajasini belgilaydigan asosiy o'lchov bo'lishi lozim.

Yangi turmushda kelin-kuyov qo'sha qarib, baxtli oila qurib ketishlari uchun quyidagilarga amal qilishlari maqsadga muvofiq.

**Kelin:** — erining xarakterini o'rganishi, tushunishi, ko'nglini topishga intilishi, quvontirishi;

— yangi oila sharoitiga moslashishi, kelinlik-bekalik, ayollikni o'rninga qo'ya olishi;

— qaynona va qaynotani o'z ota-onasidek ko'rib hurmat qilishi, ularni maslahatgo'y deb bilishi, dilidagilarni tushunishi, og'irini engil qilishga harakat qilishi;

— oila sirini tashqariga chiqarmasligi, ba'zan ayrim narsalarni ichiga yuta bilish, o'zaro munosabatlarda bir-birini hurmat qilishi, og'ir-vazmin, vafo-sadoqatli, oila sha'niga munosib xatti-harakatda bo'lishi;

— xarakteridagi yomon odatlar: o'jarlik, manmanlik, kat-ta ketishlik, „sendan kammanmi“, „bo'lganim shu“ larga yo'l qo'ymasligi, ayrim narsalarda bir-biriga yon berib murosayu madora qila olishi kerak.

**Kuyov:** — onani bir qo'lida tutsa, rafiqasini ikkinchi qo'lida tutib hurmat qilishi, har ikkala tomonga munosib muomalada bo'lishi, onasi bilan rafiqasi o'rtasida mehr

- iplari mustahkam bog‘lanishiga o‘z hissasini qo‘shishi;
- ayol tabiatini tushinishi, tenglik qonuniga amal qilishi, arrani barobar tortishi, oilaga, rafiqaga, farzandlarga sodiq bo‘lib yashashi;
- qaynona-qaynotasiga o‘g‘ildek bo‘lishi, amalda buni isbotlashi, ularni siylashi, izzat talab bo‘lmasligi darkor. Aks holda, o‘rtaga sovuqchilik tushib munosabatga darz ketadi.

### **Asosiy tushuncha va atamalar**

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oilaviy munosabat, o‘zaro moslik, er-xotin, oilaviy tarbiya, oilaviy nizolar, diniy tarbiya, milliy tarbiya, oilaviy sog‘lom muhit, sevgi muhabbat, oilaviy munosabatlar odobi, oilada erning vazifalari, oilada xotinning vazifalari, oilaning ma‘naviy asosi, oila qurish omillari, oilaning vazifalari.

### **Rezyume**

Ijtimoiy munosabatlar sof ma‘noda insonlar orasida olib boriladigan munosabatlar bo‘lganligi bois, oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasiga doir bilimlarni bilish, oilaviy munosabatlar sog‘lomligini ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, oilaning vazifalari, oila qurishdagi nikoh oldi omillar, oilaning huquqiy, ma‘naviy asoslari to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lish yoshlarning kelgusi oilaviy munosabatlarida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

### ***Bob yuzasida savol va topshiriqlar***



1. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Er-xotin munosabatlarining o‘ziga xosligi nimada?
3. Oilaning vazifalari haqida gapiring?
4. Nikoh oldi omillari deganda nimani tushunasiz?
5. Oilada farzandlar tarbiyasining pedagogik-psixologik masalalari deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari sizningcha nimalarga bog‘liq?
7. Oilaga doir donishmandlarning qanday fikrlarini ayta olasiz?

## GLOSSARIY

**Adekvatlik** — teng, o‘xshash, muvofiq kelmoq.

**Analogiya** — psixik hodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o‘xshashligi.

**Anglangan motiv** — o‘z faoliyatini anglab, belgilab, rejalashtirib, ma’lum bir maqsad sari intilish.

**Anglanmagan motiv** — o‘z faoliyatini anglamay, bilmay, maqsadni amalga oshirishdir.

**Anketa** — metodlardan biri bo‘lib, respondent to‘g‘risida aniq ko‘zlangan ma’lumotlarni yig‘ish maqsadida qo‘llaniladi.

**Assosiasiya** — psixik hodislar orasidagi o‘zaro bog‘lanish, u ma’lum qonunlar bo‘yicha tarkib topadi.

**Attraksiya** — bir kishini boshqa kishi ko‘rib qolganda, idrok etishda yuz beradigan tafakkur turi.

**Apatiya** — kishining tevarak atrofdagi olamga nisbatan befarqlik xolati.

**Astenik** — shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar.

**Audivizual idrok** — shaxsning bir vaqtning o‘zida ham eshitib, ham ko‘rib idrok qilishi.

**Autogen mashq** — shaxsning o‘z-o‘zini ishontirish va o‘z-o‘zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

**Affekt** — kuchli, jo‘shqin va nisbatan qisqa muddatli emosional kechinmalar sifatida ro‘y beradigan psixologik holat.

**Biografik metod** — odamni uning tarjimai holi bilan bog‘liq bo‘lgan xujjatlar orqali o‘rganish usuli.

**Breynshtorming** — aqlga hujum — bahslarni tashkil etishda qo‘llaniladigan interfaol usuldir.

**Bosqichlar** — muloqotda mavjud bo‘lgan shaxsning o‘zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni.

**Verbal** — og‘zaki ifodalangan nutq.

**Genotip** — ota-onadan farzandga o‘tadigan irsiy belgilar majmui.

**Gerontopsixologiya** — psixologiya tarmog‘i, qarilik davri psixologiyasini o‘rganadi.

**Guruh** — odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo‘lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

**Dunyoqarash** — odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o‘zining tutgan o‘rniga qarashlaridan kelib chiqqan tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig‘indisi.

**Depressiya** — tushkunlik kayfiyati.

**Dialog** — ikki va undan ortiq kishilarning o‘zaro og‘zaki gaplashishi.

**Dialogik nutq** — nutq turlaridan bo‘lib, bunda so‘zlovchilar barobar teng, birgalikda faollik ko‘rsatadi.

**Dominant shaxs** — boshqalar bilan muomala va munosabat o‘rnatishda o‘z fikrini o‘tkazish xislatining yorqin namoyon bo‘lishi.

**Jamoa** — maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

**Jamoaning negizi** — umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a‘zolari.

**Yo‘nalish** — shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat‘i nazar ma‘lum yo‘lga yo‘naltiruvchi barqaror motivlar yig‘indisi.

**Individuallik** — individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o‘ziga xosligi, qaytarilmasligi.

**Iste‘dod** — shaxsning ma‘lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

**Ijtimoiy psixologiya** — psixologiya fanining o‘ziga xos maxsus tarmog‘i bo‘lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari o‘rganiladi.

**Ijtimoiylashuv** — inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayoni.

**Ijtimoiy tasavvurlar** — shaxsga jamiyat orqali ta‘sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol obrazi.

**Interaktiv** — shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta‘sir ko‘rsatish jarayoni.

**Introvert shaxs** — shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o‘z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi.

**Yo‘nalganlik** — ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo‘naltirib turadigan va real vaziyatga nisbatan turg‘un, barqaror motivlarning namoyon bo‘lishi. Yo‘nalganlik — shaxsda mavjud bo‘lgan ehtiyoj, ishtiyoq, berilish, qadriyatlar, e‘tiqod manbaida shakllanadi.

**Kayfiyat** — kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holat. Kayfiyat shod-xurramlik, qayg‘ulilik, tetiklik, bosliqlik, hayajon. lanjchik, jiddiylik, engiltaklik, jizzakilik, muloyimlik va hokazo tarzda bo‘ladi.

**Kasbiy idrok** — xodimni kasbiy faoliyat uchun ahamiyat kasb etadigan hodisa, holat, ob‘ektlardan predmetli ravishda kerakli narsalarni ajratib olib yaxlit holda ongida aks ettirish, oddiy shaxs ko‘ra olmagan holatlardagi narsalarni tez va oson ilg‘ash jarayoni. Yaxshi rivojlanmagan kasbiy idrok xodimda illyuzion idrok qilish xususiyatini shakllantiradi.

**Kasbiy diqqat** — nimaga, qachon, qayerda, nima uchun diqqatni qaratish kerakligini belgilab beruvchi xususiyat hisoblanadi. Kasbiy diqqatning yaxshi rivojlanganligi diqqatning maqsadli va mohirona yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi.

**Kasbiy mahorat** — xodimda tezkor xizmat vazifalarini bajarish sifati va samarasini begilovchi bilim va tajribalarning yuqori darajada shakllanganligida namoyon bo‘ladi.

**Kasb** — faoliyat shakllari birlashmasi bo‘lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat subyektini tayyorlashga qo‘yiladigan talablar majmui.

**Kontent-analiz** — tekshirilayotgan matnda so‘z, ibora, abzaslarni ma‘no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli.

**Kuzatish** — sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog‘liq ravishda tekshirish, o‘rganish, ma‘lumotlar to‘plash metodi.

**Kommunikativ** — shaxslararo munosabatlarda ma‘lumot, axborot, g‘oyalar almashinuvi jarayoni.

**Kichik guruh** — a‘zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo‘luvchi kishilar guruhi.

**Ko‘nikma** — odamning ma‘lum ishni bajarishga tayyorligida ko‘rinadigan qobiliyati. K. mahoratining asosini tashkil etadi.

**Longityud tadqiqot** — sinaluvchini uzoq muddat va doimiy ravishda o‘rganish.

**Metod** — bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisi.

**Metodologiya** — tadqiqot, tekshirish usuli bo‘lib, bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisidir.

**Motiv** — ma‘lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undovchi sabab.

**Motivasiya** — odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

**Malaka** — mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari.

**Mehnat psixologiyasi** — kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o‘rganadigan fan.

**Mehnat faoliyati psixologiyasi** — bu psixologiyaning bir sohasi bo‘lib, inson shaxsini mehnat subyekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shart-sharoitlari, yo‘llari va usullarini ilmiy jihatdan o‘rganadi.

**Mehnat** — inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat.

**Mutaxassislik** — faoliyatning aniq shakli bo'lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi.

**Mehnat subyekti (egasi)** — bu faol harakat qiluvchi, anglash va o'zgartirishga layoqatli, ong va iroda bilan ish olib boruvchi individ yoki ijtimoiy guruh.

**Muloqot** — ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi.

**Melanxolik** — temperament turlaridan biri bo'lib, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, hatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotda berilishi bilan xarakterlanadi.

**Monologik nutq** — bir odamning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.

**Monolog** — ma'ruzachi tomonidan nutq so'zlanishi, ma'ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo'lgan jarayon.

**Mobil shaxs** — shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi.

**Negativizm** — individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqiyeni namoyon qilishi.

**Norasmiy** — odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko'zda tutilishi.

**Noverbal** — nutqsiz ifodalangan harakat, mimika, holatlarning boshqa shaxsga yo'naltirilishi.

**Nizolar** — o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, bunda fikrlar, pozisiyalar, qarashlar teskariligi kuzatiladi.

**Nizo turlari** — nizolarning kimlar orasida yuzaga kelishiga ko'ra farqlari: shaxslararo, guruhlararo, shaxsiy, etnik, milliy; namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra: ochiq, yopiq, uzoq muddatli, qisqa; mavqiye yoki darajaga ko'ra: vertikal va gorizontal; yo'nalishiga ko'ra: destruktiv va konstruktiv.

**Oila** — turmush qurish, qarindosh-urug'chilik asosidagi kichik guruh.

**Psixika** — yuksak darajada tashkil topgan materiya, miyaning funksiyasi bo'lib, uning mohiyati tuyg'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko'rinishida aks ettirishdan iborat.

**Psixologiya** — odamning ob'ektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-hissiyot va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

**Psixik holatlar** — psixik hayot shakllari, diqqat, hissiyot, iroda jarayonlariga aytiladi. P.H. (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat'iylik, tirishoqlik v.b.) shaxslarda ma'lum darajada barqaror bo'lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi.

**Pilotaj tadqiqot** — tadqiqotning muammoli izlovchi turi, asosiy tadqiqotgacha o'tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli.

**Psixodiagnostika** — shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli.

**Psixologiya metodlari** — psixik xodisalarni va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o'rganishning asosiy yo'l-yo'riq va usullari.

**Psixokorreksiya** — shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo'llash jarayoni.

**Psixologik maslahat** — shaxsning turli darajadagi o'z muammolarini yakka tartibda psixolog bilan tahlil etishiga qaratilgan psixologik xizmat turi.

**Polilog** — guruh ichidagi munozara bo'lib, barcha ishtirokchilar faoalashuvi kuzatiladi.

**Perseptiv tomon** — shaxslararo munosabatlarda tushunish, his etish, idrok etishga qaratilgan jarayon.

**Professiografiya** — mehnat subyekting faoliyat tarkiblari (uning mazmuni, vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o'zaro munosabati va bog'liqligini o'rganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metod.

**Professiogramma** — kasbning turli ob'ektiv xarakteristikalarining tasnifi.

**Psixogramma** — faoliyatning psixologik xarakteristikalarining tasnifi.

**Rigid shaxs** — shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining past darajada kuzatilishi.

**Rasmiy** — odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida mavqiye, martabaning inobatga olinishi

**Real** — birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

**Referent guruh** shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yaqin tutgan guruhi.

**Sangvinik** — temperament turlaridan bo'lib, chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez o'zgaradigan, boshqalarga nisbatan dilkashlik, mehribonlik xislatlari bilan xarakterlanadi.

**Sanoat psixologiyasi** — sanoat va ishlab chiqarishda turli yuzaga keladigan muammo va xolatlarni psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilib olishga qaratilgan xizmatlari turi.

**Simpatiya** — bir kishida boshqasiga nisbatan kuzatiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo'lishi.

**Sosiologiya** — jamiyatda yuz beradigan turli voqea-hodisalarni va o'zaro munosabatlarni o'rganishga qaratilgan fan.

**So'rov** — asosiy metodlardan biri bo'lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma'lumot olinadi.

**Ta'lim maskanlari psixodiagnostikasi** — shaxsni ta'lim tizimda qobiliyati, iqtidori, iste'dodini aniqlab olish maqsadida olib boriladigan psixologik xizmat turi.

**Test** — sinaluvchini tekshirish jarayonida maxsus qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

**Tushuncha** — narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

**Tahlil** — tafakkur qilish usuli, bunda murakkab ob'ektlar qismlarga bo'linib o'rganiladi.

**Taqqoslash** — narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi.

**Trening** — mashq qilmoq, guruhlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo'lib, shaxsning muloqotga o'rgatish va obro'li bo'lishini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi.

**Temperament** — shaxsning individual-psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, u kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emosional tomonlari bilan xarakterlanadi.

**Tobe shaxs** — muloqot va boshqa jarayonlarda shaxsda ko'nikuvchanlik, boshqa kishilarga bog'liqlik, fikriga bo'ysunish xususiyatlarining tarkib topishi.

**Uyushganlik** — guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini anglashlari.

**Faoliyat** — insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirgan faolligi.

**Faollik** — tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

**Flegmatik** — temperament turlaridan biri bo'lib, harakatlar sekinligi, barqarorligi, emosional xolatlarining tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi.



**Xarakter** — kishidagi barqaror psixik xususiyatlarining individual birligi bo‘lib, shaxsning mehnatga, narsa va xodisalarga, o‘ziga va boshqa kishilarga munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

**Harakat** — maqsadga muvofiq yo‘naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig‘indisi. H. Ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

**Xulosa chiqarish** — tafakkurning mantiqiy shakllaridan bo‘lib, bir qancha xukmlar asosida ma‘lum xulosa chiqariladi. X.ch. induktiv, deduktiv va analogik turlarga ajratiladi.

**Xolerik** — temperament turi bo‘lib, hissiyot jo‘shqinligi, kayfiyatning tezda o‘zgarishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ajralib turishi xosdir.

**Shaxs** — ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi betakror odam.

**Shaxs ijtimoiylashuvi** — inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot-faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayonidir.

**Shaxslararo munosabat** — muloqot jarayonidagi o‘zaro ta‘sir etish natijasida ro‘y beradigan ijtimoiy-psixologik hodisalar.

**Shakllanganlik** — odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo‘lishi bilan bog‘liq psixologik jarayon.

**Emosiya** — odam va hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki va tashqi qo‘zg‘oluvchilar ta‘siriga javob reaksiyasi.

**Ekstrovert shaxs** — shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o‘z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi.

**Empatiya** — boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati.

**O‘qish** — shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

**Qobiliyat** — shaxsning ma‘lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta‘minlaydigan individual psixologik xususiyati.

**Qiziqish** — shaxsning o‘zi uchun qimmatli va yoqimli narsa yoki hodisalarga munosabati.

---

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild. T., „O‘zbekiston“, 1999.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T., „O‘zbekiston“, 2005.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. - T., „O‘zbekiston“, 1998. 15-89-b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — engilmas kuch. T., „Ma’naviyat“, 2008. 176- b.
5. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi — xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. „Fidokor“ gazetasi, 2000 yil, 8 iyun.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., „O‘zbekiston“, 1997. 23-24-b.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-T. T., „O‘zbekiston“, 1996.
8. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. 5-T. T., „O‘zbekiston“, 1997.
9. Abilov O‘. Milliy g‘oya: ma’naviy omillar. T., „Ma’naviyat“, 1999.
10. Adler A. Ponyat prirodu cheloveka. SPb., Akademicheskij projekt, 1997.
11. Akramova F.A. Insoniy munosabatlar psixologiyasi. T., „Shams-A“, 2005. 68- b.
12. Allaxverdov V.M., Bogdanova S.I. i dr. Psixologiya: Uchebnik. 2-e izd. / Otv. red. Krilov A.A. Pererab. i dop. M., TK. Velbi, Prospekt, 2004 . 752- s.
13. Andreeva T.V. Sosialnaya psixologiya semeynix otnosheniy. SPb., 1998.
14. Argayl M. Psixologiya schastya. M., 1990. 154- s.
15. Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-T, T., 1957.
16. BMTning Inson huquqlari deklaratsiyasi //”Inson huquqlari: o‘quv qo‘llanmasi“. T., „Adolat“, 1998.
17. Bolotova A.K. Prikladnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov / A.K. Bolotova. M., „Gardariki“, 2006.

18. Borozdina G.V. Psixologiya delovogo obshcheniya: Uchebnik. 2-e izd. M., „INFRA-M“, 2006. - 295 s.
19. Chaldini R. Psixologiya vliyaniya. SPb., „Piter“, 2004. - 286 s.
20. Ekonomicheskaya psixologiya. Sosiokulturniy podxod / Pod red.prof. I.V.Andreevoy. SPb., „Piter“, 2000.
21. Erikson E. Detstvo i obshchestvo. SPb., 1996.
22. Forobiy A.N. Falsafiy savollar va ularga javoblar / Xayrullayev M.M. 23. Forobiy va uning falsafiy risolalari. T., 1963. 281- b.
24. G‘oziyev E.G‘. Oliy maktab psixologiyasi. T., 1997. 33-b.
25. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. T., 1994.
26. Gamezo M.V, Domashenko I.A. „Atlas po psixologii“ M., 1986.
27. Godfrua J. Chto takoye psixologiya. T. 1. Gl.5. M., 1992.
28. Grishina N.V. Psixologiya konflikta. SPb., „Piter“, 2000. 464 s.
29. Hayitov O.E. Psixologik iqtisod: O‘quv qo‘llanma /Professor V.M.Karimova tahriri ostida. T., TDIU, 2006. 130- b.
30. Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma‘ruzalar matni. T., TDIU, 2005. 338- b.
31. Ibn Sino. Falsafiy qissalar. T., „O‘qituvchi“, 1963. 48-b.
32. Karimova V., Berdiyev G. Murosa qilish odobi yoki konfliktlarni bartaraf etish mumkinmi? T., O‘zPFITI, 2003. 44-b.
33. Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnologiyasi. T., 2000.
34. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T., 1994.
35. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma. T., „Universitet“, 1999. 96- b.
36. Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. T., A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, „O‘AJBNT“ markazi, 2002. 205- b.
37. Karimova V.M., Akramova F.A. „Psixologiya“ 1-qism. Ma‘ruzalar matni. T., TDIU, 2005. 208- b.
38. Karimova V.M., Akramova F.A. „Psixologiya“. 2-qism. Ma‘ruzalar matni. T., TDIU, 2005. 125- b.
39. Karimova V.M., Akramova F.A. Iqtisodiy psixologiya. Ma‘ruzalar matni. T., TDIU „Talaba“, 2005.
40. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash: (Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma). T., „Sharq“, 2000. 112- b.
41. Klimov E.A. Osnovi psixologii: Uchebnik. M., 1997.
42. Kvinn V. Prikladnaya psixologiya. SPb: Izdatelstvo „Piter“, 2000.

43. Lazarus R.S. Neopredelennost i odnoznachnost v proyektivnix metodikax. // Proyektivnaya psixologiya / Per. s angl. M., Aprel Press, Izd-vo „EKSMO-Press“, 2000. 412- s.
44. Mashkov V.N. Psixologiya ekonomiki. SPb.: Izd-vo, Mixaylova V.A., 2001.
45. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi: O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir: A.Xolbekov. T., DJQA „Rahbar“ markazi; „YUNAKS-PRINT“ MChJ, 2006. 230- b.
46. Mayers D. Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. -SPb., „Piter“, 1999. 688- s.
47. Merlin V.S. Struktura lichnosti. Xarakter, sposobnosti, samosoznaniye. Perm, 1990.
48. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., „O'zbekiston“, 2001.
49. Nemov R.S. Psixologiya. Uchebnik dlya studentov visshch. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-x t. M., Gumanit. izd. sentr „VLADOS“, 2003. 576-s.
50. Prikladnaya sosialnaya psixologiya / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha. M., Izd-vo „Institut prakticheskoy psixologii“; Voronej: Izd-vo NPO „MODEK“, 1998. 688- s.
51. Platonov Yu.P. Psixologicheskoye tipologii: Posobiye dlya menedjerov i prakticheskix psixologov. M., Izd-vo. Rech. 2005. 512- s.
52. Psixodiagnostika i proforiyentasiya v obrazovatelnix uchrejdeniyax / Red. sost. L.D. Stolyarenko. Rostov n/D: „Feniks“, 2005. - 416 s.
53. Psixogigiya detey i podrostkov. M.: 1985. 17-34.
54. Psixologiya. Uchebnik . Otv. red. prof. A.A.Krilov. - 2-e izd., pererab. i dop. M., Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. 752 s.
55. Psixologiya. Uchebnik dlya ekonomicheskix vuzov / Pod obsh. red. V.N.Drujinina. SPb., Piter, 2002. 672 s.
56. Ramendik D.M. Upravlencheskaya psixologiya: Uchebnik. M., FORUM: INFRA-M, 2006. 256 s.
57. Roik V.D. Professionalniy risk: osenka i upravleniye. M., „Ankil“, 2004.
58. Semenov A.K., Maslova E.L. Psixologiya i etika menedjmenta i biznesa: Uchebnoye posobiye. 4-e izd., ispr. i dop. M., Izdatel'sko-torgovaya korporasiya „Dashkov i K?“, 2006.
59. Shcherbakova Yu.V. Spetsialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye. M., Izdatel'stvo „RIOR“, 2006. 80 s.
60. Slovar prakticheskogo psixologa // Sost. S.Yu.Golovin. Minsk. Xarvest, M., OOO „Izdatel'stvo AST“, 2003. 800 s.
61. Sosialnaya psixologiya ekonomicheskogo povedeniya. M., Nauka, 1999.

62. *Sosialnaya psixologiya lichnosti v voprosax i otvetax: Ucheb. posobiye / Pod red. prof. V.A. Labunskoy. M., Gardarika, 1999. 397 s.*
63. *Stepanova E.I. Psixologiya vzroslix — osnova akmeologii. SPb., 1995.*
64. *Tixomirov O.K. Psixologiya: Uchebник / Pod red. O.V. Gordeevoy. M., Visshchee obrazovaniye, 2006. 538 s.*
65. *Tumasova S.A., Shamxalova S.Sh. Psixologiya: Uchebnoye posobiye. M., Izd-vo „RIOR“, 2006. 120 s.*
66. *Usmanova E.Z. O‘quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday qilib rivojlantirish mumkin. T., „O‘zbekiston“, 2000. 23- b.*
67. *Vafoqulova U. Sog‘lom oila — sog‘lom avlod poydevori. T., „Ibn Sino“ nashriyoti, 2001.*
68. *Vasila Karimova. Salomatlik psixologiyasi: yohud sog‘lom bo‘lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari. T., „Yangi asr avlodi“, 2005. 71- b.*
69. *Xekxauzen X. Psixologiya motivasii dostijeniya / Per. s angl. SPb., Rech, 2001. 240 s.*
70. *Xell L., Zigler D. Teorii lichnosti. 3-e izd. SPb., „Piter“, 2004. 607 s.*

---

---

## MUNDARIJA

Kirish soʻzi oʻrnida .....	3
<b>1- BOB. Inson faoliyatida psixologik bilimlarning oʻrni</b> .....	6
1.1. Psixologik bilimlarning insoniyat hayotida tutgan oʻrni.....	6
1.2. Amaliy psixologiyaning asosiy yoʻnalishlari .....	9
1.3. Psixologiyaning tarmoqlari .....	12
1.4. Psixologiya va texnik taraqqiyot .....	18
1.5. Psixologiyaning asosiy metodlari va pedagogik faoliyatda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan psixologik metodikalar .....	19
<b>2- BOB. Pedagogik faoliyat va taʼlim-tarbiya psixologiyasi</b> .....	24
2.1. Oʻquv faoliyatining psixologik mohiyati .....	24
2.2. Pedagogik jamoadagi psixologik muhitning asosiy xususiyatlari .....	31
2.3. Pedagogik jamoadagi oʻzaro munosabatlar psixologiyasi .....	31
2.4. Pedagogik jarayondagi nizolar va uning oldini olishning psixologik masalalari .....	33
2.5. Taʼlim-tarbiya psixologiyasi. Tarbiyaning maqsadi, vazifalari va usullari .....	36
2.6. Bilimlarni oʻzlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari .....	51
2.7. Taʼlim olayotgan shaxsga psixologik-pedagogik taʼsir etish .....	55
2.8. Taʼlim-tarbiya va rivojlanish oʻrtasidagi oʻzaro munosabat muammosi .....	57
2.9. „Tarbiyasi qiyin“ bolalar psixologiyasi .....	61
2.10. Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari .....	63
<b>3- BOB. Pedagog shaxsi psixologiyasi</b> .....	66
3.1. Pedagog shaxsi haqida Sharq mutafakkirlarining qarashlari .....	66
3.2. Pedagog shaxsiga qoʻyiladigan psixologik-pedagogik talablar va unga oid zarur xislatlar .....	68
3.3. Pedagogik professiogramma .....	71
3.4. Pedagogik qobiliyatlar .....	74
3.5. Pedagogik takt psixologiyasi .....	80
3.6. Pedagogning psixologik jihatdan oʻz malakasini oshirishni tashkil etishi .....	82

<b>4- BOB. Pedagogik baholash psixologiyasi .....</b>	<b>85</b>
4.1. O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda rag'batlantirishning psixologik asoslari .....	85
4.2. Pedagogik faoliyatda rag'batlantirish va jazolash usullari .....	86
4.3. O'quvchining o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik baholash .....	89
4.4. Baholashda ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlash .....	92
4.5. Pedagogik bahoning effektivligi va ijtimoiy xarakteri .....	96
<b>5- BOB. Interfaol ta'lim metodlarining psixologik asoslari .....</b>	<b>99</b>
5.1. Interfaol ta'lim metodlari va ularni samarali amalga oshirishdagi pedagogik-psixologik talablar .....	99
5.2. O'qituvchini auditoriya bilan ishlashining ijtimoiy-psixologik shartlari .....	102
5.3. Faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etish .....	103
5.4. Interfaol ta'lim usullaridan namunalar .....	106
5.5. Bumerang texnologiyasini o'tkazish bosqichlari .....	131
5.6. Muloqot treningi .....	136
5.7. FSMU texnologiyasi .....	137
<b>6- BOB. Oliy ta'lim psixologiyasi .....</b>	<b>146</b>
6.1. Oliy ta'lim psixologiyasi .....	146
6.2. Oliy ta'limning bosh mezoni va uning amaliy ahamiyati .....	149
6.3. Talabalarining psixologik xususiyatlari .....	152
6.4. Oliy ta'limda etnopsixologik xususiyatlarni hisobga olish, ta'lim samaradorligi omili sifatida .....	155
6.5. Oliy ta'limda ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini tashkil etish .....	162
<b>7- BOB. Shaxs insoniy munosabatlar sistemasida. Muomala va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi .....</b>	<b>169</b>
7.1. Psixologiyada shaxs muammosining o'rganilishi .....	169
7.2. Shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida .....	173
7.3. Shaxs xulq-atvori normalari va sanksiyalar .....	175
7.4. Shaxs ijtimoiylashuvining asosiy mezonlari .....	176
7.5. Shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotipik omillar .....	179
7.6. Insoniy munosabatlar psixologiyasi .....	181
7.7. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni .....	186
7.8. Insoniy muomalaning psixologik asoslari .....	188
7.9. Muloqot va uni o'rganish muammolari .....	192
<b>8- BOB. Mehnat faoliyati psixologiyasi .....</b>	<b>198</b>
8.1. Mehnat psixologiyasi .....	198
8.2. Mehnat, kasb, mutaxassislik .....	199
8.3. Mehnatning psixologik mazmuni .....	201

8.4. Mehnat faoliyatini o'rganish metodlari .....	202
8.5. Professiografiya metodi .....	203
8.6. Kasblar klassifikatsiyasi .....	204
8.7. Mehnat egasining shakllanishi .....	205
8.8. Shaxsning mehnat faoliyati va mehnat turlari .....	206
<b>9- BOB. Boshqaruv psixologiyasi asoslari va pedagogik jamoalarni boshqarish .....</b>	<b>210</b>
9.1. Boshqaruv psixologiyasi, boshqaruvda inson omili bosh tayanch sifatida .....	210
9.2. Guruhlarda rahbarlik va liderlik .....	213
9.3. Liderlik va superliderlik .....	215
9.4. Boshqaruv uslublari .....	216
9.5. Rahbar va xodimlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar psixologiyasi .....	223
9.6. Rahbarning muhim shaxsiy-kasbiy sifatlari .....	230
9.7. O'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarish .....	239
9.8. O'quvchilar guruhida o'zaro munosabatlarni boshqarish .....	242
<b>10- BOB. Ijtimoiy jarayonlar: oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi .....</b>	<b>246</b>
10.1. Oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi .....	246
10.2. Oilada sog'lom muhit psixologiyasi .....	252
10.3. Yoshlik faslining o'ziga xos odobi va psixologiyasi .....	253
10.4. Oilada bolalar tarbiyasi .....	254
10.5. Oilaviy munosabatlar odobi va psixologiyasi .....	255
GLOSSARIY .....	258
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	265



88  
U-47

**Umarov B.M.**

**Psixologiya:** darslik/ B.M.Umarov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. — Toshkent: Voris-nashriyoti, 2012. —272 b.

УДК 159.9(075)  
КБК 88ya73 722

**UMAROV BAXRIDDIN MENGBOEVICH**

## **PSIXOLOGIYA**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun darslik sifatida tavsifa etilgan*

*„Voris-nashriyot“  
Toshkent — 2012*

**Muharrir M. Xolbekova**  
**Badiiy muharrir Sh. Xodjayev**  
**Texnik muharrir N. Akromova**  
**Kompyuter sahifalovchi N. Ahmedova**

Nashriyot litsenziyasi AIN№ 195 28.08.2011. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 05.09.2012. Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Kegli 11 shponli. Tayms garn. Ofset bosma usulida bosildi. Bosma t. 17,0. 500 nusxada bosildi. Buyurtma № 512

„Voris-nashriyot“, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

„Niso-Poligraf“ ShK bosmaxonasida bosildi.  
100182, Toshkent sh., H. Bayqaro ko'chasi, 41.